

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

R. Mavlonova, N. Raxmonqulova,  
N. Voxidova, K. Matnazarova

**PEDAGOGIKA**  
**(UMUMIY PEDAGOGIKA NAZARIYASI VA**  
**AMALIYOTI)**

**DARSLIK**

**Ta'limiy yo'nalishi: 5111700**

**Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish**

O'zbekiston Respublikasi oliy va o'рта maxsus ta'lim vazirligining 2012 - yil 26 dekabrdaqi "507"- sonli buyrug'i asosida 5111700- Boshlang'ich ta'lim va sport tarbiyaviy ish yo'nalishining talabalari (o'quvchilari) uchun darslik sifatida nashrga tavsiya etilgan.

**Toshkent – 2013**

## ANNOTATSIYA

Mazkur darslik “Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti” fanining “Umumiy pedagogika”, “Didaktika”, “Tarbiya nazariyasi”, “Maktabshunoslik”, “Pedagogika tarixi”, “Pedagogik mahorat” bo`limlarini o`z ichiga olgan.

Darslik mustaqillik mafkurasi g`oyalari asosida bayon etilgan bo`lib, pedagogika oliy o`quv yurtlarining “Boshlang`ich ta`lim”, “Defektologiya” fakul`tetlari talabalari, pedagogik kollej va litsey o`quvchilariga mo`ljallangan.

## АННОТАЦИЯ

Данный учебник предмета «Теория и практика общей педагогики» содержит такие разделы как, «Общая педагогика», «Дидактика», «Теория воспитания», «Школоведение», «История педагогики» и «Педагогическое мастерство».

В учебнике изложено основные понятия идей независимости, и предназначен студентам педагогических ВУЗов факультета «Дефектология», «Начальное образование», ученикам педагогических лицеев и колледжей.

## ANNOTATION

This textbook from subject of “Theory and Practice of General Pedagogy” contains sections such as “General Pedagogy”, “Curriculum”, “Theory of Education”, “School management”, “History of Education” and “Pedagogical skills”.

The textbook presents the basic concepts of the ideas of independence, and is intended for students of pedagogical universities faculty such as “Defectology”, “Primary education”, for students of pedagogical high schools and colleges.

Darslikning I-II qismlari R.Mavlonova, IV qismi N.Raxmonqulova, III-IV qismlari N.Vohidova, VI qismi K.Matnazarovalar tomonidan tayyorlangan.

**Taqrizchilar:** p.f.d. prof. U. Mahkamov  
p.f.n. dots. G. Sultonova

## KIRISH

Respublikamiz mustaqillik yillarida ta'lim tarbiya tizimini tubdan isloh qilish maqsadida "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi "Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi"ning yaratilishi va amaliyotga tatbiq etilishi xalq ta'limi sohasida ham buyuk burilishlar yasadi. Milliy pedagogikamizning jadal sur'atlarda taraqqiy etishi, ta'lim tarbiya jarayonida Al Buxoriy, At Termiziy, Abu Rayhon Beruniy, Az Zamaxshariy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ogahiy, Abdulla Avloniy singari ulug' olimu adiblar, fozilu fuzalolarning merosidan foydalanish imkoniyati yaratildi. Ular ta'limdagi milliy xususiyatlarga alohida e'tibor berishgan. Mustaqillik yillariga qadar ularning pando'g'itlari yetarli darajada o'rganilmadi. Tarixdan ma'lumki, bir vaqtlar sharq pedagogikasi nihoyatida gullabyashnagan. Olmon olimi Xerler "Sharq Yevropaning muallimidir" deganida ana shu rivojlanish davrlarini ko'zda tutgandir, ehtimol.

Bobokalonlarimiz yosh avlod tarbiyasi borasida dorilfunun yaratib qoldirganlar. Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi sanalmish "Avesto" dan tortib to hozirgi kunda yashab ijod etayotgan pedagogolimlar asarlarida pedagogik mafkura o'z aksini topgani bejiz emas. Bugungi kun o'zbek pedagogikasi millat ruhiyatidagi nozik jihatlarni hisobga olgan va dunyo tarbiyashunosligidagi eng so'nggi yutuqlarga tayangan holda taraqqiy etmoqda. Zamonaviy o'zbek pedagogikasida barkamol shaxsni shakllantirish rasmiy ravishda bosh maqsad qilib belgilangan. Ushbu "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti" fanidan tayyorlangan darslikda pedagogika fani, ilmiy tadqiqot metodlari, didaktika ta'lim nazariyasi, tarbiya nazariyasi, maktabshunoslik, pedagogika tarixi va pedagogik mahorat bo'limlarini yoritadi. Bugungi kunda esa ana shu jarayon avj pallasiga kirdi. Inson ongi taraqqiy etmas ekan, ijtimoiy hayot jabhalarida hech bir o'zgarish sezilmaydi. Modomiki, zamon jadal sur'atlarda o'zgarayapdimi, demak, pedagogika ham shu o'zgarishlarga hamohang bo'lmog'i darkor. Shularni nazarda tutgan holda biz ushbu darslikni sharq mutafakkirlari asarlaridan unumli foydalangan holda yaratdik.

# I QISM

## I BOB. UMUMIY PEDAGOGIKA

### **Pedagogika fanining predmeti va bahsi**

Pedagogika nima?. U nima bilan shug'ullanadi?. Nimalarni tadqiq qiladi, degan savollar pedagogika fanini o'rganishga kirishgan insonning aqlini band etadi. Pedagogikaga oid darsliklarda, pedagogikaning bahs tushunchasi turlicha, ayrim hollarda birbiridan farqlanadigan darajada talqin qilinadi. Masalan, pedagogika tarbiya haqidagi fan; pedagogika o'sib kelayotgan yosh avlodni tarbiyalash haqidagi fan; pedagogika umuman insonni tarbiyalash haqidagi fan va hokazo.

Bu ta'riflardan voz kechmagan holda ta'lim tarbiya muassasalarida shunga mutasaddi shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan tarbiyaviy faoliyatni pedagogikaning bahsi deb qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

Pedagogika tarbiya haqidagi fan sifatida tarbiyaning mohiyatini tushunishni, uning qonuniyatlarini ochib berishni va shu orqali inson manfaatlari uchun tarbiya jarayoniga ta'sir etishni nazarda tutadi.

### **Tarbiyaning ijtimoiy hodisa ekanligi**

Tarbiya kishilik jamiyati ibtidosida paydo bo'lgan va bashariyat manfaatlari uchun xizmat qilib kelgan. Tarbiya avlodlar o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi. Kattalar turmush jarayonida orttirgan tajribalarini o'zidan keyingi avlodga o'rgatib borganlar.

Kichik avlod esa o'z faoliyati davomida duch kelgan yangiyangi muammolarning yechimini topish barobarida bilim va ko'nikmalarni egallab, oldingi avloddan meros qolgan bilimlarni yanada boyitib, o'zidan keyingi avlodga qoldiradi. Insoniyat tarixiy taraqqiyot mobaynida turli ijtimoiy bosqichlarni bosib o'tdi.

Ijtimoiy iqtisodning o'zgarishi natijasida ish va ishlab chiqarish munosabatlari taraqqiy etdi. Bu hol tarbiya jarayonining takomillashib borishiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Jamiyat taraqqiyoti, mehnat qurollarining takomillashishi natijasida keyingi avlodga meros qoldiriladigan tajribalar hajmi ham o'sib

boraveradi.

Agar ibtidoiy jamoa tuzumi boshlarida bolalar kattalarning mehnati jarayonida bevosita ishtirok etish bilan malaka, ko'nikma va bilimlarni egallab borgan bo'lsalar, keyinchalik ibtidoiy ijtimoiy iqtisodning tabaqalanishi natijasida mehnat turlari ham o'zgarib bordi.

Ayrim bolalarni (qabila boshliqlarining, diniy marosimlarni boshqaradigan shaxslarning bolalarini) diniy marosimlarni ado etishga o'rgatish zaruriyati tug'ildi. Shunday qilib, ibtidoiy jamoa tuzumidayoq bolalarni tabaqalashtirish an'anasi paydo bo'ldi.

Quldorlik davriga kelib, bu an'ana ko'zga yaqqol tashlandi. Masalan, qullarning bolalari og'ir ishlarni bajarishga o'rgatildi. Quldorlarning bolalari esa qullar ustidan hukmronlik qilishga tayyorlandi. Shu bois ularga saboq berish zaruriyati tug'ildi.

Bu esa o'qitishga maxsus, shu sohani biladigan odamlarni jalb etishni taqozo qiladi. Bu hol maktab va o'qituvchilarga bo'lgan zaruratni keltirib chiqardi. Ijtimoiy iqtisodning keyingi ravnaqi maktablarni rivojlantirishga, jamiyat taraqqiyoti talabiga javob beradigan yangiyangi o'quv yurtlarining barpo etilishiga olib keldi.

### **Pedagogika tarbiya haqidagi fan**

Pedagogikaning fan sifatida shakllanishi yosh avlodni hayotga tayyorlash, ular tarbiyasini samarali amalga oshirish ehtiyojidan kelib chiqadi. Bu ehtiyoj borasida orttirilgan tajribalar to'plangandan keyin o'sha tajribalarni umumlashtirish, yoshlar tarbiyasi haqida qonunqoidalarni ishlab chiqish zaruratini taqozo etadi.

Pedagogikaning nazariy kurtaklari falsafa negizida paydo bo'ldi. Ba'zi falsafiy fikrlar quldorlik jamiyatidayoq rivojlana boshlagan edi.

Qadimdan inson tarbiyasiga oid fikrlar xalq maqollarida, afsonalarda, dostonlarda o'z ifodasini topgan. Ularda rostgo'ylik, ota-onaga hurmat, ehtirom kabi fazilatlar tarannum etilgan. "Alpomish". "To'maris" kabi doston va ertaklarda vatanparvarlik, insonparvarlik tuyg'ulari ulug'lanadi. Ta'lim va tarbiya masalalari hamisha mutafakkir, yozuvchi, olimlar xayolini band qilib kelgan. Ular o'zlarining bola tabiati, ularni barkamol shahs qilib tarbiyalash haqidagi yorqin mulohazalari

bilan pedagogika fani ravnaqiga ulush qo'shganlar. Mashhur hind masali "Kalila va Dimna", Nizomulmulkning "Siyosatnoma", Nosir Xisravning "Saodatnoma", "Ro'shnoinoma". Yusuf xos Hojibning "Qutadg'u bilik". Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk", Ahmad Yugnakiy, Kaykovus, Alisher Navoiyning ko'pgina asarlari odob-axloqqa bevosita daxldordir. Bu allomalarning asarlari pedagogik fikrlarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu asarlarda insonparvarlik, halol mehnat, do'stlik, chin muhabbat, sadoqat kabi yuksak axloqiy fazilatlar o'z aksini topgan. Suqrot, Aflotun, Demokrit kabi buyuk faylasuflar tomonidan murakkab falsafa tizimi yaratilgan.

Pedagogikaning fan sifatida shakllanishida chex pedagog olimi Yan Amos Komenskiyning hissasi katta bo'ldi. Uning "Buyuk didaktika" asari haqli ravishda pedagogika sohasida yaratilgan birinchi ilmiy asar hisoblanadi.

XVIII asrga kelib O'rta Osiyoda ham pedagogik fikrlar taraqqiy eta boshladi. XIX asr boshlarida Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Saidrasul Aziziy, Saidahmad Siddiqiy kabi ma'rifat jonkuyarlari yetishib chiqdi. Bu olimlar yangi usuldagi maktablar tuzish, darsliklar yaratish, xalq o'rtasida ma'rifatni targ'ib etishda jonkuyarlik qildilar.

Pedagogika fanining mazmunini boyitib va rivojlantirib boradigan qator manbalar mavjud. Ayniqsa, maqollar, ertaklar, dostonlar, ashulalar, udumlar va topishmoqlarda tarbiya haqidagi xalq donishmandligi qamrab olingan.

Allomalarning pedagogika nazariyasiga oid fikrlaridan fanda unumli foydalanilmoqda. Shu bilan birga, pedagogika fani yangi g'oyalar evaziga boyimoqda.

### **Asosiy pedagogik tushunchalar**

Pedagogikada "tarbiya" so'zi turli ma'noda ishlatiladi. Chunonchi, tarbiya keng ma'noda, ijtimoiy hodisa sifatida qo'llanilganda jamiyatning barcha tarbiyaviy vositalarini: oilani, maktabgacha tarbiya muassasalarini, o'quvtarbiya muassasalarini, mehnat jamoalari, axborot manbalarining tarbiya yo'nalishida olib boradigan harakatlarini o'z ichiga oladi. Bu tarbiya vositalari o'sib kelayotgan yosh avlodning har tomonlama kamol topishiga xizmat qiladi.

Pedagogik adabiyotlarda va amaliyotda “tarbiya” soʻzi aniq, tor yoʻnalishni belgilash uchun ham ishlatiladi. Xuddi shu maʼnoda tarbiyachi rahbarligida aniq maqsadga qaratilgan jarayon tushuniladi.

*Oʻqitish* – oʻqituvchi va oʻquvchining birgalikdagi faoliyati va bu jarayonda bolalarning maʼlumot olishi, oʻquv koʻnikma va malakasini egallashi, tarbiyalanib, rivojlanib borishi nazarda tutiladi.

*Maʼlumot* – bunda nafaqat oʻqitish, balki mustaqil bilim olish, ommaviy axborotlar taʼsirida boʻlish bilan birga, insonning ilmiy tizimni egallashi, ilmiy dunyoqarashini shakllantirishi koʻzda tutiladi.

*Inson kamoloti* – bu insonning keng maʼnoda ichki va tashqi omillar taʼsirida shakllanish jarayonidir. Bu jarayonda tarbiyaning muhim ahamiyat kasb etishi taʼkidlanadi.

*Insonning shakllanishi* – bu insonning hayot yoʻli davomida rivojlanishining oʻziga xos shakli boʻlib, maxsus olib boriladigan tarbiyaviy taʼsir natijasi hisoblanadi.

### **Pedagogika fanining tuzilishi va uning boshqa fanlar bilan bogʻliqligi**

Fan va texnikaning tez surʼatlar bilan rivojlanishi, turli yoʻnalishlarda bilim hajmining oʻsib borishi fanning tabaqalanib, turli tarmoqlarga boʻlinishiga sabab boʻlmoqda. Yaqin oʻtmishda falsafadan ajralib chiqqan pedagogika fanida ham koʻpgina tarmoqlarga boʻlinish jarayoni koʻzga yaqqol tashlanadi. Ayrim tarmoqlar esa mustaqil fan sifatida shakllanadi.

Masalan, maktab pedagogikasi, maktabgacha tarbiya pedagogikasi. Ayrimlari esa fan sifatida endi shakllanib kelmoqda. Kattalar pedagogikasi, oliy maktab pedagogikasi shular jumlasidandir. Hozirgi zamon pedagogikasi koʻp tarmoqli fan boʻlib, avvalo tarbiya ijtimoiy hodisa ekanligi jihatidan pedagogika tarixi bilan bogʻlanadi.

Pedagogikaning koʻzi oʻjiz, aqli zaif, qulogʻi kar, jismoniy kamchiliklarga ega boʻlgan bolalarni tarbiyalash va ularni hayotga tayyorlash bilan shugʻullanadigan yana bir tarmogʻi maxsus pedagogika (surdopedagogika, tiflopedagogika,

oligofrenopedagogika) defektologiya bilan chambarchas bog'liqdir.

Pedagogika fani tarmoqlariga predmetlarni o'qitishning qonuniyatlarini o'rganuvchi fan metodika ham kiradi. Shu bilan birga, pedagogika fani boshqa fanlardan ajralgan holda rivojlana olmaydi.

Pedagogikaning tarbiya sohasidagi ob'yekti o'sib kelayotgan yosh avlod bo'lganligi uchun pedagogika insonni o'rganuvchi fanlar bilan bog'liqdir. Inson tabiatdagi rivojlanishning mahsuli sifatida biologiya fanini o'rganadigan ob'yekt hisoblanadi. Shuning uchun bu fan pedagoglar o'rganishi lozim bo'lgan fanlar qatorida o'quv rejaralariga kiritilgan. Pedagogika fanining metodologik asosini falsafa tashkil etadi. Chunki tarbiyaning maqsadi ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi, jamoa va shaxs muammolarini o'zida birlashtiradi. Bundan tashqari pedagogika iqtisod fani bilan ham bo'liq bo'lib, iqtisodchilarning olib borgan tadqiqotlari natijasiga ko'ra, ishlab chiqarishning yuksak samaradorligi umumiy ta'limning yuqori darajada rivojlanganligidan dalolat beradi.

Pedagogika bola tarbiyasida uning yosh va individual (psixologik) xususiyatlarini hisobga olib boradi. Shu bois pedagogika uchun pedagogik psixologiyaning bola xususiyatlari, ularda o'tadigan psixik jarayonlarning qonuniyatlari haqidagi ma'lumotlar muhimdir. Shunga ko'ra, pedagogikaning psixologiya fani bilan bog'liqligi an'anaviy tus olgan. Keyingi vaqtlarda pedagogikaning kibernetika (muhim dinamik tizimlarni boshqarishni o'rganadigan fan) bilan bog'lanishi ko'zga tashlanmoqda. Bu holni kibernetikaning umumiy g'oyalaridan ta'limda foydalanish tajribalarini dasturlashtirilgan ta'lim misolida ko'rish mumkin. Pedagogika fani taraqqiyoti pedagogika fanlari tizimini vujudga keltirdi, bular: Umumiy pedagogika, Maxsus pedagogika, Metodika, Pedagogika tarixi, Oliy ta'lim pedagogikasi, Qiyosiy pedagogika, Ijtimoiy pedagogika, Harbiy pedagogika.

Pedagogikaning boshqa fanlar bilan bog'lanish tizimida etnografiya, xalq pedagogikasi kabilar alohida o'rin tutadi. Pedagogika boshqa fanlar ma'lumotlaridan tayyor holda foydalanmaydi. Bu ma'lumotlar pedagogik nuqtayi nazardan tanlovdan o'tgandan keyin maqsadga muvofiq lashtirilgan holda amalda



joriy etiladi.

### **Pedagogikaning ilmiytadqiqot metodi**

Pedagogika o`z tadqiqot ob`yektiga va tadqiqot metodlariga ega. Ilmiy tadqiqot metodi pedagogika fanini takomillashib borishiga, ayrim pedagogik hodisalarni tekshirishga, ularni to`g`ri hal etish yo`llarini aniqlashga yordam beradi. Hodisa uning taraqqiyoti davomida boshqa hodisalar bilan bog`liqholda o`rganiladi. Miqdor o`zgarishi sifat o`zgarishiga o`tish daqiqalarida kuzatiladi.

### **Adabiyotlar bilan ishlash metodi**

Pedagogik muammolarni tadqiq etish adabiyotlarni o`rganishdan boshlanadi. O`rganiladigan hujjatlar va manbalarga xalq maorifiga aloqador hujjatlar kiradi. Shu bilan birga, pedagogika faniga oid bo`lgan tarixiy pedagogik adabiyotlar, arxiv hujjatlari, pedagogik matbuot materiallari, darsliklar, o`quvmetodik ishlanmalar ham kiradi. Adabiyotlarni o`rganish metodi muammolarning qaysi jihatlari yaxshi yoritilganligini va qaysi masalalar hal etilmagani bilish imkoniyatini beradi. Adabiy manbalar bilan ishlash quyidagi metodlardan foydalanishni nazarda tutadi: bibliografiya tuzish, annotatsiya, konspektlashtirish. Ishning maqsadidan kelib chiqqan holda yuqoridagi usullardan biri tanlab olinadi.

Bibliografiya –bu hal etilishi lozim bo`lgan muammoni tadqiq etish jarayonida zarur bo`lgan adabiyotlar ro`yxati. Adabiy manbalar bilan ishlash aniq ma`lumotlarni bibliografiyada tuzish yo`li bilan rasmiylashtirishni talab etadi. Bunda ma`lumotlar muallifning ismsharifi, asarning nomi, nashriyoti nomi (maqolalar uchun jurnal va gazetalarning nomi). manzili va nashr etilgan yili ko`rsatiladi.

### **Ilg`or tajribalarni o`rganish metodi**

Pedagogikaning ta`lim tarbiya sohasida orttirilgan ko`pgina muammolarini hal etishda ilg`or tajribalarni o`rganish muhim ahamiyatga ega. Ilg`or o`qituvchilar tajribasi bilan bir qatorda, oddiy o`qituvchilarning faoliyatlari ham o`rganib boriladi. Chunki tajribalarni o`rganish jarayonida muammo, yutuq va kamchiliklar aniqlanadi. Pedagogik tajribalarni o`rganishda kuzatish, intervyu olish, anketalar

tarqatish, o'quvchilarning yozma va ijodiy ishlari, pedagogik hujjatlarni o'rganish metodlaridan foydalaniladi.

*Kuzatish*—o'rganish lozim bo'lgan pedagogik hodisani ma'lum maqsad nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda kuzatuvchi kuzatish bayonnomasini olib boradi. Kuzatish ob'yektiga oid bo'lgan aniq material tayyorlanadi. Kuzatish belgilangan aniq reja asosida olib boriladi.

*Suhbat* —ma'lumotlar to'plash yoki kuzatish davomida to'plangan materiallarga aniqlik kiritish maqsadida olib boriladi. Suhbat tadqiqotning mustaqil yoki yordamchi metodi sifatida qo'llaniladi.

*Anketalar tarqatish.* Bu ommaviy ravishda material to'plash maqsadida anketalar tarqatish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Tadqiqot uchun muhim bo'lmagan materiallar o'quvchilarning yozma va bir qancha fanlar bo'yicha berilgan mustaqil ishlarni bajarganligini tekshirish va o'rganib chiqish orqali amalga oshirish mumkin.

*Maktab hujjatlarini o'rganish*—o'quvchilarning kasbiy varaqalari, metodistning to'plagan ma'lumotlari, sinf jurnallari, kundaliklar, yig'ilish va majlislar bayonnomalari tadqiqoti uchun olib borilayotgan ta'lim tarbiyaning ahvoli, darajasi haqida ob'yektiv axborot manbayi hisoblanadi.

Pedagogik hodisalarni tadqiq qilish jarayonida eksperiment (sinov) muhim ahamiyat kasb etadi. Maxsus tashkil etilgan eksperiment qo'llanilayotgan yoki qo'llanishi mumkin bo'lgan u yoki bu metod va usullar samaradorligini aniqlash maqsadida amalga oshiriladi.

*Matematik metod.* Bu metod ommaviy materiallarni taxlil qilishda (masalan, anketalar tarqatish yo'li bilan to'plangan materiallarni yoki ma'lumotlarni umumlashtirish uchun) qo'llaniladi. U eksperiment natijalarining aniq baholanishini, xulosalarning ishonchli bo'lishini ta'minlaydi.

*Tadqiqot natijalari va ularni amalda tatbiq etish.* Pedagogikada bu jarayon turli yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin. Chunonchi, tadqiqotchilarning seminarlarda, ilmiy konferensiyalarda tadqiqot natijalari bo'yicha ma'ruzalar bilan chiqishi, ilmiy maqolalar, kitoblar nashr etilishi, o'qituvchiga mo'ljallangan

metodik tavsiyalar bo'lishi mumkin. Pedagogikada hali hal etilmagan muammolar juda ko'p. Bular ilmiy tadqiqot olib borish yo'li bilan hal etiladi.

#### **Savol va topshiriqlar.**

1. Pedagogika atamasi qanday ma'noni anglatadi?
2. Pedagogika fanining tuzilishi va uning boshqa fanlar bilan bog'liqligi.
3. Pedagogika fanining asosiy kategoriyalariga nimalar kiradi?
4. Hozirgi kun jamiyat rivojida pedagogikaning o'rni haqida fikr yuriting.

## II BOB. BOLA SHAXSINING RIVOJLANISHI, TARBIYASI VA KAMOLOTI

### Shaxs rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar.

Bola shaxsining rivojlanishiga irsiyat, muhit va tarbiya kabi omillar ta'sir etadi. Bola shaxsining rivojlanishiga naslning ta'siri deganda, ota-onalarga o'xshashlikni ifodalovchi biologik belgilarning takrorlanishini tushunmoq kerak. Har bir bola ota-onasidan meros shaklida ba'zi biologik sifatlarga (tananing tuzilishi, sochining, ko'zining, terisining rangi, bo'yi-basti va boshqalar) ega bo'lgan holda dunyoga keladi. Bular jismoniy xususiyatlardir. Oliy nerv faoliyatining xususiyatlari ham tug'ma o'tadi. Bu fiziologik xususiyat hisoblanadi.

Akademik I.P.Pavlov ta'limotiga ko'ra bola bir qator tug'ma xususiyat va instinktlarga ega holda tug'iladi va bular shartsiz reflekslar guruhini tashkil etadi. Bular orasida oshqozon refleksi (so'lak ajratish), muhofaza refleksi (issiqdan qo'lni tortish, yorug'dan ko'zini qisish) kabilar alohida ahamiyat kasb etadi.

Ammo bu xususiyatlar insonga ham, hayvonga ham taalluqlidir. Ayni vaqtda insonlarga xos bo'lgan xususiyatlar ham irsiyat yo'li bilan o'tadi. Masalan, tananing vertikal holdagi harakati, tafakkur va nutq rivojlanishi, mehnat qilish qobiliyati: bular tug'ma imkoniyatlar bo'lib, ularning rivojlanishi uchun inson bolasi odamlar orasida yashab, ular bilan aloqa qilishi darkor. Bu ruhiy imkoniyatlarning chindan ham rivojlanmog'i, ro'yobga chiqmog'i uchun bola faqat o'sibgina qolmay, balki shu o'sish jarayonida insonlar orasida yashamog'i, ulg'aymog'i va ijtimoiy hayotda ishtirok etmog'i kerak.

Chunki inson biologik mavjudot sifatida emas, balki ijtimoiy mavjudot sifatida rivojlanadi va kamolga yetadi. Bola nutqni egallashi uchun nutq sharoitida, mehnat qilish uchun mehnat sharoitida, aqliy taraqqiy etmog'i uchun aqliy faoliyat sharoitidayashamog'i kerak. Ana o'shanda bolaning nimaga, qanday sohaga layoqat'i borligi namoyon bo'ladi.

Fiziologiya va psixologiya fanining ko'rsatishicha, inson bolasi tayyor qobiliyat bilan emas, balki biror xil qobiliyatning ro'yobga chiqishi va rivojlanishiga ta'sir etadigan potensial imkoniyatlar, ya'ni shaxs xususiyatini

ifodalaydigan layoqat bilan tugʻiladi.

Tugʻma layoqat oʻz holicha rivojlana olmaydi, goʻyo u “mudroq” holatda boʻlib, uning uygʻonishi rivojlanishi uchun qulay muhit kerak. Agar bola oʻz layoqatiga mos sharoitda oʻsib, zarur faoliyat bilan shugʻullansa, layoqat erta koʻrinib, rivojlanishi, aks holda yoʻq boʻlib ketishi mumkin. Shuning uchun pedagogik layoqatning namoyon boʻlishi va qobiliyat sifatida rivojlanishi toʻla toʻkis hayot sharoitiga va tarbiyaga bogʻliq.

### **Inson kamoloti va shaxsning rivojlanishida muhitning roli**

Inson kamolotiga taʼsir etadigan omillardan biri tashqi muhitdir. Muhit deganda kishiga tabiiy taʼsir etadigan tashqi voqealar majmuyi tushuniladi. Bunga tabiiy muhit, ijtimoiy muhit, oila muhiti (mikromuhit) kiradi.

Tabiiy (geografik) muhit (iqlim, tabiiy sharoit) soʻzsiz insonning hayot tarziga, xarakteriga va mehnat faoliyatiga taʼsir etadi. Masalan, troʻpik mintaqada hayot kechirayotgan insonlarning hayot tarzi uzoq shimoldagi insonlar hayot tarzidan farqlanadi, bu ularning hayot tarziga va ularning rivojlanishiga taʼsir etadigan qator omillar bilan isbotlanadi. Shu bilan birga, inson kamolotida mikromuhit, oila sharoiti ham katta taʼsir kuchiga ega. Chunki bola koʻz ochib ota-orasini, qarindosh-urugʻini koʻradi. Uning intensiv jismoniy va psixologik rivojlanadigan davri oila taʼsirida shakllanadi. Xalqimizda “ Qush uyasida koʻrganini qiladi” degan maqol bekorga aytilmagan. Oilaning hayot tarzi, undagi bola tarbiyasiga ijobiy taʼsir etadigan tarbiyaviy muhit uning kamolotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bola kamolotida ijtimoiy muhit ham muhimdir. Chunki ishlab chiqarish munosabatlari va ularni tartibga solib turadigan ijtimoiy qonunqoidalar kishiga alohida taʼsir qiladi. Ijtimoiy aloqa, yaʼni insonlararo oʻzaro munosabat natijasida inson bolasi hayotga va mehnatga tayyorlanadi, kerakli tajriba va bilimlarni egallaydi. Inson kamolotiga ijtimoiy muhitning taʼsiri turli tarixiy davrda (formatsiyalarda) turlicha boʻladi, turli sotsial guruhlariga ham turlicha taʼsir etadi. Shunday ekan, hozirgi zamon pedagogika fani muhitga, uning inson rivojlanishidagi taʼsirining roliga alohida eʼtibor beradi. Muhit tushunchasiga kiradigan ijtimoiy

hayot voqealarining shaxsga ta'siri g'oyat muhim ekanligini ko'rsatadi va ijtimoiy muhit abadiy emas, o'zgaruvchan deb qaraydi. Shuning uchun muhit inson taqdirini belgilab beradigan omil deb hisoblanmaydi. Ammo uning ta'siri ham rad etilmaydi.

### **Shaxsning kamol topishida tarbiyaning o'rni**

Tarbiya muhit kabi inson kamolotiga ta'sir etuvchi tashqi omillardan hisoblanadi. Tarbiyaning xususiyati shundaki, u aniq maqsadni ko'zlab, insonda ijobiy fazilatlarni tarkib toptirish yo'lida tarbiyachi rahbarligida muntazam amalga oshirib boriladi.

Ammo tarbiya ta'sirining kuchi va uning natijasi irsiyat va muhit kabi omillarning hamkorligi bilan belgilanadi. Inson kamoloti irsiyat yo'li bilan orttirilgan va tabiiy layoqatlar bilan belgilanib qolmay, balki butun hayoti davrida uni qurshab olgan voqelik ta'sirida orttirgan xususiyat va sifatlar bilan ham belgilanadi. Shubhasiz, tarbiya odamning ko'zi, sochi, terisining rangiga, uning badani tuzilishiga ta'sir eta olmaydi, lekin jismoniy taraqqiyotga ta'sir etishi mumkin. Chunki maxsus tashkil etilgan jismoniy mashqlar orqali bolaning salomatligi mustahkamlanadi va chiniqtiriladi.

Insonning tabiiy qobiliyati faqat tarbiya orqali, uni ma'lum bir faoliyat turiga jalb qilish orqali rivojlanishi mumkin. Ma'lumki, bola layoqatini rivojlantirish, uni qobiliyatga aylantirish va hayotga mos holda o'stirish uchun mehnatsevarlik va ishchanlik kerak.

Mehnatsevarlik va muttasil o'tirib ishlash kabi fazilatlar faqat tarbiya natijasida orttiriladigan fazilatlardir. Garchand inson kamolotiga ta'sir etadigan omillar bir qancha bo'lsa ham, lekin maxsus tarbiya muassasalarida tarbiyachi rahbarligida amalga oshiriladigan tarbiya jarayoni yetakchi hisoblanadi.

Birinchiidan, tarbiya ta'sirida turli fazilatlar o'zlashtiriladi va bilim, ma'lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog'liq ko'nikmalar, malakalar ham maxsus uyushtirilgan tarbiya orqali hosil qilinadi.

Ikkinchiidan, tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklarni ham o'zgartirib, shaxsni

kamolga yetkazish mumkin. Masalan, ko'rlar, gunglar ham o'qitilib, sog'lom kishilar qatori hayotga tayyorlanadi.

Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini ham yo'qotish yoki bartaraf qilish mumkin.

To'rtinchidan, tarbiya doimo kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi. Shu tufayli, u shaxsning kamolga yetishini tezlashtiruvchi rol o'ynaydi. Inson kamol topishida maktabning ahamiyati katta. Bolalar maktabga qadam qo'yar ekan, ular o'quv mehnati bilan band bo'ladilar.

Bolalar maktabda fan asoslarini egallash bilan birga, ularda sekin-asta ilmiy dunyoqarash shakllanib boradi.

O'qituvchi tarbiyachilarning rahbarligida insonga xos bo'lgan yuksak fazilatlarini egallaydilar. Tarbiyaviy ishlarni reja asosida tashkil etish bolani tarbiyalashda oilaga har vaqt yordam ko'rsatadi.

Tarbiyachi o'z tarbiyalanuvchisining oilaviy sharoitidan xabardor bo'lishi, pedagogik maslahatlarga, yordamga muhtoj bo'lgan oilalarga yordam berishi muhim.

Tarbiyachi uchun bola bo'sh vaqtini kimlar bilan o'tkazayotgani va nimalar bilan mashg'ul bo'layotgani ahamiyatsiz emas. Chunki o'z holiga tashlab qo'yilgan bola ko'chaning salbiy ta'siriga berilib ketishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, inson faqat faoliyatda rivojlanadi, undan tashqarida rivojlanish yo'q. Bola juda yoshligidan boshlab kattalar yordamida tashqi muhit bilan turli xil aloqada bo'ladi. Maktab yoshida bu aloqalar o'qish va shu bilan bog'liq bo'lgan boshqa faoliyat bilan bog'lanadi va bular rivojlanish uchun manba sanaladi.

Pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirilgan har qanday faoliyat shaxsning aqliy va irodaviy rivojlanishiga ta'sir etadi.

Demak, bola ulg'aya borgan sari uning faoliyati ham shakli va mazmuni bilan hamohang o'zgarib boraverar ekan. Masalan, bog'cha yoshida bolalarning asosiy faoliyat turi o'yin bo'lsa, maktab o'quvchisi uchun o'qib, mehnat qilish asosiy faoliyat bo'lib qoladi.

Demak, bola hayotida faoliyat turlarining o'zaro munosabati ham o'zgaradi va buning ta'sirida bola kamoloti ham yangi, yuqoriroq bosqichga ko'tariladi.

Umuman, pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirilgan har qanday faoliyat bola shaxsining aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy va irodaviy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Rahbarlik qilinmagan faoliyat esa biryozlama yoki salbiy ta'sir etishi mumkin. Shunday qilib, inson taraqqiyotining ilmiy konsepsiyasi inson kamolotiga ta'sir etadigan omillarni taxlil etib, inson kamoloti va uning shaxsini shakllantirishni yagona va bir butun jarayon ekanligini ta'kidlaydi. Bu jarayonda insonning faolligiga katta o'rin beriladi.

U faolligi bilan o'z shaxsini shakllantira oladi. Tarbiyachi tomonidan qo'yiladigan maqsad aniq bo'lsa va bu maqsadga erishish uchun odam astoydil harakat qilsa, kutilgan natijaga erishiladi.

#### **Savol va topshiriqlar**

1. Pedagogika ilmiy tadqiqot metodlarini sanang, izohlang.
2. Asosiy pedagogik tushunchalarga nimalar kiradi?
3. Shaxs kamolotiga ta'sir etuvchi omillarni ayting.
4. Ijtimoiy muhit va uning inson kamolotiga ta'siri haqida gapirib bering.
5. "Shaxs" tushunchasi bilan „Inson“ tushunchasini farqli tomonlarini izohlang.



## II QISM

### III. BOB.DIDAKTIKA- TA`LIM NAZARIYASI

#### Didaktikaning predmeti va uning vazifalari

Didaktikaning predmeti ta`lim tarbiya muassasasi sharoitida pedagog rahbarligi ostida amalga oshadigan o`quv jarayonidir. Didaktikada ana shu jarayonning qonuniyatlari tadqiq qilinadi. har xil tipdagi ta`lim tarbiya muassasalarida u yoki bu darajada beriladigan ta`lim mazmunini belgilashning ilmiy asoslari, o`qitish vositalari va metodlarining samaradorligini oshirish yo`llari hamda ta`limning tashkiliy shakllari ishlab chiqiladi.

Didaktika pedagogikaning ta`lim va o`qitish nazariyasini ishlab chiqadigan tarmog`idir. Didaktika yunoncha "didaktikos" so`zidan kelib chiqqan bo`lib, o`qitish, o`rganish ma`nosini bildiradi. Yaqin va O`rta Sharqda Al Xorazmiy, Kindiy, Abu Nasir Forobiy, Al Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyom kabi mutafakkirlar ilmiy didaktikaga asos solgan bo`lsalar, chexiyalik pedagog Yan Amos Komenskiy, shveysariyalik pedagog I. G. Pestalossi, nemis pedagogi A. Disterveglar Yevropada didaktikaning rivojlanishiga katta hissa qo`shdilar.

Al Xorazmiy, Kindiy, Abu Nasir Forobiy, Al Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyom, Nasriddin Tusiy va ularning izdoshlari qarashlarining muhim xususiyati shundan iborat ediki, mazkur olimlar doimo predmetning qiyofasi inson ongida mavhumlashuvi jarayoniga mana shu predmetning mohiyati va o`ziga xosligini tushunish sodir bo`lishi hamda shakllanishiga e`tibor berganlar. Ular bilishning predmeti va manbalariga, bilish jarayoni qanday bosqichlardan tarkib topishiga, bilish faoliyati bilan amaliy faoliyat o`rtasidagi munosabatlarga qiziqqanlar.

Al Xorazmiy shaxsning uzluksiz kamol topishi nazariyasini rivojlantirish borasida muhim xizmat qildi, induktiv va deduktiv tafakkurdagi alohidalik hamda umumiylikning birligi prinsipini muayyanlashtirdi.

Kindiy substansiyani barcha ilmiy bilimlarning bosh predmeti sifatida ko`rib chiqishda, eng avvalo, miqdor va sifatni hissiy idrok etish zarurligini tasdiqladi. Kimki miqdor va sifatni bilmasa, u substansiyani bilmisdan ham, mahlumligini uqtirdi. Olim o`zining didaktik g`oyalariida hissiy va ratsional bilishni ifodaladi.

Hissiy bilish yakka narsalarni bilishdan iborat bo'lsa, oqilona bilish umumiy narsalarni bilish ekanini ta'kidladi. Uning fikricha, hissiy bilish faqat aql uchun material beradi.

Sabablar haqiqatni bilishda va o'zining ana shu haqiqatga muvofiq xatti-harakatlarini anglashda insonning aqliga ko'maklashadi. "Haqiqat, – deb yozgan edi Kindiy, har qanday narsani va uning barqarorligini bilishning sababidir, binobarin, hayotdagi mavjud hamma narsa haqiqiyliги bilan mavjuddir. Haqiqatni bilish zarur va shunga ko'ra mavjud narsalarni bilish mumkin".

Abu Nasir Forobiy o'qitish metodlarining tasnifini ishlab chiqqan. Ularni amaliy va nazariy metodlarga ajratgan, shu tariqa o'qitishning amaliy yo'nalishi va kishilarning hayoti hamda kundalik faoliyati bilan bog'liqligi g'oyalari ni olg'a surgan. Olim o'qitishning tajriba ko'rsatmali, induktiv va deduktiv, amaliy metodlariga alohida e'tibor bergan. Barcha metodlarni o'quvchining hayotiy tajribasiga, mantiqiy tafakkuriga tayangan holda birlashtirgan. O'quv jarayonini tashkil etishga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqishda deduktiv metodni ustun qo'yib, o'quvchilarga materialni tushuntirishda nimalarga alohida e'tibor berish haqida, eng muhim narsalarni fanga ishonchli bilimlar beradigan va shubhalantirmaydigan dalillar bilan yoritish va hokazolar bo'yicha o'qituvchilar uchun qimmatli tavsiyalarini bayon qilgan.

Abu Nasir Forobiy matematika fani misollari asosida o'qitishning ilmiylik, ko'rsatmalilik, tushunarlilik va izchillik prinsiplarini ishlab chiqqan. Bilish jarayoni va fandagi bilim shakllarining mohiyatini yoritgan. Uning fikricha, ana shu jarayonlar qonunlar sifatida shakllanadi va ularga rioya qilish fikrlashni takomillashtiradi hamda murakkab bilish jarayonida qo'pol xatolarning oldini oladi. Bilish jarayoni fikrlash mantiqi orqali amalga oshadi. Mantiq, ob'yekti anglashga qaratilgan va aql yetadigan mohiyatlar taxlil etiladigan fikrlash jarayonining to'g'riligini belgilashga xizmat qiladi. Mantiq quroldir va u narsalarni aniq bilishga yordam beradi.

Abu Nasir Forobiy bilish faoliyatini tashkil etish masalalari bo'yicha ham anchagina mufassal tavsiyalarni ishlab chiqqan. Uning yozishicha, yaxshi

nazariyotchi bo'lish uchun nazariya qaysi fanga taalluqli bo'lsada, quyidagi uchta shartga rioya qilishi shart:

1. Mazkur fan asosidagi hamma prinsiplarni to'liq bilish.
2. Mana shu prinsiplardan va mazkur fanga doir ma'lumotlardan tegishli xulosalar chiqara bilish.
3. Noto'g'ri nazariyani rad eta bilish va haqiqatni yolg'ondan farqlash, xatolarni to'g'rilash uchun boshqa mualliflarning fikrlarini taxlil qila bilish.

Borliqning aks etishi sifatidagi hissiy bilish muammosi va eng asosiy masala bilishning manbalari masalasi doimo Beruniy nazariy bilish faoliyatining diqqat markazida turdi.

Olim bilishning nazariy asosini cheksiz va uzluksiz jarayon sifatida taxlil va talqin qildi. U o'zidan oldingi olimlar ishlab chiqqan bilishning ilmiy metodlarini rivojlantirib, didaktik yo'sinda muhim xulosalar chiqardi:

“O'qish va takrorlash orqali. – deb yozgan edi Beruniy, dunyoning tuzilishini, osmonning va yerning shakllarini bilish astronomiya fani uchun g'oyatda foydalidir. Binobarin, ana shu tariqa ta'lim oluvchi malaka hosil qiladi va mazkur san'at ahli ishlatadigan so'zlarni o'rganadi. bu so'zlarning ma'nosini anglaydi. Keyinchalik astronomiya fanidagi turli sabablar va isbotlarni o'rganishda ana shunday so'zlar uchrasa, ularni bemalol tushunib boraveradi va u yoki bu narsalarni o'zlashtirishda charchamaydi”.

Abu Rayhon Beruniy ta'kidlaganidek. o'qitish izchil. ko'rsatmali. maqsadga muvofiq bo'lishi va ma'lum tizimda olib borilishi lozim. Binobarin, ko'rsatmalilik ta'limning tushunarliroq, muayyanroq va qiziqarliroq bo'lishini ta'minlaydi, tafakkurni rivojlantiradi.

Ibn Sinoning bilim orqali erishiladigan natijalari haqidagi ta'limoti o'qitish nazariyasida alohida o'rin egalladi. Uning fikricha, buyumlarni chinakam bilishga tashqi ko'rinishini taxlil qilish. sabablarini aniqlash asosida aql bilan erishiladi.

Ibn Sino aqlning rivojlanish bosqichlarini ishlab chiqqan. Mushohada bilan idrok qilishning birinchi bosqichi aqliy kategoriyalarni tushuntirishdir. Ikkinchi bosqich ikki xil fikrni idrok etishdir. Aqliy rivojlanishning uchinchi bosqichiga

o'zlashtirilgan fikrlarni idrok etish bilan erishiladi. Shunda uni haqiqiy aql deyiladi. Olim aqliy faoliyatni bosqichlarga bo'lar ekan, birinchi bosqichda yodlay oladigan, lekin hali harflarni ham, siyoh va qalamni ham bilmaydigan bolaning aqlini nazarda tutgan; ikkinchi bosqichda tayoqchalarni chiza boshlagan, qalamdan foydalanishni o'rganayotgan bolaning aqli tasavvur qilinadi; uchinchi bosqichda inson aqliy shakllarni va ularga muvofiq hissiy obrazlarni egallagan bo'ladi.

Ibn Sino aql deganda insonning tug'ma iste'dodini, shuningdek, tajriba asosida va bilish jarayonida shakllanadigan fikrlash qobiliyatini tushunadi. Aqlni insonning birlamchi tug'ma sog'lom fikrlashi, yaxshi va yomon ishlarni vujudga keltiradigan, ularni farqlatiradigan kuch, deb ta'riflaydi. Aql insonning xatti-harakatlarida namoyon bo'ladi.

Inson aql yordamida narsalar va hodisalarni taxlil qiladi, umumlashtiradi hamda ularning eng yaxshilarini tanlaydi, deb uqtiradi. Shuningdek, aqlni ikki kategoriyaga ajratadi. Ularning biri nazariy aql bo'lib, borliqdagi umumiy narsalarning mohiyatini idrok etishdir, ikkinchisi esa amaliy aql bo'lib, buyumlarni tanlashda turtki sifatida ko'rinadigan qobiliyatdir.

Abdulla Avloniy o'zining barcha tadqiqotlarida ilm muammosini birinchi o'ringa qo'ygan. "Alhosil, – de's yozgan edi u, butun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilm bilan bog'liqdur... Shuning uchun o'qimak, bilmak zamonlarini qo'ldan bermay, vujudimizning dushmani bo'lgan jaholatdan qutulmakka jonimiz boricha sa'y qilmagimiz lozimdur"<sup>1</sup>.

Abdulla Avloniy ilm tarbiya jarayonida o'zlashtiriladi va u yaxshini yomondan, ezgulikni yovuzlikdan, joizni nojoizdan farqlash imkonini beradi, deb hisoblaydi. U tarbiya bilan ta'limning birligi muammosini ishlab chiqdi. Garchi Avloniy ta'lim bilan tarbiya o'rtasida ozgina farq borligini aytgan bo'lsa ham, ular tana va jon singari bir–biriga chambarchas bog'liqdir, deydi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy I sinf uchun "Yengil adabiyot", II sinf uchun "O'qish kitobi" va "Qiroat kitobi" kabi darsliklarni yozgan. Ammo mazkur

---

<sup>1</sup>Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud ahloq. T., "O'qituvchi", 1992- y, 23- bet

darsliklar qo'lyozmaligicha qolib ketdi. O'sha paytlarda nashr etish imkoni bo'lmagan.

Hamza Hakimzoda Niyoziy o'z tadqiqotlarida tovushli savod o'rgatish metodini ishlab chiqqan. Uning tadqiqotidagi asosiy g'oya o'qitish va tarbiyalashga kompleks yondashish, yoshlarning aqliy, axloqiy va estetik tarbiyasini o'zaro bog'liq holda amalga oshirishdan iborat edi.

Yuqoridagi asarlarning nomlaridan va pedagogik fikrlardan ayon bo'ladiki, mazkur mualliflar didaktikaga o'qitish san'ati sifatida, shuningdek, o'ziga xos amaliy ko'nikma sifatida qaraganlar.

Didaktika tushunchasini Yan Amos Komenskiy (1592–1670) ham ana shu yo'sinda sharhlagan. Uning bu boradagi fikr mulohazalari 1657-yilda nashr etilgan "Hammaga hamma narsani o'qitishning universal san'ati ifodalangan buyuk didaktika" nomli asarida bayon qilingan.

Yan Amos Komenskiy didaktika faqat o'qitish san'atidagina emas, balki tarbiyalash san'atidan ham iboratligini qayd qilgan va tarbiya har tomonlama axloqiylik yo'nalishidagi fe'l-atvorni shakllantirishning zarur sharti ekanini ham uqtirgan.

Didaktikani yuqoridagicha tushunish XIX asr boshigacha, ya'ni taniqli nemis pedagogi va faylasufi Iogan Genrix Gerbart didaktikaning asosiy nazariyasini ishlab chiqqunicha davom etgan. Binobarin, u didaktikani pedagogikaga bo'ysunadigan tarbiyalovchi ta'limning yaxlit va ziddiyatsiz nazariyasi sifatida talqin qiladi.

Iogan Genrix Gerbart va xususan, uning izdoshlari ana shu nazariyaning rolini hisobga olib, didaktikaning asosiy vazifasini darsda bayon qilinadigan material ekanini rad etdilar. Gerbart konsepsiyasiga muvofiq, o'qituvchi, asosan, o'quvchilarni yangi o'quv materiali bilan tanishtirishga doir harakatlarini taxlil qilishi lozim edi.

XVIII asrda shveysariyalik pedagog I.G.Pestalossi kamol toptiruvchi ta'limning prinsiplari tizimini asosladi.

XIX asrda esa nemis pedagogi A.Disterveg o'zining "Nemis o'qituvchilari

uchun” qo’llanmasida o’quv jarayonini faollashtiradigan talablarning butun bir kompleksini taklif qildi. Fan va texnika shunday tezlikda taraqqiy topmoqdaki, maktab ta’limi bilan ularning ketidan quvib yetish mumkin emas. Lekin maktabni bitirgan yoshlar, albatta, o’zlari bilmaydigan ilmiy kashfiyotlarga, jamiyatni rivojlantirishning bozor iqtisodiyotiga asoslangan yangi tizimiga duch keladilar. Lozim darajadagi aqlga, irodaga va hissiyotga ega bo’lgan kishilargina notanish ma’lumotlarni tezroq o’zlashtirib olishi mumkin. Bilim va malakalarni tarkib toptirish naqadar zarur bo’lsa-da, hozirgi didaktika ana shu soha bilangina chegaralanib qola olmaydi. Endilikda o’quvchilarni kamol toptirishda optimal natijalar beradigan o’qitish jarayonining ilmiypedagogik asoslarini ishlab chiqish zarurati tug’ildi. O’quvchilarning kamol topishi ta’lim jarayonida amalga oshishi sababli bilim va malakalarni o’zlashtirishga qaratilgan didaktik prinsiplar ma’lum natijalarni beradi. Lekin vazifa qandaydir natijalarga erishishdan emas, balki o’quvchilarni kamol toptirish uchun o’qitishning eng yuqori samaradorligini ta’minlashdan iboratdir. Buning uchun esa o’quv jarayonining qurilishini ishlab chiqish kerak. Didaktikada tarbiyalovchi dunyoqarashni shakllantirish masalalari ko’riladi, ta’lim jarayonida o’quvchilarda mustaqillikni, tashabbuskorlikni va shaxsning boshqa ayrim sifatlarini tarbiyalash vazifalari taxlil qilinadi. Mana shunday muhim masalalarning ko’rib chiqilishi maktabdagi ta’lim tarbiyaning birligini ta’minlashga xizmat qiladi. O’z-o’zidan ayonki, mazkur vazifani amalga oshirish uchun zarur ilmiypedagogik asoslarni yaratish didaktika sohasidan ko’ra ko’proq tarbiya nazariyasiga taalluqlidir. O’qitish negizi yuksak axloqli qilib kamol toptirishdan iborat. Ana shunday harakatlarda o’qishga da’vat qilish, o’qituvchi bilan o’quvchilarning o’zaro munosabatlari va ta’limning metodlari masalalari boshqacha tus oladi.

### **Didaktikaning asosiy kategoriyalari**

O’qitish nazariyasi bilimlar, ma’lumotlar va dalillarning katta zaxirasiga ega, ularning bir qismi tizimlashtirilgan, tartibga solingan. O’qitish jarayonining strukturaviy komponentlari maqsadli rag’batlantirish motivlashtirish mazmuni, harakati, o’qitishning shakl va metodlarining ajratilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Mana shu komponentlarning ajratilgani o'qituvchi bilan o'quvchilarning birgalikdagi faoliyati qonuniyatlarining tabiatini chuqurroq tushunish imkonini beradi. Pedagogik yechimlarni tanlash nazariyasini ishlab chiqishning metodologik asosi o'qitish jarayonining mavjud barcha qonuniyatlarini hisobga olish fikri bilan muntazam aloqada bo'ladi. Boshqacha aytganda, o'qitish jarayonining mavjud hamma qonuniyatlarini, albatta, kompleks holda hisobga olish bilangina ta'lim masalalarini to'g'ri hal qilish mumkin. Pedagogik va psixologik shartsharoitlarni aniqlash asosida o'qitishning optimalligi mezonlarining asoslari tarkib toptirilgan va ularning eng ahamiyatlilari quyidagilardan iboratdir:

– o'qitish optimal bo'lishi uchun har bir o'quvchi o'zining haqiqiy o'qish imkoniyatlariga muvofiq darajada o'zlashtirishi, tarbiyalanishi va kamol topishi shart;

– o'qitish optimal bo'lishi uchun o'quvchilar va o'qituvchilar darsdagi va uydagi ishlar vaqtining o'zlari uchun gigiyenik jihatdan belgilangan normasiga ega bo'lishi kerak.

Rejalashtirishni optimallashtirishning asosiy yo'llari o'qitishning vazifalarini ta'lim berish, tarbiyalash va kamol toptirish bilan birgalikda loyihalashga kompleks yondashish hamda o'qitish vazifalarini u amalga oshadigan tizimning xususiyatlarini hisobga olgan holda muayyanlashtirishdir. Ishni rejalashtirishning quyidagi usullaridan foydalaniladi:

- o'qitish mazmunining qo'yilgan vazifalarini eng muvaffaqiyatli hal qilishni ta'minlaydigan optimal variantini tanlash;
- o'qitish jarayonida qo'yilgan vazifalarni belgilangan vaqt ichida muvaffaqiyatli hal qilishni ta'minlaydigan metod va vositalarni tanlash;
- masalalarni muvaffaqiyatli hal qilishni, shu jumladan, o'quvchilarga tabaqali yondashishni ta'minlaydigan tashkiliy shakllarini tanlash.

Hozirgi paytda ta'limning muhim jihatlari, masalan, ta'limning mazmunini ishlab chiqish va tanlash, muammoli kamol toptiruvchi o'qitish, o'quvchilarning o'qishini faollashtirish, o'qitish metodlari va ularning tarkibiy qismlari; o'quvchilar o'quv bilim faoliyatining metodlari; o'quv materialini tashkil qilish,

strukturalashtirish va hokazolar jadal o'rganilmoqda.

Ta'lim mazmunining ishlab chiqilgan nazariyasida quyidagi muhim qoidalar talqin qilingan:

– ta'lim mazmunida jamiyatning ma'naviy va moddiy elementlari, shu jumladan, tabiat, jamiyat va inson haqidagi bilimlar, ijodiy faoliyat tajribasi, insonning munosabatlari, boshqarish faoliyati, xulqi va hayoti ifodalanishi lozim;

– ta'limning mazmuni umumiy, politexnik va kasbkorlik komponentlarining birligini aks ettirishi kerak;

– ta'limning mazmuni o'quvchilarning yoshidan va jamiyatning rivojlanish darajasidan kelib chiqadi;

– ta'limning mazmunidagi ajratilgan to'rt komponent hajmi va mazmuni bo'yicha o'zaro aynan muvofiq bo'lishi kerak.

Maktab rivojlanishining hozirgi bosqichida ta'limni kompyuterlashtirish masalasi g'oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'quvchilarni zamonaviy hisoblash texnikasidan foydalanishga doir bilim va malakalar bilan qurollantirish, o'quv jarayonida kompyuterlarning keng qo'llanishini ta'minlash jamiyatda bozor iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim vazifalaridan biridir. Mana shu vazifani amalga oshirish yuzasidan pedagogika fanida o'rta maktabga elektron hisoblash mikroprotessor texnikasini tatbiq etishning ikkita asosiy yo'nalishi ishlab chiqilmoqda.

Bularning birinchisi maktabdagi ta'limning mazmuniga o'quvchilar umumta'lim tayyorgarligining komponenti sifatida dasturlashtirish asoslarini va hisoblash texnikasini joriy etish; ikkinchisi maktabda elektron hisoblash mashinalaridan ta'minlash ta'limining vositasi sifatida foydalanishdir.

Pedagogika fani maktablarning EHMLardan foydalanishdagi tajribalarini o'rganishi va umumlashtirishi: yalpi kompyuter savodxonligiga javob beradigan yagona dasturlashtirish umumta'limiy kursini yaratish; dasturlashni o'rgatish boshlanadigan muddatni va kursning hajmini belgilashi, maktabda o'rganiladigan algoritmlar tilini tanlash, ta'limning mashina bazasidan foydalanish asoslarini ishlab chiqishi va boshqa vazifalarni ado etishi kerak.



Ta'lim nazariyasiga muammoli kamol toptiruvchi o'qitishni joriy etish, shuningdek, o'quv jarayonini tabaqalashtirish va individuallashtirish yo'llarini izlash bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda.

Muammoli kamol toptiruvchi o'qitishning nazariyada ishlab chiqilgan asosiy g'oyalarini quyidagicha ta'riflash mumkin:

– ta'limiy bilishni ilmiy bilishga muvofiq modellashtirish g'oyasi, ya'ni muammoli vaziyatni vujudga keltirish farazni olg'a surish farazni asoslash farazni hal qilish uni tasdiqlash yoki rad etishdek zarur bo'g'inlarni o'z ichiga olgan muammoli o'qitish;

– o'quvchilarning ijodiy imkoniyatlari va qobiliyatlarini rivojlantirish, ularda tadqiqotchilik yo'sinidagi ko'nikma va malakalarni o'stirish g'oyasi.

Muammoli o'qitish nazariyasida qator qonuniyatlar ifodalandi va eksperiment yo'li bilan asoslandiki, ulardan muammoli dars o'tish bilan muammoli o'rgatishning birligi va bir–birini taqozo etishi, o'quvchilarning tayyorligi darajasi bilan muammoli o'rgatish darajasining muvofiqligi kabi qonuniyatlarni ajratish mumkin.

Didaktikada ishlab chiqilgan o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish nazariyasi muammoli kamol toptiruvchi o'qitish nazariyasiga juda yaqindir.

Faollik nazariyasining asosiy g'oyasi ham maxsus tashkil etilgan ta'lim muhitida (o'qitishning mazmuni, shakllari va metodlari bilan) o'quvchilarning faolligini tobora oshirib borishdan iboratdir. Ishlab chiqilgan faollik nazariyasi o'quv jarayonida bilimlarni o'zlashtirish, ularni qayta ishlash va qo'llashning (muammoli va reproduktiv) usullarini o'rganish bo'yicha tashkil etiladigan o'zini o'zi boshqaradigan faollikdan iboratdir. Mazkur qonuniyatlar asosida amaliy jihatdan muhim ahamiyatga molik nazariy qoidalarni ifodalash mumkin.

Faollashtirish vositalari tizimi, ta'limning mazmuni, o'qitishning shakl va metodlari o'qitishning asoslangan. maqsadga muvofiq o'z–o'zini boshqaradigan jarayon sifatida tashkil qilishni ta'minlashi uchun ular quyidagi talablarga javob berishi kerak:

– ta'limning hamma bosqichlarida o'quvchilarda o'qitishning ichki motivlarini qo'zg'atish va rivojlantirish;

– o‘quvchilarda o‘z oldilariga muayyan maqsadlarni qo‘yish va kelgusidagi faoliyatlarini rejalashtirishga rag‘batlantirish mexanizmini takomillashtirish;

– o‘quvchilarda axborotlarni qayta ishlashga doir ta‘limiy va aqliy ko‘nikmalarning shakllanishini ta‘minlash;

– o‘quvchilarning o‘quv-bilish maqsadlariga erishish uchun jismoniy va axloqiy, irodaviy kuchlarini oshirish;

– ta‘lim jarayonida nazorat va o‘z-o‘zini boshqarish orqali o‘quvchilarning o‘z o‘quv-bilish faoliyatini baholashini ta‘minlash. Shu qoidalarga rioya qilinsa, ta‘lim samaradorligi yanada ortadi.

Ta‘lim jamiyatning iqtisodiy-ijtimoiy darajasi va madaniyati, uning siyosiy va mafkuraviy strukturasi mazmunini belgilaydigan masalalarni hal qiladi. Shuning uchun oiladagi yoki jamoadagi, maktabdagi, ishlab chiqarishdagi maqsadga muvofiq yoki tasodifiy tarbiya o‘z mohiyatiga ko‘ra ijtimoiy bo‘ladi, chunki har qanday tarbiya ijtimoiy munosabatlarning subyekti hisoblanadi.

Inson tug‘ilgan paytidan boshlab u yoki bu ijtimoiy guruhga mansub bo‘lib, mehnat aloqalarining ma‘lum tizimida tegishli yuridik huquqlardan foydalanadi. Jamiyatdagi o‘zaro munosabatlar majmuyining mazmuni va xarakteri shaxs kamol topishining umumiy yo‘nalishini hal qiluvchi yo‘sinda belgilaydi. Ota-onalar va pedagoglar tarbiya metodlarida o‘ziga xos o‘rin tutsalar ham, ularning maqsadlarini, istaklarini va intilishlarini pirovard natijada jamiyat belgilaydi, uning u yoki bu ijtimoiy guruhlari, hayotning umumiy sharoitlari, uning manfaatlari va ideallari belgilaydi.

“Ijtimoiy tarbiya” iborasidan ancha tor ma‘noda shaxsga ta‘sir ko‘rsatishning maxsus tuzilgan ijtimoiy institutlarda amalga oshiriladigan, oiladagi va yaqin atrof-muhitdagi tarbiyadan farqli jarayonni ifodalash uchun foydalaniladi.

Ta‘lim va tarbiya tushunchasining qaysi biri kengroq ma‘noga ega ekanligi xususidagi bahs samarasizdir, chunki hamma gap ularning qaysi maqsadda qo‘llanishidadir. Adabiyotlarda ko‘p uchraydigan “ta‘lim” va “tarbiya” so‘zlarini pedagogik jarayonning qarama-qarshi tomonlarini ifodalash uchun qo‘llanishi unchalik to‘g‘ri emas. Binobarin, ta‘lim bilim berishning maqsadga muvofiq

jarayoni sifatida doimo muayyan shaxslarni tarbiyalashni o'z ichiga oladi. Tarbiyaning yo'nalishi esa, hatto, ta'limning mazmuni va saviyasi bilan rasman bir xil bo'lsa ham prinsip jihatdan turlicha: insonparvar demokratik yoki totalitar bo'lishi mumkin. Ta'lim tarbiya muassasalarida amalga oshiriladigan chuqur pedagogik jarayon sifatidagi tarbiya haqida gapirish uning faqat bir tomonini kasbiy jihatini ko'rsatishni bildiradi.

Tarbiya hamma vaqt xalq orasidagi hodisa. ijtimoiy hayotning doimiy kategoriyasi hisoblangan. Tarbiyaning ijtimoiy tabiatini anglash davlat va xalq tarbiyasi, jamiyat va shaxs tarbiyasi o'rtasidagi maqsadga muvofiq va tasodifiy tarbiya o'rtasidagi tafovutni, tarbiyaviy ta'sir ob'yektining g'oyat murakkab tugunini bilish imkonini beradi.

Tarbiya shaxsni maqsadga muvofiq yo'sinda shakllantirish. unda fazilatlarni tarkib toptirish jarayonidir. Tarbiya tarbiyani amalga oshiruvchilar kutadigan natija mavjudligini talab qiladi. U ikki turdagi faoliyatni, ya'ni shakllanuvchi va shakllantiruvchi faoliyatni bajaruvchilar tarbiyaning tashkilotchilari. shakllanuvchi faoliyatni bajaruvchilar esa tarbiyaning yolg'iz yoki jamoaviy ob'yektlari hisoblanadi. Tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari uning ikki tomoni ob'yektiv va subyektiv jihatlar mavjudligidir. Uning shakllantiruvchi faoliyatlarini bajaruvchilar o'zlari xohlasa-xohlamasa tarbiyaning ob'yekti ekanligida ko'rinadi. Yuqorida ta'kidlanganidek, ob'yektiv shakllanuvchi va shakllantiruvchi faoliyatlar hamda ularning elementlari o'rtasida, shuningdek, har bir faoliyatning elementlari o'rtasida ichki ob'yektiv bog'lanish va munosabatlar mavjudligida namoyon bo'ladi.

Shakllantiruvchi va shakllanuvchi faoliyatning subyektiv tomoni u yoki bu faoliyatni bajaruvchilar subyektlar hisoblanadi va tarbiyaning natijalari ularning ichki holatiga, egallagan kasbiy xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari hamda qobiliyatlariga bog'liq bo'ladi.

Tarbiya ba'zan to'plangan bilimlarni, faoliyat tajribalarini yosh avlodga berishning yo'li sifatida, ba'zan erishilgan ma'naviy madaniyatni qayta tiklash va rivojlantirishning omili sifatida va ba'zan ijtimoiy munosabatlarning alohida shakli

sifatida ta'riflanadi.

Tarbiyaning maqsadi uning ko'zlangan natijasidir. U jamiyat rivojlanishining ehtiyojlarini o'zida aks ettiradi va jamoatchilik hamda davlat hujjatlarida ifodalanadi, pedagogik ta'limotlar va nazariyalarda muayyanlashtiriladi hamda batafsil yoritiladi. Sinfy jamiyatda tarbiyaning maqsadi hukmron sinflar tomonidan belgilanadi va bayon qilinadi.

Masalan, quldorlik davrida tarbiyaning maqsadi qullarni bo'ysundirish va bostirib turishga layoqatli jangchilar hamda lashkarboshilarni; feodalizm davrida feodal ritsarlar; burjuaziya davrida ishbiarmonlar va biznesmenlarni tayyorlashdan iborat bo'lgan.

Tarbiyaning maqsadi shaxsni har tomonlama va uyg'un kamol toptirish, uning ma'naviy, axloqiyestetik qadriyatlarini shakllantirish, yuksak darajada uyushgan va shakllangan jamoalarni vujudga keltirishdir. Tarbiyaning maqsadlarini oxirgi va oraliq, umumiy va muayyan, asosiy va yo'l-yo'lakay maqsadlarga tasniflash mumkin. Maqsad bilan bir qatorda, hal qilinishi maqsadga erishishni ta'minlaydigan vazifalar ham turadi. Masalan, tarbiyaning umumiy maqsadini ro'yobga chiqarish, ya'ni shaxsni har tomonlama kamol toptirish uchun aqliy, axloqiy, g'oyaviy siyosiy, estetik, mehnat va jismoniy tarbiya vazifalarini amalga oshirish zarur.

### **Savol va topshiriqlar**

1. Didaktika qanday ma'noni anglatadi?
2. Didaktika nima uchun o'qitish nazariyasi deb ataladi?
3. Didaktikaning maqsadi va asosiy vazifalari nima?
4. Zamonaviy didaktikaga ta'rif bering va uning yo'nalishlarini aniqlang hamda ularni ilmiy – nazariy jihatdan asoslab bering.
5. Muayyan mavzuni o'rganishga oid didaktik ma'lumotlar va materiallar tayyorlang.

## **IV BOB. TA'LIM MAZMUNI VA TEXNOLOGIYASI**



### **Ta'lim texnologiyasi**

Texnologiya – bu berilgan parametrlarga mos keladigan mahsulot olishga yo'naltirilgan dastlabki materiallarni o'zgartirish jarayoni va uslublarining yig'indisi.

Pedagogik texnologiya – bu faqat kompyuter va texnologik vositalarni qo'llash emas. bu ta'lim samaradorligini oshiradigan faktorlarni taxlil qilish yo'li bilan umumta'lim jarayonini optimallashtirish usullarini ishlab chiqish va prinsiplarini aniqlash.

Texnologiya – bu sifat jihatdan yangi masalalarni yechish uchun ta'lim evolutsiyasi bosqichini tayyorlagan obyektiv jarayon.

“Texnologiya” tushunchasi texnik taraqqiyot natijasida paydo bo'ladi va uning lug'aviy ma'nosi (kasb, fan, tushuncha, ta'lim, san'at) materiallarning ishlash usul va uslublaridan iboratdir. Fan va texnika taraqqiyoti inson imkoniyatlarining kengayishiga olib keldi.

Yangi texnologiyalar ta'limda katta imkoniyatlarini ochdi. Ro'y berayotgan sifat o'zgarishlar shuni ko'rsatadiki, odat bo'lgan tushuntirishda “o'rgatish” jarayonlari o'qituvchilarning kasbiy imkoniyatlari chegarasidan tashqari chiqib keta boshladi. Vujudga kelgan yangi texnik, axborot, bosma, eshitish va ko'rgazma vositalari o'ziga xos tarzda yangi metodikalar bilan ta'lim jarayoniga ko'pgina yangiliklar kiritib, uning ajratilmas qismi bo'lib qolmoqda. Biroq, pedagogik texnologik jarayonning o'ziga xosligi, uning an'anaviy shakllaridan ustuvorligi va hozirgi zamon ta'limi muammolari real yechish usullari hali tola o'rganilmagan.

Bu haqda chet ellik va o'zbek avtorlari ko'p yozmoqdalar. Lekin barchalari pedagogik texnologiyalar kelajakda ustuvor o'ringa ega bo'lishiga ishonadilar.

1950-yillarda, o'quv jarayoniga texnik vositalarni joriy etish boshlanganda, “Ta'lim texnologiyasi” termini vujudga keldi. so'ngra u TTV qo'llanish metodikasi bo'yicha keyingi yillarda “Pedagogik texnologiyalar” ga aylandi.

1960-yillar o'rtasida bu tushuncha mazmuni xalqaro anjumanlar va chet el pedagogik bosma nashrlarida keng muhokama qilindi.

1967-yillar PFA qoshidagi ochilgan institutni “Maktab jihozlari va texnik vositalari ITI” deb atashdi. Shunday bo‘lsada institut olimlari ta’lim texnologiyasi muammolari bilan shug‘ullanishar edi.

1970-yillar boshida rivojlangan kapitalistik davlatlar: AQSH, Angliya, Yaponiyada pedagogik texnologiyaga oid jurnallar nashr qilindi, keyinchalik bu muammo bilan maxsus muassasalar shug‘ullana boshladi. Masalan, AQSH. Buyuk Britaniyada bo‘lib o‘tgan pedagogik texnologiya bo‘yicha milliy kengashlar bunga misoldir.

Budapeshtda 1977-yilda YUNESKO tomonidan tashkil qilingan xalqaro seminarida ta’limdagi texnologik jarayonning asosiy xususiyatlari ko‘rsatib o‘tildi:

1. Texnikani mukammal bilish va ishlatish.
2. Audiovizual materiallar fondi bilan tanishish.

3. Ularning samarali ishlatish metodikasini egallash va ijodiy yondoshish. Hozirgi zamon chet el va vatanimiz tajribasini taxlil qilish asosida, bugun ta’lim jarayonini shakllantiruvchilar doirasi kengaytirilmog‘i lozim.

“Ta’lim texnologiyasi” tushunchasiga ta’lim maqsadlarini taxlil qilish va rejalashtirish, o‘quv-tarbiya jarayonini ilmiy tashkil qilish, ta’lim samaradorligini ta’minlaydigan vosita, material va metodlar tanlanadi.

Hozirda ta’lim texnologiyasi yordamchi vosita bo‘lib qolmay balki, o‘quv jarayonining rivojlanishida kata rol o‘ynab, uning tashkiliy shakllari, metodlari, mazmunini o‘zgartiradigan yangi sistema deb tushunilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, o‘qituvchi va o‘quvchining pedagogik tafakkuriga o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Texnologiyani bunday tavsif qilish ta’lim jarayonidagi barcha tuzuvchilar orasidagi uzviy bog‘lanishning muhimligini, pedagog va o‘quvchining o‘zaro hamkorligini ko‘rsatadi. O‘quvchi passiv ta’lim obyektidan faol shaxs ta’lim va tarbiya subyektiga aylanadi va aktiv subyekt sifatida o‘qituvchi bilan bu jarayonda qatnashadi, mustaqil bilim olishga intiladi. Fikrimizcha, yangi pedagogik texnologiyaning boshlang‘ich maktabdagi roli va vazifalarini ko‘rsatish zarur.

Metodika asosiga qurilgan ta'limga qaraganda "ta'lim texnologiyasi" ko'p qirralidir.

Birinchidan, texnologiya asosida tub mahsulotlarni aniq tavsifi turadi. Texnologiyada maqsad markaziy komponent hisoblanib, bu holat unga erishish darajasini aniq topishga olib keladi.

Ikkinchidan, tub va oraliq maqsadlari aniqlangani uchun texnologiya maqsadga erishish va nazorat obyektiv usullarini ishlab chiqishga yo'l ochadi.

Uchinchidan, texnologiya o'qituvchining pedagogik eksperiment qilishga majbur qiladigan holatlarini kamaytiradi.

To'rtinchidan, texnologiya o'qituvchi va uni faoliyat turlariga yo'naltirilgan dars ishlanmalari o'rniga, o'quvchilarning o'quvrganish faoliyati mazmuni va tizilishini aniqlaydigan o'quv jarayonining loyhasini beradi. Metodik dars ishlanmasi har bir o'qituvchi tomonidan turlicha o'zlashtiriladi, dars va o'quvchilar faoliyati ham turlicha tashkil qilinadi. O'quvchilarning o'quv faoliyatini loyihalashtirish esa, programmashtirilgan ta'lim tajribasi ko'rsatganidek o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini ko'taradi. Inson - bu murakkab tizim va unga kuchi va yo'nalishi har xil yoki qarama-qarshi bo'lgan ko'p sonli tashqi kuchlar ta'sir etadi, shuning uchun u yoki bu ta'sirning samarasini oldindan aytib berish qiyin. Ijtimoiy texnologiya bu borada katta samaraga ega, chunki u qayta aloqaga kirisha oladi.

Masalan, o'qituvchi doimiy nazoratni tashkil qilib, o'quv materialini o'zlashtirishda qiyinchilikka duch kelgan o'quvchilarni aniqlaydi va ular bilan qo'shimcha ish olib boradi. Bunday paytda o'qituvchi yangi materialni tushuntirish va mustahkamlash texnologiyasini qo'llaydi. Ya'ni, bu narsa materialni yetarli darajada o'zlashtira olmaganlar uchun o'tkaziladi. Endi texnologiyaning yana bir turi haqida to'xtalib o'tamiz. Bu tushuntirish metodi va mustahkamlashdir.

Masalan, dars boshida o'qituvchi 4-5 daqiqa savoljavob qilib, o'tgan darsdagi qaysi savollarni qaysi o'quvchi qay darajada o'zlashtirganini aniqlaydi. So'ngra, o'qituvchi mavzuni boshqatdan tushuntirib o'tirmay, so'rash davomida sinf diqqatini aynan shu savollarga qaratadi. Savolga to'liq javob qaytargan

o'quvchilar tinglanadi va sinfdagi barcha o'quvchilar o'zlashtirmaganlarini bilib oladilar. Bu usul o'qituvchilarga mashg'ulotidagi muammolarni aniqlab, tezda ularni yechish, ya'ni o'quvchilarga yordam berishga imkon yaratadi.

Bunday texnologiya jarayoni vaqtni tejab, o'tilgan materialni so'rash metodi orqali mustahkamlashga ko'maklashadi. Ijtimoiy texnologiya muayyan barcha sharoitlarga tezda moslashishi bilan ko'zga yaqqol tashlanadi.

Ta'limda joriy etilayotgan texnologiyaning asosiy o'ziga xosligi, ularning insonparvarlikka yo'naltirilganligidadir. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim ta'limning insonparvarlikka yo'naltirilganligi bilan bog'liq bo'lib, bunda bolalarning axborotlar bilan ishlashdagi kasbiy yondashuvi, har bir o'quvchi olingan ma'lumotni tizimlashtira olishi, fikrlashda mantiqiy izchillikka rioya qilishi bilan xarakterlanadi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonining asosiy komponenti ta'limiy vaziyat bo'lib, ta'lim oluvchilarning kasbiy funksiyalari to'rt asosiy texnologiya asosida taxlil qiladi:

1) "Masala bilan yondashuv texnologiyasi" shaxsga yo'naltirilgan ta'lim mazmunini belgilovchi elementlardan tuzilgan turli darajadagi masalalardan iborat;

2) "O'quv dialogi texnologiyasi" didaktikkommunikativ muhitni yaratish bilan bog'liq, sub'ektiv fikrlovchi muloqotni ta'minlovchi, refleksiya va shaxsni mustaqil o'z-o'zini tashkil etishi;

3) "Imitatsion ta'limiy o'yin texnologiyasi" musobaqa shartlarini ta'minlovchi bellashuv;

4) "Ta'limning moslashuvchanlik texnologiyasi" intellektual tizimlarning o'ziga xosligiga asosan vujudga keladi, mazmun, jarayonlarni o'zaro bog'liqligi va o'zaro ta'sir bosqichlaridan iborat. Ta'lim faoliyatining ko'p qirrali aniqlanishi, har bir bosqich doirasida ish tarkibining sikl modeli moslashuv algoritmi yordamida, operativ taxlil asosida va ta'lim oluvchining kasbiy rivojlanish darajasi korreksiyasi misolida aniqlanadi. Ta'lim jarayonini chiziqsiz tashkiliy va boshqaruv texnikasidan foydalanish kam vaqt ichida maqsadga erishishni ta'minlaydi.



## **Ta'lim printsiplari**

“Prinsip” soʻzining maʼnosi xulqning, xattiharakatning asosiy qoidasi, yetakchi gʻoya demakdir. Taʼlim qonuniyatlari (printsiplari) bu – oʻqitish jarayoniga qoʻyiladigan talablar yigʻindisidir.

Biz, hatto, turmushda ham “bu odam prinsipli” deymiz va bunda oʻsha odamning oʻziga xos qoidalariga, oʻzining prinsiplariga muvofiq ish koʻrishini nazarda tutamiz. Agar kishining xattiharakatlarida qatʼiy qoidalar boʻlmasa, uni “prinsipi yoʻq” deb hisoblaymiz.

XV – XVI asrlardagi mashhur olimlar bilishning asosiy qonuniyatlariga faqat oʻqitishning emas, balki axloqiy tarbiyalashning ham yetakchi asosi sifatida qaraganlar.

Forobiy “Namunali taʼlim” haqidagi risolasida oʻquvchilar oʻzlashtirishi lozim boʻlgan materialni eng yaxshi yoʻsinda bayon qilish masalasiga alohida toʻxtalib, bu ishning ikkita turini tavsiya etgan: ularning biri bevosita sezishga yaqin narsalarni oldingi oʻringa qoʻyishdan va ikkinchisi aqlga yaqin narsalarni olgʻa surishdan iboratdir. U oʻzining fikrini tushuntirib shunday yozgan: “Aql oʻz harakatini avval seziladigan narsalarga, keyin esa aqlga muvofiq yoʻsinda, yaʼni xossalarni sintez qilishga yoʻnaltirishi maʼqul”.

Ibn Sino asarlarida ham didaktikaning prinsiplariga, xususan, koʻrsatmali oʻqitishga qiziqish bilan qaralgan. Ibn Sino inson dastlabki oʻquv mashgʻulotlarida buyumning tashqi xossasini oʻrgansa, oʻsha buyumni va uning tasvirini koʻrib chiqsa, oʻzi mustaqil holda bilimlarni oʻzlashtira oladi. deb hisoblagan. Olim inson haqiqatan mavjud narsalarni yoki ularning tasvirini idrok etishi tufayli unda obʼyektiv voqelikni toʻgʻri aks ettiradigan tasavvur shakllanishini uqtirgan.

Sharqshunos olim Kindiyning fikricha, insonda ijobiy sifatlarni tarkib toptirishning eng zarur omili uning aql kuchini rivojlantirishdir. Aql kuchi rivojlanmasa, inson umr boʻyi Arastuning kitoblarini oʻqisa ham ularda ifodalangan fanlarning birontasini oʻzlashtira olmaydi. Bunday odam har qancha urinsada, faqat boshqalarning gaplarini takrorlab bera oladigan boʻladi. U hech narsaning mohiyatini tushunmaydi va oʻzlashtira olmaydi.

Kindiy ana shu fikrlarini bayon qilar ekan, o'qitishning ilmiyligi va ongliligi qoidasini nazarda tutgan. Pedagog olimlarning yuqoridagi fikrmulohazalarini umumlashtirib, xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, o'qitish prinsiplari yosh avlodga ta'lim va tarbiya berish maqsadlariga muvofiq o'qitishning xarakterini belgilaydigan asosiy yetakchi qoidalardir.

Mana shu prinsiplar qayerdan kelib chiqqan?. Ularni kim, qachon va qanday vaziyatlarda ifodalagan? Prinsiplarni ifodalashga olib kelgan asosiy manba, o'qitish amaliyoti, o'qituvchilarning keyinchalik anglangan, umumlashtirilgan va tarqalgan tajribasi hamda topilmalaridir. Biz ijtimoiy rivojlanishga ko'ra o'qitish prinsiplarining o'zgarishini e'tirof etgan holda an'anaviy ta'riflarni saqlash, ularga faqat zamonaviy maktabning ahvolini aks ettirish zarurligi uchun boshqacha mazmun baxsh etish, xususan, yangi maktabga xos ayrim qoidalarni kiritish tarafdorimiz. Masalan, "Umumiy ta'lim maktabi konsepsiyasi" hamda "Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar konsepsiyasi"ga muvofiq, butun o'qitish va tarbiyalash tadbirlari ta'limni insonparvarlashtirish hamda demokratlashtirish talablariga bo'ysunishi sababli demokratik qonunlarga. shaxsga, insoniy munosabatlarga asoslangan tarbiyalovchi va kamol toptiruvchi ta'limning birligi yetakchi qoida bo'lib qoldi.

O'qitishning prinsiplaridan uning qoidalari kelib chiqadi va ular u yoki bu prinsiplarning xususiy qoidalarini aks ettiradi. Masalan, o'qitishning ko'rsatmalilik prinsipi ta'limning ko'rsatmali qo'llanmani hozirlash, o'quvchilarni uni idrok etishga tayyorlash, qo'llanmani ko'rsatish va taxlil qilish kabi qoidalarini taqozo etadi.

O'qitishning tizimlilik prinsipi quyidagi qoidalardan iborat: yangi o'zlashtirilgan bilimlarni ilgari olingan bilimlarga bog'lash, materialni qismlari bo'yicha bayon qilish, o'rganilgan bilimlarni mustahkamlash va hokazo.

Y.A.Komenskiy o'zining "Buyuk didaktika" asarida didaktikaning prinsiplarini ishlab chiqqanidan boshlab, ularni deyarli barcha pedagog olimlar ko'rib chiqdilar, lekin o'qitish prinsiplarining soni va mazmunini belgilash xususida hozirgi kungacha bir fikrga kelingani yo'q.

## **Prinsiplarni tanlashga umumiy yondashish**

Didaktika tadqiqotchilaridan ayrimlarining asarlarida turli prinsiplar tavsiya etilgan. Prinsiplarning soni 6 tadan 11 tagachadir.

Masalan, M. I. Skatkin uzluksiz ta'lim tamoyilini hisobga olib, o'qitishning mustaqil bilim olishga o'tish prinsipi joriy etilishini taklif qiladi, shuningdek, o'qishga ijobiy munosabatni shakllantirishga katta e'tibor berib, ta'lim ijobiy asosda olib borilishi prinsipini maqsadga muvofiq deb biladi.

Y. K. Babanskiy didaktikaning yangi yo'nalishlaridan biri optimallashtirish nazariyasini ishlab chiqib, mana shu nazariyaning amaliy yo'nalishini aks ettiradigan uchta yangi prinsipini tavsiya qiladi. Bular esa:

1) ta'limning og'zaki, ko'rsatmali va amaliy, reproduktiv va izlanishli, shuningdek, boshqa metodlar hamda usullarini to'g'ri birlashtirish;

2) ta'limning dars, darsdan tashqari, shuningdek, umumsinf, guruh va yakka tartibdagi shakllarini to'g'ri birlashtirish;

3) o'quvchilarning o'qishga ijobiy munosabatini kuchaytirish, ularda bilishga qiziqishni, bilimlarga ehtiyojni tarkib toptirishdan iboratdir. Bu prinsiplar hali barqaror prinsiplar tizimiga kirgani yo'q, lekin tajribali pedagoglar pedagogikaning tegishli mavzulari va bo'limlarini o'tishda ulardan foydalanmoqdalar.

## **O'qitishning yetakchi prinsiplari**

O'qitishning har xil prinsiplari tavsiya etilgan va etilayotgan bo'lsa ham, lekin barcha tadqiqotchi didaktlar uchun bir qator umumiy prinsiplar mavjud. Ular quyidagilardan iborat:

1. O'qitishning tarbiyalovchi va kamol toptiruvchi prinsipi.
2. Ilmiylik, tizimlilik va izchillik prinsipi.
3. Ta'limning amaliy hayot bilan bog'liqligi prinsipi.
4. Onglilik va faollik prinsipi.
5. Ko'rsatmalilik prinsipi.
6. Tushunarlilik prinsipi.
7. Puxtalik prinsipi.

Barcha predmet o'qituvchilari hamma sinflarda ana shu prinsiplarga rioya qilishlari kerak. Ammo predmetlarning mazmuniga, o'quvchilarning yosh xususiyatlariga, ko'rsatmalik qo'llanmalar mavjudligiga bog'liq holda prinsiplarning nisbati hamda mazmuni o'zgaradi.

Masalan, ko'rsatmalilik prinsipi tabiatshunoslikni o'qitish jarayonida tajribalarni namoyish etish bo'lsa, tilni o'qitishda grammatika jadvallari ko'rsatish, doskaga yozish, shakllarni chizish va hokazolardan iborat bo'ladi. Lekin har qanday predmetni o'qitishda jonli mushohada, ya'ni narsa va hodisalarni muayyan idrok etish, fikrlash prinsiplariga amal qilish, boshqacha aytganda, nazariy xulosalarni tushunish va bilish, ularni hayotda qo'llay olish zarur.

### **Ilmiylik, tizimlilik va izchillik prinsipi**

Maktab ta'limiga qo'yiladigan ilmiylik talabi xalq ta'limi to'g'risidagi barcha qonunlar, "Umumiy ta'lim maktabi konsepsiyasi" hamda "Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar konsepsiyasi" da ifodalangan yetakchi talabdir. Hozirgi kunda, ya'ni fan va texnika rivojlangan, ilmiy bilimlar, mustaqil davlatni qurish va uni rivojlantirishning har xil amaliy masalalarini hal qilishning zarur shartiga aylanayotgan davrda mazkur prinsipni amalga oshirish nihoyatda muhimdir.

Ilmiylik prinsipi maktab ta'limi mazmuniga fanda aniq rasmiylashgan o'quv materiallarini kiritishni (bu talab maktab dasturlari va darsliklarini taqqoslashda, o'qituvchi har bir dars uchun material tanlashda hisobga olinadi), o'quvchilarni o'z yoshlariga mos ilmiy tushunchalar bilan qurollantirishni talab qiladi. Dastur va darsliklarda esa ana shunday tushunchalarni o'zlashtirishning tartibi ifodalanadi. Bu tartibga jiddiy rioya etish hamda o'quv jarayoniga faqat fanlarda qabul qilingan ta'riflarni kiritish maqsadga muvofiqdir.

Ilmiylik prinsipi o'qituvchidan o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqiga alohida e'tibor berishni, u yoki bu masalalarni ilmiy asosda tushunishdan hech qanday chekinishga yo'l qo'ymaslikni, ilmiy tushunchalarni va so'zlarni to'g'ri qo'llashni talab qiladi. Tabiat hodisalarini (momaqaldiroq, chaqmoq, shamol, qor, yomg'ir va hokazolarni), shuningdek, jamiyat hayotida eng muhim o'zgarishlarni

ilmiy jihatdan aniq bayon qilish katta ahamiyatga molikdir.

Bolalar ta'limning dastlabki yillaridanoq ishning ratsional usullarni: reja bo'yicha hikoya qilishni, o'qilgan narsalardagi asosiy fikrni topa olishni, isbotlay bilishni, o'quv materialini anglagan holda yodlashni o'zlashtirishlari kerak. Mazkur prinsip fanning tarmoqlari barq urib rivojlanayotgan hozirgi kunda alohida ahamiyatga molikdir.

Shuning uchun o'qituvchi har bir darsga tayyorlanishda darslik va o'quv qo'llanmalaridan tashqari, fanlarning so'nggi yutuqlari yoritilgan vaqtli matbuot vositalaridan ham foydalanishi lozim.

Bunda boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni zamonaviy fanlarning yutuqlari bilan tanishtirish kerakmas, degan fikrni ma'qul deb bo'lmaydi.

Binobarin, bolalarga berilgan barcha nazariy ma'lumotlar va ular o'rgangan qoidalar ilmiy bilishning hozirgi rivojlanish darajasiga zid kelmasligi lozim.

Ta'limning ana shunday yo'lga qo'yilishi o'quvchilar maktabning yuqori sinflariga o'tish bilan ularni qayta yo'naltirish va qayta o'qitish zaruriyatini bartaraf etadi.

O'qituvchi bolalarga fanning so'nggi yutuqlari haqida so'zlab berishi, bilimlar tizimi: asosidagina fanni o'rganish mumkinligini tushuntirishi lozim. Y.A. Komenskiy va I.G. Pestalossi o'z davrlaridayoq bilimlarni o'rganish uchun ularning navbatdagi har bir zvenosi o'zidan oldingi zvenolarga asoslanishi, yangi bilim ilgari o'zlashtirilgan bilimlarga jiddiy mantiqiy tartibda bog'lanishi zarurligini ishonarli tarzda isbotlaganlar.

Bilimlarni tizimli bayon qilish nimani anglatadi? Bilimlarni tizimli bayon qilishularning yangisini ilgari o'tilgani bilan bog'lash, shu orqali o'quvchilarning tushuncha va tasavvurlari doirasini kengaytirish hamda chuqurlashtirish, materialni qismlari bo'yicha o'rganish, ularning asosiy jihatlarini, umumiy g'oyasini alohida ifodalash bilan o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini yo'nalishga solish va rivojlantirish, ularga mustaqil holda taxlil qilishni, o'zlashtirilgan ma'lumotlarni tizimga solish va umumlashtirishni o'rgatishdir.

O'qituvchining bilimlarni tizimli bayon qilishi o'quvchilarga o'quv

predmetining tuzilishi va mantiqini chuqurroq tushunish, fanning bosh g'oyasi va asosiy qoidalarini ajratish, tabiat va jamiyat hodisalari o'rtasidagi ichki bog'lanishni aniqlash imkonini beradi.

O'qitishning jiddiy tizimlilik muvaffaqiyatli o'lga borishning garovi bo'lib. fikrlarni tartibga soladi, bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishni osonlashtiradi hamda yaxshilaydi, voqelikni to'g'ri bilishni ta'minlaydi, aql, iroda va xarakterni rivojlantiradi.

O'qituvchi o'quvchilarga talablar qo'yishda ham, ularning bilimlari, ko'nikmalari, malakalari va xatti-harakatlarini baholashda ham, fikr-mulohaza yuritishda ham izchillik ko'rsatishi kerak.

O'qitishning izchilligi faqat o'quv materiallarini joylashtirishda qat'iy tizimni emas, faqat yangi bilimlar berishda, o'tilgan materiallarni mustahkamlash va tekshirishda tafakkurni jiddiy va batartib rivojlantirishning emas, balki ilgari o'rganilgan bilimlarni doimiy ravishda takrorlashni, ulardan keyingi mashg'ulotlarda yangi ma'lumotlar va hodisalarni tushuntirish, ularni taqqoslash uchun, turli masalalarni hal qilish uchun foydalanishni ham talab qiladi.

Yuz yil muqaddam ta'limda yaqindan uzoqqa, oddiydan murakkabga, osondan qiyinga, ma'lumdan noma'lumga qoidasi vujudga kelgan. Bu qoida ham tizimlilik prinsipining mohiyatidan iboratdir.

### **Ta'limning amaliy hayot bilan bog'lanish prinsipi**

Biz o'quvchilarimizni hayotga, jamiyat qurilishida qatnashishga tayyorlaymiz. Shuning uchun ta'lim amaliy hayot bilan bog'lanishi kerak. Hozirgi paytda nazariyani amaliy hayot bilan bog'lash prinsipi alohida ahamiyatga ega. Shunga ko'ra, uni ta'lim tarbiya ishining hamma yo'nalishlarida amalga oshirish zarur.

Abu Nosir Forobiy har qanday fanni ikki qismga, amaliy va nazariy qismlarga ajratgan. Mana shu qismlarni qisqacha sharhlashda ulardan hayotda foydalanish imkoniyatlarini hisobga olgan. Uning amaliy va nazariy qismlarga bergan ta'riflaridan ta'limni amaliy yo'nalishda olib borish va hayotga, kishilarning kundalik faoliyatiga bog'lash fikri tug'iladi. Nazariyani amaliy hayot bilan bog'lash

prinsipini ro'yobga chiqarish uchun quyidagi tadbirlar amalga oshirilishi kerak:

a) o'rganiladigan materialni o'quvchilarning kasbiy tajribasi va kuzatishlari bilan. quyi sinflarda esa ularning o'yinlari bilan bog'lash darkor, chunki kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni o'qitish albatta o'yin faoliyatini talab qiladi;

b) ta'limni atrofdegagi hayot bilan, yangi jamiyatni qurish amaliyoti bilan bog'lash;

d) nazariyani amaliyot bilan fanning rivojlanishi jamiyatning ehtiyojlariga bog'liqligini yoritadigan qadamjollarga sayohatlar shaklida bog'lash;

e) nazariy va amaliy yo'sindagi turli masalalarni hal qilish va topshiriqlarni bajarish, laboratoriya ishlari bilan shug'ullanish va ishlab chiqarishga doir mavjud bilimlar asosida amaliyotlar o'tkazish hamda ularning natijalarini albatta tekshirish;

f) o'quvchilarning unumli mehnati, ya'ni ijtimoiyfoydali ishlarni o'zlariga mos shakllarda yo'lga qo'yish.

Mazkur prinsip, xususan, mehnat tarbiyasi va ta'limi jarayonida yaqqolroq namoyon bo'ladi. Ta'limda o'quvchilarning ongliligi va faolligi prinsipi talabiga ko'ra o'qitish o'quvchilar ilmiy bilimlarini va ularni amalda qo'llash usullarini ongli hamda faol o'zlashtiradigan, o'quv faoliyati ularning ijodiy tashabbuskorligi va mustaqilligini, tafakkuri, nutqi hamda dunyoqarashini shakllantiradigan yo'sinda tashkil etilishi kerak.

Ta'limdagi onglilik o'quvchilar o'z faoliyatlarining aniq maqsadlarini tushunishini, dalillar, hodisalar, jarayonlar va ularning o'zaro bog'liqligini anglashni va o'zlashtirgan bilimlaridan amalda foydalana olishini bildiradi. Shuningdek, ta'limning ongliligi o'quvchilarning o'qishga mas'uliyatli munosabatda bo'lishini, o'qituvchi bergan topshiriqni o'z vaqtida va aniq bajarishga intilishini ham anglatadi.

O'quvchilarning faolligi ular sinfda, laboratoriyada ijodiy materiallarni o'rganayotganlarida, topshiriqlarni, ijodiy ishlarni bajarayotganlarida namoyon bo'ladi. Mana shu xildagi ishlar va har xil topshiriqlar o'quv faoliyatida o'quvchilarning mustaqilligini rivojlantirish bilan chambarchas bog'liqdir. Bunda o'quvchilarning faqat adabiyotlar bilan ishlashi yoki turli ta'limiy topshiriqlarni

bajarish emas, balki ularning mustaqil fikrlashni o'rganishi, doimiy ijodiy izlanishga intilishi, o'zini uzluksiz nazorat qilishi, bitirgan ishlarning natijalarini mustaqil holda to'g'ri baholashi ham nazarda tutiladi.

Onglilik va faollik prinsipini amalga oshirish o'quvchilarga o'rganiladigan predmet yoki bo'limning maqsadi va vazifalarini tushuntirishdan hamda amaliy ahamiyatini yoritib berishdan boshlanadi.

O'quvchilarning bilish faoliyati, ularning darsdagi hissiy idroki va amaliy ishlari o'qituvchining gaplari orqali amalga oshadi. O'quvchilarning bilish faoliyatida o'qituvchining og'zaki axboroti va o'quv adabiyotlarini mustaqil o'qish juda muhim rol o'ynaydi.

Ta'limning onglilik prinsipi o'quvchilar yangi materialni idrok etishda faqat ta'riflarni aytib berishni emas, balki ularning muayyan hodisalarga, jarayonlarga bog'liq mazmunini tushunishni ham o'rganishlarini talab qiladi. Aks holda bilimlarda rasmiyatchilik vujudga keladi va o'quvchilar materialni quruq yodlaydigan va qayta so'zlab beradigan bo'ladi, lekin uning mohiyatini tushunmaydilar va o'zlashtirgan o'zmi bilimlarini amaliy faoliyatda qo'llay olmaydilar. Rasmiyatchilikning sabablaridan biri, o'qituvchining materialni bir qolipda bayon qilishidir. Bunday holda o'quvchilar uning gaplarini ishonch bilan tinglaydilar va eslab qoladilar, lekin uni fikran taxlil qilmaydilar. Turli masalalarni qo'yish, ko'rsatmali qurollardan keng foydalanish va o'quvchilarni amaliy ishlarga jalb etish orqali ularni bilish faoliyatini kuchaytirish bilimlaridagi rasmiyatchilikning oldini olishning muhim vositasidir. O'quvchilarning yangi material bo'yicha bilimlarni tekshirib, uni qanchalik anglaganini va ilgari o'tilgan materialga qanday bog'laganini, uni amalda (har xil masalalarni hal qilishda, turli mashqlarni, mehnat topshiriqlarini bajarishda) qo'llay olishini aniqlash katta rol o'ynaydi. Bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirish o'quvchilarda ana shu bilimlarga ma'lum munosabatni, hissiy kechinmalarni tarkib toptirishni ham o'z ichiga oladi. O'quvchilarning bilimlarni egallashga faol munosabati ularning bilish faoliyatini yanada kuchaytiradi.



## **Ta'limda onglik va faollik prinsipi**

1. O'quvchilarning o'quv faoliyatida o'z oldilaridagi maqsad va vazifalarning mohiyati hamda ahamiyatini, ya'ni o'zlari nima uchun o'qishlari kerakligini tushunishlari.

2. Bilimlarni o'zlashtirishga qat'iy intilish, ya'ni o'qishga ishtiyoq.

3. Fanni egallashga olib boradigan yo'llarni, ya'ni hozirgi zamon kishisi uchun zarur bilimlarni qaysi usullar bilan o'zlashtirish mumkinligini bilish.

4. Fanning faktlari hamda qonuniyatlarini ravshan va chuqur tushunish, o'quv materiallarining bola ongida qayta ishlanishi va uning o'z boyligiga aylanishi, olingan bilimlarni hayotda qo'llay bilish.

Onglik prinsipining amalga oshishi avvalo fan materialining ongda qayta ishlanishidan iborat bo'lib, bu jarayon shaxsda o'z nuqtayi nazari va ishonchi shakllanishining, ya'ni dunyoqarash va onglik tarkib topishining zarur shartidir.

“Bilim” va “ishonch” har xil tushunchalardir. Biz, masalan, bir kishi haqida “e'tiqodli, o'zining nuqtayi nazariga ega, mustaqil fikrlaydi”, desak, boshqa kishi to'g'risida “nimani eshitsa, nimani o'qisa, ishonaveradi, o'zicha fikr yuritmaydi”, deymiz. Demak, ular bir xil kishilar emas.

Donolardan biri ta'kidlaganidek, ishonchni saxiy odamlardan olib yoki kitob do'konidan xarid qilib bo'lmaydi, uni xuddi ovqat oshqozonda hazm bo'lganidek, har kim o'zining kallasida mustaqil holda vujudga keltirishi kerak. Bilimlar ishonchga aylanishining yagona yo'li o'quv materialining o'quvchilar ongida qayta ishlanishidir.

O'qituvchining vazifasi o'zlashtirilgan bilimlar ishonchga aylanishini ta'minlashdir va bunda o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faolligi juda muhimdir. Shunga ko'ra pedagogikaning zarur muammolaridan biri darsda o'quvchilarning bilishga doir ishlarini faollashtirishdir.

Dars jarayonida mazkur prinsip qanday qilib amalga oshirilishini ifodalash uchun ikkinchi sinf ona tili darsi misolida “predmetning belgisi” mavzusini o'rganish bo'yicha ikkita misol keltiramiz.

1. O'qituvchi ana shu mavzuni o'tishda doskaga bir necha gapni ketma-ket yozadi, o'quvchilar bilan ularga ma'lum gapning bosh bo'laklarini ega va kesimini taxlil qiladi, so'ngra o'quvchilarning e'tiborini gapning ikkinchi darajali bo'laklariga aniqlovchiga qaratadi. Ko'rib chiqilgan misollar asosida xulosa chiqarib: "Gapning shunday ikkinchi darajali bo'laklari borki, ular predmetning belgisini bildiradi va qanday? qanaqa? qaysi? so'roqlariga javob bo'ladi", – deydi.

2. O'qituvchi xuddi shularni boshqacha bayon qiladi.

Dars kirishdan boshlanadi: "Biz bugun grammatika bo'yicha yangi mavzuni o'rganamiz. Men mavzuni aytmayman, uni keyinroq o'zlaringiz aytasizlar. Hozir men sizlarga bir matnni beraman, uni o'qing va o'ylab ko'ring. Matnda aytilgan odam to'g'risida yaqqol tasavvur hosil qiling".

O'qituvchi ana shu so'zlarni aytib, doskaga bolalar biladigan qahramonning obrazi yozilgan plakatni osib qo'ydi. Matnda ham aniqlovchilar tushirib qoldirilgandi. Mana o'sha matn: "Men uning... chehrasiga qaradim va u haqiqatan ham hech narsadan qo'rqmaydi, deb o'yladim. Shunday... irodali va shunday... so'zlaydigan bola qorong'ulikdan ham, bezorilardan va ... narsalardan ham qo'rqmasligiga ishonch hosil qildim".

O'qituvchi o'quvchilarga o'ylab olish uchun biroz vaqt berdi va ulardan shu matnni o'qib, o'sha bola to'g'risida qanday tasavvur hosil qilishganini aytib berishlarini so'radi. O'quvchilar qiynaldilar, ular juda qisqa yozilgan matndagi odamning qiyofasini tasvirlab bera olmadilar. Shunda o'qituvchi o'quvchilarning diqqatini hikoyaning to'liq matni yozilgan plakatga jalb qildi.

O'quvchilar ana shu ta'rifdan qahramonning qiyofasini yaqqol ko'z oldilariga keltirdilar. Shundan so'ng o'qituvchi ikkala matnni taqqoslashni va ularning farqini aytishni taklif qildi. O'quvchilar birinchi plakatda predmetning belgisini bildiradigan so'zlar yo'qligini aniqladilar.

Shunday qilib, o'quvchilarning o'zlari aniqlovchi nima ekanligi haqida xulosa chiqardilar. Bu esa ularni fikrlashga, faollik ko'rsatishga majbur qildi, bilimlarni ongli o'zlashtirishlarini ta'minladi.

## **Ko'rsatmalilik prinsipi**

Bilishning birinchi pog'onasi jonli mushohada, ya'ni tevarak atrofda narsalar va hodisalarni idrok etishdir. Ko'rsatmalilik prinsipi idrok etishni osonlashtirishi va nazariy bilimlarni hayot, amaliyot bilan bog'lash imkonini beradi. Bu prinsip o'rganilayotgan hodisalarga qiziqishni oshiradi, bilimlarni puxtaroq egallashga yordam beradi.

Ibn Sinoning qayd qilishicha, inson o'zining o'quv mashg'ulotlari boshlanishida, narsaning tashqi xossalarni o'rganishda, uning aslini va tasvirini ko'rib, o'zicha bevosita bilimlarni hosil qilishi mumkin.

Har qanday fanda avvalo, narsalarning ta'rifi zarur. Ularning mavjudligini esa pirovard natijada isbotlash vositasida bilinadi. chunki ular mazkur fan aniqlaydigan hodisalardan iborat bo'ladi.

Ibn Sinoning ana shu xulosasi o'qitishdagi ko'rsatmalilikning faqat bir jihatini yoritadi, xolos. Xulosada avvalo inson mavjud narsalarni yoki ularning tasvirlarini idrok etishi tufayli unda ob'yektiv voqelik to'g'risida tasavvur hosil bo'lishi va inson ularni to'g'ri aks ettirishi ta'kidlanadi.

Olimning ta'limotida ko'rsatmalilik tushunchasi idrok etishning har xil turlari ko'rish, eshitish, sezish va hokazolar bilan bog'langan. Idrok etish tashqi sezgi orqali amalga oshadi va ushlab ko'rish bilan ham ro'y beradi. Ushlab ko'rish sezilgan narsaning issiqligi, sovuqligi, namligi, quruqligi, qattiqligi, yumshoqligi, og'irligi, yengilligi, shakli va hokazolarini bilish imkonini beradi. Teri va mushaklar sezgining qurolidir. Nervlar ana shu kuchni mushaklar va teriga yetkazadi.

Yan Amos Komenskiy "Buyuk didaktika" nomli asarida "Oltin qoida" ni ifodalab shunday yozadi: "O'quvchilar sezib idrok etishi mumkin bo'lgan narsalarni, albatta, sezgilar vositasi bilan, xususan: ko'rish mumkin bo'lgan narsalarni ko'z bilan ko'rib, hidi bor narsalarni hidlab ko'rib, ta'mini sezish mumkin bo'lgan narsalarni tatib ko'rib, ushlab sezish mumkin bo'lgan narsalarni ushlab bilib olishlari kerak... Birdaniga ko'p sezgilar yordamida idrok etish mumkin bo'lgan narsalarni, iloji boricha, bir necha sezgilar yordamida idrok etish lozim".

*Y. A. Komenskiy bu qoidaning uchta asosini ifodalagan:*

*Birinchi*dan, avval sezmagani narsasi haqida kishida bilim ham bo'lmaydi. Shuning uchun ham o'qitish narsalar haqida quruq mulohaza yuritishdan emas, balki narsalarni bevosita kuzatishdan boshlanishi kerak.

*Ikkinchi*dan, bilimning to'g'ri va aniqligi ham faqat sezgilarning guvohligiga bog'liq. Demak, bilim sezgilarga qanchalik ko'proq tayansa, u shunchalik ishonchliroq bo'ladi. Bolalarga haqiqiy va mustahkam ilm berish uchun, umuman, hamma narsani bevosita kuzatish va sezgilar asosida o'qitilishi kerak.

*Uchinchi*dan, sezgilar xotiraning eng ishonchli vositasi. Agar kishi tuyani bir ko'rgan bo'lsa, bir marta qand yegan bo'lsa, Rimga bir marta borib, uni diqqat bilan tomosha qilgan bo'lsa, bulbul xonishini bir marta eshitgan bo'lsa, bularning hammasi xotirada mustahkam qoladi va esdan chiqib ketmaydi. Y.A.Komenskiy o'z mulohazasini mustahkamlash uchun faylasuf fikrini keltiradi: "Eshitganini aytib beradigan o'nta kishidan o'z ko'zi bilan ko'rgan bitta guvoh afzal".

Y.A.Komenskiy xulosasi o'quvchini boshqalarning narsalar haqidagi kuzatishlari va guvohliklarini emas, balki o'sha narsalarning o'zini bilishga va tadqiq etishga o'rgatish zarur. Maktab amaliyotida ham tasdiqlanganidek, darsda o'rganiladigan hodisaning eng muhim tomonlarini aniq ifodalaydigan, ana shu belgilarni avval ajratishda, keyin guruhlashda, umumlashtirishda o'quvchilarga halaqit beradigan ortiqcha elementlardan xoli ko'rsatmali qo'llanmalardan, shuningdek, obrazli tasvirlar sxematik tasvirlarga uyg'unlashgan holda, ya'ni o'quvchilarning fikrlashini muayyandan mavhurga oson yo'naltiradigan qilib ishlangan ko'rsatmali qo'llanmalardan foydalanish g'oyat samarali tadbiridir. Boshlang'ich sinflarda ob'yektlarning o'zini namoyish etish yoki ular bilan bevosita tabiatda tanishish, darslarda narsalarning o'zidan iborat tarqatma materiallarni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Rasmi ko'rsatmali qo'llanmalar: manzara tasvirlari, diapozitiv va diafilmlarning samarasi kamroq bo'lsada, lekin ular orqali ham u yoki bu narsalar to'g'risida yaxlit tasavvurlar hosil qilish mumkin. Aralash ko'rsatmali vositalar to'plami o'quv jihozlarining muhim elementi bo'lishi kerak. Ular dars vaqtlarida turli ko'rsatmali vaziyatlarni yaratish, tez o'zgartirish va birlashtirishda yordam beradi. Buning uchun rasmi materiallardan foydalaniladi yoki doskaga bo'r

bilan rasmlar, chizmalar chiziladi va har xil yozuvlar bajariladi. Ularning didaktik imkoniyatlari bir xildir.

Shuni ta'kidlash lozimki, ko'rsatmali qurollarni, shu jumladan, ta'limning texnik vositalarini universallashtirish yaramaydi. Ular boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda beqiyos katta ahamiyatga egadir, ammo o'quv jarayonida audiovizual ko'rsatmali vositalardan ham foydalaniladi. Bular quyidagilardan iborat.

1. Dasturdagi ashyolarni qayta ishlash mavzusi bo'yicha kirish darsida o'quv filimini namoyish etish va keyingi darslarda kinofragmentlar, diapozitivlar, diafilmlar va jadvallarni qo'llash.
2. Mavzuning xususiy masalalarini diapozitivlar, diafilmlar, jadvallar, namoyish qilinadigan tajribalar, kinofragmentlardan foydalanib, ishlab chiqish. Mazkur mavzu bo'yicha umumlashtirish darsida o'quv filmini ko'rsatish.
3. Darsda o'qituvchining tushuntirishi bilan birgalikda slaydlar, kinofragmentlarni va darsning oxirida o'quv filmini namoyish etish.
4. O'quvchilarning tasavvurini kengaytirish, shakllanadigan tushunchalar mazmuni to'liqligini ta'minlash uchun ekran qo'llanmalaridan foydalanish.

Ko'rsatmali vositalarning turli didaktik vazifalari va imkoniyatlarini nazarda tutib, darsda ularni kompleks holda qo'llash talab qilinadi. Ana shu taqdirdagina darsning har bir bilish vazifasini hal qilishda eng yuqori samaraga erishish mumkin. Shular bilan birga, o'rganilayotgan hodisaning turli jihatlarini yoritish lozim bo'lgandagina har xil ko'rsatmalardan foydalanish o'zini oqlaydi.

Chunki mazkur jihatlarining har birini ko'rsatmalilikning ma'lum turi yordamida ishonarli tarzda va to'la yoritilishi mumkin. Ko'rsatmali vositalarni tanlashda ularning imkoniyatlarini har bir o'quvchi predmetining o'ziga xos xususiyati va har qaysi darsning mazmuni bilan taqqoslash zarur. Ko'rsatmali qo'llanmalarda ko'rsatmalilikning quyidagi har xil turlaridan foydalaniladi:

1. *Tabiiy ko'rsatmalilik* o'quvchilarni mavjud ob'ektlar: o'simliklar, hayvonlar, minerallar va hokazolar bilan tanishtirishni taqozo etadi. Tabiiy ko'rsatmalilikni sinfda ham, ekskursiyalar paytida ham namoyish etish mumkin.

2. *Hajmli ko'rsatmalilik* mavjud olamning hajmli aks etishidir. Bu esa fotosurat, rasm, videofilmlardan iboratdir.

3. *Ovozli ko'rsatmalilik* tovush obrazlarini ifodalash uchun ovozli vositalardan foydalanish.

4. *Ramziy va grafik ko'rsatmalilik* xaritalar, rejalar, sxemalar, chizma va diagrammalar. Ular mavjud voqelikni shartli umumlashgan ramziy ko'rinishda aks ettirish sababli fikrlashni rivojlantiradi.

Maktabda birinchi sinfdan to'qqizinchi sinfgacha ko'rsatmalilikning ana shu barcha turlaridan foydalaniladi, lekin, tabiiyki, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning yoshini hisobga olib, ularga bevosita kuzatishlarni topshirish, yuqori sinf o'quvchilari fikrlashining rivojlanishida ramziy va grafik ko'rgazmalarni ko'proq qo'llash kerak.

Ko'rsatmalilik, ayniqsa, o'quvchilar o'rganiladigan u yoki bu narsalar to'g'risida muayyan tasavvurga ega bo'lmagan paytda juda zarurdir. Ammo shuni ham unutmaslik lozimki, ko'rsatmali qo'llanmalarni namoyish etishga tayyorlanmaslik yoki ularni noto'g'ri tanlash faqat zarar keltiradi.

### **Tushunarlilik prinsipi**

O'quvchilar materialni ongli ravishda o'zlashtirishi uchun doimo ularning bilimlari va aqliy qobiliyatlarini hisobga olib ish tutish, ya'ni ularga mos materiallarni berish kerak. O'quvchilarning har xil sinflarda aqliy qobiliyatlari ham turlicha bo'ladi. O'z-o'zidan ayonki, o'qituvchi birinchi sinfga kirsay, biror asarning badiiy xususiyatlari to'g'risida gapira boshlasa, bolalar hech narsani tushunmaydi, albatta.

“Ta’lim tushunarli bo’lishi uchun, – deb uqtirgan edi Abu Rayhon Beruniy, o’qituvchi, albatta, yaqindan uzoqroqqa, ma’lumdan noma’lumga qarab borishi lozim: ta’lim doimiy ravishda bilimlarning to’planishiga, aniqlashuviga va iloji boricha takomillashuviga yetaklashi, shu orqali haqiqatni izlovchilar va bilimlarni sevadiganlarning hammasiga yordam berishi kerak”.

Tushunarlilik prinsipi – o'quv materialini bolalarning yosh xususiyatlariga,

muayyan bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatlariga muvofiq yo'sinda bayon qilishdir.

Maktabda ko'pincha duch kelinadigan ikki xil noto'g'ri tushuncha bor. Ularning birinchisi shuki, ayrim o'qituvchilar o'quvchilarni mutlaqo qiyinmaslik uchun ularga juda oddiy, tushunarli, o'zlariga aynan mos materiallarni berish kerak, deb biladilar. Obrazli qilib aytganda, materiallarni manniy bo'tqasidek, hatto chaynamasdan yutadigan qilib, bir qultum suv bilan berish lozim, deb hisoblaydilar. Bunday o'qituvchilardan ta'lim oladigan o'quvchilar o'qishga oddiy va oson, hech qanday kuch talab qilmaydigan ish deb qaray boshlaydilar. hamma narsani o'qituvchi tushuntirishiga, bir necha marta tushuntirishiga odatlanadilar. Natijada fikr yuritishni, o'ylab ko'rishni o'rganmaydilar. qiyinchilikka duch kelsalar. uni bartaraf qilishga urinmaydilar. Mazkur noto'g'ri fikrlarning ikkinchisi, o'qituvchi o'quv predmetini yuksak saviyada. hatto. Fanlar akademiyasi darajasida o'qitish kerak, deb hisoblaydi va bolalarga dabdabali, jimjimador ifodalarni aytadi, bolalar esa ularning ma'nosini anglamagan holda yodlayveradilar. Mana shu noto'g'ri fikrlarning ikkalasi ham zararlidir. Xo'sh, tushunarlilik prinsipining o'zi nima?. Bu prinsipga muvofiq, o'quv materialini bolalarga shunday qiyinlik darajasida berish kerakki, ular ana shu materialni o'zlashtirish uchun faol fikrlashlari, o'zlarining barcha aqliy va jismoniy qobiliyatlarini ishga solishlari lozim.

Boshlang'ich ta'limning nazariy saviyasini oshirish, boshlang'ich sinflardagi o'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan axborotlar hajmini oshirish maktab yoshidagi bolalarga beriladigan ta'limning tushunarliliigi muammosini keskinlashtirdi. Mana shu muammoni bir xil yo'sinda hal qilish bolalarning bilish imkoniyatlarini ortiqcha yoki yetarlicha baholamaslik kabi xavflidir. Bolalar psixologiyasi va yosh psixologiyasi sohalaridagi so'nggi tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, ta'limning mazmuni va metodlarini o'zlashtirish bilan bolalardagi ayrim psixik jarayonlar va funksiyalarni rivojlantirishda ajoyib siljishlarga erishish mumkin; buning natijasida psixik jarayonlarning doimo kattaroq yoshli bolalarga xos deb hisoblangan xususiyatlari kichik bolalarda ham tarkib topishi (masalan, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda fikrlashning nazariy shakllari vujudga kelishi) mumkin. Lekin bunda har qalay bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga

olish zarur. Yuqorida ko'rsatilgan dalillar go'yoki yosh kamolotida umuman qandaydir chegaralar borligiga va unda qandaydir bosqichlar mavjudligiga shubha tug'diradi. Lekin bu dalil bizga yosh tushunchasini yanada kamroq o'zgartiradigandek tuyuladi, chunki ayrim xususiyatlarning shunchaki yig'indisi ekanligi bilan emas, balki bola shaxsining yaxlit tuzilishidagi o'ziga xoslik bilan xarakterlanadi. Boshqacha aytganda, bola yoshining psixik tavsifi uning o'ziga xos ayrim psixologik xususiyatlari bilan emas, balki har bir yosh bosqichida uning shaxsi har xil tuzilishi ehtiyojlari sohasi, ongining tuzilishi va voqelikka munosabatining o'zgarishi bilan belgilanadi. Boshlang'ich ta'limning tushunarligi muammosi faqat tegishli saviyadagi dastur va darsliklar yaratish bilan hal qilinmaydi, uning hal qilinishi butun o'quv jarayonining qo'yilishini takomillashtirish va o'quv materiallarini tanlash ishlari bilan bog'liqdir. O'quv materialining tushunarligi belgilari sifatida quyidagilarni tavsiya qilish mumkin:

- material tanlashning yo'nalishi, avvalo tarbiyalovchi ta'lim vazifalaridan kelib chiqadi; fanning asosiy mazmunidan tabiat va jamiyatning eng umumiy qonunlari haqidagi ta'limotning to'g'riligini ko'rsatadigan qoida va dalillar tanlanadi, tafakkur, vatanparvarlik hissi, fuqarolik burchi va g'oyaviy e'tiqodlilikni tarbiyalashda yordam beradi;

- o'quv materialining ko'rimlilik, uning miqdori o'qitish uchun tanlangan ilmiy bilimlar majmuasini tizimlashtirishga va yaxlit qamrashga to'sqinlik qilmaydigan bo'lishi bilan xarakterlanadi;

- o'quv materialining soddaligi ilmiy nazariyaning eng ahamiyatliligi, muhim komponentlarni va ilmiy bilimlarni ifodalashning psixologik jihatdan asoslangan shakllarini ajratish (ta'riflarning soddalashtirilishi, tushunchalarning tasavvurlar bilan almashtirilishi, murakkab asoslarning tushirib qoldirilishi va hokozalar) bilan xarakterlanadi;

- o'quv materialining normalashtirilishi unda umumiy majburiy normalarni hamda yaqqol ifodalangan, eslab qolish va qo'llash uchun qulay qoidalarni ajratish bilan xarakterlanadi;



– o‘quv materialining taqsimlanganligi aslida uni o‘quv jarayonining vazifalariga va o‘quvchilarning yosh imkoniyatlariga muvofiq yo‘sinda ta‘lim yo‘llari bo‘yicha joylashtirishdir. Ta‘limning tushunarligi belgilarining mana shu tizimini yagona va qat‘iy deb hisoblab bo‘lmaydi. Lekin bu belgilarning ko‘pi maktab amaliyotida tarkib topgan ishlarning haqiqiy ahvolini aniq va ishonarli aks ettiradi.

Boshlang‘ich ta‘limning nazariy saviyasini yuksaltirish munosabati bilan olimlar, metodistlar va o‘qituvchilarning kamol toptiruvchi ta‘lim prinsipini amalga oshirish masalalariga diqqat e‘tibori kuchaydi.

Keyingi paytda o‘rganiladigan materialning mazmuni, hajmi, murakkabligi bilan o‘quvchilarning aqliy kamol topishi sur‘atining o‘zaro bog‘liqligi yoritilgan maxsus psixologik–pedagogik tadqiqotlarning (L.V. Zankov, D.B. Elkonin, V.V. Davidov) ma‘lumotlari ta‘sirida ta‘limni o‘quvchilardagi aqliy qobiliyat va bilish imkoniyatlarining rivojlanishida erishgan darajaga aynan muvofiq holda emas. balki shu darajadan oldinroq yo‘sinda, ya‘ni ularning kelgusidagi rivojlanishini mo‘ljallab yo‘lga qo‘yish tavsiya etildi.

Ta‘lim kamol toptiradigan bo‘lishi uchun “eng yaqin kamolot zonasidagi” bilish imkoniyatlariga mo‘ljallanishi kerak. Kamol toptiruvchi ta‘lim masalasini amaliy hal qilishdagi ko‘p xatolar kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning mavhum fikrlash qobiliyatlarini yetarli darajada baholamaslikdan kelib chiqadi. Shuning natijasida ayrim maktablarda malakalarni shakllantirish hozirga qadar “mana bunday qil” degan prinsipda, ya‘ni o‘zlashtirgan umumiy qonuniyatlarni va umumlashmalarni ongli ravishda qo‘llash asosida emas, o‘qituvchi bergan namunalarga bevosita ergashish asosida amalga oshirilmoqda. Ana shu sababli ba‘zi o‘quvchilar yangi materialni o‘rganishda, ta‘limiy va amaliy topshiriqlarni bajarishda ilgari o‘zlashtirgan bilim va malakalardan foydalana olmaydilar.

Umar Xayyom ta‘lim olishda o‘quvchilarning mustaqil faoliyat ko‘rsatishini yuqori baholagan va ularning har xil mushohada yuritishlari, turli narsalarni isbotlashlari zarurligini ta‘kidlagan edi.

Shuningdek, u o‘quvchilarning fikrlash faoliyatlarini ularga “o‘ylab ko‘r”,

“ozgina o‘ylasang, tushunasan” va hokazolar deya murojaat qilish orqali quvvatlab va yo‘naltirib borish maqsadga muvofiqligini uqtirgan.

Ko‘pincha o‘quvchilarning kamol topishi haqida ularning turli narsalardan xabardorligiga qarab, har xil manbalardan olib, asosan filmlar va televideniye dasturlarini ko‘rib, radioni va kattalarning hikoyalarini eshitib to‘plagan qisqa ma‘lumotlari va faktlarning ko‘pligiga qarab xulosa chiqariladi.

Ba‘zan kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar nutqida ilmiy iboralar ko‘p uchrashiga qarab, ularni yuqori darajada kamol topgan deb hisoblanadi. Lekin aslida murakkab ilmiy iboralarni ustalik bilan ishlatadigan o‘quvchilar ma‘lum sabablarga ko‘ra ularning ma‘nosini tushunmaydilar va grammatik taxtilda, yozishda xatolarga yo‘l qo‘yadilar. Kamol topishni yuqoridagicha noto‘g‘ri tushunish amalda o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishga yuzaki qarashlarini vujudga keltiradi.

Aqliy kamolot o‘zaro bog‘liq hamda bir-birini taqozo etadigan bilimlar, ko‘nikma va malakalar tizimini o‘zlashtirishni talab qiladi. Bunda esa, o‘z navbatida faktlarni bilish, ularning ma‘nosi va ahamiyatini tushunish, ilgari tanish bilimlarga tayanib tushuntira olish zarurati tug‘iladi. O‘quvchilar yaxshi kamol topganligining muhim ko‘rsatkichi ularning o‘quv ishlaridagi faolligi va mustaqilligidir. Mutlaqo ayonki, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar eng muhim mantiqiy operatsiyalarni o‘zlashtirmay turib mazkur o‘quv ishlarini bajara olmaydilar. Shu tariqa kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning aqliy kamol topishini o‘quv jarayonining tegishli mazmuni va to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi ta‘minlaydi.

### **Mustahkamlik prinsipi**

Odam har daqiqada qayta tiklay oladigan va amalda qo‘llay biladigan bilimlar mustahkam bilimlar deyiladi. Ta‘limning mustahkamligi o‘rganilgan bilimlarning, shakllangan ko‘nikma va malakalarning xotirada uzoq vaqt saqlanishini bildiradi. Umumiy ta‘lim maktabining eng muhim maqsadi o‘quvchilarga ularning xotirasida uzoq vaqt saqlanadigan bilimlar berishdir.

O‘quvchi vaqt o‘tishi bilan maktabda olgan bilimlarining bir qismini unutadi. Lekin ular izsiz yo‘qolmaydi. Olingan bilimlar, garchi o‘quvchilar unutganda ham,

aqliy kamolotda ma'lum darajada iz qoldiradi. Ko'pincha bolalar o'zlarining amaliy faoliyatlariga bog'lanmagan maktab materialini eslaridan chiqaradilar. Ba'zan o'rganish jarayonida mashq va mustaqil ishlar kam bajarilishi sababli, materiallar xotirada mustahkam saqlanmaydi. Bulardan tashqari, oldingi mashg'ulotlarda o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar yanada murakkabroq materialni o'rganish uchun bir pog'ona. tayanch bo'ladi. Ana shu tayanchsiz o'quvchilarning o'sishi va olg'a siljishi mumkin emas. Ilmiy bilimlarni egallash o'quvchilarning xotirasini, mantiqiy tafakkurini. ijodiy faolligi va turli ishlarni bajarishdagi mustaqilligini rivojlantiradi. Lekin olingan bilimlar, hosil qilingan ko'nikma va malakalar keyinchalik, ilmiy bilimlar tizimini o'rganishda tayanch sifatida xizmat qilishi uchun ular puxta o'zlashtirilishi, asosli mustahkamlanishi va o'quvchilar xotirasida uzoq vaqt saqlanishi kerak. Bu mustahkamlik prinsipining talabi bo'lib, unga rioya qilinmasa, o'quvchilarning o'zlashtira olmasligi va o'qishdagi qoloqligi kelib chiqadi. Bilimlar, ko'nikma va malakalarning mustahkamligiga butun o'quv jarayoni mobaynida erishiladi.

Mustahkamlik prinsipining amalga oshishi, eng avvalo, o'quvchilarning o'quv materialini idrok etishiga bog'liqdir. O'quvchilarga ko'rsatmali, yaqqol, jiddiy mantiqiy izchillikda berilgan bilimlar ularning xotirasida yaxshiroq mustahkamlanadi. Shu tariqa o'quvchilarning bilim. ko'nikma va malakalarni puxta o'zlashtirishi, birinchi galda, ta'limning boshqa hamma prinsiplarini tushunarlilik, izchillik va tizimlilik, nazariyani amaliyot bilan bog'lash. ko'rsatmalilik, o'quvchilarning ongliligini amalga oshirish orqali ta'minlanadi. Shular bilan birga, o'qitish jarayonida mustahkamlik prinsipining amalga oshishini ta'minlaydigan maxsus didaktik vositalar ham qo'llanadi. Ularga mazkur darsda bayon qilinganlarni mustahkamlash kiradi. Bu ish o'quvchilar bilan suhbatlar, mashqlarni tashkil etish, ta'limiy masalalarni hal qilish va har xil amaliy topshiriqlarni bajarish orqali o'tkaziladi. O'quvchilar materialni esdan chiqarishining oldini olish. ular unutgan bilimlarni qayta tiklash, o'zlashtirgan bilimlarini tizimlashtirish va chuqurlashtirish uchun takrorlashning har xil turlari amalga oshiriladi. Har bir mashg'ulotda oldingi dars materialini joriy takrorlash o'tkazilib. u yangi material

bilan bog'lanadi. O'quv yili mobaynida mavzu yoki bo'lim bo'yicha o'rganilgan materialni takrorlash uchun maxsus darslar ajratiladi va uni tizimlashtirib, chuqurlashtirib hamda mustahkamlab boriladi. Ana shu maqsadda o'quv yili ohirida eng muhim masalalarga doir materiallar umumiy yo'sinda takrorlanadi. Agar mazkur predmetni o'rganish keyingi sinfda ham davom etsa, yangi o'quv yilida unga doir mashg'ulotlar oldingi materiallarni takrorlashdan boshlanadi. Takrorlash passiv holatda amalga oshirilmaligi kerak. Takrorlashda qo'shimcha dalil va misollarni keltirish, o'rganilgan narsa va hodisalarning yangi tomonlarini ko'rib chiqish, ularni chuqurroq taxlil qilish, bilimlarni murakkab ta'limiy va amaliy masalalarni hal qilishda qo'llash kerak. Mana shularning hammasi o'quvchilarning materialga qiziqishini oshiradi, mantiqiy tafakkurini, ishdagi faolligi va mustaqilligini rivojlantiradi. O'quvchilarning bilimlarini puxta o'zlashtirishiga ko'nikma va malakalarni mustahkamlash hamda chuqurlashtirishda yordam beradigan mashqlarni bajarish orqali erishiladi. Shu bilan birga, ularning fikri takomillashadi, bilimlari kengayadi va chuqurlashadi. O'quv mashg'ulotlari davomida o'qituvchi bolalarning xotirasini rivojlantirish ishlarini ham amalga oshirishi kerak. Ana shu maqsadda ularga so'zlarni, ta'riflarni, har xil qoidalarni yodlash topshiriqlarini berish lozim. Yodlash quruq va ma'nosini anglab yodlashdan iborat bo'ladi. Ma'nosini anglab yodlash yangi materialni ilgari ma'lum materialga, nomlarga mantiqiy bog'lash asosida amalga oshadi. U quruq yodlashga nisbatan o'quvchilar xotirasida materialni kamroq vaqt sarflagan holda ko'proq mustahkamlashni ta'minlaydi. Shuning uchun o'quvchilarda, avvalo, mantiqiy ma'nosini anglab xotirlashni rivojlantirish zarur. Birinchi sinf o'quvchisi ta'limning dastlabki oylaridagi o'qish darslarida o'qilgan hamma narsani to'la yodlashga, matnlarni yoddan gapirib berishga harakat qiladi. Chunki u asosiy fikrni ajrata olmaydi.

O'qituvchining vazifasi o'quvchilar o'zlashtiradigan materialning mustahkamligini ta'minlashdan, darsni tushuntirish tizimidagi asosiy fikr ajraladigan yo'sinda tashkil qilishdan iboratdir. Yuqoridagilardan xulosa sifatida aytish mumkinki, o'quvchilar o'zlashtiradigan bilimlar mustahkam bo'lishi uchun:

1. O'qituvchi o'quv materialidagi asosiy fikrni ajratishi shart.
2. O'quv materialidagi asosiy fikr o'quvchi o'rganilgan masala bo'yicha biladigan g'oyaga bog'langan bo'lishi kerak.
3. Bilimlar o'quvchilarning qarashlari va e'tiqodlari tizimini o'z ichiga olishi lozim, shundagina ular bolaning boyligiga, yutug'iga aylanadi va u bilimlarni esidan chiqarmaydi.
4. O'quv materialini o'quvchining amaliy ishlari va mashqlariga bog'lab, undagi bilimlarning mustahkamligini ancha oshirish zarur.

Ta'limning hozirgi sharoitida bolalarning individual xususiyatlarini o'rganish va ularga yakka tartibda yondashishni amalga oshirish tobora katta ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi kunda yosh avlodni har tomonlama kamol toptirish vazifalarini bajarish uchun ota-onalar va bolalarga maktabdan tashqari qo'shimcha vositalarni tanlash bo'yicha keng imkoniyatlar tug'ilmoqda. Har bir bola to'garaklarda va seksiyalarda shug'ullanishi mumkin. Bolalarni kamol toptirish imkoniyati hamma bolalar uchun bir xilda ro'yobga chiqmaydi. Bir bola aviamodel to'garagida, ikkinchi bola yosh tabiatshunoslar seksiyasida va uchinchi bola musiqa bilan shug'ullanadi. Tabiiyki, ana shunday mashg'ulotlar bolalarning individual xususiyatlari va mayllariga har xil ta'sir ko'rsatadi. Bir oiladagi bola kichikligidan mustaqillikka, intizomlilikka, mehnat qilishga odatlanadi. Boshqa oiladagi bola erkato'y bo'lib, kattalarning maslahati, buyrug'i yoki yordamisiz o'zicha biror ish qilishni xohlamaydi. Uchinchi oiladagi bola esa o'z holiga tashlab qo'yilib, uning tarbiyalanishida ko'p narsa o'zi do'stlashgan bolalar guruhiga bog'liq bo'ladi. Oila tarbiyasining turli sharoiti, albatta, juda katta individual tafovutlarga olib boradi. Bilimlarning puxtaligiga quyidagi yo'llar bilan erishish mumkin:

1. Eslab qolishga o'rgatish bilan. O'quvchilar ko'p narsalarni eslab qolishni o'rganishlari kerak. Buning uchun o'qituvchi ularni doimo eslab qolishga yo'naltirishi, maktabda, ko'chada, uylarida kuzatishga va eslab qolganlarini gapirib berishga majbur etishi lozim. Bunda o'qituvchining nazorati juda muhimdir. Agar u materialni chorshanba kunigacha yodlashni aytsa-yu, uni juma kuni so'rasa, materialning yarmidan ko'pi unutilgan bo'lishi mumkin. O'qituvchining tushunarli

shakl va metodlari uzoq vaqtgacha, hatto umr bo'yi eslab qolishga ham o'rgatishi zarur.

2. Kuchli taassurot qoldirgan narsalar xotirada saqlanadi. Yaxshi yoki yomon ta'sir ko'rsatmaydigan, saviyasiz, bir yo'sindagi materiallar esda qolmaydi.
3. Badiiy abadiyotning yaxshi namunalaridan keltirilgan parchalar, maqollar, topishmoqlar, hikmatli so'zlar xotirada mustahkam saqlanadi.

Ta'limning muvaffaqiyatligi o'qitish jarayonida didaktik prinsiplar qanchalik amalga oshirilishiga, ularning o'zaro ta'siri, ulardan qanday foydalanishiga bog'liqdir. Binobarin, o'z – o'zidan ayonki, ilmiylik, tizimlilik, ko'rsatmalilik prinsiplariga, umuman, pedagogika tavsiya etgan prinsiplar majmuyiga rioya qilmay bilimlarning puxtaligiga erishish mumkin emas.

### **Ta'limni turmush bilan bog'lash prinsipi**

Ilmiy bilimlar kishilarning ishlab chiqarish faoliyatiga bo'lgan ehtiyojlari asosida vujudga kelishi, ana shu faoliyatga xizmat qilishi va turmush bilan bog'liqligi sababli bunday bilimlarni o'zlashtirish uchun faqat ularning mazmunini emas, balki amalda qo'llanishini ham o'rganish kerak. Ana shu prinsipni (ta'lim nazariyasi va amaliyotini o'zaro bog'lashni) amalga oshirishning muhim vositasi o'qitishni o'quvchilarning amaliy faoliyati va mehnati bilan qo'shib olib borishdir. Respublikamizning xalq ta'limi to'g'risidagi Qonunida o'qitishni hayot bilan chambarchas bog'lash talabi qo'yilgani bejiz emas. Ta'limda o'qitishni amaliyotga bog'lash prinsipini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagi ikkita pedagogik talabga rioya qilish zarurdir:

1. Nazariy materiallarni o'rganishda ularning tizimi va mantiqini saqlash kerak.

2. Amaliy ko'nikma va malakalarni bilimlarga tayanmay o'zlashtirish o'qituvchining ishidagi kamchilikdir. Puxta egallangan va anglangan bilimlarga o'quvchilarga amaliy ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish imkonini beradi.

## **O'qitishga individual yondashish prinsipi**

Individuallik nima? Pedagogikada individuallik hozirgi paytgacha sof tashqi xarakterga ega bo'lib, u (o'quvchilarning butun jamoasi bilan o'tkaziladigan dars, leksiya kabi umumiy mashg'ulotlar, o'quvchilarning jamoasi emas, ularning ayrimlari bilan o'tkaziladigan, masalan, seminar singari guruh mashg'ulotlar qatorida) har bir o'quvchi bilan alohida shug'ullanishni bildirib keldi. Pedagogika uning mohiyatiga chuqur kirib bormadi. Individuallikning shakllanishi esa, avvalo, uning mohiyatini va qanday komponentlardan tarkib topishini bilishni taqozo etadi. Har bir o'quvchi bilan alohida ishlab, uning individual sifatlarini rivojlantira olmaslik ham mumkin, lekin o'quvchilarning butun jamoasi bilan ishlab, ularning har birida individuallik shakllanishi uchun sharoit yaratish ham mumkin. Bunga qanday qilib erishilishini bilish uchun "individuallik". tushunchasiga kiradigan strukturaviy elementlarni, individuallikni rivojlantirish va shakllantirish ishida qaysi prinsiplar hamda metodlardan foydalanish kerakligini aniqlash zarur.

Individuallikning mohiyatini individ sifatidagi, shaxs sifatidagi. subyekt sifatidagi insonning o'zaro ichki bog'lanishdagi va bir butun xossalari tashkil qiladi. "Individ", "shaxs", "subyekt" umuman insonni emas, balki uning bir jihatigina ifodalaydi. Shuning uchun ham bizning ko'z oldimizda inson o'zining faqat u yoki bu jihati bilan namoyon bo'lmaydi, u bir paytda butun mavjudot bo'lib, maxsus tushuncha bilan qayd etilishi lozim. Individ, shaxs va subyektning xususiyatlari o'zaro ta'sirlashuvi asosida vujudga keladigan individuallik tushunchasi ana shundan iboratdir.

"Individ" tushunchasi insonni tabiiy mavjudot sifatida aks ettiradi va individuallikning tabiiy asosini ifodalaydi; u inson individualligining asosiy jihati bo'lib, insonning organik, yosh, jinsiy, konstitutsion, neyrodinamik xususiyatlariga kompleks holda qaraydi va bular o'zaro ta'sirlanib insonda turli individual xususiyatlarning temperament. iste'dod. organik ehtiyojlarning vujudga kelishiga sabab bo'ladi va bu xususiyatlar ham individuallikning tabiiy asosini tashkil qiladi.

Insonning ijtimoiy sifatini "shaxs" tushunchasi ifodalaydi. Ijtimoiy tajribaga ega bo'lmagan inson individ shaxsga aylanmasligi ham mumkin. Inson shaxsining

xususiyatlari individuallik strukturasi ajralmas qismi bo'lib, individuallikning o'zi inson shaxs sifatida kamol topishining ijtimoiy sohasidagina namoyon bo'ladi. "Shaxs" tushunchasi alohida insonda ijtimoiy munosabatlarning ko'rinishini, undagi ijtimoiy xususiyatlarning birligini mujassamlashtiradi. Shaxsning individualligi uning ijtimoiy muhitdan nisbiy erkinligidir, u ichki alohidaligida ko'rinadi. Individuallik insonning individi va shaxsiga xos xususiyatlar bilan birga subyekt xususiyatlarini ham o'z ichiga oladi. Inson subyekt sifatida tushuniladi. Subyekt amaliy faoliyat va ong sohibidir. Insonning har qanday faoliyati individuallikning ko'rinishi bo'lavermaydi. Alohida, ichki vositali faoliyatning mustaqil harakat qiladigan va bir qarorga keladigan subyektigina individuallik hisoblanadi. Individuallikka strukturali tizimli yondashish uning yaxlit voqea sifatidagi o'ziga xos xususiyatlarini yoritishi bilan juda muhim ahamiyatga molikdir. Lekin uning umumiy mexanizmlarini aniqlash uchun organizm faoliyatining ichki qonunlari va shakllariga, uning individual hayot tajribasi shakllanishining qonuniyatlariga murojaat qilish kerak.

#### **Savol va topshiriqlar:**

1. Prinsip deganda nimani tushunasiz?
2. Ta'limning ilmiylik, izchillik, muntazamlilik, prinsiplarini tushuntirib bering.
3. Ayrim prinsiplar (tanlab) tadqiq qilingan ishlar bilan tanishing va ularni qisqa bayon eting.
4. "Boshlang'ich ta'lim" jurnalida tavsiya etilgan ayrim darslarni o'rganing, ulardagi o'qituvchi foydalangan ta'limning prinsiplarini ajrating.
5. IX–XII asr olimlarining didaktik tamoyillar haqida bildirgan fikrlarini taxlil qilib, asosiy tamoyillarni belgilang.



## V BOB. O'ZBEKISTON MAKTABLARIDAGI TA'LIMNING MAZMUNI

Ta'lim asosida jamiyat rivojlanishining ob'yektiv ehtiyojlari turadi. Ta'lim insonning mehnat olamiga samaraliroq kirishini, jamiyat hayotiga qo'shilishini ta'minlaydi. Mustaqillikka erishib, erkin bozor munosabatlari asosida demokratik huquqiy davlat sifatida shakllanish yo'liga o'tgan O'zbekistonda hozirgi bosqichda Xalq ta'limi tizimiga, pedagogika faniga, yosh avlodda mustaqillik va faollikni, ishbilarmonlik va tadbirkorlikni shakllantirishga jiddiy e'tibor berilmoqda.

XX asr pedagoglari va psixologlarining diqqat markazida o'quvchilarning aqliy qobiliyatlarini shakllantirish, ularni o'qitish, tarbiyalash va kamol toptirish jarayonlarini uyg'unlashtirish, faoliyat va ongning o'zaro bog'liqligi nazariyasini ishlab chiqish, mustaqil o'quv bilish ishlari, o'qishni faollashtirish, ta'lim jarayonlarini optimallashtirish, faol ta'limning shakl va metodlaridan foydalanish kabi muammolar asosiy o'rin oladi. Ularni ishlab chiqish mamlakat pedagogika va psixologiya fanlarida jahonda haqli ravishda e'tirof etilgan turli yo'nalish va maktablar vujudga kelishini oldindan bilish imkonini yaratdi.

Ta'lim jarayon bo'lib, u natija va tizimdir. Ta'lim jarayon sifatida bilimlar, ko'nikma va malakalarning ma'lum yig'indisini, faoliyat va munosabatlarning tegishli tajribasini o'zlashtirishga qaratilgan maxsus ishlarning tashkil qilinishidir. Ta'lim natija sifatida bilimlarni, faoliyat va munosabatlar tajribasini o'zlashtirishda erishilgan darajadir. Ta'lim tizim sifatida davlat muassasalari va boshqarish organlarining majmuasi bo'lib, ular doirasida insonni tarbiyalash jarayoni amalga oshiriladi. Shu tariqa, ta'lim doimo bir yo'la tarbiyalash jarayonini ham, o'qitish jarayonini ham ifodalaydi. Yosh avlod haqida gap borar ekan, shaxsning kamol topishi, o'z mavqeyini anglash va o'zini ko'rsatish masalalari birinchi o'rinda turadi. Bu masalalar butun jamiyat va maxsus yaratilgan ijtimoiy institutlar va insonning o'zi tomonidan tasodifiy ravishda ham, maqsadga muvofiq yo'sinda ham hal qilinishi mumkin. Ta'lim tizimida shaxsning ijtimoiylashuvi, kasbni egallashi va moslashuvi jarayonlarini maqsadga muvofiq tarzda boshqarishga ham da'vat

etilgan. Bugungi kunda har bir xalqning faqat o'z milliy madaniyati asosida o'qishi va tarbiyalanishi yetarli emasligi, u jahon madaniyati boyliklarini ham anglashi zarurligi to'g'risidagi fikrlar tasdiqlanmoqda. Bilimdon kishilarni tarbiyalashdek an'anaviy vazifa o'rniga atroflicha fikr yuritadigan ijodkor kishilarni kamolga yetkazish vazifasi olg'a surilmoqda. Ilgari ma'lumotlilik darajasi o'rganilgan qoidalar, taxlil qilingan asarlar, yodlangan she'rlarning soni va bir xil masalalarni yechish ko'nikmasi bilan belgilangan bo'lsa, hozirgi kunda bu daraja miqyosi kengaydi. Eng muhim masalalarni qo'ya bilish har qanday ishga ijodiy yondashish kabi xislatlar ma'lumotlilik darajasini ko'rsatadi. Avvalgi vaqtlarda o'quvchilarni axborotlardan xabardor qilingan bo'lsa, endi ularda hayotni o'zgartirish, uni yaxshi tomonga burish ko'nikmalari va qobiliyatlarini shakllantirishga jiddiy ahamiyat berish zarur. Eng muhimi, butun tarbiyaviy jarayonni insonga qaratishdir. Ta'lim insonni bilimlar bilan qurollantiribgina qolmasligi, balki uni shaxs sifatida kamol toptirishi va takomillashtirishi ham kerak. Boshqacha aytganda, jamiyatda ta'limni insonparvarlashtirish g'oyalari tobora keng yoyilmoqda. Shubhasizki, jamiyat va maktabni insonparvarlashtirish muammosi ta'limning og'zaki axborot usulini unumli, yaratuvchilik usuliga aylantirish bilangina hal bo'lmaydi. Mazkur jarayonning eng muhim yo'nalishi ta'lim mazmunini insonparvar qilishdir. Bu tadbir, birinchidan, shaxsda madaniyatni shakllantirishda fanlarning rolini oshirishdan, xalq milliy madaniyatining barqaror boyliklarini tushunishdan, ikkinchidan, tabiiyilmiy va texnika fanlarini ekologik hamda ijtimoiy ahamiyatli jihatlar bilan boyitishdan iboratdir. Ta'limni insonparvarlashtirishning eng zarur tomonlaridan biri maktab o'quvchilarga faqat malum hajmdagi bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishda yordam berib qolmay, balki ularni madaniyati, uning boyliklari va xilma-xilligiga jalb etishi kerak. Hozir o'zbek maktabining milliy xarakteri muammosi g'oyat jiddiydir.

### **Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti**

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti o'quvchilar umumtalim tayyorgarligiga, saviyasiga qo'yiladigan majburiy minimal darajani belgilab beradi.

Davlat ta'lim standarti (DTS) ta'lim mazmuni, shakllari, vositalari, usullarini, uning sifatini baholash tartibini belgilaydi. Ta'lim mazmunining o'zagi hisoblangan standart vositasida mamlakat hududida faoliyat ko'rsatayotgan turli muassasalarda (davlat va nodavlat) ta'limning barqaror darajasini ta'minlash sharti amalga oshiriladi. DTS o'z mohiyatiga ko'ra o'quv dasturlari, darsliklar, qo'llanmalar, nizomlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti o'zining tuzilishi va mazmuniga ko'ra davlat, hudud, maktab manfaatlari va vositalari muvozanatini aks ettiradi hamda eng asosiysi o'quvchi shaxsi, uning intilishlari, qobiliyati va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqadi. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti quyidagi tamoyillarga tayangan holda ishlab chiqiladi:

- davlat ta'lim standartining davlat va jamiyat talablariga. shaxs ehtiyojiga mosligi;

- o'quv dasturlari mazmunining jamiyat ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyoti hamda fan texnika rivojlanishi bilan bog'liqligi;

- umumiy o'rta ta'limning boshqa ta'lim turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi va ta'lim mazmuninig uzviyligi:

- umumiy o'rta ta'lim mazmunining insonparvarligi;

- ta'lim mazmunining Respublikadagi barcha hududlarda birligi va yaxlitligi;

- umumiy o'rta ta'limning mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsion texnologiyalarga tayanish;

- o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan majburiy minimal talablar.

Umumiy o'rta ta'lim ikki bosqichdan iborat bo'lib, boshlang'ich (1-4 sinflar) va umumiy o'rta ta'lim (1-9 sinflar)ni qamrab oladi.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti boshlang'ich hamda umumiy o'rta ta'lim nihoyasida o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning minimal darajasini belgilab beradi. Har bir sinf yakunida o'quvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar o'quv fanlari bo'yicha ishlab

chiqilgan o'quv dasturlarida o'z aksini topgan.

### **O'quv rejasi, dasturlari va darsliklar**

Barcha maktab predmetlarida beriladigan ta'limning mazmuni davlat hujjatlarida, o'quv rejasida, o'quv dasturlari va darsliklarida aks etgan. Ana shu hujjatlar respublikadagi barcha maktablar uchun majburiydir.

*O'quv rejasi.* Maktabning o'quv rejasi maktabda o'rgatish uchun tanlangan o'quv predmetlarini, ularning ta'lim olish yo'llari bo'yicha taqsimlanishini, har bir predmetga ajratilgan soatlar miqdorini va shu soatlarning haftalarga bo'linishini belgilaydi.

O'quv rejalarini xalq ta'limi vazirligi tomonidan tuziladi va tasdiqlanadi hamda respublikadagi barcha maktablar uchun majburiy hisoblanadi. O'quv rejalarini tuzishga predmetli o'qitish prinsipi asos bo'ladi. O'quv rejasi ta'limning mazmunini belgilaydigan eng muhim hujjat bo'lib, unda mazkur o'quv yurtida o'rganiladigan o'quv predmetlarining tarkibi, ularning o'quv yillari va haftalari bo'yicha taqsimlanishi hamda har bir o'quv predmeti uchun ajratilgan vaqtlar miqdori ana shularga muvofiq ifodalanadi. O'quv rejasi aslida ta'lim mazmunining qabul qilingan u yoki bu nazariy konsepsiyasini normativ yo'sinda va yaxlit holda aks ettiradigan asosiy hujjatdir. Ta'limning mazmunini ifodalovchi hujjat sifatidagi o'quv rejasi ijtimoiy buyurtmaning pedagogik talqini natijasida tarkib topgan ta'lim mazmunining ifodasiga bevosita bog'liq bo'ladi. Jahon pedagogikasida o'quv rejasini ayrim o'quv predmetlaridan tuzish kerakmi yoki turli fanlarga doir bilimlar qandaydir amaliy ish yoki tadqiqot doirasi guruhlanadigan komplekslar va loyihalardan tuzish kerakmi, degan masala xususidagi munozara bormoqda. Amerika Qo'shma Shtatlarida kompleks o'qitish uzoq muddatli elementar maktabdagina emas, balki o'rta maktabda ham davom etadi. Komplekslik g'oyasining o'zi nihoyatda keng tus olgan. Amerika pedagogikasida o'quv dasturlarini predmetlar bo'yicha tuzishga qarshi kurash boshlanganiga yarim asrdan oshdi. Ish tajribalari va anchagina pedagogik tadqiqotlardan ko'rinishicha, maktabda o'rgatish uchun tanlangan o'quv predmetlarini bir yo'la o'rganish

mumkin emas. Chunki, birinchidan, bunga jiddiy chegaralangan o'quv vaqti imkon bermaydi, ikkinchidan, ayrim o'quv predmetlarini o'zlashtirish uchun oldin boshqa o'quv predmetini o'rganish shart. O'tmishda ana shunday fikr yuritish ma'lum predmetlarni o'rganishda jiddiy izchillik prinsipini mustahkamlashga urinish imkonini berdi. O'quv rejalari o'quvchilarning yosh xususiyatlariga muvofiq tuziladi. O'quv rejasiga mazkur yoshdagi o'quvchilarga mos predmetlar tegishli hajmda kiritiladi va ular o'quvchilarning har tomonlama muvaffaqiyatli kamol topishiga yordam berishi ko'zlanadi. Har bir predmet uchun o'quv soatlarining miqdorini belgilashda, birinchidan, predmetning ta'lim tizimidagi rofi va ahamiyati, ikkinchidan, mazkur predmet bo'yicha o'rganilishi lozim bo'lgan o'quv materialining hajmi, uchinchidan, u yoki bu predmetni o'rganishning didaktik xususiyatlari e'tiborga olinadi. Bulardan tashqari o'quv rejasida o'quvchilarning ayrim fanlarga qiziqishi, xohishlarini qoniqtirish va qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida o'tkaziladigan fakultativ mashg'ulotlariga soatlarmiqdori ajratiladi.

O'quv rejasi tuzishda quyidagi omillarga asoslaniladi:

1. Ta'limning uzluksizligi va izchilligiga;
2. O'quv fanlarining hajmi, o'quvchilarning yoshi, bilim saviyasiga qarab belgilanadi;
3. O'quv rejasiga kiritilgan fanlar dunyoviy va ilmiy xarakterga ega bo'lib, umuminsoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratiladi.

O'quv rejasida tabiiy fanlar – matematika, fizika, kimyo, biologiya, geografiya, informatika kabi fanlar asosiy o'rinni egallab, o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga ijtimoiy fanlar – ona-tili, tarix, chet tili kabi fanlar bilan bir qatorda o'quvchining ma'naviy dunyosini boyitadigan va ijtimoiy hayotga tayyorlashda ahamiyatga ega bo'lgan tasviriy san'at, musiqa, jismoniy tarbiya, mehnat ta'limi va iqtisod asoslari singari fanlarni o'qitish uchun soatlar ajratiladi.

O'quv rejasining tushuntirish xatida ikkita qoida yoritiladi: o'quv rejasining tuzilishi prinsiplari ta'lim mazmunining tarkibi va strukturasi ta'sir etadigan, uni to'g'rilaydigan omillardan biri sifatida ifodalanadi; ta'lim mazmunining, ta'lim

konsepsiyasini aks ettiradigan hujjat sifatidagi o'quv rejasining vazifalarini kengaytirmay turib, rejada va o'quv dasturlarida ta'lim mazmunining tarkibi va tuzilishini to'liq yoritib bo'lmaydi. O'quv rejasida o'quv predmetlarining yaxlit kontegratsiyalangan tizimi ikki marta: maktabdagi ta'limning dastlabki va oxirgi pog'onalarida, o'qitishning boshlang'ich va yakunlovchi bosqichlarida ifodalanadi. Maktabning o'rta zvenosida predmetlarni tabaqali o'rganish asosiy o'rin oladi.

Ta'limning boshlang'ich bosqichida integratsiyalangan kurslar kiritilishining sababi bolalarda yaqqol tabaqalangan kurslarga qiziqish bo'lmashligi, ya'ni ana shu davrda ular dunyoni yaxlit bilishi va idrok etishidir. Kichik maktab yoshidagi o'quvchini bilimlarni o'zlashtirish jarayonining o'zi qiziqtiradi. Predmetni bilishga qiziqish aqliy faoliyatning murakkab shakllari rivojlanishiga va keyinchalik predmetlarning tavsiflanishiga bog'liq holda vujudga keladi. Amaliyotdan ko'rinadiki, yangi tipdagi maktablarni yaratish, ta'lim mazmunidan ortiqcha mafkuraviylashtirish va cheklashlarni chiqarib tashlash orqali ta'limdagi qoliqlarning barham topishi ancha tezlashmoqda. Lekin ta'lim jarayonining o'zini qayta qurish, o'qituvchi bilan o'quvchilar munosabatining uslublarini o'zgartirish natijalari yaxshi sezilmayotir.

Maktablarda ta'limning mazmunini yangilash borasidagi tadbirlar va yechimlar orasidagi o'rta maktab o'quv materiallarini quyi sinflarga oddiygina ko'chirish bilan o'quvchilarning qobiliyatini tezroq rivojlantirishga, ta'limning sifatini oshirishga intilishlar ham uchramoqda. Bunday materiallar esa bolalar o'zlashtirishining psixologik xususiyatlariga ham, quyi sinfdagi o'qitish metodlariga ham to'g'ri kelmaydi. Shunga ko'ra, mazkur tadbir ortiqcha so'zlarni kiritish, axborotlarni ko'paytirish bilan ta'limning mazmunini murakkablashtiradi va hajmini oshiradi, bolaning xotirasi cheksiz bo'lsa-da, uning uchun o'quv mashg'ulotini qiyinlashtiradi, xolos. Insonparvar munosabatni barpo etish qadriyatlarining o'zgarishini talab qiladi. Endilikda boshlang'ich ta'limda bilimlarning tayyor shakllarini o'zlashtirish va, asosan, faoliyatning qayta tiklash turlaridan foydalanish emas, balki bola faoliyatining bilim olish jarayoniga bog'liq izlanish turlarini faollashtirish kerak. Psixologlarning tadqiqotlaridan ma'lum bo'lishicha, ta'lim ana

shu yo'sinda qayta qurilsa, bola to'liq kamol topish subyektiga aylanadi. Shunda u faqat qayta tiklash va to'ldirish lozim bo'lgan bilimlar bilan ta'minlanadigan pedagogik ta'sir ko'rsatish obyekti hisoblanmaydi. Bola faoliyatining jamoaga taqsimlangan shakllarida yoki o'qituvchi bilan birga ishlashda mustaqil bilim olish jarayoniga faol kirishadi va o'zining ijodiy qobiliyatlarini namoyish etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Xususan, mustaqil bilim olish jarayonidagi faol izlanish ishlarida, hatto qiyinchiliklarga duch kelinsa ham, bolaning sog'ligiga ijobiy ta'sir etadi. Shifokorlar va psixologlarning tasdiqlashicha, bolalar faolligining ro'yobga chiqmasligi ularga yomon ta'sir ko'rsatishi, intizomsizlikni, huquq buzish hollarini vujudga keltirishi, bolalarni „yuqoriga“ emas, balki „pastga“ yetaklashi mumkin. Ta'lim mazmunini qayta qurishning butun murakkabligi shundaki, bolalarni kamol toptirish talabi ularning ijodiy ishlashini kuchaytiradigan metodlarni faol qo'llashga olib boradi, ko'nikma va malakalarni shakllantirish zarurligi esa tafakkurning reproduktiv komponentlaridan voz kechishga yo'l qo'ymaydi. Bunda ularni oqilona birlashtirish, tafakkurning samarali va reproduktiv komponentlari shakllanishining dialektik birligiga erishish, ayrim tadqiqotchilar taklif qilayotganidek, reproduktiv komponentlarni inkor qilmaslikkerak.

Jamiyat uchun nihoyatda zarur alternativ maktablarga bolalarning yaxshi o'sgan va tayyorlangan sara qismi yig'ilayotgan, qolgan barcha bolalarni o'qitish odatdagi maktablarga yuklanayotgani sababli insonparvar pedagogika g'oyalari amalga oshirish yo'lga kirgan ommaviy maktabning vazifasi juda murakkablashmoqda. Tabiiyki, bunday maktablarda ham bolalarga malum bilimlar doirasida axborotlar berish va juz'iy ko'nikmalarni singdirish bilan cheklanish mumkin emas: ularni imkoni boricha yuqori darajada kamol toptirish kerak.

*Dastur.* O'quv dasturlari DTSga asoslanib tuziladigan davlat hujjati bo'lib, unda ma'lum bir o'quv fani bo'yicha o'qitiladigan bilim hajmi va ta'lim mazmuni ifodalanadi.

O'quv dasturi asosan 3 qismdan iborat etib tuziladi:

*Birinchi bo'lim uqtirish xatidir.* Bu qismda fanni o'qitishning maqsad va vazifalari, yo'nalishlari, dasturdan foydalanish tartibiga oid metodik maslahatlar

beriladi.

*Ikkinchi bo'limda* o'quv fanining asosiy mazmuni o'rganiladigan nazariy va amaliy materiallar. ular o'rtasidagi aloqadorlik, mavzular bo'yicha o'rganiladigan bilimlar ko'lami va o'quvchida hosil qilinadigan ko'nikma va malakalar majmui ko'rsatiladi. Dasturdagi mavzular ta'lim standarti bo'yicha o'quvchilar bilimining zaruriy va yetarli bilim darajasini o'z ichiga olmog'i lozim.

*Uchinchi bo'limda* o'quvchilar qo'shimcha ravishda o'rganishlari lozim bo'lgan adabiyotlar ro'yxati beriladi.

*O'quv dasturi quyidagi prinsiplar asosida tuziladi:*

1. *Dasturning ilmiyligi prinsipi.* Dasturga obektiv reallikni (voqelikni) aniq, to'g'ri va haqqoniy aks ettirgan. ilmiy jihatdan tekshirilgan ishonchli materiallar kiritiladi. Ma'lumki, hozirgi kunimizda fan va texnika tobora rivojlanib bormoqda. Fanga oid yangi ma'lumotlar va masalalar kirishi bilan o'quv dasturidagi ayrim eskirgan masalalar o'quv fanlaridan chiqarib tashlanadi.

2. *Dasturning qat'iylik prinsipi.* O'quv dasturlari jamiyatimiz taraqqiyotining har bir bosqichida fan, texnika, ishlab chiqarish hamda ijtimoiy munosabatlar sohasida erishilgan darajasini aks ettirishi lozim. Hamma o'quv fanlariga oid dasturlarning bir necha yillar mobaynida qat'iy bo'lishiga erishish shu fan bo'yicha qat'iy darsliklar ishlab chiqish uchun katta ahamiyatga ega.

3. *Nazariyaning amaliyot bilan birligi prinsipi.* Ilmiy bilimlarni puxta egallash va o'zlashtirilgan ilmiy bilimlarni amaliyotda qo'llay olish uchun o'quvchilarga beriladigan nazariy tushunchalar ijtimoiy qurilish amaliyotiga bog'lab, aniq hayotiy misollar bilan: mashqlar, tajribalar ko'rsatib, xulosalar chiqarish kabilar bilan bog'lanishi lozim. Bu o'quvchining ijtimoiy faolligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

*Dasturning asosiy vazifasi* - o'quv predmetining mazmunini ifodalashdir. Unda kursning sinflarga, qismlarga, mavzularga bo'linishi, ularni o'rganish tartibi, soatlar turi ko'rsatiladi. Hatto, dasturdagi masalalar ro'yxati ham undagi boshqa bo'limlarning mazmunidan tashqari, proessual yo'nalishi ham mavjudligidan dalolat beradi. Shunday qilib, dastur ikkita vazifani bajaradi: ta'limning mazmunini



o'quv predmeti doirasida aks ettiradi va predmet uchun muayyan normativ sifatida xizmat qiladi. Bundan tashqari, u darslikka o'tishni tayyorlaydi va uning mualliflari faoliyati uchun yo'llanma hisoblanadi.

*Masalalar ro'yxati* - dasturning markaziy bo'limidir. ammo unda boshqa bo'limlar ham bo'lib, ular darslikning tuzuvchilari fikrini va o'qituvchilarning faoliyatini ma'lum yo'nalishga solishi kerak. Har bir o'quv predmeti bo'yicha haqiqiy dastur umuman to'rt qismdan: tushuntirish xati (har xil dasturda mazmuni turlicha); ro'yxat ko'rinishidagi mazmunning o'zi (mavzular, masalalar, laboratoriyalar va amaliy ishlar, namoyishlar, ekskursiyalar); predmetlararo aloqalar ko'rsatilgan bo'lim hamda o'quvchilarning bilim va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar ifodalangan bo'limlardan iborat bo'ladi.

Kursning maqsadlari va vazifalarini ifodalash - dasturning eng muhim elementidir. Xususan, ana shu maqsad va vazifalar darslik muallifining dasturni amalga oshirishdagi ma'lum nuqtayi nazarini va o'qituvchining darslikni to'g'rilashi hamda o'qitish jarayonini tashkil etishi uchun tegishli yo'nalishni belgilaydi. O'qituvchi, ayniqsa, yosh o'qituvchilar o'z izlanishlarining yo'nalishini belgilab olish uchun kursning maqsadini chuqur anglashlari kerak. Dasturlarda shunday vazifalar ham beriladiki, o'qituvchi ularni hal qilish uchun institutda tayyorlanmagan bo'ladi. Buning misoli sifatida ta'lim mazmuniga metodologik bilimlarning kiritilishini aytish mumkin. Kursga mana shunday talablar qo'yilishining o'zi o'qituvchilarni chuqur o'ylashga majbur etadi. Tajribali pedagog o'tgan yillardagi dasturlarda bunday vazifalar bo'lmaganini sezadi. Bu hol uning mustaqil bilim olishi, ijodiy izlanishi, shuningdek, metodik birlashmada ishlashi uchun turtki bo'ladi.

*Darslik.* Dasturda ta'limning mazmuni *masalalar ro'yxati* orqali ifodalanadi. O'quv materiali o'quvchilarga mo'ljallangan darsliklar, o'quv qo'llanmalari, kitoblar va didaktik materiallarda, o'qituvchiga mo'ljallangan metodik tavsiyalarda yoritiladi. Darslik asosiy normativ hujjat hisoblanadi.

Darslik ma'lum bir fanning mazmunini dastur asosida didaktik talablarga rioya qilgan xolda bayon etuvchi o'quv kitobidir.

Darslik bilan bir qatorda o'quvchilarni o'quv materiallari ustida tizimli ish olib borishlari ilmiy bilim-ko'nikma va malakalarni shakllantiradigan quyidagi kitob va qo'llanmalardan ham foydalanadilar:

1. Badiiy adabiyot.
2. Ilmiy adabiyot
3. Ilmiy ommabop adabiyot
4. Masala va mashqlar to'plami

*Darslik* – o'quvchilarning kitobi va uning eng muhim qurolidir. U faqat darsda taxlil qilinadigan o'quv materialini o'zlashtirishda o'quvchiga yordam beribgina qolmay, unda mazkur predmetga qiziqish uyg'otishi, shu soha bo'yicha mustaqil bilim olish ishtiyoqini ham vujudga keltirish kerak.

Darslik o'qituvchi uchun ham metodik qo'llanma sifatida xizmat qiladi: tushunchalarni kiritish tartibini, ularni yoritish chuqurligini, kiritilgan o'quv materiallariga vaqtning taqsimlanishini belgilaydi.

Obrazli qilib aytganda, darslik o'qitish jarayonining „senariysi“dir. Unda o'qituvchi o'zlashtirishi lozim bo'lgan bilimlar, faoliyat usullari qayd qilinadi, bilim va ko'nikmalarni ijodiy qo'llash yo'llari belgilanadi, emotsional – qimmatli qadriyatlarini tarbiyalashning ayrim vositalari ko'rsatiladi. Darslikda ta'limning ana shu barcha mazmuni muayyan tartibda o'quvchilarning ta'lim muvaffaqiyatini ta'minlaydigan bosqichlar bo'yicha joylashtiriladi. Lekin boshlang'ich maktab darsliklari bag'oyat o'ziga xosdir. Ularning hammasida metodik apparat kichkina bo'lib, u sinflar sayin asta-sekin vujudga keladi. O'rta maktabda ba'zan o'quvchi darslikdan tamomila mustaqil holda foydalana olish-olmasligi muhokama qilinsa, boshlang'ich maktabda bu ishga o'qituvchining rahbarligi majburiydir.

Ijodiy ishlaydigan o'qituvchilarning tajribasini taxlil qilib, juda muhim kuzatishni amalga oshirish mumkin. Ular darslik va o'zlarining metodik qo'llanmalaridan aqida sifatida emas, balki normativ model sifatida foydalanadilar. Aslida o'qituvchilar sinfining ehtiyojini, kasbiy imkoniyatlarini nazarda tutib, o'z darsliklarini yozadilar. Ular darslikka zid ishlamaydilar, balki uni to'ldirib, kengaytirib va chuqurlashtirib, uning mualliflari bilan hamkorlikka kirishib ish olib

boradilar. Binobarin, muallif bolalarning tayyorgarlik darajasini hisobga olish, ularga tabaqali yondashish imkoniyatiga ega bo'lmaydi.

O'qituvchi doimo o'quv yili boshlanishidan oldin va keyinchalik har kuni darslikka murojaat qiladi. Uning bundan maqsadi har gal har xil bo'ladi. Darslik o'qituvchining qo'lida juda ko'p vazifalarni bajaradi. U, avvalo, predmetni o'qitish vositasi sifatida xizmat qiladi. Har bir o'qituvchi ana shu vazifani biladi va uni muvaffaqiyatli amalga oshira oladi.

### **Darslik va o'quv faoliyatini tashkil qilish**

Darslik bilan o'quv jarayoni o'zaro bog'liq bo'lib, unda savollar, topshiriqlar, jadvallardan, statistik, xronologik ma'lumotlar va hokazolardan o'z o'rnida foydalanish lozim. Darsliklardagi savollar va topshiriqlar ta'lim konsepsiyasi asosida tuzilgan va metodik nuqtayi nazardan to'g'ri joylashtirilgan (kamol toptirish maqsadida yoki rasmlar orqali ifodalangan) bo'lishi lozim. Ular, asosan, quyidagi uch guruhga bo'linadi.

Birinci guruhga bilimlarni mustahkamlash, o'zlashtirilgan narsalarni esga tushirish va malakalarni shakllantirishga doir savol va topshiriqlar kiradi.

Ikkinchi guruh tafakkurni o'stiradigan (mustaqil ishlashni, taqqoslash, umumlashtirish, baholash, xulosa chiqarish, bilimlar tizimini mustahkamlash, aniqlash va tajribaga solishni talab qiladigan) savol va topshiriqlardan iboratdir.

Uchinchi guruh o'zlashtirilgan bilimlarni amalda qo'llashga (mustaqil ishlarni bajarish va malakalarni egallashga) doir savol va topshiriqlarni o'z ichiga oladi.

Darslikda dasturning barcha talablari aks etishi va asosiy g'oyalar, xulosalar yaqqol ifodalanishi lozim.

Darslikni bolalarga moslashtirishda quyidagilarni alohida e'tiborga olishni bilish kerak:

- materiallarni darsliklarga to'g'ri taqsimlash;
- o'quvchilarga beriladigan vazifalarni asta-sekin qiyinlashtirib borish (tizimga solish);

– o‘quvchilarga tabaqali yondashishni nazarda tutish (topshiriqlarni qiyin yoki osonligiga qarab tanlash);

– darsda, uy vazifalarini bajarishda, takrorlashda asosiy va qo‘shimcha materiallarni ajratish;

– darslikdagi savol va topshiriqlarning mo‘ljallangan vaqtga mosligi va o‘quvchilarni qiynab qo‘ymasligi;

– darslikning mazmuni (o‘quvchilarni qiziqtirishi, matnlarning g‘oyaviy va estetik jihatlari) uni o‘rgatishning metodik tizimiga muvofiq bo‘lishi;

– darslik tilining osonligi va ravonligi, o‘quvchilar nutqini o‘stirish uchun namuna bo‘la olishi.

Darslikning asosiy komponenti uning matnidir. Matnlar asosiy va qo‘shimcha materiallardan (murojaat, hujjat, xrestomatiya va hokazolardan) hamda tushuntirishlardan iborat bo‘ladi).

Darslikni taxlil qilishda uning tuzilishi, mavzularning o‘rni, illyustratsiyalarga boyligi va eng muhimi o‘quvchilarga ta’siri hisobga olinishi kerak. Mana shu talablar amalga oshirilishi uchun har bir yangi darslikni yaratishning o‘ziga xos muammolarini to‘g‘ri hal qilish, darslik o‘quv-metodik ishlarining asosi bo‘lishi kerakligini nazarda tutish shart.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartini izoxlang.
2. O‘quv rejasi, dastur va darsliklar qaysi tamoyillarga asoslanib tuziladi?
3. O‘quv rejasi qanday tuzilishga ega?
4. O‘quv dasturi qanday prinsiplarni o‘z ichiga oladi?
5. Darsliklarni taxlil qilishda nimalarga e’tibor berishimiz kerak?

## VI BOB. O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISHNING

### SHAKLLARI

O'quv jarayonini tashkil etishning shakllari haqida tushuncha. Ta'lim ijtimoiy hodisa bo'lib, uning tarixi juda uzoqdir. Ta'lim kishilik jamiyati rivojining dastlabki davrlaridayoq katta rol o'ynagan. U to'plangan tajribalarni, dunyo haqidagi axborotlarni berish jarayonini ta'minlagan, insoniyatning faqat ijtimoiy rivojlanishiga emas, balki qiyin sharoitlarda yashay olishiga ham yordam bergan. Ta'limning tashkiliy masalalari Al-Forobiyning "Fan va aql zakovat" asarida o'quv fanlarini guruhlarga bo'lib o'qitish. Ularning tarbiyaviy mohiyatini ochib berish masalalariga bag'ishlangan. Uzlüksiz rivojlangan jamiyatda ta'limning mukammal jamoa shakli, ya'ni dars ming yillar mobaynida vujudga kelgan. Y. A. Komenskiy „Buyuk didaktika“ asarida tarbiyaning oldingi barcha tajribalarini umumlashirdi, sinfning dars tizimida ta'limning asosiy didaktik prinsiplarini izchil ifodaladi. O'sha zamondan buyon ancha vaqt o'tdi. Bu vaqt mobaynida darsning tashkiliy shakllari ham, ta'limning metodlari ham uzluksiz takomillashib bordi.

Xalq maktablari tashkil topganidan boshlab o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligi hamda o'zaro munosabati muammolar: ham vujudga kelgandir. Ma'lumki, o'qituvchining bilimi uning darsdagi va uydagi faoliyatining xarakteriga bevosita bog'liqdir, faoliyatsiz bilimlar ham bo'lmaydi. O'qituvchi ajoyib yo'sinda dars o'tishi, lekin bu darsning natijasi muayyan o'quvchi uchun hech narsaga arziyasligi mumkin.

Shularga ko'ra, o'qituvchi o'zini ana shunday o'quvchining o'rniga qo'ya bilishi, uning darsdagi faoliyatini va unga maktabda butun o'qish davridagi munosabatini tasavvur qilishi g'oyat muhimdir. Zotan tarbiya va ta'lim asta-sekin amalga oshadi hamda o'quvchiga barcha darslar majmuyi qanday ta'sir etishiga, o'quvchi o'qituvchi rahbarligida ongli va faol bajaradigan ishlarning hajmi hamda muntazamligiga bog'liqdir.

O'qituvchining vazifasi - darsda tafakkur va faoliyatning ana shu turlarini eng to'g'ri uyg'unlashtirishdir. Binobarin, bunday uyg'unlik dars samaradorligini

oshirishning muhim omilidir. O'qituvchi dars muammolariga to'g'ri yondashishi uchun ta'lim jarayonining asosiy komponentlarini bilishi, ularning o'zaro bog'liqligi va bir-biriga ta'sirini tushunishi lozim. Obyektiv mavjudlikning mohiyatini bilishi ta'limning maqsadlaridan biridir.

Ta'limda bilimlarni o'zlashtirish jarayoniga quyidagi komponentlar kiradi:

1. Hodisalarni, narsalarni kuzatish, axborotlarni idrok etish.
2. Olingan axborotlarni taxlil qilish (bilimlarning xarakterli belgilarini aniqlash, taqqoslash, ko'chirish, birinchi jarayonda olingan axborotlarni o'zgartirish va undan olingan axborotlar doirasidan chiqish).
3. Eslab qolish.
4. Ishlar, umumlashtirishlarning to'g'riligini tekshirish hamda baholash.

Umuman aytganda, ta'limni boshqarish o'qituvchi o'qish jarayonining asosiy strukturasi, elementlari, xususan, o'quv materialining mazmuni, ta'lim metodlari, faoliyat usullari, shakllari va vositalari to'g'ri amalga oshuvi hamda o'zaro ta'sirini ta'minlashdan iboratdir.

### **Ta'limda sinf-dars tizimining vujudga kelishi**

Ta'limni boshqarishning asosiy tashkiliy shakli quyidagi ma'lum belgilarga ega bo'lgan mashg'ulotlar guruh yo'sinida o'tkaziladi:

- mashg'ulotlarning har yili va har bir o'qish kuni bir paytda boshlanishi;
- mashg'ulotlar va ular orasidagi tanaffuslarning ma'lum vaqt davom etishi;
- guruhlardagi bolalarning yoshi va soni jihatdan baravarligi;
- material o'rganish sur'atining bir xilligi;
- o'quv mashg'ulotlarining ma'lum tashkiliy shaklda o'tkazilishi.

Guruhli mashg'ulotlarning sinf-dars tizimi deb atalgan bunday shakli keng tarqaldi, mustahkamlandi va hozir ham ancha takomillashgan holda mavjuddir.

Maktab rivojlanishi tarixida 20- yillarda ta'limning yakka tartibdagi shakli notanqidiy yo'sinda qabul qilindi va amaliyotga ta'limning brigada - laboratoriya metodi bilan kiritildi. Unda bir guruh (5-6 nafar) o'quvchilar o'qituvchi tavsiya

etgan materialni mustaqil holda o'rgananganlar. O'qituvchi maxsus tushuntirishlar bermay, faqat yo'l-yo'riqlar ko'rsatgan. Hamma narsa uchun brigadir javob bergan. Bunday ta'lim bolalarning o'quv faoliyati uchun mas'uliyatini pasaytirgan. Maktab barham topishining noto'g'ri pedagogik konsepsiyalari davrida talimning „loyihalar metodi“ deb atalgan shakli vujudga kelgan. Unda o'quvchilar o'qituvchining topshirig'i bo'yicha qandaydir obyektning loyihasini tayyorlaganlar. Mazkur g'oyalar mualliflarining aytishicha, o'quvchilar loyihani tuzishda o'quv rejasi bo'yicha o'tiladigan predmetlarga doir kompleks bilimlarni o'zlashtirgan. So'nggi yigirma yil mobaynida pedagogika nazariyasi kombinatsiyalashgan darsni o'rganishdan darsni elementlari bo'yicha bosqichma-bosqich o'zlashtirishga, undan sintetik va nihoyat, muammoli o'rganishga o'tdi. Tadqiqotlarning uzviyligi va uzviy yondashishi to'g'risida juda ko'p ilmiy adabiyotlar mavjud. Masalan, M.I. Maxmutov, T.D. Kirilova, F.F. Korolyov va E.G. Yudinlarning hozirgi zamon darsi, uni tashkil etish, kamol toptiruvchi ta'lim sharoitidagi dars nazariyasi va amaliyoti, muammoli dars va hokazolarga doir kitoblarida darsga tizim sifatida qaralsagina, uni chuqur tushunish mumkinligi qayd qilingan. Lekin pedagoglar 70-yillardagina darsni o'rganish va tushuntirishga sistemali yondashish zarurligini tola angladilar. Fanlar rivojlanishining hozirgi bosqichida darsni qanday tushunish kerak?

Dars nazariyasida hozirgacha bu tushunchaning yangi ta'riflari yo'q.

Ko'p ta'riflarda xuddi ilgarigidek, dars ma'lum vaqt mobaynida tarkibi o'zgarmaydigan o'qituvchilar va o'quvchilar faoliyatini tashkil etishning shakli bo'lib, u bolalarni o'qitish, tarbiyalash va kamol toptirish vazifalarini amalga oshirish uchun muntazam qollanishi ifodalangan. Darsda o'quv-tarbiya ishlarining barcha komponentlari: maqsad, mazmun, vositalar, metodlar, tashkil etish va boshqarish faoliyati hamda uning hamma didaktik elementlari mujassamlangan, deb hisoblash qabul qilingan. Tabiiyki, dars yaxlit ta'lim jarayonini o'quv-tarbiya ishining boshqa tashkiliy shakllari - uy vazifalarini bajarish, predmet to'garaklarining mashg'ulotlari, sayrlar va hokozalar bilan uzviy birlikda aks ettiradi. „Darsni ikki jihatdan: umuman, ta'lim jarayoni va talimni tashkil etish shakli sifatida ta'riflab uni foydali deb hisoblash taklifi bor (M. I. Maxmutov).

Ta'limga umumiy jarayoni dars o'qitish harakatining ta'lim mazmuni, prinsiplari va metodlari bilan belgilanadigan, ma'lum makon-zamon chegaralarida o'qituvchi rejalashtiradigan hamda boshqaradigan birgalikdagi obyekt o'qituvchi va o'quvchilar amalga oshiradigan asosiy shaklidir.

Mazkur tushuncha ikkinchi nuqtayi nazardan quyidagicha ta'riflanadi: dars ma'lum tarkibdagi o'qituvchilar (muallimlar) bilan o'quvchilarning maqsadga muvofiq o'zaro ta'siri (faoliyatlari va aloqalari) jarayonini tashkil etishning, ta'lim mazmuni, shakllari, metodlari, vositalarini o'z ichiga oladi, ta'lim jarayonida o'qitish, kamol toptirish va tarbiyalash vazifalarini amalga oshirish uchun (bir xil vaqt ichida) muntazam qo'llanadigan boy va o'zgaruvchan shaklidir". (Qarang: M.I. Maxmutov. "Sovremenniy urok").

### **Dars – maktabda o'quv ishlarini tashkil qilishning asosiy shakli**

Hozirgi paytda o'quv ishlarini tashkil etishning quyidagi shakllari qo'llanadi: dars, ekskursiya, o'quv ustaxonalaridagi mashg'ulotlar, mehnat va ishlab chiqarish ta'limi shakllari, uy ishlari, sinfdan tashqari o'quv ishlarining shakllari (predmet to'garaklari, studiyalar, olimpiadalar, tanlovlar).

Pedagogik adabiyotlarda va maktab amaliyotida darsdagi ishlarni tashkil etishning asosan uchta: yakka tartibdagi, umumiy va guruh shakllari qabul qilingan. Biz darslardagi va uydagi yakka tartibdagi ishlar deganda o'quvchilarning o'zlari uchun maxsus tanlangan va har birining imkoniyatlariga mos topshiriqni bajarishlarini tushunamiz. Shunga ko'ra o'qituvchi o'quvchining o'ziga xos imkoniyatlarini aniqlab, unga faqat tayyor namuna bo'yicha emas, balki mustaqil holda ishlashni ham talab qiladigan topshiriqlar sistemasini tanlaydi. Bunday ish tasodifiy emas, balki muntazam, puxta o'ylangan bo'lishi va bunda o'quvchining xususiyatlari hamda imkoniyatlari hisobga olinishi lozim. O'quvchi imkoniyatlarining ikki tomoni nazarda tutilishi zarur. O'quv imkoniyatlarining ichki tomoniga fikrlash va eslab qolishdan iborat o'qish qobiliyati; o'quvchi ilgarigi ta'limda olgan maxsus bilimlar, shuningdek, o'quv mehnatiga doir ko'nikma va malakalarning, malum darajada ish qobiliyati va mas'uliyatning, o'qish sabablari



majmuyining mavjudligi kiradi. O'quvchi imkoniyatlarining tashqi tomoni unga maktabda xilma-xil ta'sir ko'rsatishdan va uning oila muhitida oladigan taassurotlaridan iboratdir. Yakka tartibdagi ta'lim har bir o'quvchiga yetarli darajada chuqur va puxta bilimlar berish uchun, har bir o'quvchi maqsadga muvofiq kamol topishini va zaruratga qarab o'zining bilimlarini mustaqil holda to'ldirib borish ko'nikmalariga ega bo'lishini ta'minlash uchun kerak. Yakka tartibdagi ishlarni darsning hamma bosqichlarida tashkil qilish maqsadga muvofiqdir. Bunday ishlardan bilimlarni mustahkamlash, takrorlash va turli mashqlarni uyushtirishda foydalanish juda osondir. Ular yangi materialni o'rganishda ham g'oyat samaralidir. O'quvchilar bilan olib boriladigan yakka tartibdagi ishlar rejasini quyidagi yo'sinda tuzish mumkin:

- dastlab mustaqil ishlarni o'tkazish hamda o'quvchi yashaydigan va o'qiydigan sharoitlarni taxlil qilish orqali uning imkoniyatlarini o'rganish;
- o'quvchilar bilan yakka tartibda ishlashning didaktik vositalarini yaratish;
- har bir o'quvchi uchun eng maqbul topshiriqlarni hamda bilim olishi va kamol topishini nazorat qilish tizimini belgilash, o'quvchini o'z vaqtida murakkabroq masalalarni hal qilishga o'rgatish, amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilish va umumlashtirish, tuzatish va xulosalar chiqarish.

### **Darsga qo'yiladigan talablar**

1. Har bir dars ma'lum bir maqsadni amalga oshirishga qaratilgan va puxta rejalashtirilgan bo'lmog'i lozim. Buning uchun:

a) dars yoshlarni barkamol shaxs ruhida tarbiyalashning umumiy maqsad va vazifalaridan kelib chiqadigan aniq bir maqsadni amalga oshirishga qaratilgan bo'lishi;

b) darsning maqsadi albatta, o'quvchilarga tugallangan bilim berishni nazarda tutgan bo'lishi;

v) bir soatlik darsda o'tishga mo'ljallangan mavzu dastur materialining bir qismi sifatida ifodalanishi va bu materiallar o'zaro ichki mantiqiy bog'lanishga ega bo'lishi;

g) o'tilishi kerak bo'lgan materialning xarakteriga ko'ra qanday dars tipi, o'qitish metodidan foydalanish nazarda tutilishi;

d) sinf o'quvchilarining faolligini oshirish maqsadida umumsinf va ayrim o'quvchilar bilan qanday ish olib borish kerakligi belgilangan bo'lishi kerak.

2. Har bir dars mustahkam g'oyaviy-siyosiy jihatdan tarbiyaviy yo'nalishga ega bo'lmog'i lozim:

a) darsning mazmuni o'tilayotgan mavzuning mohiyatiga bog'liq holda o'quvchilarni g'oyaviy-siyosiy jihatdan tarbiyalashga xizmat qiladigan materiallar bilan boyitilishi;

b) dars o'tilayotgan mavzuning mazmunidan kelib chiqadigan tabiat, jamiyat va kishi tafakkuri taraqqiyoti haqidagi ilmiy bilimlar o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashi va e'tiqodlarining shakllanishiga qaratilgan bo'lishi;

v) dars o'tilayotgan mavzuning mazmunidan kelib chiqadigan ilmiy nazariyalar orqali o'quvchilarning dialektik, materialistik dunyoqarashlarini shakllantirish va o'quvchilarni barkamol shaxs ruhida tarbiyalashi lozim.

3. Har bir dars albatta, turmush bilan, amaliyot bilan bog'langan bo'lmog'i lozim. Bunda ayniqsa:

a) matematika, fizika, kimyo, biologiya, geometriya va boshqa fanlarning ilmiy asoslari, uni turmushda, ishlab chiqarish amaliyotida qo'llashi;

b) sanoat va qishloq xo'jaligining rivojlanishida fanning tutgan o'rni kabilar nazarda tutilishi lozim.

4. Har bir dars xilma-xil metod, metodik usul va vositalardan keng va unumli foydalangan holda olib borilishi lozim.

5. Darsga ajratilgan har bir soatni tejab undan samarali foydalanish lozim.

6. Har bir dars o'qituvchi va o'quvchilarning faoliyati birlashgandagina qo'yilgan maqsadga erishish mumkin. Buning uchun:

a) o'qituvchi darsga puxta tayyorlanishi;

b) shu dars davomida ishlatiladigan ko'rgazmali o'quv materiallarini to'g'ri tanlashi va ishlatishi;

v) sinf jamoasi va har qaysi o'quvchi bilan munosib muomaladabo'lishi;

g) sinf faolligini oshirishga qaratilgan tadbirlarni to'g'ri belgilashi, ayniqsa, o'quvchilarning mustaqil fikr yuritishlarini, ularning diqqatini jalb qilish va ma'lum topshiriqlarni kitob bilan ishlash, tajriba o'tkazish va yozma grafik ishlarni bajarish.

### **Dars tizimi strukturasi elementlari va tiplari**

Ta'limning strukturasi va tizimi haqida tushuncha. Avvalo, strukturaning nimaligini ko'rib o'tamiz. Har bir fandagi „struktura“ tushunchasi o'ziga xos mazmunga ega. Chunki har qanday obyekt, jarayon, hodisaning ichki tuzilishi bo'lib, unda turli aloqa va munosabatlar mavjud. O'quv jarayoni ham o'zining tuzilishiga ega va u zvenolar, deb ataladigan o'zaro bog'liq ma'lum qismlardan tashkil topadi. Butun ichidagi ana shu zvenolarning o'zaro bog'lanishi mazkur jarayonning strukturasi vujudga keltiradi. Lekin, ma'lumki, strukturasi tizim bo'lmaganidek, tizimsiz struktura ham bo'lmaydi. Shunga ko'ra, strukturani tizimdagi o'zaro bog'liq elementlarning tartiblari, deb ta'riflash mumkin. Biz tizim tushunchasiga nimalarni kiritamiz?

Tizim - o'zining xossalari va bog'lanishlari bo'yicha u yoki bu tartibdagi o'zaro bog'liq ko'p elementlardir.

O'quv jarayonining strukturasi va tizimini yaqqol tasavvur etish uchun bu jarayon qanday zvenolardan tashkil topganini, ular orasidagi o'zaro bog'lanish qandayligini va har bir zveno qanday elementlardan iboratligini aniq bilish zarur. Avval o'quv jarayoni qanday zvenolardan tashkil topishini va ular orasidagi bog'lanishlarni ko'rib chiqamiz.

Dars tuzilishi – bu darsning ko'plab elementlardan tashkil topgan elementlari bo'lib, u o'qitish jarayonida yuzaga keladigan faoliyatni maqsadli yo'naltirishga xizmat qiladi.

O'quv jarayoni quyidagi zvenolarga ega bo'ladi:

1. O'qituvchining o'quvchilar diqqati va tafakkurini jalb qilishi, shu orqali ularni o'quv materialini faol idrok etishga olib borish maqsadida bilish vazifasini o'rtaga qo'yishi.

2. O'qituvchi tomonidan bilimlarning berilish jarayoni va o'quvchilarning yangi materialni o'zlashtirishi.

3. Ilmiy tushunchalarning shakllantirilishi va umumlashtirilish jarayoni, o'quvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash va takomillashtirish.

4. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tegishli vaziyatlarda qo'llash.

5. O'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirayotganini tekshirish.

Har kuni o'quv jarayonining tarkibiy qismi umumiy vazifalarni ham, o'ziga xos funksiyalarni ham bajaradi. O'quvchilar ularning birida bilish vazifasini anglaydilar, ikkinchisida o'rganilayotgan materialni idrok etadilar va tushunadilar, uchinchisida ko'nikma va malakalarini takomillashtiradilar. Har bir zvenoda yangilikning qandaydir qismi idrok etiladi, mehnat madaniyatining qandaydir elementlari o'zlashtiriladi. Ularning har birida ta'limning umumiy va o'ziga xos funksiyalari ma'lum yo'sinda birlashadi. O'quv jarayonining mazkur barcha zvenolari o'zaro chambarchas bog'langan. Masalan, o'quvchilar bilish jarayoniga loqayd munosabatda bo'lsa, o'quv materialini chuqur va ongli o'zlashtirishi mumkin emas. Bunday holda zveno ikkinchi vazifaga faol tayyorgarlik rolini bajaradi. Agar o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida o'z mushohadalari kuchi bilan ilmiy tushunchalarni, qonunlarni umumlashtirmasa, yangi materialni idrok etish jarayoni yuzaki bo'lib qoladi. Shu maqsadda o'qituvchi yangi materialni o'tishda:

a) induktiv;

b) analitik-sintetik, ya'ni tushunchalarni muayyan hodisalarni analiz va sintez qilish asosida asta-sekin shakllantirish;

d) deduktiv yo'llardan foydalanadi.

Yangi materialni o'zlashtirishning har bir yo'lida muayyan va mavhumlikning, tasavvur va tushunchalarning o'zaro bog'lanishi juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tasavvur predmetning, asosan, tashqi ko'rinishini, ya'ni insonning sezgi organlari bevosita idrok etishi uchun qulay belgilarini aks ettiradi.

Tushuncha esa narsalarning mohiyatini anglash imkonini beradi va mazkur sinfga mansub barcha predmetlar uchun umumiy muhim xususiyatlar, belgilar va

bog'lanishlarni aks ettiradi. Har bir fan o'zaro bog'liq tushunchalar tizimini tashkil qiladi. Demak, qandaydir fanning asoslarini o'zlashtirish, avvalo, mana shu fandagi tushunchalar tizimini o'rganishga chambarchas bog'liqdir.

O'quvchilarning bilim. ko'nikma va malakalarini dastlabki, vaziyatlarda, ya'ni namuna bo'yicha, shuningdek, hayotiy sharoitlarga yaqin yangi vaziyatlarda qo'llash ta'lim jarayonining muhim zvenosi hisoblanadi. Chunki insonning amaliy faoliyati bilimlar haqiqatligining mezoni sifatida xizmat qiladi. Ana shunday faoliyatsiz ta'limni hayot bilan. amaliyot bilan bog'lashdan iborat muhim vazifani hal qila olmaymiz.

Shu tariqa barcha zvenolar o'zaro chambarchas bog'lanishda o'quv jarayonini tashkil etadi. O'z-o'zidan ayonki, ta'lim jarayonida mana shu hamma zvenolar belgilangan tartibda yoki to'raligicha amalga oshuvining ahamiyati yo'q. Bunda o'quv jarayonining ma'lum qismida bir zvenoning ikkinchi zvenoga qo'shilishi, o'zaro singishi qandaydir zvenoning yetakchilik rolini bajarishi kuzatiladi. O'quv jarayoni amalda ancha o'zgaruvchandir. Aytaylik. o'quv jarayonining ma'lum bir qismida o'quvchilar bilimini tekshirish va baholash asosiy vazifa hisoblanadi. Lekin bundan boshqa zvenolar jarayonida daxlsiz bo'ladi, degan ma'no kelib chiqmaydi. Bunda barcha zvenolarning umumiy vazifalari namoyon bo'laveradi. Negaki, bilimlarni tekshirish va baholash to'g'ri yo'lga qo'yilsa. hamma o'quvchilar faollashadi, ularning har biri tegishli bilimlarni ongli ravishda eslaydi, o'rtoqlarining javoblarini tanqidiy eshitadi, masalalarning yechilishini diqqate'tibor bilan kuzatadi, tajribalarning bajarilishiga qiziqadi va o'zi ham har onda ishga qo'shilish uchun tayyor bo'ladi.

### **Darslarning tiplari**

Dars strukturasi o'quvchilar bilish faoliyatining xarakteri bo'yicha tasniflanadigan darslarning tipiga bog'liq bo'ladi. Ularni o'tkazish usullari, ta'lim metodlari esa o'quvchilar mustaqil ishining darajasi bo'yicha tasniflanadi.

Darsning quyidagi tiplari mavjud: o'quvchilar yangi bilimlarni o'zlashtiradigan, faktli materiallar to'planadigan, kuzatishlar o'tkaziladigan, jarayon va hodisalar o'rganiladigan, ularni anglanadigan, tushunchalari shakllantiriladigan,

ko'nikma va malakalar tarkib toptiriladigan darslar, bilimlar umumlashtiriladigan va tizimlashtiriladigan darslar, bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni takrorlash, mustahkamlash, boshqacha aytganda, kompleks qo'llash darslari, bilim, ko'nikma va malakalar og'zaki hamda yozma ravishda sinaladigan nazorattekshirish darslari, bir necha didaktik masalalar baravar hal qilinadigan kombinatsiyalashgan darslar. Darsning muayyan miqdordagi tiplarini belgilashning turlari, yo'llari bilan uning ancha jiddiy strukturasi ishlab chiqilgan. Masalan, kombinatsiyalashgan darslar quyidagi sxema bo'yicha tashkil qilingan: tashkiliy jihat, o'quvchilar uy vazifasini qanday bajarganini tekshirish, o'quvchilardan o'tilgan mavzu bo'yicha so'rash, o'qituvchining yangi materialni bayon etishi, o'rganilayotgan materialni mustahkamlash, uyga vazifa berish. O'qituvchilarning ilg'or tajribasini taxlil qilish, didaktlar (I. T. Ogorodnikov, M. I. Maxmutov, V. A. Onishchuk, R. A. Mavlonova va boshqalar)ning tanqidi, darsning strukturasi tushuntirish, ta'limning hozirgi talablariga javob bermaydi, degan xulosaga olib keladi. Darsning strukturasi faqat o'qituvchi va o'quvchilarning darsdagi hamkorlik faoliyati tashkil topishining tashqi ko'rinishini aks ettirib qolmasligi, balki o'quvchilar bilish faoliyati bilan bog'liq ichki jarayonning mohiyatini ham ifodalashi lozim. Kamol toptiruvchi ta'lim sharoitida " darsning strukturasi " tushunchasini aniqlashda uni uchta: didaktik, mantiqiypsixologik va metodik shartlar asosida ko'rib chiqish tavsiya etiladi. Bunda doimiy komponentlar: oldin o'zlashtirilgan bilim va harakatlar usullarini faollashtirish hamda qo'llashdan, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat didaktik struktura asos bo'ladi (M. I. Maxmutov).

Hozirgi zamon darsining eng muhim xususiyatlari yangi o'quv materialini va uni amalda qo'llashni o'zlashtirish bilan birga, ilgari o'rganilgan narsalarni o'zlashtirish, sintez qilish, takrorlash va mustahkamlash, nazorat qilish kabi elementlarining o'zaro bog'lanishidir.

T. A. Ilina darsning o'z strukturasi barcha asosiy elementlarini olgan tipini, ya'ni umumiy yoki aralash darsni tavsiya etadi.

*Darsning birinchi bosqichi* tashkiliy qism. Odatda, bu qismga salomlashish, o'quvchilarning, sinf xonasidagi jihozlarning darsga tayyorligini tekshirish, darsda

yoʻq oʻquvchilarni aniqlash, ishning rejasini eʼlon qilish kiradi. Tashkiliy qismning maqsadi darsda ish vaziyatini vujudga keltirishdir.

*Darsning ikkinchi bosqichi* yozma uy vazifasini qoʻyilgan maqsaddan qatʼiy nazar, turli metodlar bilan tekshirish.

*Darsning uchinchi bosqichi* oʻquvchilarning bilimlarini ogʻzaki tekshirish (yoki ulardan soʻrash).

*Darsning toʻrtinchi bosqichi* oʻqituvchining bayon etishi asosida yoki oʻquvchilarning mustaqil taxlil qilishi orqali yangi materialni tushuntirish.

*Darsning beshinchi bosqichi* uyga topshiriq berish. Darsning bu qismiga mazkur topshiriqning mohiyatini, lozim boʻlsa, uni bajarish metodikasini ham tushuntirish, uni oʻqituvchining oʻzi doskaga yozishi, oʻquvchilarning daftarga yoki kundalikka koʻchirishi kiradi.

*Darsning oltinchi bosqichi* yangi materialni mustahkamlash, yaʼni dastlabki yoki yoʻlakay mazkur material bayon qilinayotganda amalga oshiriladigan mustahkamlashdir.

*Darsning yettinchi bosqichi*ni tugallashdan iborat boʻlib, bu ish tashkiliy ravishda amalga oshirilishi kerak. Chunki dars faqat oʻqituvchining koʻrsatmasi boʻyicha mustahkamlanadi. Muallif darsning ana shu yettita elementini nazarda tutib, uning strukturasi quyidagicha ifodalaydi:

**Bilim va malakalarni shakllantirish darsining tuzilishi:**

- Darsning maqsadini qoʻyish;
- Yangi materialni oʻzlashtirish uchun zarur oʻquvchilarning bilim va malakalarni takrorlash;

- Tekshirish mashqlarini oʻtkazish;
- Yangi bilimlar bilan tanishtirish. oʻzlashtirish namunasini koʻrsatish;
- Ularni oʻzlashtirishga qaratilgan mashqlarni bajarish;
- Ularni mustahkamlashga qaratilgan mashqlarni berish;
- Mashqlarni namuna asosida takrorlash;
- Ijodiy xarakterdagi mashqlarni bajarish;
- Darsni yakunlash;

- Uyga topshiriq berish;

Takrorlash darsining tuzilishi:

- Darsning tashkiliy qismi;

– Ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarning qo'yilishi (aniqlashtirilishi);

– Uy vazifasini tekshirish, bilim, ko'nikma faoliyati asoslarini tashkil etuvchi fikrlashga e'tibor qaratish (amaliy va nazariy tarzda). Avvalgi darsda kelgusi dars takrorlash darsi bo'limini nazarda tutgan xolda uyga vazifa berilishi kerak;

– Darsdagi takrorlashni umumlashtirish. o'quv jarayoni natijalarini tekshirish, uyga vazifa berish.

Bilimlarni tekshirish darsining tuzilishi:

– Darsning tashkiliy qismi. Mazkur holatda ishchan, sokin holatni bo'lishi zarur. O'quvchilar tekshiruv va nazorat ishidan qo'rqmasliklari yoki o'qituvchi ularning o'zlashtirishlarini tekshirishi haqida ortiqcha hayajonlanmasliklari kerak;

– Darsning maqsadini qo'yilishi. O'qituvchi o'quvchilarga ularning qaysi dars materiallari yuzasidan bilimlari tekshirilishi va nazorat qilinishini e'lon qiladi. O'quvchilarga tegishli qoidalarni eslash va nazorat ishi jarayonida qo'llash ta'kidlanadi. O'quvchilarga o'z ishlarini o'zlari tekshirib chiqishi zarurligi aytiladi;

– Tekshiruv yoki nazorat ishi mazmunining bayoni (masala, misollar, diktant, insho yoki savollarga javoblar o'z takribi, qiyinlik darajasi bo'yicha dasturga mos bo'lishi va har bir o'quvchining imkoniyati yetadigan darajada bo'lishi kerak);

– Darsni yakunlovchi bosqichi. O'qituvchi o'quvchilarning engg yaxshi ishlarini rag'batlantiradi, boshqa ishlarda yo'l qo'yilgan xatolarni taxlil qiladi, xatolar ustida ishlashni tashkil qiladi (ba'zi hollarda bu ishlar kelgusi darsda olib boriladi). Tipik xatolarni, bilim, malakalarni egallashda yo'l qo'yilgan kamchiliklar va ularni bartaraf etish, bilim va malakalarini takomillashtirish.

Yangi bilimlarni, malakalarni egallovchi dars tuzilishi:

- Darsning tashkiliy qismi (o'quvchilarni psixologik yo'naltirish);

- Dars mavzusi va maqsadining bayoni;



- Malakalarni shakllantiruvchi yangi bilimlarni oʻrganish;
- Qabul qilingan va oʻxshash vaziyatlar boʻyicha dastlabki malakalarni egallash va mustahkamlash;

- Bilim va malakalarni oʻzgartirilgan vaziyatlar misolida koʻrib chiqish;
- Bilim va malakalarni ijodiy qoʻllash;
- Malakalarni egallash mashqlari;
- Uyga vazifa berish;
- Oʻquvchilar bajargan ishlarini baholash orqali darsni yakunlash.

Takrorlash, umumlashtirish darsining tuzilishi:

- Tashkiliy vaziyat;
- Oʻqituvchining kirish soʻzida takrorlash umumlashtirilishi rejalashtirilgan mavzu yoki mavzularning ahamiyati taʼkidlanadi. darsning maqsadi va rejasi eʼlon qilinadi. Oʻquvchilar tomonidan turli ogʻzaki va yozma umumlashtiruvchi va tizimlovchi topshiriqlari yakka va jamoa xolatda bajaradilar, bunda malakalarni shakllantiruvchi, umumlashtiruvchi bilimlar, umumlashtiruvchi faktlar asosida olib boriladi;

- Bajirilgan ishlarni tekshirish, korrektilovkalash (zarur xolatlarda);
- Oʻrganilgan material boʻyicha xulosalash;
- Darsning erishilgan natijalarini baholash;
- Darsni yakunlash;
- Uyga vazifa berish (doimiy).

Aralashgan dars tuzilishi (bunday dars tuzilishi odatda oʻz oldiga bir nechta didaktik maqsadlarni qoʻyadi):

- Darsning tashkiliy qismi;
- Uy vazifani tekshirish, darsning maqsadini qoʻyilishi;
- Oʻquvchilarni yangi bilimlarni qabul qilishga tayyorlash, bilimlarning dolzarbligi, amaliy va aqliy malakalarining egallanishi;
- Yangi mavzuning bayoni, shu bilan birga tushuntirish;
- Dars davomida oʻrganilgan yangi bilimni mustahkamlash, avval

o'rganilgan bilimlar bilan bog'lash;

– Yangi bilimlarni avvalgilari bilan bog'lagan holda bilim va malakalarni umumlashtirish va tizimlash;

– Darsni yakunlash va dars natijalari;

– Uyga vazifa berish;

– O'quvchilarni yangi materialni o'zlashtirishga tayyorlash (zarur hollarda).

### **Darsga qo'yiladigan talablar**

*I. Darsga qo'yilgan talablar:*

***Zamonaviy darsga qo'yiladigan didaktik talablar:***

– Ta'limiy topshiriqlarni uning barcha elementlarini hisobga olgan holda aniq qo'ya bilish.

– O'quv rejasi va darsning maqsadini hisobga olgan xolda hamda o'quvchilarning tayyorligi, tayyorgarligini, darsning optimal mazmunini belgilash.

– Darsda va uning har bir bosqichida o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishlarini hisobga olish.

– Darsdagi jamoa va individual ishlash yo'llarini hisobga olgan holda samarali metod, usul va shakllarni tanlash.

– Darsda barcha didaktik prinsiplarni qo'llash.

– O'quvchilarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishlari uchun qulay shartsharoitlarni yaratish.

*II. Darsga bo'lgan psixologik talablar:*

***Darsning psixologik maqsadlari:***

– Aniq olingan o'quv fani va aniq darsni o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarning rivojlanishini loyihalash;

– O'tilgan darsdagi topshiriqlarni o'zlashtirish darajasi asosida darsdagi psixologik topshiriqlarni hisobga olish;

– O'quvchilarni rivojlanishiga sharoit yaratuvchi alohida ahamiyatga ega bo'lgan psixologik pedagogik ta'sir etishni rejalashtirish;

– Rivojlantiruvchi ta'lim prinsiplari asosida darsning mazmuni va tuzilishini aniqlash;

– O'quvchilarning fikrlash va esda saqlashlaridagi mutanosiblik;

– O'quvchilarning qabul qilish va ijodiy faoliyatlarini hajmini aniqlash;

– Mustaqil izlanish mobaynida o'qituvchi so'zlari asosida o'quvchilarni bilimini o'zlashtirishiga tayyorgarligi;

– O'quvchilarda yuzaga kelgan muammoli vaziyatlarini ya'ni(muammo kim tomonidan qilinganligi va uni qanday hal qilishni);

– O'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, taxlil etish va baholash, hamda o'quvchilarning o'z-o'zini nazorat qilishini amalga oshirish;

– O'quvchilarni hamkorlikdagi faoliyatga chorlash qilingan ishlarni taxlil qilish, qiyinchiliklarni bartaraf etish.

#### ***O'qituvchi faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari:***

– Darsga tayyorgarlik va eng asosiysi uni amalga oshirishning psixologik maqsadlarini anglash va uni amalga oshirishga bo'lgan tayyorgarlik;

– Darsni boshlash va uni olib borish mobaynida o'qituvchi faoliyatida quyidagilar: fikrning aniqligi, darsning psixologik maqsadini pedagogik maqsadlar bilan uyg'unligi, harakatchanlik, maqsad sari sobitlik, dars jarayonida yuz beradigan barcha holatlarga ijodiy yondashish. pedagogik topqirlik va h.k.

– Darsdagi psixologik holatda xushvaqtlik, kayfiyatini saqlash, o'zaro munosabatlardagi samimiylik, ishchanlik muloqoti va h.k.

#### ***O'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil qilish.***

– O'quvchilarni samarali faoliyat yuritishi va fikrlashi uchun zarur bo'lgan choralarni aniqlash;

– O'quvchilarning ob'ekt va holatlarni qabul qilish va fikrlash yo'llarini rejalashtirish;

– Ishontirish, uqtirish shakllarini qo'llash;

– O'quvchilarning diqqatini jamlash sharoitlarini rejalashtirish;

– O‘quvchilarning yangi bilimlarini o‘zlashtirishlari uchun zarur bo‘lgan ilgari egallagan bilim, ko‘nikma va malakalaridan foydalanish (suhbat, yakka so‘rov, o‘tilgan mavzular yuzasidan mashqlar) ;

– Yangi bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishda o‘quvchilarga sharoit yaratish:

O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalari darajasini aniqlash;

– Tushuncha, tasavvur, tushunish, yangi fikrlarni qabul qilish darajalarini aniqlash;

– O‘quvchilarning faolligini oshirish uchun ish usullarini rejalashtirish;

– O‘quvchilar faoliyatida turli xildagi ijodiy ishlardan foydalanish (ishning maqsadini tushunish, uni bajarish shartlari, materialni tanlash va tizimga solish. hamda natijani aytish);

#### ***O‘quvchilarning individualligi:***

– O‘quvchilar o‘zlarining bilimini rivojlantirish va aqliy faoliyatini mustahkamlashi uchun zarur omil sifatida qarashi;

– O‘quvchilarni o‘zlashtirish darajasiga qarab guruhlash, ularga beriladigan individual topshiriqlarni e‘tiborga olish.

#### ***O‘quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish.***

– Dars jarayonini o‘quvchilarning individual va yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish;

– Dars jarayonini tashkil etishda o‘zlashtira olmaydigan o‘quvchilarni hisobga olish va ularga individual yondashish;

#### ***III. Darsga qo‘yilgan gigienik talablar:***

– Havoning fizik va ximik holati (shamollatishning zarurligi);

– Toliqish va charchashning oldini olish;

– Faoliyat turlarining almashinuvi (nazariyaning amaliy mashg‘ulotlar bilan almashinuvi);

– Jismoniy daqiqalarni o‘z vaqtida hamda talab darajasida bajarilishi;

– O‘quvchining dars mobaynida qabul qilish va o‘zini tutishiga e‘tibor berish.

#### *IV. Darsni tashkil etish texnikasiga qo'yilgan talablar:*

– Dars o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va intilish uyg'otishi.

– O'quvchi va o'qituvchi faoliyati tugallangan bo'lishi, darsning davomiyligi optimal bo'lishi;

Darsda pedagogik takt va pedagogik optimizm bo'lishi, o'qituvchi va o'quvchilarning to'liq hamkorligida amalga oshirilishi zarur;

– Faol ijodiy mehnat va ixtiyoriy faoliyat yuritish holatini ta'minlanishi;

– Imkoniyat darajasida o'quvchilar bilan olib boriladigan faoliyat turlarini almashtirish;

– Maktabning kun tartibini saqlashga harakat qilish;

– Har bir o'quvchining faol bo'lishiga erishish.

#### *V. Dars bosqichlarini rejalashtirish:*

– Mavzu yoki bo'lim yuzasidan dars tizimini ishlab chiqish.

– Dastur, metodik qo'llanma, maktab darsligi va qo'shimcha adabiyotlarda berilgan tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlarni aniqlash.

– Dars materialining zaruriy mazmunini saralash, ularning didaktik xususiyatlariga qarab tanlash;

– O'quvchi dars jarayonida eslab qolishi zarur bo'lgan materialni ajratish:

*Darsning tuzilishi, tipini, samarali metodlarini aniqlash asosida darsni tashkil etish.*

– O'quvchilarni yangi bilim va malakalarini shakllantirish jarayonida mazkur materialning yoki axborotning mazmunini avvalgi va keyingi material mazmuni bilan bog'lash.

– O'qituvchi va o'quvchi faoliyatining barcha bosqichlarini rejalashtirish.

– Darsning didaktik vositalarini tanlash.

– Ta'limning texnik vositalarini tanlash.

– O'quvchilarni mustaqil fikrlashga xizmat qiluvchi mustaqil ishlarning shakl va hajmini aniqlash.

– O'quvchilar o'zlashtirgan bilimlarini mustahkamlash yo'llarini bilish.

- Uyga vazifa berish yo'llarini o'ylash.
- Darsni yakunlash shakllarini o'ylash.
- Dars rejasi va borishini talablar asosida yozib borish.

### **Darslarning turlari**

Darslarning faqat tiplari bo'yicha emas, balki turlari bo'yicha ham tasniflanishi ularni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun muayyan darajada ahamiyatga molikdir. Pedagogik adabiyotlarda darslarning turlari har xil asoslar bo'yicha ifodalanadi. Darslarni o'quvchi va o'qituvchilar faoliyatining xususiyati bo'yicha turlarga ajratish amaliy maqsadga muvofiq emas, bunday ajratishni ta'lim metodlarini amalga oshirish usullari bo'yicha bajarish lozim.

Mazkur holda darslarning tiplari va turlari bo'yicha tizimlashtirish mukammal shaklga ega bo'ladi: pedagogik maqsad va o'quv materiali darsning tipi, turini, didaktik maqsadlarini tanlash zaruratini keltirib chiqaradi va bular, o'z navbatida, ta'limning metodlarini, vazifalarni hamda maqsadga erishishning omillari sifatidagi ta'limning vositalari, masalalarini yechish usullarini oldindan belgilaydi.

*Darslarning turlari quyidagicha:*

**I. a)** dars ma'ruza

b) dars suhbat

v) kino darsi

g) nazariy yoki amaliy mustaqil (tadqiqot tipidagi) ishlar darsi

d) aralash dars (bitta darsda darsning har xil turlari birikmasi)

**II. a)** mustaqil (og'zaki yoki yozma mashqlardan iborat reproduktiv tipdagi)

b) dars laboratoriya ishi

v) amaliy ishlar darsi

g) dars ekskursiya

**III. a)** og'zaki (umumiy, yakka tartibda, guruhiy) so'rash

b) yozma (yakka tartibda) so'rash

v) sinov

g) sinov amaliy (laboratoriya) ishi

- d) yozma ish
- e) aralash dars.

### **Darsga tayyorlanish**

Darsning samaradorligi deganda uning ikkita tarkibiy qismni ko'rish mumkin, bular: darsga puxta tayyorgarlik ko'rish va darsni o'tish mahoratidan iborat. Yomon rejalashtirilgan, yetarlicha o'ylanmagan, shoshilinch loyihalangan va o'quvchilar imkoniyatlari bilan uyg'unlashmagan dars yaxshi sifatli bo'lishi mumkin emas.

*Darsga tayyorlanish* - bu butun bir tadbirlar majmuasini ishlab chiqish, ayni paytda pirovard natijani ta'minlaydigan o'quvtarbiya jarayonini tanlashdir. O'qituvchining darsga tayyorlanishi uch bosqichdan iborat: aniqlash, oldindan aytib berish, loyihalash (rejalashtirish). Bu o'rinda o'qituvchining materialni yaxshi bilishi, o'z fani doirasida erkin fikrlay olishi ko'zda tutiladi. U o'z kasbiy mavzusiga oid papkasini yoki ish kitobini yuritib, unga o'zi dars o'tadigan fan sohasidagi eng yangi ma'lumotlarni to'playdi. muammoli masala va topshiriqlarni, test materiallarini jamlaydi. Takror aytamiz. muvaffaqiyatli dars o'tish uchun o'qituvchi amaliy va o'quv materialini ishonch bilan puxta egallagan bo'lishi zarur.

Darsga puxta tayyorgarlik ko'rish ishlari o'quv axborotlarini sinf imkoniyatlariga, yuqori samara beradigan bilish mehnati va jamoa hamkorligini tashkil etishda qulay shart—sharoit (shakl) ni baholash va tanlashga "moslashishga" olib keladi. Dars berishning oqilona shaklini tanlash uchun o'quv mashg'ulotini qat'iy ravishda rejalashtirish zarur.

Uning asosida darsni tayyorlash algoritmi (qoidalar majmuyi), barcha muhim omillar va holatlarni hisobga olishni kafolatlaydigan izchil tadbirlar bo'lishi zarur. Demak, algoritmi (qoidalar majmuyi)ni amalga oshirish muayyan shart—sharoitlarni aniqlash bilan boshlanadi. Diagnostika (tashxis) bu – tarbiyaviy ishlarni loyihalash munosabati bilan dars o'tishdagi barcha vaziyatlarni "ochib" berish bilan o'quvchilarning imkoniyati, ularning faoliyati va xulq-atvori motivlari, o'qitish darajasi talab qiladigan ehtiyojlar va ishtiyoqlari, qiziqish va qobiliyatlari, o'quv materialining xususiyati, uning amaliy ahamiyati, darsning tuzilishi, shuningdek,

o'quv jarayonida butun vaqtni qanday sarflanishini, tayanch bilimlarni takrorlashga, yangi axborotlarni o'zlashtirishga, mustahkamlash va tizimlashtirishga, bilim, malakani tekshirish va xatolarni to'g'rilashga ketgan vaqtni chuqur taxlil etish bilan ifodalanadi. Ushbu bosqich mashg'ulotlar samaradorligini belgilovchi omillarning ta'sirini yorqin tasavvur etiladigan darsning diagnostik kartasini vujudga keltirish bilan yakunlanadi.

Oldindan aytish bo'lajak darsni o'tishdagi turli variantlarni baholash va ular orasidan eng maqbulini tanlashga qaratilgan. Oldindan aytishning zamonaviy texnologiyasi dars samaradorligi miqdoriy ko'rsatkichlarini quyidagi yo'llar bilan chiqarishga yordam beradi. Darsning asl maqsadi bo'lgan bilim (malakalar) hajmini shakllantirish 100% deb qabul qilinadi. Unga to'sqinlik qiluvchi omillar, tabiiy ravishda bu ko'rsatkichni pasaytiradi, yo'qotishlar kattaligi (maxsus metodika orqali aniqlanadi) va ideal natijada chegirib tashlanadi, shunday qilib, pedagog o'ylagan shakl bo'yicha dars samaradorligining erishishi mumkin bo'lgan aniq ko'rsatkichi aniqlanadi. Agarda bu ko'rsatkich o'qituvchini qoniqtiradigan bo'lsa, u darsga tayyorlanishning yakunlovchi bosqichi, rejalashtirishga o'tadi. Qoniqtirmasa – o'zgartirish mumkin bo'lgan omillar vositasida darsni tashkil etishning yanada mukammal shaklini izlashga majbur bo'ladi.

Loyihalash (rejalashtirish) – tayyorlanishning yakunlovchi bosqichi bo'lib, u o'quvchilarni aqliy faoliyatini boshqarish dasturini tuzish bilan tugaydi. Boshqarish dasturi bu – qisqa va aniq, erkin tuzilgan hujjat bo'lib, unda o'qituvchi jarayonni boshqarishning o'zi uchun zarur o'rinlarini qayd qiladi, kimdan va qachon so'rash, qayerda muammoni yuzaga keltirish, mashg'ulotning keyingi bosqichiga qanday o'tish kerakligi, oldindan ko'zlangan qiyinchiliklar paydo bo'lganda jarayonni qanday shaklda qayta qurish mumkin va boshqalar shular jumlasidandir. Boshqarish dasturi darsning an'anaviy rejasida boshqarish ta'sirini aniq, ravshan belgilash bilan farq qiladi.

Yosh o'qituvchilar darsning reja konspektini batafsil yozishlari kerak. Bu qoida amaliyot talabi bo'lib, undan hali biror o'qituvchi bo'lajak darsni tashkil etishning har bir tafsilotigacha o'ylab chiqmasdan haqiqiy ustoz bo'la olmagan.



Qachonki, takror-takror tuzilishlar odatga aylanib qolganda, rejaning hajmi muttasil kamaya borib, u harakatlarning aniq dasturiga aylangandagina, qisqartirilgan yozuvlarga o'tish mumkin bo'ladi.

Yosh o'qituvchi rejasida quyidagilar aks etgan bo'lishi kerak:

- darsning o'tish sanasi va mavzu rejasiga muvofiq uning tartib raqami;
- dars o'tilayotgan sinf va dars mavzusining nomi;
- o'quvchilarga ta'lim tarbiya berish va ularni rivojlantirish maqsad va vazifalari;
- dars izchilligini ko'rsatgan holda uning tuzilishi va har bir bosqichlari bo'yicha vaqt taxminiy taqsimlangan bo'lishi;
- o'quv materialining mazmuni;
- darsning har bir qismida o'qituvchi tomonidan qo'llanadigan metod va ish usullari;
- dars o'tish uchun zarur bo'lgan o'quv qurollari;
- uyga topshiriqlar.

#### **Savol va topshiriqlar**

1. Ta'lim olish jarayonida qanday komponentlardan foydalaniladi?
2. Darsning tashkiliy shakllarini ochib bering.
3. Dars tizimi, strukturasi, elementlari va tiplarini so'zlab bering.
4. Laboratoriya mashg'ulotlarida dars tizimi, uning tiplari va turlariga oid munozara uyushtiring.
5. Maktab o'qituvchisining darsga tayyorlanishini o'rganib, u haqda konspekt yozib keling.

## VII BOB. O'QITISH METODLARI

Maktabdagi o'quv jarayonining sifati ko'p omillarga bog'liq bo'lib, ular orasida o'qitishning usul va metodlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Binobarin, ular bilimlarning ongli va chuqur o'zlashtirilishiga, o'quvchilarda mustaqillik va ijodiy faollikning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Usul va metod tushunchalari o'zaro bog'liqdir, chunki ularning har biri metod sifatida ham, usul sifatida ham namoyon bo'ladi. Pedagogika amaliyotida o'qitish usullari va metodlarining juda katta boyligi to'plangan. Ularni tanlashda turli sharoitlar, o'qitilayotgan fanning xarakteri, bolalarning yosh xususiyatlari, oldingi tayyorgarlik darajasi va hokazolalar hisobga olinadi. Forobiyning fan va san'atning afzalligi haqidagi risolasida o'quv jarayonini tashkil etishga va o'qitish metodlariga qo'yiladigan talablar ifodalangan. Olim o'zining o'qitish metodlari haqidagi tushuntirishlarida o'quvchilarga turli bilimlar berish bilan birga, mustaqil holda bilim olish yo'llarini ham ko'rsatish, ularni bilimlarning zarurligiga shakshubhasiz ishontirish kerakligini uqtirgan. Sharq qomusiy olimlarining asarlarini taxlil qilish, hozirgi terminologiyadan foydalanib, mazkur asarlar mualliflarining prinsiplari va o'qitish metodlari bilishning umumiy qonunlariga muvofiqligini aniqlash imkonini beradi. Barcha qomusiy olimlar foydalangan o'qitish metodlarini bir necha guruhga ajratish mumkin. Bular: ko'rsatmali tajriba metodlari (Ibn Sino), bilimlarni bayon qilishning savoljavobli yo'llari (Abu Rayhon Beruniy, Al-Xorazmiy), ko'nikma va malakalarni shakllantirish metodlari, bilimlarni tekshirish metodlari (Forobiy, Al-Xorazmiy) va hokazolardan iboratdir. Shunisi diqqatga sazovorki, mazkur olimlarning barchasi o'quvchilar faoliyatini kuchaytirish va ularda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish maqsadini ko'zlaganlar. Burhoniddin Zarnudjiyning fikricha, insonning bilish faoliyati bilmaslikdan bilishga qarab boradi. Aql faol, ijodiy kuchdir, koinotni bilish qurolidir. Ammo dastlabki tajribasiz bilishning bo'lishi mumkin emas. Chunki umuminsoniy aql tushunchasi taqqoslash, kuzatish va tajriba yo'li bilan tarkib topadi. Bundan shunday pedagogik xulosa chiqarish mumkinki, inson hissiy idrokni boyitish bilangina o'zining bilimlarini oshira oladi. Shuning uchun ta'limda o'quvchilarning o'zidagi tajribaga tayangan metodlardan iloji boricha keng

foydalanish kerak.

Metodlar va usullarni tanlash o'qituvchi darsda hal qilishi mo'ljallangan masalaga bog'liq bo'ladi. Chunonchi, yangi materialni bayon etishda bir xil metodlar qo'llansa, uni mustahkamlashda ikkinchi va mavzuni umumlashtirishda yana boshqa xil metodlar qo'llanadi. Darsning turli bosqichlarida puxta o'ylash va samarali usullar hamda metodlarni tanlash juda muhimdir. O'qituvchi darsning eng boshida 4–5 daqiqa umumiy so'rashni amalga oshiradi va o'quvchilarning qaysi guruhi o'tgan dars bo'yicha yetarli darajada o'zlashtirmaganini aniqlaydi va keyingi so'rashda sinfning diqqate'tiborini eng avval ana shu masalaga qaratadi. Dastlab savollarga batafsil javob bera oladigan o'quvchilardan so'raydi. Natijada sinfning bir qismi uchun murakkablik qilgan material tushunarli bo'ladi. Bu usul o'quvchilarning mashg'ulotlardagi nuqsonlarini payqash va shu zahoti bartaraf etishda yordam beradi. Mazkur usulning samaradorligi ham xuddi ana shunday. Garchi har bir o'qituvchining ishida anchagina usul va metodlar mavjud bo'lsada, ularni qo'llashdan ko'zlanadigan maqsad tarbiyalanuvchining ta'limiy ishlarini faollashtirishdir. Bu tadbir juda muhim bo'lib, birinchidan, o'quvchilarni ularning e'tiqodiga, e'tiqodni esa amaliy faoliyatga, xatti-harakatga aylantiradi, ikkinchidan, o'qitish jarayonining ishini osonlashtiradi. Zotan, o'qish, o'rganish, diqqat, e'tiborni talab qiladigan murakkab faoliyatdir va unda o'tkir aql, mustahkam iroda, tiniq tasavvur, kuchli xotira zarur. O'qituvchining vazifasi samarali usul va metodlardan foydalanib, o'quvchilarda ana shu sifatlarni tarkib toptirish va ularga qiyinchiliklarni yengishni o'rgatishdir. Hozirgi o'qitish jarayonida qo'yiladigan talablar nima va o'quvchilarda darsga qiziquvchanlikni oshiradigan, uni yangilik elementlari bilan boyitish uchun nima qilish kerak? Hozirgi zamon ta'limi faqat insoniyat erishgan bilimlarni o'zlashtirishni emas, balki jamiyat endi hal qilishi va bunda bugungi o'quvchilar qatnashishi lozim bo'lgan masalalar bilan tanishishni ham talab qiladi. Bunday masalalar kosmosni o'zlashtirish, atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish, cho'llarni hosildor yerlarga va bog'-rog'larga aylantirish, qishloq xo'jaligini intensivlashtirish va hokazolardan iborat bo'lishi mumkin. Xalq xo'jaligi va fanning hamma sohalarida juda katta burilishlar ro'y

bermoqda va har bir o'qituvchi o'zining tarbiyalanuvchilarini o'zi o'qitadigan fan sohasi bo'yicha navbatdagi qayta qurilishlar va erishilgan yutuqlar bilan keng tanishtirishi kerak. Bu ishni o'quvchilarga mos shaklda va o'quv dasturiga muvofiq amalga oshirish lozim. Mazkur talabning ikkinchi xususiyati o'qituvchining o'quvchilar fikr doirasini kengaytirish to'g'risida doimo g'amxo'rlik qilishidir. Ta'limning mana shu bosqichida o'qituvchi oldida o'quvchilarga oddiygina bilimlar berish emas. balki ularning fikr doirasini kengaytirish, qiziquvchanligini oshirish va ularda o'zi o'qitadigan fanga muhabbat uyg'otish vazifasi turibdi. Shunday qilib, o'qitish metodi o'qituvchi va o'quvchilar nazariy hamda amaliy bilish faoliyatining ta'limiy vazifalarini bajarishga qaratilgan yo'ldir. Unga quyidagi muayyan talablar qo'yiladi:

1. O'quv materialini o'rganishning o'qituvchi tavsiya etgan yo'li fikrlashning dialektik-materialistik usuli, mustaqil qarashlar, irodaviy xususiyatlari va xulqning shakllanishiga olib borishi kerak. Ana shu talab nuqtayi nazaridan metod tarbiyaviy tusda bo'lishi lozim.

2. O'qitish metodining ilmiy asosi yaqqol va aniq bo'lishi zarur. Shundagina o'qituvchi mazkur metod orqali qanday masalalar qo'yilishi va hal qilinishi mumkinligini, qanday masalalarni hal qilib bo'lasligini ko'ra oladi.

3. O'qitishning tizimligi uning samaradorligini belgilaydi.

4. O'qitish metodining tushunarligi: o'qitishning yo'li o'quvchi uchun qabul qilinishi va qo'llanishi, o'quv materialini o'rganishning usuli esa bilimlarni o'zlashtirishning imkoniyatlariga muvofiq bo'lishi lozim.

5. O'qitishning onglilik va faollik zaruriyati nihoyatda jiddiy talabdir.

6. Bilimlarning puxtaligi va asosligi.

7. O'qitish metodikasi nazariy va amaliy hodisalarning muvofiqligi.

Har qanday metoddan biror maqsadga erishish ko'zda tutiladi va shuning uchun u qandaydir maqsad qo'yishni, unga erishish bo'yicha faoliyat usulini, ana shu faoliyatni amalga oshirishda yordam beradigan vositalarni bilishni taqozo etadi. Har qanday faoliyat uning obyektini talab qiladi. Nihoyat, metod maqsadga olib borishi kerak, aks holda, oldinga qo'yilgan maqsad uchun yaroqsizligini yoki bu

holatda uning umuman noto'g'ri qo'llanganini e'tirof etish lozim. Shunday qilib, har qanday metod uni qo'llashdan ko'zlanadigan maqsadni, shu maqsadni amalga oshirish faoliyatini va faoliyatni bajarish vositalarini talab qiladi. Bu vositalar faoliyat obyekti to'g'risidagi predmetli yoki aqliy bilimlar, qo'yilgan maqsadga albatta erishishdan iborat bo'lishi mumkin. Bularning hammasi har qanday metodga nisbatan maqsadga muvofiqdir, lekin o'qitish metodi uchun yetarli emas. Metod strukturasi o'qitish usullari kiradi. Lekin metod mazkur usullar majmuyidan iborat emas. Usul o'qituvchi yoki o'quvchilar aqliy yoki amaliy ishining alohida operatsiyalari bo'lib, ular mazkur metodda tavsiya etilgan materialni o'zlashtirish shaklini to'ldiradi. Masalan, o'qituvchi eslab qolish usulini beradi. Usul metoddan ajraladi, o'zining bilimlarini o'zlashtirishdagi va ko'nikmalar hamda malakalarni shakllantirishdagi ahamiyatini yo'qotadi. O'qitish usullarini quyidagilarga bo'lish mumkin:

- tafakkur, xotira, diqqat va xayolning alohida operatsiyalarini tarkib toptiradigan va faollashtiradigan usullar;
- fikrlash faoliyatida muammoli va izlanishli vaziyatlarni vujudga keltiradigan usullar;
- o'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirish bilan bog'liq kechinmalari va hissiyotlarini faollashtiradigan usullar;
- nazorat va o'quvchilarning o'zini o'zi nazorat qilish usullari;
- o'qitish jarayonida o'quvchilarning jamoaviy va kasbiy o'zaro munosabatlarini boshqarish usullari.

O'qitishning turli metodlariga bir xil usullarni kiritish mumkin. So'nggi yillarda pedagogika fani va maktab amaliyotida o'qitish metodlari muammosiga alohida e'tibor berilmoqda. Shu muammo bo'yicha anchagina tadqiqotlar bajarilmoqda, ilg'or pedagogik amaliyotda o'qitishning samarador metodlarining va ularning tizimlarini qo'llashning talaygina yo'llari topildi. Ammo umumiy ta'lim maktabiga qo'yilayotgan yangi talablar o'qitishning metodlari va usullarini yanada takomillashtirishni talab qilmoqda. Yuqorida qayd etilganidek, ta'limning

mazmuniga qo'yilayotgan yangi talablar yosh avlodga, xususan, fanlarning asoslari bo'yicha yuksak ilmiynazariy bilimlar berishdan iborat bo'lib, bu ish nazariy bilish metodlariga. shu jumladan, o'quvchilarni mantiqiy fikrlash, mantiqiy operatsiyalarni bajarish usullari bilan qurollantirishni tobora kuchaytirishni taqozo etadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, o'qitish metodlarining yagona ta'rifi yo'q. Ular o'qituvchi va o'quvchilarning ta'limiy, tarbiyaviy vazifalarini hal qilishga qaratilgan o'zaro hamkorlikdagi faoliyat usullarining tartibga solinishidir. Umuman. o'qitish metodlarining majmuyi atrofda voqelikni bilishning yo'li, deya xulosa chiqarish mumkin.

O'quvchilar aqliy kamol topishining xarakterini belgilaydigan yo'l bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatini yaratadi, shaxsning xususiyatlarini shakllantiradi. O'qitishning maqsadi insoniyatning tajribasini o'zgartirishning o'zidir.

O'qitish nazariyasi metodlarini insoniyat tajribasidan oladi va ularni o'quv mashg'ulotlariga moslashtiradi. Shuning uchun o'qitish metodlari doimiy ravishda yangilanadi, takomillashadi, fan–texnikaning rivojlanishi va ijtimoiy rivojlanish asosida yangi metodlar vujudga keladi. O'qitish metodlarining juda ko'p turlari mavjud va ularning sonini aniq belgilab bo'lmaydi.

Metodlar o'qitishning mantiqiy tomonlariga, komponentlari va vazifalariga asoslanib tasniflanadi. Maktabdagi o'qitish metodlarining yagona tasnifi yo'q. Nazariya va amaliyotda bir qancha tasniflar mavjud bo'lib, ular o'zaro zid kelmaydi, biri ikkinchisini inkor etmaydi, balki birbirini to'ldiradi, o'qitish jarayonini ko'rish imkoniyatini yaratadi.

Tasnif tartib va tizimni vujudga keltiradi, umumiy va muayyan nazariy va amaliy, muhim va tasodifiy o'qitish metodlarini aniqlashga yordam beradi, shu orqali ulardan amaliyotda samaraliroq foydalanishga xizmat qiladi. O'qitish metodlarini tasniflashda o'quvchiga dastur materialini o'rganishning maqsadga muvofiqroq yo'llarini tanlash imkonini yaratadi, o'z ishidagi yutuq va kamchiliklarni tushunishda yordam beradi, o'qituvchilarning faoliyatini takomillashtirish uchun qulay sharoitni vujudga keltiradi.

## **O'qitish metodlarining tasnifi**

Pedagogikada o'qitish metodlarini tasniflashga yagona yondashuv mavjud emas. Hozirgi didaktikada o'qitish metodlarini bilimlar manbasi bo'yicha (S. O. Lordkipanidze, Y. Y. Golant), didaktik maqsadlar bo'yicha (B. P. Yesip), bilish faoliyatining saviyasi bo'yicha (I. Y. Lerner, M. N. Skatkin, M. I. Maxmutov) farqlash eng ko'p tarqalgan.

Metodlarning binar shakllari, ularni uch o'lchovli va hatto, keng qamrovli farqlash ham uchraydi. Ana shu tasniflarning har birida afzalliklar va kamchiliklar mavjud bo'lib, ular adabiyotlarda yetarlicha taxlil qilingan.

O'qitish metodlarini bilish manbalari bo'yicha tasniflash ancha oddiy bo'lib, ular maktab amaliyotida keng tarqalgan. Bu belgi bo'yicha metodlar quyidagi uch guruhga bo'linadi:

1. Og'zaki metodlar (bilimlarni so'z bilan bayon qilish, suhbat, darslik, ma'lumotnoma va ilmiy adabiyotlar bilan ishlash).
2. Ko'rsatmali metodlar (rasmlar, namoyishlar, kuzatishlar).
3. Amaliy metodlar (mashqlar, laboratoriyadagi amaliy ishlar). Bular ma'lum darajada shartlidir, chunki mazkur metodlarning hammasi o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ularni doim ham aniq chegaralab bo'lmaydi.

Har bir o'qitish metodining o'z vazifasi bor. Adabiyotlarda o'qitish metodlarining rag'batlantiruvchi (motivlashgan), ta'limiy, tarbiyaviy va kamol toptiruvchi umumpedagogik vazifalari ifodalangan.

O'qituvchi darsga tayyorlanishda va uning uchun eng muvofiq metodlarini tanlashda ana shu metodlarning bajarilishi mumkinligini va ularning strukturasi hisobga olib, shu asosda rag'batlantirish, tarbiyaviy va kamol toptirish vazifalarini kuchaytiruvchi murabbiydir.

Tasniflash ta'limning nazariy asoslarini ko'rishga yordam beradi, pedagogik fikrni chuqurlashtiradi va shunga ko'ra ijod uchun asos bo'ladi. O'qitish metodlarini tasniflash o'qituvchilar faoliyati o'rtasida taqsimlanadi. Birinchi guruhga o'qitish usullari va ikkinchi guruhga esa o'qish usullari kiradi. Quyida o'qitish metodlarining taniqli olimlar tavsiya etgan tasniflarini ko'rib chiqamiz.

Xorazmiy, Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Ibn Sino, Burhoniddin Zarnudjiylarning metodlari tasniflarida asosan mantiqiy bilish faoliyatini kuchaytirish nazarda tutilgan bo'lib, ular ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda mustahkamlash, ko'rsatmalilik nazariya bilan amaliyotni o'zaro bog'lash. izlanish metodlaridan iboratdir.

I. Y. Lerner va M. N. Skatkin o'qitish metodlarini quyidagilarga ajratadilar:

- tushuntirish rasmlar metodi;
- reproduktiv metod;
- muammoli bayon qilish metodi;
- qisman izlanish metodi;
- tadqiqot metodi.

M.A. Danilov va B.P. Yesipning tasnifi ma'lum turdagi darslarda qo'yiladigan vazifalarga bog'liqdir.

1. Bilimlarni bayon qilishda: hikoya, tushuntirish, ma'ruza, suhbatlar, ko'rsatmali qo'llanmalarni namoyish etish.

2. O'quvchilarda ko'nikma va malakalarni shakllantirish: mashqlarni shakllantirish va amaliy ishlar.

3. Bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish, joriy kuzatishlar, og'zaki so'rash, yozma va amaliy nazorat ishlari.

S.I.Perovskiy va Y. Y. Golant tasnifi: faol va passiv metodlarga bo'lish:

- agar o'quvchilar mustaqil ishlasa, faol metodlar (laboratoriya metodi, kitob bilan ishlash);
- agar o'quvchilar faqat tinglasa va eshitsa, passiv metodlar (hikoya, ma'ruza, tushuntirish, namoyish qilish metodi, ekskursiya).

Bunday tasniflash ma'qul emas, chunki u o'quvchilarning ongliligi va faolligi prinsipini buzadi.

Y. K. Babanskiyning tasnifi bo'yicha metodlar uchta katta guruhga bo'linadi:

- o'quv tarbiya ishlarini tashkil etish va amalga oshirish;



– nazorat va o'zini o'zi nazorat qilish metodlari dars o'tilayotgan sinf va dars mavzusining nomi;

– bilishga doir o'yinlar, o'quv munozaralari, qiziq vaziyatlarni vujudga keltirish, rag'batlantirish, tanbeh berish va nazorat metodlari.

T.A. Ilina olimlarning tasniflarini umumlashtirib, Y. K. Babanskiyning tasnifini ma'qullagan va tasniflashning quyidagi tartibini tavsiya etgan:

– yangi bilimlarni (o'qituvchining so'zlariga tayangan holda berish uchun foydalanilgan tushuntirish, hikoya, maktab ma'ruza metodlari):

– yangi bilimlar o'zlashtirilishi, mustahkam malakalar shakllanishi uchun foydalaniladigan metodlar: suhbat, ekskursiya, eksperiment va laboratoriya ishi, darslik va kitob bilan ishlash. o'yinlari, mashqlar;

– darsning har bir bosqichida foydalansa bo'ladigan texnik vositalar bilan ishlash metodlari;

– mustaqil ish.

S.P. Baranov o'z tasnifini guruhlar bo'yicha taqsimlaydi.

Birinchi guruhga o'qitishning o'qituvchi eng asosiy rol o'ynaydigan hikoya, suhbat, tasniflash, tushuntirish va hokazolarni kiritadi. Bunda o'quvchining asosiy vazifasi o'qituvchi mulohazalarining mantiqiga ergashish, bayon qilinayotgan mazmuni tushunish, eslab qolish va keyinchalik o'rganilgan materialni qayta gapirib bera olishdan iborat bo'ladi. Uning fikri o'qituvchi mulohazalarining tizimiga qanchalik yaqin bo'lsa, o'quv materialini o'rganishning tavsiya etilgan yo'li shunchalik ishonchli bo'ladi. O'quvchining asosiy vazifasi – o'qituvchining gaplarini tinglash va ularni tushunib olishdir.

Ikkinchi guruhga o'qishning yo'llari: mashqlar, mustaqil, laboratoriya, amaliy va nazorat ishlar kiradi. O'quvchi faoliyatining xarakteri tavsiya etilgan metodning samaradorligini belgilaydi. O'qituvchining roli bolalarning o'qishiga mohirona rahbarlik qilishdan iborat bo'ladi.

Tasniflashning shunday turlari ham mavjudki, ularda o'qitish metodlari o'qishning tegishli metodlariga: axborot, umumlashtirish, ijrochilik, tushuntirish,

reproduktiv, instruktiv, amaliy va mahsulliamaliy, tushuntirishda`vat va qisman izlanishli, undovchi va izlanish tarziga mos keladi (M. I. Maxmutov).

Amalda o`qitish metodlarini tasniflashga bilimlar manbayi mantiqan asoslar bo`yicha (N. M. Verzilin). bilimlar manbayi va o`quvchilarning o`quv faoliyatidagi mustaqillik darajasi bo`yicha (A. N. Aleksyuk, I. D. Zverov va boshqalar) baravar yondashish eng ko`p uchraydi.

S.G.Shapovalenko metodlarning to`rt jihatini: mantiqiy-mazmuniy, protsessual va tashkiliy boshqarilishi jihatlarini ko`rib chiqadi.

Metodlarni tasniflash muammosiga turlicha qarashlar ular haqidagi bilimlar tabaqalanishi va birlashishining tabiiy jarayonini aks ettiradi (Svetlovskaya, Suvorova, Lvov, Mavlonova va boshqalar).

### **O`qitishning og`zaki metodlari**

*1. Yangi bilimlarni berish metodlari.* Biz o`qitish metodlarini tasniflashda yetakchi metodlardan birini ajratdik. U bilimlar manbayi, ya`ni yangi bilimlar hamda ta`riflarni berish; tushuntirish, hikoya, maktab ma`ruzasi metodlari majmuyidir. Quyida ana shu metodlarning har birini alohida ko`rib chiqamiz.

Tushuntirishni ayrim tushunchalar, voqealar, harakat prinsiplarini og`zaki talqin etish deb anglash lozim. O`qitishning bu metodida eng asosiy narsa mushohadalarni ilmiy isbotlash mantiqidir. Ilmiy fikrlash mantiqi tushuntirishga qo`yiladigan asosiy talabni belgilaydi. Bu nimani bildiradi, avvalo, o`qituvchi yangi materialni o`tishda foydalaniladigan o`quv predmetining ilmiy mazmunini chuqur bilishi, dars uchun zarur materialni tanlay olishi va tushuntirishning samaradorligini belgilashi kerak. Bundan tashqari, bolalar mazkur materialni o`rganishning maqsadini aniq belgilashi, ularga qiziqarli bo`ladigan faktli materialni tanlashi lozim. Buning uchun esa o`qituvchi o`quvchilarning psixologik va yosh xususiyatlarini yaxshi bilishi, tushuntirishda ularning diqqatini tez jalb etishi va bilishga doir ishlarni faollashtirishi zarur. O`qituvchining nutqi yorqin, aytgan so`zlari bolalarga tushunarli bo`lishi kerak. Ana shu fikrlarimizning dalili sifatida matematika darsini olaylik.

Darsning maqsadi: 1. O'quvchilarni 6 va 7 sonlarini hosil qilish bilan tanishtirish, sonlarni taqqoslashni. 1–7 sonlari ichida miqdoriy va tartib sonlardan foydalanishni mashq qilish. 6 va 7 raqamlari bilan tanishtirish. 6 raqamining yozilishini mashq qilish.

3. O'n ichida sonlar tarkibiga doir bilimlarni mustahkamlash.

### Yangi material ustida ishlash

1. O'qituvchi yangi material ustida ishlashni quyidagi savollar bilan boshlashi mumkin: "Biz sizlar bilan qanday sonlarni o'rgangan edik?"

(1-2-3-4-5) Shu sonlarning qaysinisi eng katta son?

(5) Hisoblashda 5 dan keyin qanday son keladi?

(6) 6 soni qanday hosil bo'ladi?

5 ta doiracha bor bo'lsa (polotnoga qo'yilgan), ular oltita bo'lishi uchun nima qilish kerakligini ko'rsat. Chaqirilgan o'quvchi buning uchun 5 ta doirachaga yana 1 ta doiracha qo'shish kerakligini ko'rsatadi. O'qituvchi yana bolalardan so'raydi: Bola sanoq bo'yicha nechanchi doirachani qo'shdi? (Oltinchi ) Doirachalarning hammasi nechta bo'ldi? (6 ta ). Olti soni qanday yozilishini biladiganlar bormi?

Chaqirilgan o'quvchi yoki (xohlovchilar topilmasa) o'qituvchining o'zi 6 raqamini ko'rsatadi va polotnoga qo'yadi. Shundan keyin o'qituvchi bolalarga 6 sonini hosil qilish (5 ta bir xil doirachaga yana 1 ta boshqacha rangli doirachani qo'shish) amalini narsalar bilan bajarishni, so'ngra 6 soni qanday hosil qilinganini kesma raqamlar bilan yozishni buyuradi. 7 sonini hosil qilish ham xuddi shu yo'sinda bajariladi: 6 ta bir xil rangli uchburchakka yana 1 ta boshqacha rangli uchburchak qo'shiladi va kesma raqamlar bilan ( $6+1=7$ ) yoziladi.

2. Shundan so'ng 5 va 6 (6 va 7) sonlarini taqqoslash ishlari bajariladi. Buning uchun to'plam polotnosida 5, 6 va 7 ta narsadan iborat sonlar pog'onachasi namoyish etiladi. Bunda 6 ning 5 dan 1 ta ko'pligi aniqlanadi. Bolalar tegishli yozuvlarni kesma raqamlar bilan bajaradilar. Keyin darslikdagi rasmlar bo'yicha ishlashga o'tish mumkin.

Parashutchilar tasvirlangan rasmga savollar: „Oldin nechta parashutchi

sakradi? (5) Yana nechta parashutchi sakradi? (1) Oltinchi parashutchi sakraganidan keyin hamma parashutchilar nechta bo'ladi? (6) 6 qanday hosil qilindi? (5 ga 1 qo'shildi.) Oltinchi parashutchi sakraganidan keyin parashutchilar ko'paydimi yoki kamaydimi? (Ko'paydi:  $6 > 5$  bo'ldi)". Keyingi rasmga savollar: „Avval nechta samolyot ko'tarildi? (6) Keyin nechtasi ko'tarildi? (1) Hamma samolyotlar nechta bo'ldi? (7) 7 qanday hosil qilindi? (6 ga 1 qo'shildi.) 6 ta ko'pmi yoki 7 ta ko'pmi? ( $7 > 6$ ).“ Uchburchakli yoki to'rtburchakli rasmlar bilan ham ana shu yo'sinda ishlanadi (birliklarni ayirish bilan 5 va 6 sonlari hosil qilinadi).

Sahifaning yuqorisiga yozilgan qator sonlardan tartib munosabatlarini aniqlashda foydalanish mumkin. O'qituvchi: „Sizlar, masalan, kinoteatr zalining bir qatoridagi o'rindiqlarni ko'zoldingizga keltiring“, – deydi va bir o'quvchidan: „Sening o'ring oltinchi, ikki yoningdagi qo'shnilarning nechanchi o'rinlarda o'tirgan bo'ladi?“ – deb so'raydi. Boshqa o'quvchiga murojaat qilib: „Sening o'ring yettinchi va sen unga 1 nomerli kreslo tomondan borasan, bunda nechanchi nomerli kreslolar oldidan o'tishing kerak?“ – deydi. Keyin o'quvchilarga shunday savol tashlaydi: ”Bola qatorning qoq o'rtasida (to'rtinchi o'rinda) o'tiribdi, uning chap tomonidagi (5, 6, 7) kreslolar va o'ng tomonidagi (3, 2, 1) kreslolarining nomerlarini ayting“. O'qituvchi namunani ko'rsatgach, bolalar 6 raqamini yozadilar, 6 soni hosil bo'lishini ko'rsatadigan nuqtalarni qo'yadilar (bu ishni darslikda berilgan namunaga qarab bajaradilar) 2–3 ta tengsizlikni yozadilar.

## **O'tilgan material ustida ishlash va yangi materialni o'rganishga**

### **tayyorlanish**

1. Navbatdagi darsga tayyorgarlik sifatida bolalarga  $4+1=5$ ,  $5-1=4$ ,  $2-1=1$ ,  $4-1=3$  kabi misollarni berish foydalidir. Bolalar tanlash metodidan foydalanib yoki 2, 3, 4, 5 sonlarining tarkibini bilish asosida tushirib qoldirilgan sonlarni qo'yadilar. Shunday savollar o'rtaga tashlanadi:

5 hosil bo'lishi uchun 4 ga qancha qo'shish kerak?

5 dan nechta olib tashlasa, 4 qoladi?

1 dan 10 gacha bo'lgan sonlarning 2qismiga doir dars.

Darsning maqsadi. Oʻtilganlarni mustahkamlash. Oʻqituvchi darsni ishning muayyan sharoitlarini hisobga olib tashkil etishi mumkin. Namoyish qilinadigan va individual material bilan oʻtkaziladigan amaliy mashgʻulotda qatordagi sonlarning qanday hosil boʻlishini, ularning oʻsish va kamayishdagi tartibini takrorlash foydalidir. Ana shu maqsadda bolalar sonlar qatoridagi boʻsh oʻrinlarni toʻldiradilar, oʻsish va kamayish tartibida berilgan sonlardan foydalanadilar, sonlarni berilgan har qanday sondan boshlab, tartibi boʻyicha, masalan, 2 dan 7 gacha, 8 dan 3 gacha aytadilar. (Sanashni davom ettirish oʻyini.)

Mustaqil yechish uchun ham misollar berilishi (ularni yechishda koʻrsatmali qurol sifatida “Sonlar pogʻonasi” dan foydalanilishi) mumkin. Misollarning bir qismini mustahkamlash darsida tuzsa ham boʻladi. Misollar qanday yechilganini tekshirish uchun har bir ustundagi misollarni taqqoslash va bolalarni: agar 1 ni ayirsak, 1 ta kamayadi yoki 1 ni qoʻshsak, 1 ta koʻpayadi, degan xulosaga olib borish gʻoyat foydalidir.

Hikoya – xabar shaklidagi yangi materialni yoritish metodidir. Undan hamma sinflarda foydalaniladi. Oʻquvchilar aytiladigan maʼlumotlarni bilmaydigan yoki kam biladigan quyi sinflarda bu metodni qoʻllash juda qulaydir. Lekin yangi materialni hikoya metodidan foydalanib tushuntirish uchun oʻqituvchi puxta tayyorgarlik koʻrishi va:

- hikoyaning gʻoyaviy yoʻnalishini taʼminlashi;
- unda yetarli miqdordagi yorqin va ishonarli misollar hamda dalillar, toʻgʻri tekshirilgan maʼlumotlar boʻlishi;
- asosiy fikr va muhim jihatlar bayon qilinishi;
- hikoya tushunarli, sodda tilda aytilishi;
- material joʻshqin ifodalanishi kerak.

Maktab maʼruzalaridan, asosan, yuqori sinflarda foydalaniladi. Chunki ular hikoyaga nisbatan uzoqroq davom etadi. Mazkur maʼruzalar faqat oʻquv dasturining yirik va muhim masalalari boʻyicha oʻqiladi.

Yangi bilimlarni oʻzlashtirish va mustahkamlash, koʻnikma va malakalar hosil

qilish uchun foydalaniladigan metodlar. O'qitish metodlarining birinchi guruhidan farqli o'laroq, ularning ikkinchi guruhida o'quvchilar yangi materialni bilishda faolroq qatnashadilar. Ular o'qituvchining savollariga javob qaytaradilar (suhbat); kuzatishlar o'tkazadilar (ekskursiya); ta'lim vositalari orqali mustaqil bilim oladilar (kitob, darslik bilan ishlash); olgan bilimlarini turli vositalar bilan mustahkamlaydilar (o'yinlar, mashqlar).

Suhbat ta'limning keng tarqalgan usuli bo'lib, darsning istalgan bosqichida qo'llanishi mumkin. Suhbatning to'rt xil turi mavjud bo'lib. ular: yangi bilimlar berishda, bilimlarni mustahkamlashda, olingan bilimlarni tekshirishda, o'tilgan materialni takrorlashda qo'llaniladigan suhbatlardir. Yangi materialni tushuntirishdagi suhbat, asosan, o'quvchining kasbiy tajribasiga tayanadi. Uning manbayi ko'rsatmali qo'llanmalar, darslik materiallari, jadval va hokozolar bo'lishi mumkin.

Yangi bilimlar berishga doir suhbatni induktiv yo'l bilan (ya'ni xususiy ma'lum yoki zarur voqealardan umumiy voqealarga qarab borish tarzida) yoki deduktiv yo'l bilan (ya'ni umumiy hodisadan xususiy hollarga qarab borish tarzida) o'tkazish mumkin. Bilim berishning induktiv va deduktiv yo'llari o'zaro bog'liqdir. Masalan, o'qituvchi qator misollarni aytishi va keyin xulosa chiqarishi yoki umumlashtirishi mumkin (induksiya).

Yangi bilimlar berishda evristik suhbatdan foydalaniladi. Bu metod o'qituvchi o'quvchilar oldiga ma'lum bir vazifa qo'yib, ularni og'zaki savollar orqali ana shu vazifani hal qilishga olib borishda qo'llanadi. Suhbatni muvaffaqiyatli o'tishi savollarning mohirlik bilan qo'yilishiga bog'liqdir.

O'qituvchining savollari, avvalo, qisqa va aniq bo'lishi, mantiqiy izchillikda berilishi, o'quvchining fikrini uyg'otishi: uni o'ylashga, taxlil qilishga, taqqoslashga majbur etishi, yangi hodisalarni tushunishga undashi kerak. O'qituvchilar savollarga to'la, ongli ravishda va asosli javob berishlari, mustaqil fikrlarini aks ettirishlari lozim. Suhbatni bilimlarni mustahkamlash uchun ham o'tkazish mumkin. U o'qituvchining axborotidan keyin yoki darslikdagi materialni mustaqil ishlab chiqilgandan keyin o'tkaziladi. Suhbat mustahkamlovchi metod sifatida bilimlarni

tekshirish va baholash jarayonida ham o'tkazilishi mumkin. Suhbat usuli munozara va mubohasa metodlariga kiradi. Quyida ushbu metod asosida bitta darsni misol keltiramiz.

Ta'limiy suhbat. Ekskursiya. amaliy ish va yangi materialni tushuntirgandan keyin ularni mustahkamlashda, takrorlashda, shuningdek, ekskursiya va yangi materialni tushuntirish davomida o'qituvchi o'quvchilar bilan suhbatlashadi. Suhbatni o'quvchilar kasbiy tajribalari va kuzatishlari, mavjud bilimlari asosida o'qituvchining savolini tushunadigan va unga javob qaytara oladigan bo'lganlaridan keyin o'tkazish mumkin. Agar ana shunday sharoit (bilimlar, tajriba va kuzatishlar) bo'lmasa, o'quvchilar hech qanday tasavvurga ega bo'lmagan narsalar, hodisalar to'g'risida suhbat o'tkazishning mutlaqo foydasi yo'q.

Har qanday suhbatning asosini didaktik masala tashkil etadi. Ana shu masala suhbatning vazifasini va xarakterini, hatto uning turini ham belgilaydi. Shunga ko'ra, ta'limiy va evristikta'limiy suhbatlar bo'ladi. Ta'limiy suhbat o'rganiladigan materialni yanada mustahkamlash. chuqurlashtirish va takrorlash maqsadlariga xizmat qiladi. Yangi mavzu tushuntirilgach, garchi har bir bola faol qatnashmasa ham, ularning xotirasi va tafakkurini rivojlantirish uchun suhbat o'tkazish zarur. Unda to'g'ri fikr yuritish uchun misollarning namunalari bo'ladi. Bundan tashqari, adabiyot, jamiyatshunoslik va boshqa fanlarga doir darsliklardagi suhbatlarda o'quvchilarning o'qituvchi aytgan g'oyalariga to'g'ri kelmaydigan xususiy fikrlari yoki tushunchalari ham ma'qullanadi. o'qituvchi o'quvchilarning javoblarini e'tirof etishga yoki rad qilishga shoshilmaydi. Aksincha, sinfda ular o'z fikrlarini yoki mustaqil mulohazalarini erkin aytishlari uchun sharoit yaratishga harakat qiladi. Javoblarni baholashda esa ularning shunchaki to'g'ri yoki noto'g'riligini qayd qilish bilan cheklanmay, balki o'quvchilarning javoblaridan ozgina bo'lsada, to'g'ri fikrlarini izlaydi. Ulardan zarracha haqiqatni topsa, uni o'zi qisqa va yaqqol qilib takrorlaydi, o'quvchining mustaqil fikr yuritganini ta'kidlaydi va uni shunday qilishga da'vat etadi. Muvaffaqiyatli fikrlar, hatto ayrim ifodalar mazkur mavzuda nima haqida gap borayotganini tushunishga yo'l ochsa, ta'limiy suhbatning evristikta'limiy suhbatga aylanishi uchun xizmat qiladi. Noto'g'ri javoblar, agar

jiddiy bo'lmasa, o'qituvchi tomonidan qayd qilinmaydi yoki yo'l-yo'lakay tuzatib ketiladi. Noto'g'ri javoblar esa o'quvchilar tomonidan oydinlik kiritilguniga qadar muhokama qilinadi. To'liq qaytarilmagan javoblarni o'quvchilarning o'zlari to'ldiradilar. Hozircha maktablarimizda o'quvchilarning bilish ehtiyojlariga taalluqli dolzarb masalalar bo'yicha suhbatlardan ko'p foydalanilmayapti. Fan, texnika, san'at va ishlab chiqarishning dolzarb masalalari yoki ayrim muammolari o'quvchilarni hayajonlantirishi mumkin. Ixtisoslikka doir o'quv predmeti bo'yicha darslarda, xususan hozirgi paytda, o'quvchilarni qiziqtiradigan masalalar muhokama qilinadi. Ba'zan esa bunday masalalar o'quv dasturining chegarasidan ancha chiqib ketadi. Shunday suhbatda o'qituvchi o'quvchilar muhokama qilinayotgan masala bo'yicha uning fikriga ehtiyojmand bo'lishlariga ko'ra qatnashadi. Mazkur suhbat o'quvchilarning kasbiy ehtiyoji va qiziqishlarini, shuningdek, ularni qiziqtiradigan muammoni aniqlash imkonini beradi. Unda o'quvchilar o'zaro erkin fikr almashadilar.

*Munozara.* Ta'limiy suhbat bilimlarni o'zlashtirishga zamin tayyorlab, evristik ta'limiy suhbat ana shu bilimlarni har tomonlama qo'llashga yordam bersa, erkin suhbat bilishdagi mustaqillikni oshiradi. Shu bilan birga, bilishdagi mustaqillikni rivojlantirishga qaratilgan ta'lim o'quv mashg'ulotlarining har qanday turlari, shakllari va usullari o'rtasidagi bevosita izchillikni vujudga keltiradi. Munozara suhbatning yanada rivojlanishidir. U ikkita qarama-qarshi nuqtayi nazarning to'g'riligini isbotlash zarurati tug'ilganida vujudga keladi. Munozara davomida o'quvchilarning fikrlashidagi xususiy cheklanish barham topadi, bilishga qiziqish ortadi va mustaqil mulohaza yuritish rivojlanadi.

### **O'qitishning induktiv va deduktiv metodlari**

O'qitishning induktiv va deduktiv metodlari – o'quv materiali mazmunining xarakteri va mantiqini yoritish usulidir.

O'qitishning induktiv metodi – o'qituvchi va o'quvchining turli variantlardagi faoliyatidir. Bunda o'qituvchi avval dalillarni tushuntiradi, tajribalarni, ko'rsatmali qo'llanmalarni namoyish qiladi, umumlashtirish va tushunchalarni ta'riflash



bo'yicha mashqlar bajarishni tashkil etadi. O'quvchilar oldin xususiy faktlarni o'zlashtiradilar, keyin xulosalar chiqaradilar va o'quv materialini umumlashtiradilar. Yoki o'quvchilar oldiga xususiy qoidalardan umumiy xulosalargacha mustaqil mushohada yuritishni talab qiladigan muammoli topshiriqlar qo'yiladi. O'quvchilar esa dalillar ustida mustaqil holda fikrlaydilar va tegishli xulosalar chiqaradilar hamda umumlashtirish qiladilar.

Deduktiv metod – o'qituvchining avval umumiy qoidalarni, ta'riflarni aytishi, keyin asta-sekin xususiy hollarni, muayyan vazifalarni keltirib chiqarish usulidir. Bunda o'quvchilar umumiy qoidalarni idrok etadilar, formulalarni o'zlashtiradilar, keyin esa ulardan kelib chiqadigan natijalarni egallaydilar. Agar mana shu metodlar taqqoslansa, o'quvchilar ma'lum mushohadalarni keltirib chiqaradigan faktlar va materialni o'zlashtirishlariga ko'ra induktiv metod foydaliroqdir. Masalan, o'qituvchi matematik masalaning yechimini yoritadi, keyin o'quvchilarga ana shu xildagi masalani mustaqil holda yechishni tavsiya qiladi. lekin bunda fikrlash tez rivojlanmaydi va materialni o'rganishga ko'p vaqt ketadi. Deduktiv metod materialni tezroq o'tishga yordam beradi va bunda mavhum fikrlash faolroq rivojlanadi. O'qitishning induktiv va deduktiv metodlarida uning og'zaki, ko'rsatma va amaliy metodlari, shuningdek, reproduktiv yoki muammoli izlanish metodi ham qo'llaniladi. Ta'limning reproduktiv xarakteri, asosan, o'quvchilarning ijodiy faoliyatidir. Fikrlashning xarakteri – o'qituvchi bergan o'quv axborotini faolroq idrok etish va eslab qolish, o'qitishning og'zaki, ko'rsatma va amaliy metodlaridan hamda usullaridan foydalanmay, mazkur metodlarni qo'llab bo'lmaydi. Reproduktiv metodda o'qituvchi faktlarni, isbotlarni, tushunchalar ta'rifini to'la bayon qiladi, asosiy masalaga alohida e'tibor beradi. O'qitishning reproduktiv metodida ko'rsatmalilik ham qo'llaniladi. Reproduktiv yo'sindagi amaliy ishlar o'quvchilarning namuna bo'yicha ilgari yoki endigina o'zlashtirilgan bilimlarni qo'llashi bilan farqlanadi. Ammo bunday ishlarda bilimlarni mustaqil holda boyitish amalga oshmaydi. O'qitishning muammoli izlanish metodi muammoli ta'limda qo'llaniladi.

### **Reproduktiv ta'limdan amaliy ta'limga o'tish**

Biz maktabda insonga hayotiy masalalarni mustaqil holda hal qilishni o'rgatamiz. Buning uchun faqat bilimlar emas, balki ularni ishlatish va turli sharoitlarda qo'llash ko'nikmasi ham kerak. Ana shu nuqtayi nazardan hozirgi maktabda ustunlik qiladigan o'qitishning reproduktiv usuli maqsadga muvofiq emas.

Masalan, hozir teatrlashtirish keng tarqalgan. Bunda jiddiy spektakllarni qo'yish haqida gap borayotgani yo'q. Darsda kichik sahnani o'ynash: bolalarga tasodifan qadimgi odam uchrab qolsa, u bilan nimalarni gaplashishlarini o'ylab ko'rishni taklif qilish mumkin. Shu payt birdan shkafning eshigi ochilib, undan "ibtidoiy odam" chiqadi. U teriga o'ralgan va qo'lga so'yil ushlab olgan. Teri bo'lmasa, ag'darma nim po'stin kiyadi. So'yilning og'irligini chamalab va terini siypalab ko'rib, "ibtidoiy odam"dan uning qabiladoshlari va yuz ming yil avval qanday yashaganini so'rash o'quvchilar uchun qiziqarlidir. Undan gugurtsiz olov yoqishni ham o'rganish mumkin. Bilishga doir yurishlar va ekskursiyalar barchaga ma'lum. Lekin bunda bolalarning o'zlari muammolarni qo'yishlari, gipotezalarni bayon qilishlari va ularga javob topishlari muhimdir. Bu borada daladagi o'simliklarning nima uchun har xil o'sishi, gunafshaning chiroyliligi va hokazolar haqida fikr yuritish g'oyat foydalidir. Sinfda o'quv jarayonini bolalarni qiziqtiradigan savollarga javob topish yo'sinida tashkil qilish mumkin. Hech qachon unutmazlik kerakki, pedagogik jarayonning ikkita qatnashchisida o'qituvchi va o'quvchida ikki xil maqsad bo'lishi mumkin. Masalan, o'qituvchi o'quvchini tabiat hodisalari bilan tanishtirishni istasa, o'quvchi o'yin uchun vaqt topish haqida o'ylaydi. Buni bitta yo'ldan ikki xil maqsadga qarab borish desa bo'ladi. Faoliyatga intilishning eng yaxshi omillaridan biri hayratlanishdir. O'qituvchilardan o'quvchi darsdan nima olib ketishi kerakligi so'ralsa, ular: uyga vazifa, yangi bilimlar, baholar, deb javob beradilar. Aslida o'quvchi uyiga zavq-shavq va qoniqish bilan, yana darsga kelish ishtiyoqi bilan qaytishi kerak. O'qituvchining darsda nimanidir amalga oshirishga ulgurmagani hech gap emas. Uning bolalarda uyg'otgan qiziqishi keyingi safar kamchilikni to'ldirishda unga yordam beradi. Dars oxirida o'qituvchi

bolalarni hayratlantiradigan savolni ochiq qoldirsa, bolalar sarguzashtlarning davomini kutgandek u bilan yana uchrashishga intiladilar.

Afsuski, darsliklarimizdagi matnlarda aqlga nomuvofiq fikrlar uchramaydi, barcha ziddiyatlar bartaraf etilgan va shunga ko'ra darsliklar zerikarli. Odatda, dastlabki manbalarda aqlga nomuvofiq fikrlar, ziddiyatlar, to'qnashuvlar juda ko'p bo'ladi. Dastlabki manbalardan foydalanish yaxshi, lekin ularni o'qish qiyin. Shuning uchun, bir tomondan. bolalar tushunadigan tilda yozilgan. ikkinchi tomondan, o'zaro zid fikrlar uyg'otadigan mazmundagi o'quv matnlari zarur. Bizning juda bo'sh o'quv materiallarimizni xayoliy qo'shimchalar bilan yo'naltirish mumkin va bu ish murakkab emas. Masalan, o'qituvchi darsni quyidagicha boshlaydi: "O'zimizni kosmik kemada uzoq galaktikadagi noma'lum planetaga uchib kelgandek his qilamiz. Undagi hamma sharoit xuddi yerdagidek, lekin faqat tortish kuchi kam. Unda qanday hayvonlar yashashi mumkin?" Bu holda bolalarni maqsadi mazkur planetada hayvonot dunyosini ko'paytirishdan iborat bo'ladi. O'qituvchi esa ularga yerdagi hayvonot dunyosini o'rgatishni ko'zlaydi. O'qituvchi ham, o'quvchilar ham o'z maqsadlariga erishadilar, binobarin, taqqoslash bilishning yaxshi yo'lidir. Maktablarimizdagi o'quv predmetlarning mazmunida asosiy e'tibor definitsiyalarga, ya'ni tushunchalarni ta'riflashga qaratilgan. Lekin ana shu tushunchalarga turli nuqtayi nazardan qarash g'oyat foydalidir. Har qanday obyekt o'zi haqidagi tushunchaning ta'rifidan ancha boydir. Bolaning miyasiga tushunchalar ta'rifini qanchalik ko'p tiqishtirsak, ana shu boylikning imkoniyatlari shunchalik yo'qolib boradi. O'qituvchining materialni takrorlash va mustahkamlashga qaratilgan vazifalari ham o'quvchilarning faoliyatini kuchaytirishi lozim. Uyg'a beriladigan vazifaning o'qish va so'zlashdangina iborat bo'lishi ma'qul emas. Undan ko'ra bolalarning o'qituvchiga savollar bergani yaxshiroqdir. Ammo o'tilgan mavzu bo'yicha berilgan savollar o'quvchilarni yangi bilimlarni o'zlashtirishga tayyorlashi kerak. Suv solingan idish isitilsa, itarilish kuchi qanday o'zgaradi?

O'qituvchi darsda isbotlagan qoidalarni amalda sinab ko'rishni bolalarga tavsiya etishi mumkin. Chunki bahslashish uchun bilim kerak. Hozir maktablarda

o'quvchilarga o'zlari o'rganadigan predmetlarni yoki mavzularni tanlash huquqini berish mumkinligi xususida gaplar bo'lyapti. Bolaga ko'chaga chiqishdan oldin etigini kiyish yoki kiymasligini aytish kerak emas. Chunki u "kiymayman" deyishi mumkin va so'ragan kishi mulzam bo'lib qoladi. Unga etikni avval chap yoki o'ng oyoqqa kiyishini aytish boshqa gap. U o'zining tanlash huquqidan qoniqish bilan foydalanadi.

### **O'qitishning amaliy metodlari**

1. *Ta'limiy topshiriqlar.* Maktablardagi ta'limning hamma bosqichlarida o'quvchilarning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish juda muhimdir. Lekin kichik yoshligidan boshlab ularning ijodiy fikrlashini shakllantirish alohida ahamiyatga ega. Chunki boshlang'ich sinflarda, xususan, ta'limning birinchi yili bolalarda o'qish qobiliyatlari shakllana boshlaydi.

O'quvchining ijodiy fikrlashi yangilik kashf etishida, ko'rilyotgan narsani yaratishning boshqacha usulini topishda, o'quv materialidan o'zgacha bog'lanishlarni ochib berishi va hokazolarda aks etadi. O'quvchilarning namunaga tayanmay qandaydir yangi narsani yaratish qobiliyati ijodkorlikni talab qiladigan faoliyatda rivojlanadi.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishda ta'limiy topshiriqlar muhim rol o'ynaydi. Bunday topshiriqlar fikrlash faoliyatining maqsadi sifatida xizmat qiladi va uning xarakterini belgilaydi.

Topshiriqlarning har xil turlari kichik maktab yoshidagi o'quvchilar fikrlashining rivojlanishiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. O'quv faoliyatida reproduktiv topshiriqlarning ko'p qo'llanishi bolada ilgari o'zlashtirgan bilimlarini va ish usullarini qayta tiklashga intilishni, namunaga qarab ishlash odatini vujudga keltiradi va bu odat fikrlash jarayonining reproduktiv asosiga aylanadi. Lekin ijodiy fikrlash ishning andazasiz usullarini amalga oshirishni, yangi maqsadlar qo'ya olishni, nazorat qila bilish va baholashni, rejalashtirishni, taxlil, taqqoslash va umumlashtirishning o'ziga xos usullarini, baholash mezonlarini shakllantirishni talab qiladi. O'quvchilarda mazkur fikrlash jarayonlarini tarkib toptirish uchun darsda produktiv topshiriqlarni qo'llash, ularning bevosita ijodiy fikrlashi maqsadlar

qo'yishga, rejalashtirishga, umumlashtirishga, shuningdek, nazorat qilishga va baholash kabi jarayonlarni rivojlantirishga qaratilishi kerak.

Maqsadlar qo'yish jarayoni matn. rasm mazmuniga savollar tuzish, javob qaytarayotgan o'quvchiga qo'shimcha savol berish, masalaning shartlariga turli savollar qo'yish va hokazolarda amalga oshadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ishni rejalashtirish ko'nikmasini rivojlantirish uchun ular bilan o'zlarining kelgusidagi darslarda har qanday topshiriqlarni bajarishdagi xarakterlarini qanday tasavvur etishlarini doimiy ravishda muhokama qilib borish zarur. Shuningdek, darslarda hikoyaning rejasini tuzish, bayon yozish, masalalar yechish kabi topshiriqlardan keng foydalanish kerak.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda ijodiy fikrlashni shakllantirish zarurligi o'qituvchining oldiga o'quv jarayonida o'quvchilarda taxlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlardan ham keng foydalanish vazifasini qo'yadi. Ana shu jihatdan matematika darslarida, xususan, masalalar yechishda katta imkoniyatlar mavjud bo'ladi.

Fikrlash faoliyatining nazoratbaholash mexanizmini shakllantirish har bir darsda o'quvchilarni faqat faoliyatning natijasini emas, balki ana shu faoliyat jarayonida tegishli baholashni ham amalga oshirishga undaydigan topshiriqlardan foydalanishni talab qiladi.

Dars strukturasiiga produktiv topshiriqlarni kiritish kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda yangi maqsadlar qo'yish, rejalashtirish, andazasiz taxlil qilish, taqqoslash, nazorat qilish va baholash kabi fikrlash jarayonlarini shakllantirishning asosiy shartlaridan biridirki. bu jarayonlar ijodiy fikrlashning rivojlanishida katta rol o'ynaydi.

### **Nazariy bilimlardan foydalaniladigan mashqlar**

Maktab amaliyotida mashqlar o'tkazish uchun o'quvchilarning nazariy bilimlariga murojaat qilishning ba'zi yo'llari belgilangan. Bu ishning eng keng tarqalgan, lekin eng kam samarali usuli dars rejasida ko'zda tutilgan mashqlarni bajarishda tayaniladigan ma'lum tushunchalar va qoidalarni og'zaki qayta tiklashdir. Mashqlarni bajarishdan oldin nazariy materialni takrorlashning

samaraliroq usuli mazkur materialni qo'llash bo'yicha amaliy topshiriqlarni qo'yishdir. Bunday topshiriqlarga tanlanma diktant o'tkazishda ma'lum so'zlar yozishni, nutqning ma'lum bo'laklarini qisqa vaqt ichida taxlil qilishni, nutqning ahamiyatli qismlarini ajratishni, didaktik tarqatma material bilan ishlashda ma'lum orfogrammalarni qayd qilishni, masalalar yechishda asos bo'ladigan matematik ifodalar bilan ishlash va hokazolarni kiritish mumkin. Mashqlar o'tkazishda nazariy materialga murojaat qilishning navbatdagi usuli o'quvchining keyingi amaliy ishini bajarishdan oldin uning yo'llarini asoslashidir. Amaliy ishlarni bajarish vaqtida nazariy asoslash pedagogik jihatdan o'zini oqlagan. Bu usulni ikki variantda bajarish mumkin. Bular navbatdagi ishini keng tushuntirish va sharhlashdan iboratdir. O'quvchilar bilan ularning tayyorgarligidagi ayrim kamchiliklarini to'ldirish bo'yicha ishlashda navbatdagi ishlarni keng tushuntirish o'zini ancha oqlagan. Bunda avval o'quvchidan keng mushohada yuritishni talab qilish lozim va talabni bajarish esa hisoblash usulini chuqurroq anglashni ta'minlaydi. Mushohada jarayoni asta-sekin kengaya boradi va harakatlar ma'lum tartibda, ketma-ket amalga oshadi. Hisoblash usulini asoslovchi qoidaning yo'naltiruvchi roli yo'qoladi va u faqat qiyinchilik tug'ilganida eslanadi.

### **Mashq – o'quvchilarda malakalarni shakllantirish faoliyatining asosiy turi**

O'quvchilar malakalarining saviyasi ana shu ishning qanday tashkil etilishiga bog'liq. Mashqlarni tasniflashning bir necha tizimlari mavjud bo'lib, uning hamma turlarini malakalar hosil bo'lishi jarayonidagi o'rniga qarab uch guruhga: *tayyorgarlik*, *o'quv* va *o'rganish* mashqlariga bo'lish mumkin.

Tayyorgarlik mashqlarining vazifasi dasturdagi yangi materialni ongli ravishda o'zlashtirish uchun zarur bilimlar va amaliy ish usullarini esga tushirishdan iboratdir. Masalan, III sinfda fe'llarni o'rganish tajribasi bo'yicha oldin fe'llarni eshitib idrok etish, fe'lning zamon shakllarini aniqlash mashqlari o'tkaziladi. Bolalar so'zlar orasidagi fe'llarni ajrata oladigan bo'lganlaridan keyin ana shu so'z turkumini ongli ravishda qo'llash mashq qilinadi.

Boshqa bir misol. Matematika darsligining mualliflari I. Oxunjonov va

N.U.Bikbayevalarning fikricha, 10 ichidagi amallarni mustahkamlashda va ikkinchi o'nlidagi sonlarni nomerlashni o'rganishda tarkibli masalalarni qo'llashdan oldin quyidagi tayyorgarlik mashqlarini muntazam o'tkazish kerak:

1. Oddiy masalaning shartiga savol qo'yish. Chunonchi, bir qutichada 6 ta, ikkinchi qutichada undan 2 ta kam qalam (opasida 10 ta va ukasida 8 ta marka) bor. Masalaning ana shu shartidan nimani bilish mumkin?

2. Masalaning berilgan shartidagi yetishmaydigan sonni to'ldirish. Chunonchi, akasida 4 ta daftar bor, aka va singilning daftarlari qo'shilsa, nechta bo'ladi? (Maydonda turgan mashinalarning 3 tasi ketsa, nechta mashina qoladi?).

3. Berilgan savolga javob uchun kerakli ma'lumotlarni tanlash. Chunonchi, ikkita yashikda qancha olma borligini (qizchada necha tiyin qolganini) aniqlash uchun nimani bilish kerak?

O'quv mashqlari yangi material yoritilishi bilanoq boshlanadi va ana shu materialni o'zlashtirishda yordam beradi. Ularning farqli xususiyati o'quvchilarga o'qituvchining doimiy yordam berishidan iboratdir. Bu yordam ko'pincha bajariladigan ishning usullari va natijalarini jamoa bo'lib muhokama qilishda, sharhlashda o'zining ifodasini topadi. Birinchi o'quv mashqida bolaga baho qo'yish ma'qul emas, chunki undan hali o'rganilmagan narsani so'rash pedagogik jihatdan noto'g'ridir. O'quv mashqlarini o'tkazishda algoritmik ko'rsatmalar, ya'ni aqliy va amaliy harakatlarning didaktik jihatdan o'zini oqlagan turlari belgilangan o'ziga xos xotiranomalar g'oyat foydalidir. Algoritmik ko'rsatmalarning keng doiradagi bir xil masalalarni yechish uchun qo'llanishi maqsadga muvofiq bo'lib, ular ishda to'g'ri natijalarga erishish imkonini beradi.

O'qish dasrida hikoyaning rejasini tuzish uchun quyidagicha xotiranoma juda foydalidir.

1. Hikoyani o'qi.
2. Uni qismlarga ajrat.
3. Har bir qismdagi asosiy masalalarni top.
4. Har bir qismga sarlavhalar qo'y.
5. Qismlarning sarlavhalaridan reja tuz.

O'quv topshiriqlarining har xil turlaridan foydalanish o'quvchilarni ishga ijodiy yondashishga va nazariy bilimlarni amalda qo'llashga yordam beradi. Bunga erishish uchun o'quvchilarning bilimlarini ularning dastlabki tushuncha, tasavvur va ko'nikmalarini shakllantirgan materiallardan boshqacha materiallar asosida mustahkamlash va takomillashtirish kerak. Shuningdek, bu materiallar ko'p variantli topshiriqlardan tashkil topib, ularning har biri o'ziga xos bilishga doir va mantiqiy topshiriq bo'lishi maqsadga muvofiqdir. O'rganish mashqlarining ana shunday yo'lga qo'yilishi o'quvchilar ongida yangi bog'lanishlar hosil bo'lishiga va shunga ko'ra materialning yaxshiroq o'zlashtirilishiga yordam beradi.

Amaliy metodlar o'qitishning og'zaki va ko'rsatmali metodlari bilan uzviy birlikda qo'llaniladi. Chunki mashqlarni bajarish, tajribalarni o'tkazish va mehnat operatsiyalarini amalga oshirishdan oldin pedagog instruktiv tushuntirishlar o'tkazishi kerak. Og'zaki tushuntirish va rasmlarni ko'rsatish, odatda, mashqlarni bajarish jarayonida amalga oshiriladi va uning natijasini aniqlash va taxlil qilish bilan tugallanadi.

4. Laboratoriya ishi tadqiqotchilik metodlari qatoriga kiradi va bunday metodlar yordamida o'quvchilar o'zlari uchun yangilik kashf etadilar. Boshlang'ich sinflarda laboratoriya ishlari, asosan, tabiatshunoslik va mehnat darslarida o'tkaziladi.

5. Mehnat darslarida qog'oz, gazlama, loy va boshqa ashyolarning xossalari o'rganiladi. O'quvtajriba uchastkasida turli o'simliklarning rivojlanishi kuzatiladi. Maktab laboratoriyasida amalga oshiriladigan ishlar bolalarda mehnat madaniyatini tarbiyalaydi, asboblarni ehtiyotlab ishlatish, ish o'rnini batartib tutish odatini vujudga keltiradi.

6. O'yin, hozircha, hatto boshlang'ich maktabda ham o'qitishning metodi sifatida tegishlicha o'rin olgan emas. O'yinlar o'quvchilarning bo'sh vaqti bekor o'tmasligi va ularni jismonan chiniqtirish uchun o'tkaziladi. Ta'limiy o'yinlar darsda yoki darsdan tashqari o'tkazilishidan qa'iy nazar, beixtiyor eslab qolish jarayonlarini ancha faollashtirishda, bilish faoliyatiga qiziqishini oshirishda, mustaqil mehnatga tayyorlashda katta ahamiyatga molikdir.



O'yinlarni psixologik-pedagogik tashkil etish, tayyorlash va o'tkazish bosqichlari o'qituvchining o'yinni tashkil qilish va o'tkazishga nazariy-metodik tayyorgarligi:

– kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning yoshi, o'ziga xos psixologik va tipologik xususiyatlarini o'rganish, ana shu xususiyatlarni hisobga olish hamda ular o'yinining maqsadi, vazifasi va mazmuniga muvofiq ravishda tuzatishni rejalashtirish;

– o'quvchilarning hayotiy tajribasini, qiziqishlarini, mayllari va qobiliyatlarini o'rganish hamda o'yinda ulardan foydalanib, har bir o'quvchida to'la qoniqish hosil qilishni rejalashtirish;

– texnik vositalardan foydalanib, namunaviy o'yinlarni ko'rsatish va tushuntirish;

– o'quvchilarni o'yinning mazmuni, sujeti, maqsadi va vazifalari, bosqichlari, borishi va qoidalari bilan tanishtirish:

– o'quvchilarni o'yin jarayonida o'zini o'zi nazorat qilishga shaylash;

o'yinga rahbarlikning xarakterini, o'yinda o'qituvchining o'zi ham hakam yoki kuzatuvchi sifatida qatnashishini yoki rahbarlikni peshqadam o'quvchiga berishini belgilash;

– o'yin jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi;

– o'tkazilgan o'yinni muhokama qilish: qo'yilgan vazifalar yuzasidan o'yinning natijalarini, ishtirokchilarning harakatlarini baholash va ularni rag'batlantirish;

– mazkur o'yinning o'quvchilarni vatanparvarlik va baynalmilallilik ruhida tarbiyalashdagi samaradorligini pedagogik taxlil qilishdan iboratdir.

O'yinlarni tashkil qilishda quyidagi pedagogik omillarni hisobga olish zarur:

– o'quvchilarning o'yinning mohiyati, mazmuni, bosqichlari va natijasini to'la tushunishini;

– ularning navbatdagi o'yin faoliyatiga shaxsan qiziqish bilan ijobiy munosabatda bo'lishini; o'yinda zarur bilim, ko'nikma va malakalarini safarbar etishini;

o'yingacha, o'yin jarayonida va undan keyin o'qituvchining barcha talablarini bajarishlarini.

Muammoni hal qilishning optimal psixologik pedagogik shartlari quyidagilardan iborat:

- mazmunan dolzarb o'zbek xalq o'yinlari majmuasini tanlash;
- o'quvchilarni o'yin faoliyatiga emotsional jihatdan shaylash;
- o'qituvchining kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni o'zbek xalq o'yinlariga qiziqтира olishi;

o'zbek xalq o'yinlariga rahbarlik qilish mazmuni, shakllari va metodlarining birligi;

- o'yin jarayonining hayotiyligi, uning haqqoniyligi;
- kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning o'yin faoliyatida qatnashuvining ixtiyoriyligi;
- o'yinlarning mazmunini asta–sekin murakkablashtirib borish.

O'zbek xalq o'yinlarini tanlashga qo'yiladigan talablar:

- o'yinlar mazmunining hayotiyligi va haqqoniyligi;
- mazmuni bo'yicha mosligi;
- sujetning soddaligi, qiziqarliligi va hissiyotlilikgi;
- o'yinda faol fikrlashni, ijodkorlikni, sezgirlikni, tashabbskorlik va faollikni, hissiy ta'sirchanlikni, o'tkir zehn va kuzatuvchanlikni, diqqate'tiborlilikni talab qilish;
- o'yinning o'quvchilar yoshiga, psixologiyasi va ularning pedagogik tayyorgarligiga mosligi.

O'qituvchi sinflar bo'yicha o'yinlarni “Milliy harakatli o'yinlar” (T. Usmonxo'jayev va b. Milliy harakatli o'yinlar. Toshkent, ”O'qituvchi”, 2000) kitobidan yoki mahalliy bolalar o'yinlaridan foydalanishi mumkin.

O'yinlarni o'tkazishning tarbiyaviy maqsadi va vazifalari uchta (boshlang'ich, asosiy, yakunlovchi) bosqichda amalga oshiriladi.

*Boshlang'ich bosqich* o'quvchilar bilan ularning yoshiga mos, tushunarli, ijodiy yo'sindagi tayyorgarlik ishlarini olib borishdir.

Ana shu ishlar orqali o'yinlar o'quvchilarda o'z xalqining tarixiga, an'analariga: xalq ijodiga. shu jumladan, o'yinlariga. o'zbek xalqining qahramonona, inqilobiy o'tmishiga qiziqish hamda mehnatga hurmat va muhabbat uyg'otishi lozim. Shuningdek, ularda respublikamizning mehnatdagi yutuqlari bilan faxrlanish hissini; xalq yaratgan go'zal narsalarga muhabbat tuyg'usini, tabiatdagi boyliklarni qo'riqlash ehtiyojini tarkib toptirish zarur.

### **Savol va topshiriqlar**

1. Ta'lim usullari haqida umumiy ma'lumot bering .
2. O'qitishning og'zaki va ko'rgazmali metodlari haqida fikringiz.
3. Ta'lim usullarining mazmun mohiyatini ochib bering.
4. O'qitishning amaliy metodlari nimalardan iborat.
5. Milliy o'yinlar , ularning turlarini ayting.

## VIII BOB. TA'LIMDA MUAMMOLI VA AHBOROT TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Muammoli ta'lim bu – o'quvchiga beriladigan bilimning qaysi qismini, qanday yo'l bilan berish muammosini samarali hal qilishga qaratilgan o'qituvchi faoliyatidir. Muammoli ta'lim darsda bir vaqtning o'zida o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi harakati bo'lib, u o'quvchi shaxsidagi muhim belgi ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. N.G. Dayri aytganidek. darsda o'rganiladigan mazmunning murakkab qismini o'zlashtirishda o'qituvchining faoliyati qanday bo'lsa, o'quvchi faoliyatini ham shu darajaga yetkazish muammoli ta'limning asosiy maqsadidir.

Muammoli ta'lim – o'quvchilarning erkin fikrlashlariga, o'zining fikrini erkin bayon qila olishlariga va fikrlarini yanada rivojlantirishga ta'sir etishidir. Muammoli ta'lim o'qituvchidan aniq harakat qilishni, darsning har bir minutini hisobga olishni, ushbu vaqtda kerakli samara hosil bo'lishi uchun o'zining barcha imkoniyatlarini va mahoratini ishga solishni talab etadi. Bu masalani hal etishning muhim sharti o'qituvchining bo'lajak o'quv mashg'ulotiga tayyorgarligidir.

Tayyorgarlik jarayonida muammoli ta'limning barcha ko'rinishlarini hisobga olish va uni uslubini ishlab chiqish zarur. Muammoli ta'limga tayyorgarlik ko'rishda o'qituvchilar qator qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu qiyinchiliklarni yengishda o'qituvchini innovatsion ijodiy laboratoriyasining ahamiyati katta.

**Muammo**– ilmiy bilishni rivojlantirish zarurligini ifodalashning subyektiv shaklidir. U muammoli vaziyatda, ya'ni jamiyat rivojlanishi jarayonida bilish va bilmaslik o'rtasida obyektiv ravishda vujudga keladigan ziddiyat. Muammoli ta'lim deganda o'quv materialini o'quvchilar ongida ilmiy izlanishga o'xshash bilish vazifalari va muammolarini vujudga keltiradigan yo'sinda o'rgatish tushuniladi. O'quvchining fikrlash faoliyatida muammoli vaziyatlar vujudga keladi va ular bolani obyektiv ravishda izlanishga va mantiqan to'g'ri ilmiy xulosalar chiqarishni o'rganishga da'vat etadi.

Muammoli ta'lim an'anaviy ta'limning salbiy jihatlarini bartaraf etish maqsadida yuzaga kelgan insonni fikrlash, xotirasini mustahkamlash ekspluatatsiya qilish asnosida yuzaga kelgan. Fanda muammoli o'qitish bilan aloqador ikkita tushuncha ishlatiladi: " **muammo**" va " **muammoli vaziyat** " tushunchalari. Ayrim hollarda ular sinonimdek tushunilsada, lekin bu atamalar bilan belgilangan ob'ektlar o'z hajmi bilan farqlanadi. Muammo muammoli masalalar ketma-ketligiga ajraladi. Muammoli ta'lim shunday shaklki, u ta'lim jarayoni sub'ektlarini muammoli izlanish asosida bilim olishiga asoslanadi. Bu jarayonda ular ilmning ob'ektiv qarama-qarshiliklariga, ijtimoiy va kasbiy amaliyot hamda ularni hal etishda, fikrlashda, samarali muloqotga kirishish va bilimlarni ijodiy o'zlashtiradilar. O'qitishni bunday shakllanishining asosi muammoli vaziyatlar hisoblanadi.

Ko'plab olimlar (T.V.Kudryavsev, A.M.Matyushkin, S.L.Rubinshteyn, I.Y.Lerner, M.N.Skatkin M.Maxmutov, R.A.Mavlonova va boshqalar) muammoli ta'limning afzal jihatlari haqida fikr yuritib, u shaxsda bilimlarni o'zlashtirish, ijodkorlik, izlanuvchanlik, tanqidiy fikrlash kabi xususiyatlarni shakllantirishni, fikrlash va ta'limdagi muammoli vaziyatning chuqur psixologik xarakteristikasini ifodalaganlar.

Psixologlarning ta'kidlashicha, fikrlash doimo muammo yoki savoldan, ajablanish yoki tushuna olmaslikdan va ziddiyatdan boshlanadi (S.O.Rubinshteyn).

Ana shularga ko'ra, pedagogika nazariyasi va amaliyoti asosini o'quv muammosi tashkil etadigan ta'limga muammoli yondashish tushunchasi faol kirib kela boshladi. Bu muammoning mohiyati o'quvchiga ma'lum ko'nikma va malakalar bilan tushunish hamda tushuntirish uchun ilgari bilimlar kamlik qiladigan voqealar o'rtasidagi didaktik ziddiyatlardan iboratdir. Bunday ziddiyat ijodiy o'zgartirishga turtki bo'ladi ( M.Maxmutov).

M.N. Skatkin muammoli ta'limning quyidagi uchta asosiy turini alohida ifodalagan:

1. *Bilimlarni muammoli bayon qilish.* Bunday bayon qilishda o'qituvchi o'quvchilarga u yoki bu qoidalarni faqat gapirib bermaydi, balki og'zaki fikr yuritib, muammoni ham aytadi va uni hal qilish jarayonini ko'rsatadi.

2. *Bayonning ayrim bosqichlarida o'quvchilarni izlanishga jalb etish.* Bunda o'qituvchi muammoni qo'yadi, o'quv materialini tushuntiradi, lekin ana shu jarayonda o'quvchilarga ulardan izlanish jarayoniga qo'shilishni va u yoki bu bilish vazifasini mustaqil holda hal etishni talab qiladigan savollarni beradi.

3. *Ta'limning tadqiqiy metodi.* O'quvchilar bilish muammosini anglab, o'zlari izlanish rejasini belgilaydilar, taxmin (gipoteza)ni tuzadilar, uni tekshirish yo'lini muhokama qiladilar, tajribalarni va dalillarni taqqoslaydilar, umumlashtiradilar.

Muammoli bayon qilish jarayonida izlanishni o'qituvchi olib boradi, o'quvchilarga ilmiy isbotlash bo'yicha fikrlash namunasini ko'rsatadi, o'quvchilar faqat uning mulohazasini kuzatadilar, muammoni hal qilishga qaratilgan qiziqishni o'rganadilar. Shuningdek, ularning shaxsida qiziquvchanlik, o'tkir zehnilik, mustaqillik, o'qishga qiziqish va ijodga intilish kabi fazilatlarini tarbiyalaydi. Boshlang'ich ta'limda muammoli vaziyatning har xil turlari bo'lishi mumkin. Boshlang'ich sinflar o'qituvchilari bolalarda qiziqish va qiziquvchanlikni tarkib toptiradigan topishmoqlarni, zehnni o'tkirlashtiradigan masala va tegishli jumboqlarni ko'p vaqtlardan buyon qo'llaydilar. Bunday hollarda muammoli vaziyat topishmoqlar mazmunining o'zida, shuningdek, bolalarda savolni va shu savolga javob topish istagini vujudga keltiradigan yo'sinda tuzilgan masalalarda beriladi. Bunda bola to'g'ri javob uchun o'zidagi bilimlar yetarli ekanini tushunadi. U masalani hal qila olishni, buning uchun nima haqida gap borayotganini tasavvur qilish va fikrlashning to'g'ri yo'nalishini topish kerakligini his etadi. Zehn va topqirlikni o'stiradigan topishmoqlar hamda masalalar bolalarni mantiqan to'g'ri fikrlashga, o'zlari uchun tushunarli daliliy material yuzasidan fikr yuritishning qiziqarli tizimini topishga o'rgatadi.

Ilmiy muammo shaxsdan mazkur sohadagi noma'lum narsalarni yoritishni talab qiladi. Shuningdek, o'zining hal qilinishi uchun fanda ma'lum bo'lmagan anchagina yangi bilimlarning o'zlashtirilishini taqozo etadi. Amaliy muammoni hal

qilish uchun amalda kuch sarflanishi, oldingi bilimlar, ko'nikma va malakalar yangitdan tashkil etilishi zarur. O'quv muammosida obyektiv yangilik bo'lmaydi. O'qituvchi o'quvchilar oldiga har qanday o'quv muammosini emas, balki faqat ular tushuna oladigan va subyektiv muammo sifatida qabul qilishi mumkin bo'lgan muammolarni qo'yishi kerak.

*Muammoli vaziyat*– o'quvchining ma'lum psixik holatidir. Bunday holat biror topshiriqni bajarish (masala yechish, savolga javob topish) jarayonida ziddiyatni anglash tufayli vujudga keladi. Ana shu ziddiyatni anglash o'quvchilarda predmet to'g'risidagi, ishni bajarishning usuli yoki shartlari haqidagi yangi bilimlarni izlash ehtiyojini uyg'otadi.

*Muammoli vaziyatlarni yaratish va hal qilishning yo'llari.*

M. I. Maxmutov muammoli vaziyatlarning tiplarini quyidagicha bayon qilgan.

*Birinchi tip.* Muammoli vaziyatlar ko'pincha o'quvchilar ilgari o'zlashtirgan bilimlaridan yangi amaliy sharoitda foydalanishga majbur bo'lganida vujudga keladi.

*Ikkinchi tip.* Masalani mavjud yo'llar bilan nazariy hal qilish va tanlangan usulni amalga oshirib bo'lmasiligi o'rtasida ziddiyatlar mavjudligida muammoli vaziyat vujudga keladi.

*Uchinchi tip.* Ta'limiy masalani hal qilish bo'yicha amalda erishilgan natija bilan o'quvchida uni nazariy asoslash uchun bilimlar yo'qligi o'rtasida ziddiyat mavjud bo'lgan holda muammoli vaziyat vujudga keladi.

*To'rtinchi tip.* O'quvchilar qo'yilgan masalani yechish yo'lini bilmaydigan, muammoli savolga javob bera olmaydigan, ular yangi faktni izohlash uchun ilgari o'zlashtirgan bilimlari yetarli emasligini anglagan holda muammoli vaziyat vujudga keladi.

### **Muammoli ta'lim metodlari**

Juda ko'p didaktlar, o'qituvchilar va metodistlar (Babanskiy, Lerner, Matyushkin, Maxmutov, Pishkalo, Okon, Fleminch, Markov, Sani va boshqalar) muammoli ta'lim masalalarini quyidagi beshta asosiy metodlar sifatida farqlaydilar:

*1. Tadqiqot metodi.*

Bu metod, birinchidan, bilimlarni ijodiy qo'llanishini ta'minlashga, ikkinchidan, ilmiy bilish metodlarini izlash jarayonida mazkur metodlarni va ularning qo'llanishini o'zlashtirishga qaratiladi. Uchinchidan, ijodkorlik faoliyati xislatlarini shakllantiradi, to'rtinchidan, ana shunday faoliyatga qiziqish hamda ehtiyojni tarkib toptirishning sharti hisoblanadi.

## *2. Qisman izlanish yoki evristika metodi*

O'quvchilarni asta-sekin muammolarni mustaqil hal qilishga yaqinlashtirish uchun ularga, avvalo, yechimning ayrim sodda qismlari, tadqiqotning ayrim bosqichlarini bajarishni o'rgatish, ularda asta-sekin ko'nikma hosil qilish zarur. Tadqiqot metodining birinchi variantida o'quvchilarga ko'rsatilgan rasmga va so'zlab berilgan mazmunga mos savollar tuzishni tavsiya etish orqali muammolarni ko'ra olish, aytilgan faktlardan xulosa chiqarish o'rgatiladi.

## *3. Tushuntirish, namoyish etish metodi*

Bu metodning asosiy vazifasi o'quvchilarning axborotni o'zlashtirishini tashkil etishdir. Uni axborot–retseptiv metod deb ham ataladi (retsepsiya–idrok) va unda o'qituvchi bilan o'quvchi faoliyati davom etadi. Bu faoliyat shundan iboratki, o'qituvchi tayyor axborotni turli vositalar bilan beradi, o'quvchilar esa ana shu faoliyatni idrok etadilar va eslab qoladilar. O'qituvchi axborot berishni og'zaki so'z (hikoya), matbuot (darsliklar, qo'shimcha qo'llanmalar)dagi iboralar, ko'rsatmali qurollar va hokazolar yordamida amalga oshiradi.

## *4. Muammoli bayon qilish metodi.*

Ushbu metodning mohiyati o'qituvchi muammoni qo'yib, uni o'zi hal qilishi va yechimning ahamiyatini o'quvchilarga tushunarli ziddiyatlar orqali ko'rsatishdan iboratdir.

## *5. Reproduktiv metod*

O'quvchilar ko'nikma va malakalarni egallashi, shu bilan birga, bilimlarni o'zlashtirishning ikkinchi darajasiga erishishi uchun o'qituvchi topshiriqlar tizimi orqali ularning o'zlariga berilgan bilimlarni bir necha marta eslatadi.

U topshiriqlar beradi, o'quvchilar esa topshiriqlarni bajaradilar – o'xshash masalalarni yechadilar, namunaga qarab turlaydilar va tuslaydilar.



O'qituvchining necha marta va qanday oraliqlarda takrorlashi uning qobiliyatiga, topshiriqning qiyin yoki osonligiga bog'liq.

#### *6. Muammoli boshlash bilan bayon qilish.*

O'qituvchi yangi bilimlarni bayon qilishni boshlashda muammoli vaziyatni yaratsa, keyin o'quv materialini an'anaviy, axborot usulida tushuntiradi.

### **Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalardan foydalanish**

Mamlakatimizda ta'lim sohasida ro'y berayotgan tub yangilanishlar har bir ta'lim muassasasida o'quv jarayoni metodik ta'minotini rivojlantirishni talab etadi. Zamonaviy axborot texnologiyalari yaqin yillar ichida pedagogik innovatsiyalarning asosiy manbai bo'lib qoladi.

Ta'lim oluvchilar uchun mustaqil bilim olish imkoniyatlarini oshirish, ta'limning elektron axborot resurslarini shakllantirish va rivojlantirish uchun tegishli sharoitlarni yaratish ta'lim mazmunini takomillashtirishning zaruriy shartlaridan biri sanaladi.

Zamonaviy ta'lim tizimining asosini sifatli va yuqori texnologiyali muhit tashkil etadi. Uning yaratilishi va rivojlanishi texnik jihatdan murakkab, ammo bunday muhit ta'lim tizimini takomillashtirishga, ta'lim jarayoniga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda ilm-fan jadal taraqqiy etayotgan, zamonaviy axborot vositalari keng joriy etilgan jamiyatda barcha fan sohalarida bilimlarning tez yangilanib borishi, ta'lim oluvchilar oldiga ularni tez va sifatli egallash bilan bir qatorda, muntazam va mustaqil ravishda bilimlarni egallash vazifasini qo'yimoqda.

Bu vazifani amalga oshirishda o'qitishning to'rtta asosiy metodidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bular:

- tushuntirish - illyustratsiyalash;
- reproduktiv;
- muammoli;
- tadqiqotchilik.

Birinchi metod – tushuntirish illyustratsiyalash o'quvchi bilan ta'lim tizimi o'rtasida aks aloqaning mavjudligini ko'zda tutmagani bois uni kasbiy kompyuter (axborot kommunikatsiya texnologiyalari) dan foydalaniladigan tizimlarda qo'llash befoyda.

O'qitishning hisoblash texnikasi vositalaridan foydalaniladigan, reproduktiv metodi o'quvchiga o'qituvchi va (yoki) axborot kommunikatsiya texnologiyalari tomonidan xabar qilinadigan bilimlarni o'zlashtirishni hamda ta'lim oluvchining o'rganilgan materialni qayta yaratish. uni o'xshash (analogik) vaziyatlarda qo'llashga oid faoliyatini tashkil qilishni ko'zda tutadi.

Mazkur metodni axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish bilan qo'llash ta'lim jarayonini tashkil qilish sifatini jiddiy yaxshilash imkonini bersada, biroq o'quv jarayonini an'anaviy qo'llanadigan chizmadan (axborot kommunikatsiya texnologiyalarisiz) foydalanilganiga nisbatan tubdan o'zgartirishga imkon bermaydi. Bu jihatdan muammoli hamda tadqiqotchilik metodlaridan foydalanish ko'proq o'zini oqlaydi. O'qitishning muammoli metodi axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o'quv jarayonini qandaydir muammoni qo'yish va uni hal qilish yechimlarini izlash sifatida tashkil qilishga oid imkoniyatlaridan foydalanadi. Asosiy maqsad ta'lim oluvchilarning bilish faolligini oshirishga maksimal darajada ko'maklashishdan iborat.

Ta'lim jarayonida olinayotgan bilimlar asosida turli toifadagi masalalarning yechilishi, shuningdek, qo'yilgan muammoni hal qilish uchun zarur bo'ladigan qator qo'shimcha bilimlarni olish va taxlil ko'zda tutiladi. Bunda axborotni to'plash, tartiblashtirish, taxlil va uzatishga oid ko'nikmalarni egallashga alohida e'tibor qaratiladi.

O'qitishning axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilgan tadqiqotchilik metodi ta'lim oluvchilarning ma'lum darajada ilmiy texnik tadqiqot olib borish jarayonidagi mustaqil ijodiy faoliyatini ko'zda tutadi. Bu metoddan foydalanilganda ta'lim faol tadqiqot, kashfiyot va o'yin natijasi sanaladi, buning natijasida, odatda, yuqorida sanab o'tilgan metodlardan foydalanilganidan ko'ra yoqimliroq va muvaffaqiyatliroq bo'ladi.

O'qitishning muammoli metodi – metod, ob'ekt va vaziyatlarni ularga ta'sir o'tkazish jarayonida o'rganishni ko'zda tutadi.

Muvaffaqiyat qozonish uchun ta'sirlarga ta'sir qiladigan muhitning bo'lishi zarur. Bu ma'noda tengsiz vosita modellashtirish, ya'ni real ob'ekt, vaziyat yoki muhitning dinamikada imitatsion tasavvuri sanaladi. Eng so'nggi texnik yutuqlar ko'pincha ta'lim jarayonida o'zining munosib o'rnini egallagan, bu ma'noda axborot kommunikatsiya texnologiyalari ham istisno emas.

O'quv jarayonida kompyuterlardan foydalanish bo'yicha dastlabki tajribalar hisoblash texnikasidan foydalanish ta'lim jarayoni samaradorligini sezilarli darajada oshirishi, bilimlarni hisobga olish va baholashni yaxshilashi, qiyin vazifalarni hal qilishda o'qituvchining har bir ta'lim oluvchiga yakka tartibda yordam berishini ta'minlashi, yangi kurslarni yaratish va qo'yishni osonlashtirish kabi imkoniyatlarni berishini ko'rsatdi.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari so'z, raqam, tasvir, tovush va boshqa ko'rinishlarda beriladigan axborotni qayta ishlash uchun keng imkoniyatli vosita sanaladi. Ularning vosita sifatidagi asosiy xususiyati axborot olish va qayta ishlash bilan bog'liq turli xil amallarni bajarish uchun sozlash (dasturlashtirish) imkoni mavjudligidir.

O'quv jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish foydalanuvchilarning tafakkur ko'nikmalarini va murakkab vazifalarni hal qilish malakalarini rivojlantirishning yangi yo'llarini ochib beradi, ta'limni faollashtirish uchun printsiplal yangi imkoniyatlarni taqdim qiladi.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari auditoriya va mustaqil mashg'ulotlarni yanada qiziqarli, dinamik va ishonchli, o'rganiladigan axborotning katta oqimini oson o'zlashtiriladigan qilish imkonini beradi.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalarining ta'limning boshqa texnik vositalariga qaraganda asosiy ustunliklari nozikligi, ta'limning turli modellari va algoritmlariga sozlash, shuningdek har bir ta'lim oluvchining xatti-harakatlariga yakka tartibda ta'sir qilish imkoniyati sanaladi.

Bunday vositalardan foydalanish ta'lim jarayonini yanada faollashtirish, unga tadqiqotchilik va izlanuvchanlik xarakterini bag'ishlash imkonini yaratadi. Darsliklar, televidinya va kinofil'mlardan farqli o'laroq, axborot kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim oluvchining xatti-harakatiga zudlik bilan javob berish, turli toifadagi ta'lim oluvchilar uchun materialni takrorlash, tushuntirish, puxtaroq tayyorgarlikka ega bo'lgan ta'lim oluvchilar uchun yanada murakkab va o'ta murakkab materialga o'tish imkoniyatini ta'minlaydi. Bunda individual sur'atlarda o'qitish oson va tabiiy tarzda amalga oshiriladi. Shubha yo'qki, ko'p hollarda kompyuterning afzalliklari to'g'risida gapirib o'tirishning o'zi nojoiz. U nafaqat talabalarni mashaqqatli mehnatdan ozod qiladi, balki ularga mehnat talab amaliy topshiriqlar bilan chiziqli dasturlashtirish hamda murakkab analitik tadqiqotlardan foydalanib shug'ullanish imkonini beradi.

Test muharrirlaridan foydalanish talabalarni mashinkada terishdek og'ir ishdan xalos etib, o'qituvchilarga berilgan mavzuni u qoniqarli darajaga yetmagunicha ko'p marta qayta ishlashni talabadan talab qilish imkonini beradi. Uslubni bu kabi "takrorlash" kompyutersiz mumkin bo'lmasdi.

Avvallari mashaqqatli, birin-ketin takrorlanadigan operatsiyalarga sarflanadigan vaqt endilikda, fikr kuchlanishi va ijodiy yondashuvni talab etadigan yanada muhim. Bilimlar hajmining ortib borishi va taxlil metodlarining murakkablashishi bilan ta'limni asosan ma'ruzalarni passiv tinglash hamda o'quv matnlarini o'qish tamoyili asosida tashkil etish tobora qiyinlashib bormoqda.

Tanqidiy fikrlash, murakkab muammolarni tushunish va hal qilish malakalari, juda katta hajmdagi dastlabki ma'lumotlarni foydali umumlashtirish, qila olish, qobiliyati bularning hammasi katta ahamiyat kasb etib, talabadan yanada faol bo'lishni talab etadi. Aynan, shu nuqtai nazardan kompyuter ta'lim sohasi uchun nihoyatda keng imkoniyatlar taqdim qiladi. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalari o'quv jarayonida quyidagi eng muhim jihatlari bilan alohida ahamiyatga egadir:

- differentsial va individual o'qitish jarayonini tashkil qilishi;
- o'qish jarayonini baholash, teskari aloqa bog'lashi;

- o`zini–o`zi nazorat qilish va tuzatib borishi;
- o`rganilayotgan fanlarni namoyish etishi va ularning dinamik jarayonini ko`rsatishi;
- fan mavzularida animatsiya, grafika, multiplikatsiya, ovoz kabi kompyuter va axborot texnologiyalardan foydalanishi;
- o`quvchitalabalarga fanni o`zlashtirish uchun strategik ko`nikmalar hosil qilishi va hokazo.

Shuningdek, axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalarining amaliy tomoni ulardan o`quv jarayonida foydalanish va kelgusida ta`lim tizimida o`quv jarayoni uchun ma`lumotlar bazasini va virtual stendlar yaratishdek muhim vazifani amalga oshirishga zamin hozirlaydi.

O`quv tarbiya jarayonining axborot metodik ta`minotini amalga oshirishda axborot kommunikatsiya texnologiyalarning bajaradigan asosiy vazifasi ikki tomonlama muloqotni ta`minlashdir.

Teskari aloqasiz, o`qituvchi va o`quvchi orasidagi doimiy muloqotsiz o`qitish mumkin emas. O`qitish (mustaqil o`qishdan farqli o`laroq) ta`rifiga muvofiq muloqotli hisoblanadi.

Ta`limning kunduzgi shaklida muloqot imkoniyati o`quv jarayonini tashkil etish shakli, o`qituvchi va o`quvchining bir joyda va bir vaqtda bo`lishini taqqozo qiladi.

### **Savol va topshirilar:**

1. O`qitishning metodlarini izohlang.
2. Muammo nima? Muammoli ta`lim deganda nimani tushunasiz.
3. Muammoli vaziyat bilan muammoli ta`limni izohlang.
4. Muammoli ta`limning beshta asosiy metodlarini sanang va ta`riflang.
5. Axborat texnologiyasi haqida fikringiz?

### III QISM

## IX BOB. TARBIYA NAZARIYASI

### Tarbiya jarayoni

Pedagogika fanining muhim bo'limlaridan biri tarbiya nazariyasidir. Mazkur bo'limda tarbiya jarayonining mazmuni, shakli, metodlari, vosita va usullari o'rganiladi. Tarbiya pedagogikaning asosiy kategoriyalaridan biri bo'lib, insonni ijtimoiy tajribalar bilan, uning barcha shakllarida bilim, his–hayajon, estetika, odob–axloq qoidalari bilan tanishtirish va individning ichki o'ziga hos jihatlarini, imkoniyatlari va layoqatlarini rivojlantirish bo'yicha faoliyat hisoblanadi.

**Tarbiya** – aniq maqsad hamda ijtimoiy tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq–atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayonidir. Boshqacharoq talqin etilganda, tarbiya yosh avlodni muayyan maqsad yo'lida har tomonlama voyaga yetkazish, unda ijtimoiy ong va xulq–atvorni tarkib toptirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonidir. Tarbiya–shaxsni maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun uyushtirilgan pedagogik jarayon bo'lib, tarbiyalanuvchining shaxsiga muntazam va tizimli ta'sir etish imkonini beradi.

*Tarbiya jarayoni ikki tomonlama xarakterga ega bo'lib, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi aniq maqsadga qaratilgan pedagogik jarayonidir.* Tarbiya jarayoni natijasida tarbiyalanuvchining ongi shakllana boradi, his–tuyg'ulari rivojlanadi, ijobiy xulq–atvor ko'nikmalari shakllanadi.

*Tarbiya – ijtimoiy hodisa sifatida uning mohiyatini ifoda etuvchi quyidagi asosiy belgilari bilan ifodalanadi:*

1. *Tarbiya o'sib kelayotgan avlodni ijtimoiy hayot va ishlab chiqarish sharoitlariga jalb etish, ular bilan eskirayotgan va hayotdan chiqayotganlarini almashtirish amaliy ehtiyojidan kelib chiqqan.*

2. *Tarbiya – doimiy zarur va umumiy kategoriya. U insoniyat jamiyati yuzaga kelishi bilan birga paydo bo'ladi va jamiyatning o'zi yashar ekan, u ham mavjud.*

Inson tarbiyasi haqida fikr yuritar ekan, Ibn Sino quyidagilarni qayd qiladi: "... hayvonot olami tabiat in'omlari bilan qanoatlanadi, insonga esa bu yetarli emas. U oziq–ovqatga, kiyimga, boshpanaga muxtoj. Hayvonlar tabiat in'omlarini

*shunchaki o'zlashtiradi. Inson esa o'z mehnati bilan o'ziga oziq-ovqat, uy-joy, kiyim-kechak ishlab chiqaradi. Buning uchun odam ziroatkorlik va xunarmandchilik qilishi lozim. Hayvonlar to'da bo'lib yashasada, yakka holda ham yashayverishadi. Odamlar yakka holda yashash uchun barcha vositaga ega bo'la olmaydi. Shuning uchun odamlar muloqotga, o'zaro yordamga muxtoj*" (Ibn Sino "Ruh holatiga sharxlar"). Ibn Sino ta'limotiga ko'ra, inson tarbiyasi uning aqliy va jismoniy rivojlanishi birligini ta'minlashdan iborat.

Forobiyning fikricha, inson komil bo'lishi uchun tafakkuri yuksak darajada rivojlangan bo'lishi lozim. Tafakkur shu qadar bo'lishi kerakki, u insonga bir nimani xabar qilganda, inson shuurida ham, ongida ham o'sha narsa abadiy muhrlanib qolishi lozim.

Beruniy nuqtai nazariga ko'ra inson hayvondan ongi bilan farqlanadi. Bu farqni u jamiyatdagi turfa xil ehtiyojlar bilan, undan yashirin narsani anglashga intilish bilan tushuntiradi. U kelajakda nima bo'lishini ko'ra oladi, ehtiyot choralarini ko'radi va faoliyatni bartaraf etish yo'llarini izlaydi.

Forobiy kabi Beruniy ham insonning tabiatiga ko'ra ijtimoiy xususiyatga ega ekanini aytib, faqat boshqa odamlar bilan mavjud bo'lishi imkoniga ko'ra ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, inson qiimmatining asosiy mezonlari – mehnat va ishdur. U har bir insonga uning o'z ishini mahorat bilan mohirona ajratishga ko'ra baho berilishini yozgan edi.

Tarbiyaning shaxsni shakllanishi va rivojlanishi maqsadga yo'naltirilgan jarayon sifatida talqin qilingan zamonaviy ilmiy tasavvurlar o'z yakunida qator pedagogik g'oyalarning o'zaro uzoq kurashiga olib keldi. Shaxs shakllanishi va rivojlanishida tarbiyaning yuksak ahamiyatini ta'kidlab, A.S.Makarenko shunday yozadi: "*Men tarbiyaviy ta'sirning mutlaqo cheksiz qudratiga ishonaman*". J.J.Russo avtoritor tarbiyani inkor qilib, erkin tarbiya nazariyasini ilgari suradi. Bolani o'sayotgan inson sifatida hurmat qilishni, bolani tarbiya jarayonida tabiiy rivojlanishini har tomonlama rag'batlantirishga chaqiradi.

Jismoniy, aqliy, axloqiy va estetik jihatdan shaxs shakllanishi birligi inson ravnaqi va istiqbolining o'ziga xosligidir. Aynan shuning uchun tarbiyaga yaxlit yondashuv talab qilinadi.

### **Tarbiya metodlari**

*Tarbiya metodlari (usullari) – o'qituvchi-tarbiyachining o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish usullari, ularga ijobiy xulq-atvor ko'nikmalari va malakalarini singdirish maqsadida ularning hayoti va faoliyatini tarbiyaviy jihatdan to'g'ri ta'sir etish yo'llaridir.*

Tarbiya metodlari ko'plab olimlarimiz tomonidan klassifikatsiya qilingan. Ularning ayrimlariga to'xtalamiz.

Professor J.Hasanboev: *"Tarbiya metodlari bu o'qituvchi (tarbiyachi) va jamoa tomonidan g'oyaviy va ma'naviy e'tiqodlarini, ma'naviy his-tuyg'u va odatlarni tarkib toptirish maqsadida qo'llaniladigan shaxsga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'llari demakdir"*-deb tarbiya metodlariga ta'rif beradi hamda ularni uch guruhga bo'ladi:

1. *Ijtimoiy ongni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodlar (hikoya, tushuntirish, o'qitish, ma'ruza, axloqiy-ma'naviy suhbat va bahs).*

2. *Odatlantirish va faoliyatda mashqlantirish metodlari (pedagogik talab, o'rgatish, mashq qilish, tarbiyalovchi vazifalar, musobaqa, jamoatchilik fikri, namuna ko'rsatishi).*


3. *Tarbiyada rag'batlantirish va jazolash metodlari (rag'batlantirish, ma'qullash, ko'ngilni ko'tarish, dalda berish, ishonch bildirish, qayd qilish, og'zaki yoki yozma tashakkur bildirish, mukofatlash, jazolash, tanbeh berish).*

Rus olimi I.G. Shukina tarbiya metodlarini quyidagi 3 guruhga bo'ladi:

- *ijtimoiy ongni shakllantiruvchi metodlar (hikoya, tushuntirish, ma'ruza, axloqiy suhbat, taqqoslash, ishontirish, instruktaj, disput, doklad, namuna);*
- *faoliyatni tashkil etish va hulqni shakllantirish metodlari (mashq, topshiriq, tarbiyalovchi muhit);*
- *qo'llab-quvvatlash metodlari (musobaqa, rag'batlantirish, jazolash).*



Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz tarbiya metodlarini quyidagicha guruhlashtirdik:



### ***Ijtimoiy ongni shakllantirish metodlari.***

Oʻquvchilarda ilmiy dunyoqarash va ishonch-eʼtiqodni shakllantirish maqsadida ularning ongi, his-tuygʻulari va irodasiga har tomonlama taʼsir koʻrsatishda qoʻllaniladigan usullar ijtimoiy ongni shakllantirish metodlarini tashkil etadi.

***Tushuntirish.*** Tushuntirish tarbiya ishlari jarayonida juda koʻp qoʻllaniladi. Bolalarga biror fazilatning afzalligi va kishi uchun zarurligi qisqa, aniq qilib tushuntirib beriladi.

***Uqtirish.*** Uqtirish biror axloqiy fazilatni tarbiyalanuvchilar ongiga singdirish va ular tomonidan oʻqib olinishini taʼminlashga asoslanadi. Shuning uchun oʻqituvchilar va tarbiyachilar oʻquvchilarni tarbiyalaganda va ularga axloqiy fazilatlarni tushuntirganda uning afzalliklarini va zarur ekanini koʻrsatuvchi dalillar keltirishi, isbotlashi, ishontirishi lozim. “Oʻqigandan uqqan yaxshi” degan xalq maqoli bor. Uqib olingan axloqiy fazilat bolada mahkam singib qoladi.

***Ishontirish.*** Ishontirish deb. bolalarda maʼnaviy axloqiy fazilatlarni tarbiyalash va mustahkamlash, xarakter va xulqlaridagi salbiy tomonlarni yoʻqotish maqsadida ularning ongi, tuygʻusi va irodasiga taʼsir koʻrsatishga aytiladi. Ishontirish quyidagi pedagogik talablarga rioya qilinganda muvaffaqiyatli boʻladi:

- *ishontirishdan obroʻli oʻqituvchining foydalanishi:*

- *tarbiyalanuvchilarning yosh va o'ziga hos hususiyatlari hisobga olinishi;*
- *ishontirishning samimiyligi, aniqligi, tushunarligi.*

**O'git-nasihat.** O'qituvchi, tarbiyachi va kattalarning yoshlarga o'z tajribalari, ko'rgan bilganlari va o'qiganlarini dalillar, aniq misollar bilan ishonarli qilib aytib berishlari, yaxshi fe'l-atvorga, odobga va axloq qonun-qoidalarini bajarishga da'vat etish, yo'l-yo'riq ko'rsatishga o'git-nasihat deyiladi. Nasihat qilmoq yoshlarni yaxshilik tomon yo'llamoq, yaxshi fazilatlarini egallashda ularga yo'l-yo'riq ko'rsatmoq demakdir. O'git-nasihat o'quvchilarga yakka holda va guruh-guruh qilib berilishi mumkin.

**Maslahat berish.** Maslahat – biror hodisa ro'y berganida, ishda, xatti-harakatda. xulq-atvorda qanday qilsa yaxshi bo'lishi haqida fikr berish demakdir. Har bir kishi, ayniqsa bolalar bir ishni boshlashdan avval bu ish haqida kattalarning, ayniqsa o'qituvchining fikrini bilishni istaydi. Yoki biror ishda, harakatda qiyinchilik tutilib qolsa, shu qiyinchilikni yengish yo'lini topish maqsadida o'qituvchidan, kattalardan maslahat so'raydi. Bunday maslahat olish o'quvchi hayotida tez-tez uchrab turadi. Shuning uchun tarbiyachilar bolalardagi bu xususiyatdan tarbiya maqsadida mohirlik bilan foydalanishlari kerak.

**Iltimos va istak.** Iltimos, o'tinchi, so'rov bilan bolalarga murojaat etish, ularga va ular kuchiga bo'lgan ishonchni ifodalaydi. Shuning uchun ham sinfga yoki ayrim bolaga biror ishda yordam berishlarini iltimos qilinganda ularga ma'qul tushadi, ularning faoligini safarbar qiladi va buni bolalar bajonidil bajaradilar. Iltimos bolalarning kuchiga ishonish va hurmat etishga asoslanadi.

**Buyruq va talab.** Buyruq – qat'iy amr farmon shaklida ifodalangan talabdir. Bolalardan talab qilinadigan talablar hamda ularga beriladigan amrfarmon va buyruqlar aniq, ravshan, tushunarli, muayyan ham qat'iy bo'lishi kerak. Har bir buyruq yoki talabning maqsadi bolalarga tushunarli bo'lsin. O'quvchilar oldiga qo'yilgan buyruq va talabning albatta bajarilishiga erishish kerak.

**Axloqiy suhbat.** Ishontirish va tushuntirishning eng yaxshi vositalaridan biri bo'lgan axloqiy suhbat maktabdagina emas, balki oilada va maktablarda ham olib boriladi. Ibn Sino suhbat uslubini qo'llaganda bolaning shaxsini hurmat qilish

lozimligi xususida shunday yozadi: “*Bolaga zug`um qilib, unga hurmatsizlarcha munosabatda bo`lmaslik, aksincha, tengdosh o`rtoqlarday gaplashish lozim*”.

Suhbat mobaynida quyidagi talablarga rioya etish har ikki tomon uchun foydalidir:

1. Suhbat chog`ida o`quvchilarning o`z fikrlarini erkin ifoda etishlariga sharoit yaratish;
2. O`quvchilarning mustaqil fikrlashlariga imkon beruvchi savollar bilan murojaat qilish;
3. Suhbatdoshning shaxs sifatidagi huquq va erkinliklarini tan olish.
4. Suhbat mavzusi o`quvchining yoshiga mos bo`lishi;
5. Suhbat adabiy tilda o`tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

**Munozara.** Tarbiyalanuvchilarga hissiy og`zaki ta`sir ko`rsatish asosida ularda ma`naviy axloqiy sifatlarni shakllantirishga yo`naltirilgan usul bo`lib, siyosiy, iqtisodiy, madaniy, estetik va huquqiy mavzularda o`tkaziladi. Munozara turli nuqtai nazarlar to`qnashgan vaziyatda o`quvchilarda ma`lum hodisaga nisbatan ishonch hosil qilishga yordam beradi.

## ***II. Ibrat-namuna metodlari.***

***Ibrat-namuna metodi.*** Bolalar tarbiyasida ibrat-namunaning ahamiyati kattadir. Namuna yoki ibrat usuli bolalardagi taqlidchanlikka asoslanadi. Taqlid boshqalarning xulq-atvorini, yurish-turishini ongli yoki ixtiyorsiz ravishda takrorlash demakdir. Namunadan xalq pedagogikasida ham keng foydalanilgan. Ota-bobolarimiz o`z farzandlarini hamisha yaxshilardan, donolardan, ulug` kishilardan ibrat olishga da`vat qilib kelganlar.

## ***III. Rag`batlantirish va jazolash.***

Bola o`z xatti-harakati, qilig`iga boshqalarning baho berishlariga muhtojdir. Shuning uchun ham bolalar biror harakat yoki qiliq qilsalar, darhol atrofdagi kishilarga qaraydilar. Bolalar hayotida va kamolotida ularni qurshab olgan va tevarak-atrofdagi kishilar hamda jamoatchilikning ularning xatti-harakati va xulqiga bergan bahosi g`oyat katta ahamiyatga egadir.

*O`quvchilarni tarbiyalashda rag`batlantirish va jazolashning samarali natija berishi uchun quyidagi shartlar mavjud bo`lishi kerak:*

- *tarbiyachining obro`si;*
- *rag`batlantirish va jazolashning haqqoniyligi.*

Rag`batlantirishning ma`qullash, ko`nglini ko`tarish, ishonch bildirish, maqtash mukofotlash kabi shakllari mavjud.

**Ma`qullash.** Rag`batlantirishning eng ko`p tarqalgan shakllaridan biri bo`lib o`quvchining muvaffaqiyati va yaxshi xulq-atvorini ma`qullashdir. Bosh qimirlatish, tabassum, yuz va qo`l harakatlari, “balli”, “barakalla” kabi so`z va imo-ishoralar bilan bolalar xatti-harakati ma`qullanadi.

**Ko`ngil ko`tarish, dalda berish.** Ko`ngil ko`tarish bolalarga kuch bag`ishlaydi. ularda o`ziga ishonchni o`stirib, kuchiga kuch, g`ayratiga g`ayrat qo`shadi.

**Ishonch bildirish, ishonish.** O`quvchiga ishonish, ishonch bildirish unga katta mukofotdir. Bolalardagi bunday holatni o`qituvchidan o`zi yaxshi bilishi va ularga ishonch bilan qaramog`i lozim.

**Qayd etish.** Bolalar xulq-atvorning yaxshilanib borayotganini qayd etish, ayniqsa bolalar jamoasi oldida (sinfda, maktab o`quvchilari o`rtasida, ota-onalar oldida) qayd qilish, ruhini ko`tarish o`quvchini tetiklantiradi va uni yaxshi intizomga yo`llaydi.

**Mukofotlash.** Maktabdagi eng oliy mukofot boshlang`ich maktabni bitirganda, sinfdan–sinfga o`tganda maqtov qog`ozi berish va o`rta maktabni bitirganda hamma fanlardan a`lo o`qigani, namunali xulqi uchun imtiyozli attestat berishdir. Rag`batlantirish o`quvchilargagina emas, balki butun bir sinf jamoasiga ham qo`llanadi.

**Pedagogikada bolalarni rag`batlantirish bilan bir qatorda jazo choralari ham qo`llaniladi.**

**Jazo** – bolalarning xulqi va harakatidagi nojo`yalik hamda kamchiliklarni anglashga, tugatishiga, yaramas harakatlardan, sho`xliklardan o`zlarini tiyishiga yordam beradi. *Bolalarga nisbatan jazo choralarini qo`llaganda quyidagi pedagogik talablariga amal qilish kerak:*

- *jazoning haqqoniyligi;*
- *jazo aybdorni tarbiyalashi;*
- *aybdor nima uchun jazo olayotganini bilishi lozim.*

Asosan quyidagi jazo choralaridan foydalanish mumkin: o'qituvchining, sinf rahbarining, direktorning, o'quv yoki ma'naviy–ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosarining tanbehi; parta, sinf doskasi yoki o'qituvchi stoli yonida tikka turg'azib qo'yish; sinf o'quvchilari oldida ogohlantirish berish, darsdan chiqarib yuborish; bajarilmay qolgan sinf yoki uy vazifasini bajarish uchun darsdan keyin olib qolish; ta'sir ko'rsatish uchun pedagoglar kengashga chaqirish; direktorning maktab bo'yicha beradigan buyrug'i bilan ogohlantirish e'lon etish; xulqiga qo'yilgan bahoni pasaytirish. Sanab o'tilgan jazo choralarini qo'llanganda o'qituvchi har bir bolaning kasbiy va yosh xususiyatlarini, sinfning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olmog'i kerak.

**Po'pisa.** Po'pisa – m'an etilgan va be'mani xatti–harakatlarni to'xtatishga va oldini olishga yordam beradi.

**Koyish.** Koyish – bema'ni qiliqlarning yaramasligini aytish va ogohlantirish shakllaridan biridir. Bolalarning salbiy harakatlari, qiliqlari va tartibni buzganliklari uchun ularni koyib qo'yish zarur. Bolalarni koyiganda ularni to'g'ri yo'lga solib yuborish ko'zda tutiladi.

**Uyaltirish, qizartirish.** Bolalarni tarbiyalashda ularning uyat, sharm-hayo hissiga ehtiyotlik bilan ta'sir etish kerak. Bolaning uyalishi va qizarishi uni shu aybxatoni qaytarmaslikka hizmat qilishi kerak.

### **Tarbiya qoidalari**

Har bir ishning o'ziga xos, ma'lum qonun–qoidalari bo'lganidek, bola tarbiyasining ham o'ziga hos bir qator muhim qonun–qoidalari borki, ularga amal qilish tarbiya ishining samarali bo'lishini ta'minlaydi. Bugungi kunda pedagogik adabiyotlarda tarbiyaning quyidagi qoidalari ko'rsatib o'tilgan:

- *tarbiyaning bir maqsadga qaratilganligi;*

- *tarbiyaning hayot, mehnat bilan, O‘zbekistonimizning mustaqilligi, gullab yashnashi yo‘lida qilinayotgan fidoyi ishlar bilan bog‘liqligi;*
- *shaxsni jamoada, jamoa orqali tarbiyalash;*
- *tarbiyada bola shaxsini hurmat qilish va unga talabchanlik;*
- *tarbiyaviy ishlarning izchilligi, muntazamligi hamda birligi;*
- *tarbiyada o‘quvchilarning yoshi, o‘ziga hos xususiyatlarini hisobga olish.*

#### ***Tarbiyaning bir maqsadga qaratilganligi qoidasi.***

Tarbiya maqsadini belgilashda jamiyat talablari, davr nafasi. milliy xususiyatlar asos qilib olinadi. Tarbiyaning maqsadi har tomonlama kamol topgan – barkamol inson shaxsini tarbiyalashdir.

O‘qituvchilar jamoasi va har bir o‘qituvchitarbiyachi ana shu maqsaddan kelib chiqib, tarbiyaviy ishlarning vazifalarini belgilaydi, uning mazmunini aniqlaydi hamda maktab ish sharoitlarini hisobga olgan holda o‘quvchilarni tarbiyalashning shakl va uslublarini tanlaydi.

#### ***Tarbiyaning hayot bilan bog‘liqligi qoidasi.***

Bu qoida tarbiyaviy ishlarning mazmuni va tashkil etilishini doimo yangilab turishni talab etadi. Tarbiyachilar bolalar tarbiyasini hayot bilan bog‘lar ekanlar, ularga o‘zlarida iymon–e‘tiqodni tarbiyalash imkonini beradilar. Tarbiyaviy ishlar shunday tashkil qilinganda yoshlar jamiyat hayotiga faolroq jalb qilinadi, bu esa o‘quvchi shaxsining tarkib topishiga yordam beradi.

#### ***Shaxsni jamoada va jamoa orqali tarbiyalash qoidasi.***

Ilg‘or o‘qituvchilar tajribasining ko‘rsatishicha, o‘quvchilar ahil jamoa bo‘lib uyushgandagina tarbiya ishlarini amalga oshirish muvaffaqiyati ta‘minlanadi. Yaxshi uyushgan, sog‘lom jamoada o‘quvchilarning fikri juda katta tarbiyaviy kuchga ega bo‘ladi va tarbiya jarayonida o‘qituvchilarning tayanchiga aylanadi. O‘z manfaatini jamiyat manfaatlari bilan qo‘sha bilish, bir-biriga o‘zaro yordam berish kabi qimmatli fazilatlar avvalo jamoada shakllanadi. O‘quvchilar jamoasida har bir

shaxsning kamolga yetishi, hamda sinfda va umuman maktabda do'stlik rishtalarini mustahkamlash uchun qulay sharoit yaratmoq darkor. Shuni ham aytish kerakki, ba'zan tarbiya jarayonida jamoa bilan shaxs o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni bartaraf qilishga ham to'g'ri keladi.

### ***Tarbiyada bola shaxsini hurmat qilish va unga talabchanlik qoidasi.***

Tarbiyachi avvaliga bolalardan biror narsani talab qilib, so'ngra o'zining bu talabini unutib qo'ysa yoki keyingi ishlarida o'zi bu talabga xilof ish tutsa, bu hol tarbiyaga yomon ta'sir etadi. Har bir pedagogning so'zi bilan ishi bir xil bo'lishi kerak. U o'z ishida va so'zida izchil bo'lmog'i lozim. Har bir tarbiyachi uchun bu narsa qonun sifatida tan olinishi shart. O'quvchilarga nisbatan talabchan bo'lish, ularga samimiy muhabbat va hurmat bilan qarash qoidasini oqilona hamda mohirlik bilan to'g'ri qo'llanishi, o'quvchilarnig kuchiga, imkoniyatlariga ishonch bilan qarashga – tarbiyaning muvaffaqiyatli borishiga yordam beradi.

### ***Tarbiyada o'quvchilarning yosh va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish qoidasi.***

Bolalarning yoshi rivojlanish darajasiga ko'ra ularga beriladigan tarbiyaning mazmuni, pedagogik rahbarlikning xarakteri ham o'zgarib boradi. Masalan, boshlang'ich sinf o'quvchilari maktabdagi o'z asosiy vazifalarini: o'zini maktabda, uyda, ko'chada qanday tutish qoidalarini bilib oladilar. Bunday odatlar ularga namuna ko'rsatish, tushuntirish yo'li bilan singdiriladi.

Tarbiya berishda o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan tashqari, har qaysi bolaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish ham katta ahamiyatga ega. Bir o'quvchiga nisbatan muvofiq bo'lgan tarbiya uslubini boshqa bir o'quvchiga nisbatan qo'llaganda u kutilgan natijani bermasligi mumkin. Har bir o'quvchining qobiliyati, qiziqishi, his-tuyg'ulari, kuchli va zaif jihatlarini aniqlab, tarbiyaviy ishlarda ularni hisobga olish tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish imkoniyatini beradi.

### ***Tarbiyaviy ishlarning izchilligi, tizimliliigi hamda birligi qoidasi.***

Tarbiya ishidagi izchillik va tizimlilik shundan iboratki, har bir tarbiya ishi maktabning umumiy tarbiyaviy rejasiga asosan ma'lum izchillikda amalga oshiriladi. oldingi ishlarning mantiqiy davomi sifatida tarbiya sohasida qilinayotgan

ishlarni rivojlantiradi, mustahkamlaydi va yanada yuqori darajaga ko'taradi. Tarbiya berishda tizimlilik qoidasi tarbiyani amalga oshiradigan barcha bo'g'inlarning – oila va maktab, bolalar va yoshlar tashkiloti, jamoatchilik. mahalla faollari, maktabdan tashqari tarbiya muassasalari va ishlab chiqarish jamoalarining, keng jamoatchilikning hamjihatlik va bamaslahat ish ko'rishini nazarda tutadi.

Tarbiya jarayonida tizimlilik va izchillikni ta'min etadigan muhim shartlardan biri tarbiya sohasidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallash va mustahkamlashda uyg'unlikka rioya etishdir.

### **Oila tarbiyasi**

Oila – kamolotga yetkazish poydevori. Oila – tarbiya o'chog'i. Oila – jamiyat negizi. Har bir insonda ilk yoshligidan boshlab ongida shakllanadigan barcha insoniy fazilatlar, ezgu niyat, maslaklar, qadriyatlar takomil topadigan, mafkuraviy va ma'naviy tarbiya amalga oshiriladigan muhitdir. O'zbek oilasi o'zida ko'p asrlik mustahkam ma'naviy qadriyatlarimiz ravnaq topadigan shunday maskanki, uning barqarorligi va mustahkamligi jamiyatimiz rivojining muhim omillaridan biridir. Bu haqda Prezident I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch" asarida shunday yozadi: *"Har qaysi millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda xech shubhasiz, oilaning o'rni va ta'siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oilada shakllanadi"*<sup>1</sup>.

Agar oiladagi muhit sog'lom bo'lsa, unda kamol topayotgan yosh avlod qalbi va ruhiga ezgu xususiyatlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, milliy istiqlol g'oyasini singdirish uchun qulay sharoit yaratilgan bo'ladi.

1998 yilning "Oila yili" deb e'lon qilinishi va shu yilning o'zida Oila kodeksining qabul qilinishi hamda mamlakatimiz tarixida ilk bor tashkil etilgan Respublika "Oila" ilmiy–amaliy markazining maqsadi ham davlatimizning oilani har tomonlama mustahkamlash, himoya etish borasidagi siyosatiga hamohang bo'lib, oilaga taalluqli boy va sermazmun milliy an'analarni avaylab–asrash, ularni

<sup>1</sup>И.А.Каримов. Юксак маънавият-енгилмас куч. Тошкент. 2008й. - 526.



umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish, oila va nikohning muqaddasligini yosh avlod ongiga chuqur singdirish yo'li bilan oilani mustahkamligi, barqarorligini ta'minlash, oila a'zolarining huquqiy savodxonligini oshirish muammolarini ilmiy o'rganish, oilaviy hayotga bog'liq muammolarni tadqiq etish va fuqarolarga bu masalalarda amaliy yordam berishdan iboratdir.

Mustaqillik yillarida Prezident I. A. Karimov tomonidan oilaga ko'rsatilayotgan e'tibor, yillarga maqom berilayotganda oilani mustahamlash, nikohni qadriyat sifatida e'zozlashga qaratilgan chora tadbirlar tom ma'noda yurtimizda oila va farzandlar hukumatning doimiy g'amxo'rligida ekanligidan dalolatdir. Oila qanday bo'lsa, jamiyat ham shunday bo'ladi. Mamlakatimizda milliy mustaqillik yillarida ma'naviyat sohasida amalga oshirilayotgan islohatlar, avvalo, oila qadriyatlarini eng ilg'or an'analarini tiklashga qaratilgandir. Oilaviy tarbiya oilada ota-onalar, vasiylar yoki katta kishilar tomonidan bolalarni tarbiyalash, yosh avlodning har tomonlama rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Oila tarbiyasida doimiy tarbiyaviy ta'sirchan kuch—oilaviy tartibdir. Oila va mahalla boshqa tarbiyaviy muassasalardan farqli ravishda odamning butun hayoti davomida uning barcha tomonlariga, qirralariga ta'sir ko'rsatadi. Oila va mahalla hamkorligidagi tarbiya vazifasining bu ulkar miqyosi uning mafkuraviy va psixologik ta'sir ko'rsatishning chuqur o'ziga xosligi bilan uyg'unlashib ketadi. Bu esa uni oliy darajada ta'sirchan qilibgina qolmay, shu bilan birga shaxsni shakllantirish jarayonining zarur bo'g'iniga ham aylantiradi. Oila va mahallaning yuksak tarbiyaviy imkoniyati bolalar va ota-onalarning o'ziga xos xususiyatlari: qon-qarindoshligi, qo'ni—qo'shniligi, muhabbati, yaqinligi, ishonchi, burch xissi, obro'ligi va hokazolar bilan ta'minlanadi. Ma'lumki, xilma—xil faoliyat sharoitida bolaning qobiliyatlari eng samarali rivojlanadi, uning ijodiy imkoniyatlari oila va mahallada ro'yobga chiqadi. Oila va mahalla hamkorligidagi tarbiyaning qimmatiligi va ahamiyati yana shundaki, kichik bolalik paytida oilada egallagan narsalar bir umr saqlanib qoladi. Huddi shuning uchun ota-onalarning bolalarni har tomonlama tarbiyalash majburiyati qonuniy tarzda belgilab qo'yilgan. Oila va mahalla hamkorlikda tarbiyaviy ishini tashkil etar ekanlar, eng yangi psixologik—

pedagogik tadqiqotlar ma'lumotlarini e'tiborga olishlari ham muhimdir, ularga muvofiq o'sib kelayotgan kishi shaxsini shakllantirishga oilani qo'shadigan hissasi turli yosh bosqichlarda turlicha bo'ladi va to'liqsimon o'zgaradi.

Yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan „Bolalar“, „Mahalla“, „Navro'z“, „Ekosan“, „Orol“, „Sog'lom avlod uchun“ kabi jamg'armalar turli-tuman xayriya tadbirlari vositasida oilalarning farovonlashishiga hissa qo'shib kelayotir.

1994- yilning birinchi oktabridan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoniga binoan, mamlakatimizda kam ta'minlangan aholini ijtimoiy himoyalashning butunlay yangi shakli - ehtiyojmand oilalarga har oyda beriladigan moddiy yordam turi joriy etildi.

Oila, oila tarbiyasi, oilaviy munosabatlar masalasiga davlatimiz va hukumatimiz tomonidan alohida e'tibor qaratilgan. Xususan. asosiy Qonunimizning 63-modda, 2-qismida: „*Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi*“, deyiladiki, bizda oila qurishning birdan bir asosi - qonuniy nikohdir. Yana Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 16-moddasida insonning erkin nikohdan o'tish huquqi xususida bunday deyilgan: *“Balog'atga yetgan erkak va ayol, irqi, millati yoki dinidan qat'iy nazar, hech bir cheklashsiz nikohdan o'tish va oila qurish huquqiga egadir. Ular nikohdan o'tayotgan chog'da, nikohda bo'lgan vaqtda va nikoh bekor qilinayotgan paytda ham bir xil huquqlardan foydalaniladi”*.

O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksida quyidagi tamoyillar belgilab qo'yilgan:

- *oilaviy munosabatlarda ayol bilan erkakning teng huquqliligi;*
- *oila, onalik va bolalikning muhofaza qilinishi;*
- *oilaviy huquqlarni himoya qilish;*
- *nikoh tuzish va tugatish erkinligi;*
- *farzandni tarbiyalash va turmushda ota-onaning teng huquqliligi;*
- *er-xotinning mashg'ulot turi, kasb va turar joyini erkin tanlash huquqi;*

– umumiy mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etishda er-xotinning teng huquqliligi.

Islom ta'limoti, sharq mutafakkirlari merosida ham nikoh - oila munosabatlari. oila odobi, farzand tarbiyasi masalalariga alohida e'tibor berilgan. Oilali bo'lib yashash, bola-chaqa qilish, o'zidan nasl, avlod qoldirish hayot qonuni, shariyatimizga ko'ra sunnatdir. Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom bu haqda shunday deganlar: *"Ey yigitlar! Qaysi biringiz turmush qurishga qodir bo'lib, imkon topsangiz, tezda uylaning, chunki uylanish inson ko'zini poklaguvchi chiroq, ya'ni u nomahramlarga qarab gunohga botishdan saqlaydi va yomon, bemaza yo'lga kirib ketishdan asraguvchi asosiy choradir. Kimki uylanishga qodir bo'lmasa, ro'za tutsin, chunki ro'za insonning shahvoniy nafsini ketkizur"*.

Abu Ali ibn Sino oilada kattalarning izzatini joyiga qo'yish. kichiklarga mehr-shavqatli bo'lish, ular tarbiyasi bilan shug'ullanish. o'zaro sadoqat va mehr-muruvvat fazilatlarini qaror topishining ahamiyatini alohida uqtiradi.

Buyuk sohibqiron Amir Temur kelin tanlash haqida quyidagi fikrlarni bildiradi: *"O'g'illarim, nabiralaring va yaqinlarimni uylantirmoq tashvishida kelin izlamoqqa e'tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko'rdim. Kelin bo'lmishning nasl-nasabini, yetti pushtini surishtirdim. Xos odamlar orqali sog'liq-salomatligini, jismonan kamolotini aniqladim"*<sup>2</sup>.

Oilada bolalarni to'g'ri tarbiyalashning yo'l-yo'riqlari. Oilada bola tarbiyasi g'oyat nozik va murakkab masala bo'lib, bu ota-onadan katta odob bilimini, katta tarbiyachilik mahoratini talab qiladi. Oilada bolalarni to'g'ri tarbiyalashning asosiy shartlaridan biri tarbiyadagi birlikdir. Bunda ota-ona, oiladagi katta-yu kichik, hamma bir yoqadan bosh chiqarishi. harakat qilishi kerak. Hamma narsada: bolalarga muomalada, ularni rag'batlantirish va jazolashda. tarbiyaviy ta'sir o'tkazishning boshqa vositalarini qo'llashda hamma yakkilik bo'lishi lozim. Odatda, ko'pincha bolaning onasi yoki buvisi ruxsat bergan narsani otasi taqiqlab qo'yadi yoki otasi bergan jazoni onasi rad etib buzadi. bolaning bir qiligi'ni buvisi maqtasa, shu qiligi' uchun otasi uni koyiydi va hokazo. Bunday telba-teskarilik,

<sup>2</sup> Аёл муқаддасан. Т, Ёзувчи. 1999. -2556

avvalo, bola tarbiyasini buzadi. Bunday vaziyatda bola talabchan otasi bilan rahmdil onasi va ko'ngli bo'sh buvisi o'rtasida yo'l topishga odatlanadi. Kattalar orasidagi beqarorlik va kelishmovchilikni sezgan bola mug'ambirlik, aldamchilik, tilyog'lamalik, xushomadgo'ylikka o'rganadi.

Oilaning tarbiyaviy funksiyasi quyidagi 3 aspektni o'z ichiga oladi:

- Barkamol shahs shaxsini shakllantirish, uning aqliy salohiyatini oshirish, uni hayotga tayyorlash, mehnatga ongli munosabatni tachbiyalash, unda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, jismoniy jihatdan sog'lom qilib o'stirishi;
- Oila jamoasi o'zining har bir a'zosiga butun hayoti moaynida tizimli tarbiyaviy ta'sir o'tkazishi;
- Ota-onalarning farzandlariga faol ravishda o'z-o'zini tarbiyalashga ta'sir ko'rsatishlari.

*Oila tarbiyasi o'z qoidalariga ega. Ulardan ayrimlarini keltiramiz:*

- *tarbiyaning insonparvarlik va mehr-muhabbat ruhi bilan sug'orilganligi;*
- *bolalarni oilaning to'la huquqli a'zosi sifatida oilaning hayotiy faoliyatidagi ishtiroki;*
- *bolalar bilan munosabatning oshkoralik va ishonchga qurilishi;*
- *o'zaro munosabatlarda optimist bo'lish;*
- *talablardagi izchillik (kuchi yetmaydigan ishlarni talab qilmaslik);*
- *bolaga imkoniyat darajasida yordam berishga tayyorlik hamda uning savollariga javob bera olish.*

Oila tarbiyasining muvaffaqiyati juda ko'p omillarga bog'liq bo'lib, ulardan biri maktab va mahalla bilan uzviy aloqada ish ko'rish hisoblanadi. Bunda quyidagilarni e'tiborga olish talab etiladi<sup>3</sup>:

- 1) *maktab, oila hamda jamoatchilikning o'zaro ishonchi va hurmati;*
- 2) *hamkorlikdagi faoliyatning zarurligi, imkoniyatlari, vazifalari va afzalliklarini to'g'ri anglash;*

<sup>3</sup>Иномова М. Огледа болаларнинг маънавий-ахлоқий тарбияси. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 1999. – 122-123 б.

- 3) o'quvchilarning yurish-turish qoidalari yuzasidan maktab. oila, ma- hallada bir xil talabning qo'yilishi;
- 4) mahalliy sharoitlar, qishloq yoki shahar tarixi, uning geografik joylashishi, tabiati, xalq xo'jaligi, aholining turmush tarzi va faoliyatini hisobga olish;
- 5) mahalla, qishloq, mavzeda yashovchi barcha yoshlarga tarbiyaviy ta'sir o'tkaza olish yoki ularni tarbiyaviy ishlarga ommaviy tarzda jalb eta bilish;
- 6) tarbiyada tizimlilik, izchillik, uzviylik va ketma-ketlik tamoyiliga amal qilish;
- 7) o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish va tashabbusini hamda ijodkorlik qobiliyatini hisobga olish va tayanish;
- 8) o'quvchilarni oilada, maktabda hamda mahallalarda barcha tarbiyaviy ishlarga qatnashishlarini ta'minlash va h.k.

Oilaning birinchi vazifasi A. G. Xarchevning fikricha, aholini tabiiy to'ldirish, nasl qoldirishga bo'lgan talabni qondirishdir, shu bilan bir qatorda oila quyidagi vazifalarni ham bajaradi<sup>4</sup>:

- *tarbiyaviy vazifasi* - yosh avlodni ijtimoiylashtirish. jamiyatning madaniyat darajasini rivojlantirish;
- *maishiy vazifa* - jamiyat a'zolarining jismoniy sog'ligini saqlash, bolalar va qariyalarga mehribonlik;
- *iqtisodiy vazifa* - bir oila a'zolarining boshqa oila a'zolariga moddiy ko'mak berishi, voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a'zolarini qo'llab-quvvatlash;
- *birlamchi ijtimoiy nazorat muhiti* - oila a'zolarining hulq-atvorini. shuningdek, er-xotin, ota-ona va bola, o'rta va katta avlod o'rtasidagi majburiyatlarni tartibga solish;
- *ma'naviy muloqot* – oila a'zolarining kasbiyatlarining rivojlanishi. o'zaro ma'naviy kamol topishi;
- *ijtimoiy mavqye* – oila a'zolariga ma'lum bir ijtimoiy mavqyega erishishlarini ta'minlash;

<sup>4</sup>Каримова В. Ойла психологияси. Т. 2008 – 152б.

- *hordiq chiqarish* – samarali dam olishni tashkil qilish, dunyoqarashlarning kamol topishi, ehtiyojlarning ta'minlanishi;
- *hissiyot – ruhiy himoya*, his – tuyg'ularni qo'llab-quvvatlash, shaxslarning hissiy barqarorligi va ruhiy terapiya.

Pedagogika, psixologiyaga oid ilmiy adabiyotlarda oilaning quyidagi vazifalari farqlanadi:

- *oilada sog'lom muhit yaratish;*
- *tarbiya jarayonida milliy ruh va turmush tarzini hisobga olish;*
- *farzandlar uchun ota-ona har tomonlama o'rnak bo'lishi;*
- *farzandlarda ota-onaga, Vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantirish;*
- *farzandlariga chuqur dunyoviy bilim asoslarini berish;*
- *ma'rifatli va ma'naviyatli kishilar bo'lib yetishishlarini ta'minlash;*
- *ma'naviy barkamol va jismonan sog'lom bo'lishlari uchun iqtisodiy va ijtimoiy muhitni yaratish;*
- *farzandlarni mustaqil fikrlashga o'rgatish, istiqloq g'oyalari va milliy mafkuraga sadoqat ruhida tarbiyalash;*
- *farzandlarning bo'sh vaqtlarini pedagogik nuqtai nazardan kelib chiqib unumli tashkil qilish, ularga qo'shimcha ta'lim berish;*
- *farzandlarida mavjud bo'lgan iste'dod kurtaklarini rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratish;*
- *ota-onalar o'zlarining pedagogik va psixologik bilimlarini doimo oshirib borish;*
- *shaxslarda (tejamkorlik va ishbilarmonlik xususiyatlarini tarbiyalash);*
- *oilada milliy ia umuminsoniy tarbiyaning barcha yo'nalishlarini (huquqiy, iqtisodiy, jismoniy, ekologik, axloqiy, mehnat, fuqarolik va h.k.) uyg'un xolda bosqichma-bosqich amalga oshirishga ma'sullikni ta'minlash);*

- *sog'ligida va aqlida nuqsonlari bo'lgan farzandlariga xayot talablariga mos ravishda bilim va kasb-kor o'rgatishdan iborat.*

Ota-onaning farzand oldidagi burchi-o'zbekona ta'bir bilan aytganda, farzandga yaxshi ism qo'yish, yaxshi muallim qo'lga topshirib savodini chiqarish, ilmi, kasb-hunarli qilish, oilali va uyli-joyli qilishdan iboratdir.

### **Ma'naviy – axloqiy tarbiya**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Oliy Majlisning 1997 yilda bo'lib o'tgan IX sessiyasida so'zlagan “Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori” nomli tarixiy nutqida yangilanayotgan pedagogik tafakkurga oid qarashlarini quyidagicha bayon etdi: “Zamonaviy boshlang'ich ta'limning o'zi nimadan iborat bo'lishi kerak? ...Bolalarimizga qachondan boshlab, qanday qilib, qanday usulda va uslubda milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizni o'rgatishimiz, chuqur anglatishimiz kerak”<sup>5</sup>. Ushbu fikrlar butun ta'lim-tarbiya tizimida ma'naviy-axloqiy tarbiya oldiga qo'yilgan davlat buyurtmasining yaqqol ifodasidir.

Axloq kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyoti davomida vujudga kelib, tarkib topgan, takomillashib kelgan me'yor va qoidalardan iborat bo'lib, ular kishilarning jamiyatga bo'lgan munosabatlarini tartibga soladi. Bu me'yor va tartib qoidalar kishilardan jamiyat uchun zarur bo'lgan axloqqa ega bo'lishlikni talab qiladi. Shunga muvofiq, biror shaxsning xulq-atvori, yurish-turishiga axloqli yoki axloq siz deb baholash mumkin.

O'zbek milliy pedagogi Abdulla Avloniy axloqqa quyidagicha ta'rif beradi: *“Axloq insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdu. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarniig yomonligini dalil va isbotlar ila bayon qiladurgan kitobni axloq deyilur”*<sup>6</sup>

Axloq – inson hayotida o'z-o'zini idora qilish me'yorlarini, boshqalar bilan munosabatda bo'lish madaniyatini, halol ishlab, to'g'ri hayot kechirish mezonlarini

<sup>5</sup>Каримов И. А. Баркамол авлод орзуси. Тўлдирилган 2-нашри. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Давлат илмий нашриёти, 2000. – 7-8 б.

<sup>6</sup>А.Авлоний. Туркий гулистон судасюк. Т., Ўқувчи, 1992 й. 11-б

o'rgatadi. Ibn Sino ham "Axloq har bir kishi uchun o'z-o'zini idora qilshi ilmidur" deb uning mazmunini ifodalab bergan edi. Axloq me'ori va qoidalari tarixiy taraqqiyot davomida tarkib topib, takomillashib borgan va kishilarda birgalikda yashash sharoitidan, tabiiy ehtyojidan, ijtimoiy manfaatlari va hayotiy talablaridan kelib chiqqan va ular muayyan tarixiy davrdagi kishilarning xatti-harakati, yurish-turishi va boshqalarga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'lgan. Ana shu tartib-qoidalarsiz biron-bir jamiyat bo'lmagan va bo'lmaydi ham.

*Axloq - ijtimoiy hodisa ekanligi.* Axloq norma-qoidalari barcha zamonlar uchun bir xil, o'zgarmas bo'lishi mumkin emas. Muayyan jamiyat uchun ayrim axloqiy qoidalar to'g'ri bo'lsa, boshqa davrga kelib noto'g'ri bo'lib qolishi mumkin. Yosh mustaqil mamlakatimizning kelajagi uchun ma'naviyati yuksak, barkamol shahslar zarur. Shuning uchun ham yurtboshimiz "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" degan hikmatli shiorni yanada balandroq ko'tardiki, yuksak ma'naviyat mustaqillikni mustahkamlash, rivojlantirish uchun muhim va zaruriy tamoyillardan biri bo'lib qoldi. Barkamol shahsni tarbiyalash. voyaga yetkazish haqida musulmon Sharqi ahli bir qator asarlarni yaratgan. Chunonchi, Kaykovusning "Qobusnoma", Sa'diyning "Guliston", "Bo'ston", Amir Temurning "Temur tuzuklari", Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston", Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub", Xusayn Voiz Koshifiyning "Axloqi muhsiniy" va boshqalarni ko'rsatishimiz mumkin.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng ta'lim-tarbiyaning mazmuni va mohiyatida, usullari va shakllarida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi.

Ta'lim-tarbiyada milliy qadriyatlarni shakllantirish va rivojlantirish asosiy o'rinni egalladi. Milliy tariximizga, madaniyatimizga, urf-odatlarimizga e'tibor kuchaydi.

Haqiqatan ham, bugungi kunda O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlash va kelajakda istiqloq istiqbolini rivojlantirish, avvalo komil insonlarga bog'liq. Chunki bunday insonlar tufayli fan va madaniyat, sanoat va qishloq xo'jaligi rivojlanadi. Zero, axloqiy madaniyat vazifalaridan biri komil insonni voyaga yetkazish, uni tarbiyalashdan iborat.



*Ma'naviy - axloqiy tarbiya* – ma'naviy ongni bir maqsadni ko'zlab tarkib toptirish, axloqiy tuyg'ularni rivojlantirish hamda xulq-atvor ko'nikmalari va odatlarini hosil qilishdan iborat. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning maqsadi jamiyat talablariga bog'liq bo'lib, bu talablar o'z navbatida ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi va jamiyatda yoshlarni o'qitish va tarbiyalash ishlarining hammasi yosh avlodda ma'naviy axloq va e'tiqodni shakllantirishga, ularni Vatanga cheksiz sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi lozim.

*Ma'naviy-axloqiy tarbiya vazifalari :*

- *o'quvchilarda jamiyatga va Vatanga sadoqatni tarbiyalash;*
- *mehnatga axloqiy munosabatni tarbiyalash;*
- *atrofdagi kishilarga axloqiy munosabat;*
- *shaxsning o'ziga, o'z xulqiga axloqiy munosabatni tarbiyalashdan iborat.*

Axloqiy tarbiya vazifalaridan biri – ongli intizomning bo'lishidir. Ongli intizom kishining kundalik faoliyatida, xulq-atvorida, kishilar bilan aloqasida, umumiy dunyoqarashida namoyon bo'ladi. Ongli, intizomli kishining madaniyati, muomalasi kundalik masalalarni hal qilish bilan hayotining mazmuni, yaxshilik va yomonlik, ma'naviy boylik haqidagi tasavvurlari bilan u yoki bu tarzda bog'langandir.

Abdulla Avloniy *“Intizom deb qiladurgan ibodatlarimizni, ishlarimizni har birini o'z vaqtida tartibi ila qilmoqni aytilur. Agar yer yuzida intizom bo'lmasa edi, insonlar bir daqiqa yasholmas edilar”* deb ta'kidlaydi. Demak, intizom ruhimizga, fikrimizga ta'sir qiladigan hislat, tartib-odob, ma'naviy quvvatdir. Intizom yaxshi xulqlarning manbaidir.

*Bolalarni tarbiyalashda (o'quvchi) o'qituvchi quyidagilarni hisobga olishi kerak:*

- *tarbiyaning o'quvchilar ruhiyati va yosh xususiyatiga mosligi;*
- *o'quvchilarning aqliy-ma'naviy munosabatlari ta'siri.*

O'quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashda darslarni ijodiy, noan'anaviy, suhbat, o'yin, tabiatda, baxs-munozara, uchrashuv shaklida bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Axloq tarbiyasining muvaffaqiyati ko'p omillarga bog'liq bo'lib, ulardan biri ota-onalar bilan olib boriladigan faoliyatdir. *Mazkur faoliyatni quyidagi shakllarda tashkil etish maqsadga muvofiq:*

- ota-onalar majlislari;
- mikrogruphlarda ota-onalar uchun ma'ruzalar;
- axloqiy tarbiya muammolariga bag'ishlangan maktab ma'ruzalari;
- yakka holdagi maslahatlar;
- kitobxonlik konferensiyalari;
- ijodkorlik konferensiyalari.

### **Huquqiy tarbiya**

1997 yili "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish" Dasturi qabul qilindi. Shuningdek, "Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholini huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o'rganish haqida" Prezident farmoni imzolandi. Qabul qilingan mazkur qaror va qonunlar barkamol shaxs tarbiyasining muhim tarkibiy qismi bo'lib, shaxsning huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan.

Huquqiy tarbiya o'quvchilar o'rtasida, fuqarolik tarbiyasini tashkil etishda alohida ahamiyat kasb etadi. Huquqiy tarbiyaning maqsad va vazifalari "Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar Konsepsiyasi"da: *"Huquqiy tarbiyaning asosiy maqsad va vazifalari Konstitutsiyani, davlat haqidagi ta'limotni, chunonchi, fuqarolik, oila, mehnat, xo'jalik, ma'muriy, nafaqa, sud ishlarini yuritish va boshqarish huquqlarining ma'nosini tushuntirishdan, bolalarni davlat qonunlarini yuksak darajada hurmat qilish, ularga so'zsiz rioya etish, adliyaviy bilimlarni egallashga ehtiyoj sezish, tartib va intizomni buzuvchilarga nisbatan murosasizlik ruhida tarbiyalash, xalqaro huquqning ahamiyatga molik masalalari, xalqaro*

*tashkilotlar (BMT, Xavfsizlik Kengashi va hokazo) faoliyati haqida o'quvchilarning umumiy tasavvurlarini shakllantirishdan iboratdir"* deb belgilab qo'yilgan.

**Huquqiy tarbiya** shaxs tomonidan o'zlashtirilgan nazariy-huquqiy bilimlar negizida huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarni hosil qilish, unda ijobiy mazmundagi huquqiy sifatlarni qaror toptirish va huquqiy madaniyatni shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon hisoblanadi.

Huquqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar hal etiladi:

- *o'quvchilarga huquqiy me'yorlar, qonunlar va ijtimoiy-huquqiy munosabatlar mohiyati hamda ularning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati to'g'risida ma'lumotlarni berish;*

- *o'quvchilarda huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongini qaror toptirishga erishish;*

- *o'quvchilarda huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko'nikma va malakalarni hosil qilish;*

- *ularda ijobiy mazmundagi huquqiy sifatlarni (huquqiy tasavvur, huquqiy idrok, huquqiy tafakkur, huquqiy savodxonlik, huquqiy mas'ullik, huquqiy faollik, huquqiy e'tiqod va huquqiy salohiyat)ning qaror topishini ta'minlash;*

- *o'quvchilarda huquqiy madaniyatini (huquqiy me'yorlar, qonunlarning ijtimoiy hayotdagi ahamiyatini to'g'ri baholash, harakat va harakatsizlikning qonuniy bo'lishiga erishish, davlat Konstitutsiyasi va ramzlarini, shuningdek, fuqarolik huquq va burchlarini hurmat qilish, yuridik xizmatlarga nisbatan ehtiyojni qaror toptirish, har qanday ko'rinishdagi huquqbuzarliklarga qarshi murosasiz kurashni tashkil etish)ni shakllantirish.*

**Huquqiy madaniyat** bu – shaxs tomonidan huquqiy bilimlarning o'zlashtirilishi hamda huquqiy faoliyatni tashkil etish darajasining sifat ko'rsatkichidir.

Shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirish quyidagi shartlar asosida amalga oshiriladi:

- *keng ko'lamli ijtimoiy – huquqiy axborotli muhitning mavjudligi;*

- *shaxs huquqiy ongini shakllantirish;*

- *shaxs huquqiy faoliyatini yo'lg'a qo'yish.*

Huquqiy tarbiyani tashkil etish davrida o'quvchilar faoliyati mazmunini taxlil etish. ularda o'z faoliyatlariga nisbatan tanqidiy yondoshuvni qaror toptirish, shuningdek, o'z faoliyatlarini real baholashga o'rgatib borish talab etiladi.

**Huquq** – *qonun belgilab bergan erk me'yoridir.* **Huquqiy ong** huquqiy madaniyatning g'oyat muhim qismlaridan biri bo'lib, u eng avvalo odamlarning qonunga munosabatlarini ifodalovchi qarashlari va e'tiqodlaridan, ularning huquqiy tasavvurlaridan, intilish va tuyg'ularidan iboratdir. *Huquqiy ong o'z ichiga: huquqiy tushuncha; huquqiy his-tuyg'u; xohish-iroda kabi qismlarni qamrab oladi.*

Huquqiy ongni shakllantirish orqali huquqiy tarbiya me'yorlarini hayotga tadbiq etish muayyan qoidalarga amal qilishga yordam beradi. Huquqiy ongni oshirish, huquqiy madaniyatni yuksaltirish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa mavjud qonunlar yoki huquqiy me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Xususan, bu borada “Huquqshunoslik”, “Inson huquqlari”, “Huquqiy tarbiya uslubiyati” kurslarini o'rganish muhim sanaladi. Huquqiy bilim asoslarini o'rgatuvchi maxsus ta'lim turlari bilan bir qatorda huquqiy targ'ibot-tashviqot ishlari ham katta ahamiyat kasb etadi. Jumladan, huquqshunoslar ishtirokidagi muloqotlar, huquqni muhofaza qilish idoralari xodimlari bilan uchrashuvlar, savol-javob kechalari va shuning singari tashkiliy tadbirlar ijobiy samara beradi.

**Huquqiy tarbiyaning maqsadi** o'quvchilarda huquqiy madaniyatni shakllantirish, ularda huquqiy demokratik davlat sharoitida yashash ko'nikmasini tarbiyalashdir.

**Huquqiy tarbiyaning mazmuni.** Huquqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida o'quvchilarga davlat Konstitutsiyasi, davlat haqidagi ta'limot, fuqarolik, oila, mehnat, xo'jalik, ma'muriy nafaqa, sud ishlarini yuritish va boshqarish huquqlarining ma'nosini tushuntirish, ularga ijtimoiy-huquqiy me'yorlarning shaxs va jamiyat hayotidagi ahamiyati haqidagi tushunchalarni berish. huquqiy munosabatlar mohiyati yuzasidan tasavvurga ega bo'lishlarini ta'minlash, ularda huquqiy ong, shuningdek, huquqiy faoliyatni tashkil etish borasidagi ko'nikma va

malakalarni hosil qilish, huquqiy madaniyatni shakllantirish masalalariga e'tibor qaratiladi.

**Huquqiy tarbiya vazifalari quyidagilardan iborat:**

- (qonunga ) huquqqa, jamoatdagi tartibni saqlovchi organ va shaxslarga hurmat va muomalani shakllantirish;
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qonunchilik asoslari zimmasidagi huquq va majburiyatlarni bilish;
- qonunlar va boshqa huquqiy hujjatlarga qat'iy amal qilish va fuqarolik burchi va mas'uliyatini chuqur his etish;
- qonunbuzarlarga qarshi kurashishga shay turish;
- huquqiy demokratik davlat insoniylik printsiplariga hurmat bilan qarash va h.k

Huquqiy bilim demak. huquqiy me'yorlardan (norma) o'z faoliyati davomida o'rinli foydalana bilish qobiliyatidir. Shuningdek, u shaxsning huquqni anglashi bilan uzviy bog'liq bo'lib, huquqiy me'yorlar, qonunga xilof xatti-harakatlarning kishilar tomonidan to'g'ri anglanishidir.

O'quvchilarning huquqiy ongini oshirmasdan fuqarolik davlatini barpo etish murakkab vazifadir. Huquqiy ong poydevoriga avvalo oilada asos solinadi. So'ngra ta'lim-tarbiya muassasalarida bu faoliyat davom ettiriladi.

**Huquqiy tarbiyani amalga oshirishda:** ishontirish, majburlash, shaxsiy namuna, rag'batlantirish kabi metodlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Bolalarning qalbi va vujudiga go'daklik paytidan boshlab odob-axloq, huquqiy qonun-qoidalar haqida ilk tasavvur va tushunchalarni singdirishda jamiyatning asosi, negizi bo'lgan oilaning roli va ahamiyati katta. Daho xalqimiz bu borada ham o'ziga xos huquqiy tarbiya maktabini yaratgan. Ota-buvarimiz bolalarga turli mavzularda ertaklar aytib berish orqali ularning ongida ilk huquqiy tushunchalar shakllantirilgan. "Tekin tomoq bo'lma", "Mehnatdan qochma", "Yolg'on gapirma", "Yomonga yaqinlashma", "Yomon bilan yurma" kabi ibrat o'g'it mazmunidagi gaplar ham kichkintoylarni tasavvurida ilk huquqiy tushunchalarni paydo qiladi. Huquqiy tarbiya serqirra, o'ta murakkab, uzoq davom etadigan

jarayondir. Aslida *“Qonunlar qonuni vijdondir”*. *“Faqat vijdongina insonlar hayotining odil rahnamosidir”* (Lev Tolstoy).

Huquqiy tarbiyani amalga oshirishda huquq darslari alohida ahamiyatga ega. Darhaqiqat, yaxshi dars yirik bir asardir. Xuquqshunoslik darslari davomida o`quvchilar qonuniy va qay xolatlarda qonun buzilishlar sodir etilishini idrok etib borishlari lozim. Shuningdek, ushbu darslarda davlat ramzlari, ularga nisbatan faxr-iftixor, Ona Vatanga cheksiz mehr tuyg`ularini singdirib borish lozim.

Tarbiyaning mustaqil shakli huquqiy mavzuda bahs yuritish bo`lib, bunda o`quvchilarning faolligi, huquqiy mavzular bo`yicha bilimi, qonuniy va noqonuniy xatti-harakatlar to`g`risidagi e`tirozlari, u yoki bu qonunbuzarlarga nisbatan qarashlari aniqlanadi. Shuningdek, huquqiy mavzulardagi suhbatlar, huquqiy yo`naltirish, konferentsiyalar, seminarlar ham huquqiy tarbiyaning samarali shakllaridir. Huquqiy tarbiyada tarbiyalanuvchining shaxsi hisobga olinishi muhim ahamiyatga ega. Bunga uning yoshi, u o`sgan muhit, bilim doirasi (darajasi), fe`l-atvori, jinsi, rivojlanishi, kuch-quvvati, tuzilishi, va xokazolar kiradi. Maktab yoshigacha bo`lgan bolalar uchun masalan, huquqiy bilimlar elementlar axloqiy bilimlar bilan uyg`unlashgan xolda yo`naltiriladi. Masalan, kichkintoylarga har bir narsani nimasi yaxshiyu nimasi yomonligini misollar orqali tushuntirish lozim. O`qituvchi o`qitish jarayonida xuquqiy tarbiya masalalarini xal qilishda o`quvchining yoshiga qarab, (maktab, litsey, kollej, oliygoh, va xokazo) huquqiy tarbiyaning shakl va uslublarini chuqurlashtirib borganidir. O`qituvchining bor sa`y-harakati, o`quvchi qalbida o`z xatti-harakatiga nisbatan chuqur mas`uliyat xissini uyg`otishdan iboratdir.

### **Sinfдан va maktabdan tashqari ishlar jarayonida huquqiy tarbiya.**

Huquqiy tarbiyaning sinfdan va maktabdan tashqari ishlarining asosiy ko`rinishlaridan biri bu huquqiy bilim berishga yo`naltirilgan to`garaklaridir. To`garak mashg`ulotlarini oldindan rejalashtirilgan reja asosida tanlash lozim. Mazkur mashg`ulotlar qatnashuvchilarda huquqiy ong rivojlanishiga, bilimga chanqoq yoshlarni qiziqishlariga ko`ra, kasbiy yo`naltirishga yordam beradi.

Shuningdek, konferensiyalar, bahslar ham huquqiy tarbiya vositalaridan hisoblanadi. Masalan, konferensiya davomida uch, to'rt o'quvchilarning ilmiy salohiyatlari bo'yicha qilgan ma'ruzalari tinglanadi. Bahslar esa qatnashuvchilardan o'z qarash va fikrlari orqali voqealikka munosabati, u yoki bu xolatlarni mustaqil baholash qobiliyatini aks etiradi. Huquqiy tarbiyada o'tmish mutafakirlarining davlatni boshqaruvga doir g'oyalariidan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ulardan ayrimlariga to'xtalamiz. Ma'rifatli rahbar borasidagi g'oyalar Abu nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Amir Temur, Alisher Navoiylar tomonidan qo'llab-quvvatlangan. Ularning fikriga ko'ra ham davlat boshqaruvida holis aqli bilan ajralib turuvchi inson turishi kerak. Alisher Navoiyning asarlarida hukmdorga qarata "O'zingga tilamaydiganingni xalqqa ham tilama" yoki "Xalqni qiynama: aks holda o'z nomingni bulg'alaysan" kabi ibratli gaplari alohida e'tiborga loyiq. "Shoh buloqqa o'xshaydi, qolganlar esa buloqdan suv tortuvchi anhorlardir. Agar buloqda suv shirin bo'lsa, anhorlardagi suv ham ochiqdir... Demak, shoh adolatli va yaxshi ma'naviy sifatlariga ega bo'lishi, qolganlar esa uning orqasidan borishlari lozim", - deb yozadi Ahmad Donish, Amir Temur davlatni tashkilashda hukmdorga davlatni o'zi boshqarganidek boshqarishni maslahat berib, "Tuzuklar"ida "Men davlatni mo'minlik, insonparvarlik, sabr bilan boshqardim. Hammani harakatsizlik niqobi ostida kuzatdim, dushmanlarimga qanday munosabatda bo'lgan bo'lsam, do'stlarimga ham shunday munosabatda edim"- deb yozgan edi.

### **Iqtisodiy tarbiya**

O'zbekiston rahbariyatining mustaqillikni e'lon qilgandan keyingi dastlabki qadamlaridan biri iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdan iborat bo'ldi. Bunga quyidagi tamoyillar asos qilib olindi:

1. Iqtisodiy islohotlar hech qachon siyosat ta'siri ostida bo'lmasligi kerak. Bu iqtisodiyot siyosatdan ustun turishi kerakligini bildiradi. Ham ichki, ham tashqi iqtisodiy munosabatlarning mafkuradan xoli bo'lishini ta'minlash kerak.
2. Davlat bosh islohotchi sifatida namoyon bo'lishi darkor. U ustunlikni belgilashi, o'zgarishlar siyosatini ishlab chiqishi va izchillik bilan amalga oshirishi, jaholatparast va mutaasiblar qarshiligini bartaraf etishi lozim.

3. Qonunning ustivorligi, qonunga rioya qilish. Bu demokratik yo'l bilan qabul qilingan yangi Konstitutsiyani va qonunlarni istisnosiz hamma kishi hurmat qilishi hamda ularga so'zsiz rioya qilishi kerakligini bildiradi.
4. Aholining demografik tuzilishini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish. Bozor munosabatlarining joriy etilishi aholini ijtimoiy himoya qilishga doir amaliy tadbirlarning o'tkazilishi bilan birga olib borilishi kerak. Bu bozor iqtisodiyoti yo'lidagi kechiktirib bo'lmaydigan vazifalardan edi va shunday bo'lib qoladi.
5. Bozor iqtisodiyotiga o'tish puxta o'ylangan holda, bosqichma-bosqich, ob'ektiv iqtisodiy qonuniyatlar talablarini hisobga olish tamoyillarini o'z ichiga oladi.

*Iqtisodiy tarbiya* – o'quvchilarning iqtisodiy ongini shakllantirishga qaratilgan, uyushgan (tashkil etilgan) pedagogik faoliyat, maxsus o'ylangan ish tizimidir. Uni amalga oshirish jarayonida o'quvchilar tartibli va samarali iqtisodiyot haqida, ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirish to'g'risida, ishlab chiqarish munosabatlari haqida, amaldagi xo'jalik mexanizmi to'g'risida tushuncha va tasavvurlar majmuini o'zlashtirib oladilar. Iqtisodiy tarbiya iqtisodiy tafakkurning rivojlanishini iqtisodiy faoliyat natijasida hosil bo'ladigan axloqiy va ishchanlik fazilatlarining, ijtimoiy faollikning, tadbirkorlikning, tashabbuskorlikning, ijtimoiy mulkka tejamkorlik bilan, halol munosabatning shakllanishini ta'minlaydi. Shu asosda yuqori rentabellikka, jihozlar va texnologiyani yangilashga, ratsionalizatorlik va ixtirochilikka, mahsulot sifatini yaxshilashga va pirovard natijada, kasbiy muvaffaqiyat va farovonlikka intilish tarkib topadi. Iqtisodiy tarbiya insonni iqtisodiy faoliyatga tayyorlashga, uni jamiyatimiz iqtisodiy hayotida ishtirok etishga, respublikaning tirishqoq, serg'ayrat fuqarolarini shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. U o'quvchilar ongida jamiyatni rivojlantirishning iqtisodiy qonuniyatlari haqida aniq tasavvurlar shakllanishini, bozor infrastrukturasini qoidalarga amal qilish, ichki bozorni to'ldirish, kichik va o'rta biznesni yaratish borasidagi faoliyat jarayonida ishtirok etish, ko'nikma va malakalarni hosil qilish, inson mehnati bilan bunyod etilgan moddiy boyliklarni asrash, ularni ko'paytirish borasida qayg'urish tuyg'ularini qaror toptirish, iqtisodiy madaniyatni



shakllantirishga xizmat qilishi kerak. Iqtisodiy tarbiyalangan kishida hayotimizdagi ko'pgina kundalik muammolarni hal etishga bo'lgan qarashi o'zgaradi. Lekin, afsuski, kundalik hayotda jamiyat va davlat mablag'laridan maqsadga muvofiq bo'lmagan holda foydalanilishiga oid ko'plab misollar topish mumkin. Ularni kamaytirish uchun barcha fuqarolarga, "kichiklardan-kattalargacha" hayotda paydo bo'ladigan iqtisodiy muammolarni hal qilishga progmatik, nostandart yondoshuv kerak. Buning uchun esa yangi iqtisodiy tafakkurni yaratish talab etiladi. Maktabda olib boriladigan iqtisodiy ta'lim va tarbiya ishlari aynan shu maqsadga xizmat qilishi lozim. Iqtisodiy tarbiyani tashkil etish jarayonida – o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish asosida mamalakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, bozor infrastrukturasi qoidalariga amal qilish, ichki bozorni to'ldirish, kichik va o'rta biznesni yaratish borasidagi faoliyat jarayonida ishtirok etish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, inson mehnati bilan bunyod qilingan moddiy boyliklarni asrash, ularni ko'paytirish borasida qayg'urish tuyg'ularini qaror toptirish, iqtisodiy madaniyatni shakllantirish yotadi.

#### ***Iqtisodiy tarbiya vazifalari:***

- o'quvchilarda iqtisodiy ongni izchillik bilan rivojlantirib borish;
- oqilona ehtiyojlarni, ularni moddiy imkoniyatlar bilan taqqoslash qobiliyatini shakllantirish;
- bolalarda o'z ehtiyojlarini to'laroq qondirishga bo'lgan izlanishlarda mehnatga yo'nalganlikni tarbiyalash;
- kasb tanlashga ongli munosabatda bo'lish, tejamkorlik, rejalilik, omilkorlik, ishchanlik, xo'jalikni tejab-tergab olib borish kabi sifatlarni tarbiyalash;
- o'quvchilarni iqtisodiy taxlil qilish malaka va ko'nikmalari bilan qurollantirish, tejamkorlik va iqtisod qilish odatlarini tarbiyalash, aqliy va jismoniy mehnat madaniyatini shakllantirish, mehnatni ilmiy tashkil etish asoslarini egallab olish;
- mas'uliyatsizlikka, mehnatdagi tartibsizlikka, bekorchilikka, boqimandalik kayfiyatlariga, xo'jasizlikka, isrofgarchilikka, beparvolikka murosasiz munosabatda bo'lish hissini tarbiyalash va hokazo.

Iqtisodiy tarbiyaning ahamiyati xususida Sharq mutafakkirlari, pedagog olimlar o'z qarashlarini bayon etganlar. Ibn Muso al-Xorazmiy kishi hisob ilmini bilishi va o'z ishiga pishiq bo'lishi kerakligi, shundagina u o'z mehnatining natijalarini o'ltchovlar orqali aniqlay olishi mumkinligini ta'kidlasa, Abu Nasr al-Farobiy insonga yashash uchun juda ko'p narsalar kerakligi va ularni vujudga keltirish yo'lida boshqa shaxslarga murojaat qilishni e'tirof etadi. Al-Farobiy "Baxt-saodatga erishuv haqida" asarida shunday yozadi: *"Inson o'z mablag'ini sarflashni bilishi kerak. Pul sarflashda qizg'anchiqlik qilish xasislikka olib keladi. Pullarni rejasiz ishlatish esa insonni beboshlikka yetaklaydi"*.

Ibn Sino bolalarni hayotga tayyorlash uchun ularga hunar o'rgatish lozim deb ko'rsatadi. Inson hunarni puxta o'rganishi shart. Chunki hunar unga kelajakda ro'zg'or tebratish uchun kerak. Bu shunday olib borilishi kerakki, u o'z mehnatining natijalarini ko'ra bilsin. Shundagina bola o'z imkoniyatidan to'g'ri yoki noto'g'ri foydalanayotganini anglashi lozim. Hunar egallash yoshlarni mustaqillikka o'rgatadi. Bu jarayonda bola hisob-kitob qilishni ham o'rganadi, ishbilarmonlik va tashabbuskorlik hususiyatlariga ega bo'ladi.

Tejamkorlik, ijodkorlik, mas'uliyat hissi tashabbuskorlik, ishbilarmonlik, hisob-kitob mohirligi o'quvchilar iqtisodiy tarbiyada qanday saboq olayotganliklarini ko'rsatuvchi muhim belgilardir.

### **Mehnat tarbiyasi**

Mustaqil har tomonlama kamolga yetgan barkamol shahs uchun zarur bo'lgan ma'naviyat qirralari iymon, e'tiqod, vatanparvarlik, insonga cheksiz muhabbat, do'stlik, sadoqatlik, mehnatsevarlik, milliy g'urur kabi fazilatlarini shakllantirish zarur.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis 1997-yil 29 avgustda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida" gi yangi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi" ta'lim sohasidaga siyosatimizni belgilab berdi. Uzluksiz ta'limni tashkil etishni rivojlantirish printsiplari uzluksiz ta'limni isloh qilish, uzluksiz ta'lim tizimi va turlari masalalarini qamrab olgan. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek:

*“Har bir insonning ayniqsa endigina hayotga qadam qo'yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular o'rtaga qo'yilgan maqsadga erishishi o'zlariga bog'liq ekanligini, ya'ni bu narsalar ularning sobit qadam, g'ayrat, shijoatlariga, to'la-to'kis fidokorligi va cheksiz mehnatsevarliklariga bog'liq ekanligini anglab yetishlari kerak”.*

Mehnatni sharaflash mehnat ahlining qadr-qiymatini uning mashaqqati uchun astoydil kurashish, o'sib kamol topayotgan yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish jarayonida mehnatga munosabatlarini shakllantirish zarur bo'lib, yosh avlod jamiyatimiz taraqqiyotida o'z bilimi: mehnat, kasb-hunarlari bilan hissa qo'shishlari pedagog tarbiyachilarning oldida turgan eng muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Mehnat inson hayoti, uning farovon turmush kechirishi uchun hamisha asos bo'lib kelgan va shunday bo'lib qoladi.

***Mehnat** – farovon va baxtli hayot kechirishning eng asosiy sharti bo'lganligi sababli hamma insonlar uchun majburiydir.*

Mehnat odamlarning biror maqsad uchun sarflangan vaqti. aqliy va jismoniy kuchi yoki zarur faoliyatidir. Mehnatsiz yashash mumkin emas.

Barcha tirik mavjudot nimanidir iste'mol qilish hisobiga yashaydi. Yerdan yashovchi mayda qurt-qumursqadan tortib parrandalargacha, suv ostida yashovchi jonivorlardan tortib, ulkan hayvonlargacha ovqatsiz yashay olmaydi. Huddi shuningdek, odamlar ham uzluksiz ovqatlanadi, hayot kechiradi. Boshqa tirik mavjudotlardan farqli o'laroq, odamlar kiyinishadi, uy-joy qurishadi, savdo-sotiq qilishadi, kitob o'qishadi, ijod qilishadi. Bu ishlarni amalga oshirish uchun boylik, ya'ni tirikchilik manbai bo'lgan pul kerak. Pul topish uchun, o'zlariga kerakli narsalarni yaratish uchun odamlar mehnat qilishlari lozim. Mehnat jarayonidagi oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa zarur narsalar yaratiladi. Mehnat inson hayotini sermazmun qiladi va boyitadi. Odamlar mehnat qilish jarayonida sog'liqlarini mustahkamlaydilar, obro' orttiradilar va o'z kelajaklarini yaratadilar.

Ota-bobolarimiz asrlar davomida mehnatni ulug'lab kelishgan, o'zlari sidqidildan mehnat qilishgan. Bizga ulardan meros bo'lib qolgan barcha xazinalar ilmiy-badiiy kitoblar, turli xildagi san'at asarlari, me'morchilik obidalari va boshqa

narsalar ana shu mehnatning mahsulidir. Jahon fanining rivojiga bebaho hissa qo'shgan Al Xorazmiy, Ibn Sino, Ismoil Buxoriy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur singari bobokalonlarimiz mehnatsevarliklari tufayli ulkan yutuqlarni qo'lga kiritishgan va yoshlarni ham mehnatni sevishga mehnatsevar bo'lishga chaqirishgan.

O'zbek maqollarida ham mehnat va mehnatsevarlik g'oyasi markaziy o'rinlardan birini egallaydi: *"Suvsiz hayot bo'lmas, mehnatsiz rohat"*, *"Mehnat qilsang yasharsan, katta- katta osharsan"*, *"Oltin o'tda toblanar, odam – mehnatda"*, *"Mehnat bilan qarising, rahmat bilan yasharsan"*, *"Uzoq umr siri mehnatda"* v.h.jk.

Mehnat tarbiyasi masalalari O'rta Osiyolik mutafakkir olim va shoirlarning bizga meros bo'lib qolgan ma'rifiy asarlaridan katta o'rin olgan. Buyuk o'zbek shoiri Alisher Navoiy mehnatsevarlikni chinakam insoning eng asosiy xususiyati deb bilgan. Mehnat kishini bezashini, uni har tomonlama kamol toptirishini yuksak ko'tarinki ruh bilan madh etgan. Yoshlarni sidqidildan mehnat qilishga, mehnatni qadrlashga chaqirgan. Sharq madaniyatining buyuk namoyandasi Mirzo Ulug'bek ham yosh avlodga tabiat va uni muhofaza qilish, tabiat yaratgan ne'matlarni tejabtergab sarf qilish to'g'risida bilimlar berish kerakligini ta'kidlaydi. Yoshlar bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirishlari, o'z fikr-mulohazalarini to'g'riligiga bevosita kuzatish orqali ishonch hosil qilishlari muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib o'tgan.

Mehnat faqat hayotiy zarurat va moddiy farovonlik manbayi bo'lib qolmay, yoshlarda yaxshi xulq va ma'naviy sifatlarni vujudga keltiradi; loqaydlik va beparvolik kabi illatlarni bartaraf etib, kishida quvonch va mamnunlik hislarini paydo qiladi. Odam dunyodagi hamma yaxshi narsalarga ega bo'lsa-yu, lekin o'zi mehnat qilmasa, u baxtli bo'la olmasligi badiiy asarlarda o'z aksini topgan; ezgu maqsadlarga erishishning eng muhim omili bo'lgan mehnat tufayli mamlakatning gullab-yashnashi mumkinligi qayd etilgan. Maktabning vazifasi bolalarni mehnatni hurmat qilish va sevish, mehnatning ahamiyatini tushuntirish, zo'r berib mehnat ko'nikmalari hosil qilishga, eng muhimi, jamiyat baxt-saodati yo'lida halol va

fidokorona mehnat qilishga tayyor turish va shunga intilish ruhida tarbiyalashdan iboratdir. Mehnatda organizm chiniqadi, chidamlilik, qat'iyatlik, intizomlilik kabi hislatlar tarbiyalanadi. Mehnat vaqtni to'g'ri rejalashtirish va undan unumli foydalanish hamda uyushqoqlik bilan samarali ishlashga o'rgatadi. Aqliy mehnat sohasida ham, jismoniy mehnat sohasida ham ongli va ijodiy mehnat qilish tufayli erishilgan muvaffaqiyat kishida zo'r qoniqish va quvonch hislarini tug'diradi. Kishi kuch va quvvatining behuda ketmaganligiga xursand bo'ladi. Mehnat kishini olijanob qiladi, boshqalarning kasb-koridan qat'iy nazar, mehnat samaralarini, mehnatkash kishini hurmat qilish, dangasa. ishyoqmaslardan nafratlanish ruhida tarbiyalaydi. Mehnat jamoa mulkini va kasbiy mulkni ehtiyot qilishga o'rgatadi, chunki bularning hammasi kishilarning mehnat samarasidir.

Mehnat jarayonida ahillik va o'rtoqlik aloqalari. o'zaro munosabat paydo bo'ladi va mustahkamlanadi. Jamoatchilik xususiyatlari shakllanadi, iroda, xarakter mustahkamlanadi va nihoyat. eng muhimi mehnatda vatanparvarlik. yurtparvarlik hislari paydo bo'ladi va mustahkamlanadi.

Mehnat tarbiyasi oiladan boshlanishi kerak. Bolalar yoshlik chog'laridan boshlaboq tevarak-atroflaridagi kishilarning turli-tuman ishlariga qiziqadilar, kattalarga qarashmoqchi bo'ladilar. Bu intilishni har tomonlama rag'batlantirib turish, maktabda mehnat tarbiyasining yaxshi borishi oilada. maktabgacha tarbiya muassasalarida berilgan mehnat tarbiyasiga bog'liqdir. Bolalar 2 yoshdan boshlab qo'llaridan kelgancha o'z-o'zlariga xizmat ko'rsata boshlaydilar. keyin bolalar bog'chasida rasm chizish, loydan buyumlar yasash, applikasiya, oddiy o'yinchoqlar yasash, qog'ozdan, kartondan buyumlar yasash kabi ishlarni bajaradilar. Bolalar o'z burchaklarini yig'ishtirish, o'rin solish, o'simliklarni parvarish qilish. stol tuzash, xonadagi chang-chunglarni artish kabi ishlarga asta-sekin o'rgatila boriladi.

#### ***O'quvchilar mehnatining quyidagi turlari farqlanadi:***

1. Maishiy mehnat.
2. O'quv mehnati.
3. O'quv ishlab chiqarish mehnati.
4. Ijtimoiy-foydali mehnat va boshqalar.

***Mehnatga ongli munosabatni tarbiyalashda quyidagi vazifalar hal etiladi:***

- mehnatning maqsad va vazifalarini anglash;
- mehnat faoliyatini tashkil etish rag'batini qaror toptirish;
- mehnatni tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

***Mehnat tarbiyasining vazifalari:***

1. Mehnatning zarur ekanligiga e'tiqod hosil qilish, mehnatga har bir kishining ehtiyoji sifatida qarashni tarbiyalash;
2. Mehnatga qiziqish va muhabbatni oshirish, mehnatsevarlik singari xarakter hislatini tarbiyalash;
3. Bolalar va o'smirlarni mehnatning turli-tuman malaka va ko'nikmalari bilan qurollantirish va shu asosda ularda mehnat qilish va g'ayrat bilan ishlash odatini tarbiyalash;
4. Zarur mehnat madaniyatini singdirish. Maktab ustaxonasidagi tartib-qoidaga rioya qilish, materiallardan, asbob-uskunalaridan mohirona foydalanish, har bir ishni oxiriga yetkazish.
5. Hamma hunar va ixtisosdagi mehnat ahllariga hurmat tuyg'usini tarbiyalash.
6. O'z-galar mehnatiga to'g'ri va ongli munosabatni shakllantirish.
7. Oilada va maktabda mehnat natijalariga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni tarbiyalash.
8. O'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash.
9. O'quvchilarda mehnat faoliyatining ijtimoiy ahamiyatiga molik motivlarni shakllantirish, ya'ni o'quvchilarning Vatan oldidagi burchini his qilish, mehnat qilish zarurligini anglash, mehnat jarayonlari bilan qiziqish kabi motivlarga amal qilishlariga erishish darkor.
10. Mehnatda o'rtoqlarcha hamkorlikka intilishni, qoloqlarga yordam ko'rsatishga tayyor bo'lish va yordam ko'rsata bilishni tarbiyalash.

Mehnatda bolalarning mustaqilligini o'stirish bilan birga, ularni kishilarning mehnat faoliyatlari bilan tanishtiradi. Bolalarga tushunadigan qilib, kattalarning mehnati to'g'risida hikoya qilib beriladi, ularning mehnatini hurmat qilish lozimligi

uqtiriladi, o'z kiyimini, uy anjomlarini, bolalar bog'chasidagi narsalarni ehtiyot qilishga o'rgatiladi.

Mehnatga ongli munosabat tarbiyasi. asosan o'qish jarayonida, ijtimoiy foydali ishlarda va o'quvchilarning uy-ro'zg'or, xo'jalik ishlarida beriladi. Maktab o'quvchilari mehnat faoliyatining asosiy turi o'quvchilardan zo'r aqliy va irodaviy kuch talab qiladigan o'quv ishlaridir. Bola maktabga kelganida dastlab uning hayotida yangi bir voqea ro'y beradi: u har kuni o'qish kerakligini, o'qish ham bir ish ekanligini sezadi, haftada 6 kun o'qib, ya'ni ishlab, bir kun dam olish lozimligini tushunib oladi. O'quvchi kelajakda mehnat qilish uchun bilim olish zarurligini, bu bilimlarni egallash uchun esa maktabda tirishqoqlik bilan o'qish kerakligini asta-sekin tushuna boradi. Har bir dars, har bir topshiriq ham o'quvchilarda mehnat ko'nikmalari va malakalarini hosil qiladi. Darsda, uйда mustaqil ishlash, mehnatni doimo nazorat qilib borish va unga baho berish jarayonida o'quvchilarda irodaviy hislatlar, o'z mas'uliyati va burchini sezish, qilinayotgan ishni iloji boricha yaxshiroq bajarishga intilish, tizimli o'qish va ishlashga odatlanish tuyg'ulari hosil bo'ladi.

O'quvchilarda mehnatga ongli munosabatni tarkib toptirishda ona tili, rus tili, matematika, tabiatshunoslik va ayniqsa mehnat darslari alohida o'rin tutadi.

### **Ekologik tarbiya**

*Ekologiya va uning tabiiy qonuniyatlari haqida.* Mamlakatimiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan keyin tarixan qisqa vaqt ichida barcha jabhalarda ya'ni iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy sohalarda katta o'zgarishlarni qo'lga kiritdi.

Demokratik fuqarolik jamiyatini qurishga harakat qilinayotgan bir paytda mamlakat aholisining ma'naviy qiyofasini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatda huquqiy-demokratik jamiyat qurishning bir qancha vazifalari, maqsadlari belgilandi. Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun ekologik vaziyatni hisobga olmay biror ish qilib bo'lmaydi yoki biror yutuqqa erishib bo'lmaydi. Tabiat yer yuzidagi jamiki tirik mavjudot uchun muqaddas go'shadir. Tabiat ularni to'ydiradi, kiydiradi, issiq va sovuqdan asraydi. O'z navbatida tirik mavjudot ham

tabiatga mehr qo'yadi. Bu mehr tabiatni asrash, uning boyliklarini ko'paytirish tuyg'usi bilan uyg'unlasha olsagina ekologik vaziyat yaxshilana boradi. Markaziy Osiyo xalqlari qadimgi davrlardan beri ekologik ma'naviyatga va merosga egadir. Ularning ekologik saviyasi qanchalik yuqori bo'lganligini zardushdiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto" ma'lumotlaridan ulug' allomalarimiz Abu Nasr Forobiyning "Kalom fi a'zo al-hayvon" ("Hayvon a'zolari to'g'risida so'z"), Abu Rayhon Beruniyning "Saydana". "Mineralogiya", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarlari mazmunida ko'rishimiz mumkin. Bobur faqat shoirgina bo'lmay, balki podshoh, sarkarda, tarixchi, mashshoq, ovchi va bog'bon, sayyoh va tabiatshunos ham bo'lgan. Boburning eng yirik asari "Boburnoma" dir. Unda shoirning ko'rgan-kechirganlari, borgan joylarining tabiati, boyligi, odamlari, urf-odatlari, hayvonoti, o'simliklari va boshqalar tasvirlangan. Har bir kasb egasi bu kitobdan o'ziga keragicha ma'lumot topadi. Asar muhim atamalar va toponimik manbalarga boy. Unda yer, suv, havo, turli tabiiy hodisalarga tegishli xalq so'zlari ko'plab topiladi.

"Boburnoma"ni o'qigan va o'rgangan har bir kishi uni tabiat va geografiyani yaxshi bilgan o'lkashunos olim yozgan degan xulosaga keldi. Bobur o'lkani bilgan kishilarni hurmat qilgan, ularning qadriga yetgan va ular bilan xamisha maslahatlashgan. "*Biron safarga chiqishdan oldin yer, suv bilur kishilarni chorlab, atrof va tomonlar surishtirilar edi*", deb yozadi muallif.

Bobur har bir hududni ma'lum bir tartibda tasvirlaydi. Avvalo joyning geografik o'rni, so'ngra qaysi iqlimga mansubligi, shifobaxsh joylari, o'simliklari, qazilmalari, hayvonot olami va aholisi haqida ma'lumotlar beriladi.

Bobur ajoyib botanik bo'lgan. U o'simliklarni sevgan va yaxshi bilgan. U juda ko'p giyoh va mevalarni, ularning hosiyatlari va ahamiyatini ta'riflaganki, haqiqatda bog'bon bo'lgan kishi, asl tabiatshunosgina buning uddasidan chiqa oladi. Markaziy Osiyo xalqlari orasida o'zbek xalqining avloddan-avlodga o'tib kelayotgan ekologik tarbiyasi tahsinga sazovordir. Bu davrlarda ajdodlarimiz farzandlariga oilada tug'ilgandan boshlab tejamkorlik xislatlarini, uvol qilmaslik xususiyatlarini xamda tabiat unsurlari bo'lmish suv, tuproq xayvonot dunyosidan



faqat samarali ishdagina foydalanishni o'rgatishar, ongiga singdirishar edi. Xalq orasida "uvol" degan so'z juda keng tarqalgan. Bu esa xozirgi avlod orasida afsuski juda kam ishlatilmoqda. Ajdodlarimiz o'z farzandlariga bo'lgan axloq sizlikni umrini oxirigacha qarashni va tejamkor bo'lishni uqtirib kelishgan.

Mabodo biror kimsa o'sha davr va bu ma'naviyatdan maxrum bo'lsa ularni jamoatchilik tartibga olishgan. Asrlar davomida O'rta Osiyo xalqlari ona yerni, suv, o'simlik, xayvonot olamini hurmat qilishgan. rizq-ro'zimiz manbai deb bilishgan. Bugungi kunda ekologik vaziyatni hisobga olib, ta'lim tizimida ham tub o'zgarishlar bo'lmoqda. Pedagog olimlardan E.O.Turdiqulov, Sh.Avazov, A.To'xtayev, A.G.Grigoryans, G.Sultonova, N.Nishonova kabi olimlar tomonidan ekologik madaniyatni shakllantirishga doir turli xil tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ekologiya atamasi yaqin vaqtlargacha faqat mutaxassilarga ma'lum bo'lib, uni fanga 1886 yili nemis zoolog olimi E.Gekkel "Organizmlarning umumiy morfologiyasi" nomli asari orqali kiritgan. "Ekologiya" so'zi "eko" - uy, turar joy, "logos" - fan so'zlarini anglatib, u atrof-muhitning buzilishi va bunga sabab bo'lgan omillar, muhit xalokatining oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish borasidagi bilimlarini targ'ib etish asoslarini o'rganadi.

Endilikda atrof-muhitga, tabiat boyliklariga e'tiborsiz bo'lish butun sayyoraga jiddiy zarar yetkazishi mumkinligi aniq bo'lib qoldi. Inson bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlar muammolarini yechish zarurati tug'ildi. Yaqin o'tmishimizda biz "Tabiatni sevamiz" deb bong urdigu, biroq uni asrab-avaylash ishiga mas'ul ekanligimizni unutib qo'ydik. Hozirgi davrda inson va tabiat, fan-texnika taraqqiyoti va atrof-muhit, jamiyat va ekologiya o'rtasida nomunatosiblikni vujudga keltirdi. Bularning barchasi ekologik madaniyatni yanada yuksaltirishdek masalani ko'ndalang qo'ymoqda. Ma'lumki, tabiatda hamma narsa bir-biriga uyg'undur. Fan-texnika yutuqlaridan unumli foydalanayotgan inson esa ana shu uyg'unlikni buzmoqda, unga nisbatan shavqatsizlarcha munosabatda bo'lmoqda. Tabiiy boyliklardan: suvdan, yerdan o'rinsiz foydalanish ekologiyani o'zgartirib yubormoqda. Qishloq xo'jaligi ekinlarini noto'g'ri rejalashtirish, kimyoviy o'g'itlarni haddan ortiq ko'p qo'llash yer unumdorligiga va inson salomatligiga

salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Korxonalardan oqib kelayotgan zaharli oqavalar suv xavzalarini ifloslantirishi bilan birga xayvonot olami va o'simliklar dunyosiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bularning barchasi insonga ekologik tarbiya berishni, ekologik madaniyatni shakllantirishni talab etmoqda.

*Ekologik tarbiya insonda tabiatga atrof-muhitga mehr uyg'otish, tejamkorlik xususiyatlarini shakllantirishga qaratilgan faoliyatdir.*

Ekologik tarbiya jarayonida o'quvchilarga shaxs, jamiyat va tabiatning birligi hamda uning o'zaro aloqadorligi haqidagi bilimlar beriladi. Shuningdek, ekologiyaning inson, insoniyat, jamiyat taraqqiyotidagi muhim o'rni va ahamiyati borasida tushunchalarni qaror toptiriladi, ekologik madaniyat shakllantiriladi. Ekologik tarbiya jarayonida yoshlar tabiat boyliklarini tejab-tergashga, tabiatni muxofaza qilishga o'rgatib boriladi. Ekologik tarbiyaning asosiy maqsadi jamiyat kishilarini ekologik jihatdan savodxonligini, madaniyatini oshirish, shunday ekologik madaniyatli, ta'lim-tarbiyali kishilarning sa'y-harakati bilan tabiatni muxofaza qilish, ozoda, toza saqlash, hayvonot, qushlar, o'simliklarga mehr uyg'otish orqali tabiatga ongli munosabatni tabiyalashdir.

A.To'xtayev "Ekologiya" nomli o'quv qo'llanmasida ekologik tarbiya xususida fikr yuritib, shunday yozadi: *"Ekologik tarbiya – axloqiy tarbiyaning ajralmas qismidir. Kishilarda ekologik ong va tafakkurni, ekologik dunyoqarashni hosil qilish tabiatni dialektik tushunishga yordam beradi. Hamma bosqichlarda ekologik ta'lim va tarbiyani talab etilgan darajada amalga oshirish uchun bu vazifaning muhimligini va mas'uliyatini yaxshi bilgan yoshlarni tayyorlash zarur"*.

**Ekologik bilim** – bu tirik tabiatning tuzilishi, rivojlanishi, o'zgarishi, yer yuzidagi tirik jonzotlarning xolati, ularning bir-birlari bilan va atrof-muxit o'rtasida bo'lib turadigan munosabatlarni, tabiiy boyliklarning son va sifatini, xajmini, xillarini hamda ularni saqlash va tejamkorlik bilan foydalanish yo'llarini o'zlashtirishdan iboratdir. Ekologik ta'limning maqsadi o'quvchi yoshlar, butun jamiyat a'zolarida ekologik madaniyatni shakllantirishdan iborat. Ekologik ta'limni tizimli ravishda amalga oshirish zarurligi xususida professor E.Turdiqulov shunday

---

<sup>2</sup> А.Тухтаев. Экология. Т., Ўқитувчи. 1998 й. 156 б.

yozadi: “Ekologik ta’lim quyidagicha amalga oshirilishi kerak: oila, bog’cha, boshlang’ich ta’lim, umumiy o’rta ta’lim, kollej, litsey, oliy ta’lim, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish, doktorantura”<sup>8</sup>.

*Ekologik ta’lim va tarbiyaning tub ma’nosi* – tabiat va jamiyat o’rtasidagi doimiy birlik va ularni bir-birlariga bog’lovchi tabiiy xamda ijtimoiy qonunlarni o’rganish, xayotga tatbiq qilishdan iboratdir.

*Ekologik madaniyat* – bu atrof muhit to’g’risida chuqur bilimga, tabiatni asrash tuyg’usiga ega bo’lish, o’simliklar xamda xayvonlarga nisbatan g’amxo’rlik ko’rsatish, tabiat zahiralalaridan oqilona foydalanish, ularni ko’paytirish borasida qayg’urishga qaratilgan amaliy faoliyatning yuksak ko’rsatkichidir. Ana shu hislatlarni o’zida aks ettira olgan insonni ekologik madaniyat egasi deb atash mumkin. Ekologik ta’lim va tarbiya quyidagi asosiy bo’limlarni o’z ichiga qamrab oladi:

1. Talaba va o’quvchilarni tabiat go’zalliklarini sevish, ulardan estetik zavq olish ruhida tarbiyalash.

2. Jonli va jonsiz tabiatning rivojlanish qonuniyatlari, tabiat bilan jamiyat o’rtasidagi murakkab o’zaro munosabatlar, shuningdek, inson xo’jalik faoliyatining tabiatga ta’siri oqibatlarini haqida bilim berish.

3. Talaba va o’quvchilarda ekologik madaniyatni tarbiyalash. Tabiatni sevish, undan to’g’ri va ongli ravishda foydalana bilishni tarbiyalash ekologik tarbiya va madaniyatning asosi bo’lib, kishilarda tabiat oldida mas’uliyatni anglash malakasini hosil qiladi. Vatanni sevish, vatanparvarlik tabiatni sevishdan boshlanadi. Binobarin, o’quvchilarda tabiatga nisbatan haqiqiy muhabbat tuyg’usini hosil qilmay turib, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mumkin emas. Insonning tabiat quchog’ida bo’lishi uni ruhan tetiklashtirib, uning mehnat qobiliyatini va ijodiy faoliyatini oshiradi.

Ekologik tarbiya berish jamiyat taraqqiyotining talabi va davlat qonunchiligi asosida amalga oshiriladi hamda quyidagi masalalarni o’z ichiga oladi:

- o`quvchilarga maxsus ekologik bilim va tarbiya berib, ularda bu sohada

<sup>8</sup> Э.О.Турдикулов. Ўқувчиларда умумбашарий экологик дунёқарашни шакллантириш. Т., Шарқ. 2011 й. 246

*muayyan malaka hosil qilish;*

- *ekologik o'zgarishlarni oldindan ko'ra bilishni tarbiyalash;*
- *ekologik madaniyatni singdirish va tarbiyalash;*
- *kishilarni tabiat in'omlaridan to'g'ri foydalanish ruhida tarbiyalash.*

Ekologik siyosatning huquqiy asoslari 1991 yil 31 avgustda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida" gi qonunda belgib qo'yilgan.

Konstitutsiyaning XI bob. 50-moddasida: "*Fuqarolar tabiat, atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishga majburdirlar*", XII bob, 55-moddasida esa: "*Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simliklar va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zahiralari umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidir*" deb fuqarolarning tabiatga bo'lgan munosabatlari tartibga solinadi.

Vatanimizda ekologik vaziyat va ekologik tarbiyani amalga oshirish yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirilib, chora tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

1992-yil 9 dekabrda O'zbekiston Respublikasining "*Tabiatni muxofaza qilish to'g'risida*" gi Qonunni qabul qilinganligi, "*Sog'lom avlod davlat dasturi*" va "*Ekologik ta'lim-tarbiya Konsepsiyasi*" ishlab chiqilganligi, "*Ekosan*" jamg'armasi tuzilganligi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tabiatni muxofaza etish va ekologiyaga oid zarur qator xujjatlar qabul qilganligi mazkur chora va tadbirlarning ayrimlaridir. Ana shunday muhim xujjatlardan biri O'zbekiston "Qizil kitob"i hisoblanadi. "Qizil kitob"ning mohiyati shundaki, ular nabodot va hayvonot olamining noyob, yo'qolib ketish xavfi ostidagi turlari haqida ma'lumot beruvchi hujjatdir. Uning vazifasi jamoatchilik va davlat ijroiya muassasalarini tabiatni muhofazasi muammosiga jalb etishda va turlar genofondini saqlab qolishga ko'maklashishdan iborat. "Qizil kitob" Vatanimizda o'simlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish borasidagi eng muhim xayrli ishlardan biridir.

Yangi asrning barkamol kishisi o'zida ekologik madaniyat unsurlarini ham namoyon eta olishi zamon talabidir. Iste'moldan ortiqcha suv jo'mraklardan

oqishiga yo'l qo'ymaslik, suv xavzalarini ifloslantirmaslik, axlatni duch kelgan joyga to'kmaslik, turar joylarni ozoda saqlash, ko'chat va gullarni sindirmaslik xamda ularni ekish, xayvonlarga g'amxo'rlik qilish, qushlarni parvarishlash, xonadon va xiyobonlarni gulzorga aylantirish kabi harakatlarni amalga oshirish ekologik madaniyatlikning eng oddiy ko'rinishlari hisoblanadi. Aslida, ekologik madaniyat tabiatni barcha go'zalliklari bilan his qilishdan, sevishdan boshlanadi. Insonning tabiat kuchlari – sovuq va issiq, qurg'oqchilik, yong'inlar, turli ofatlar ustidan g'alabasi unga bo'lgan munosabatni o'zgartirdi. Bu ko'r-ko'ronalikdan asta-sekin ongli munosabatga aylana boradi. Tabiatga bo'lgan mehr tuyg'usi boyib, unga munosabat shaxs madaniyatining ajralmas bir bo'lagini tashkil etadi. Har bir inson tabiatdan baxra oladi. Ammo bu xali u tabiatga muhabbat degani emas. Tabiatga muhabbat uni tushunishdan, uning go'zalliklarini anglashdan, tabiat bilan munosabat qurishdan boshlanadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga dars jarayonida ekologik tarbiya doimiy ravishda o'qish, odobnoma, tabiat darslari, xamda sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar orqali beriladi. O'quvchilarga dars jarayonida ekologik tarbiya berish ularning ma'naviy-axloqiy jihatdan kamolotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu darslarda ekologik tarbiya berishda o'qituvchilar og'zaki, ko'rgazmalilik, izlanuvchanlik, suhbat metodlaridan keng foydalanadi. Shuningdek, bola bilimining samarali bo'lishi uchun hamda ma'lum natijalarga erishish uchun o'qitishning yangi pedagogik texnologiyalaridan keng foydalaniladi. Bolaning maktabda dars jarayonida olayotgan ta'lim-tarbiyasi ularning shaxs sifatidagi insoniy kamolotida muhim o'rin egallaydi. Hayotga bo'lgan qiziqish, ijobiy xislatlar, tabiatni asrab-avaylash, tabiatdagi har bir voqea va hodisaga e'tibor bilan qarash o'quvchilarda ekologik tarbiyaning natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Dars jarayonida bolaga ekologik tarbiya berishda turli xalq og'zaki ijodi namunalari, she'rlar, qo'shiqlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

*Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik tarbiya berishda sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar alohida ahamiyat kasb etib, ularni:*

- fan to'garaklari;

- *tarbiyaviy tadbirlar;*
- *ekologik suhbatlar;*
- *ekologik ekskursiyalar shaklida amalga oshirish mumkin.*

Ekologik tarbiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyatlaridan biri to'garaklardir. Bu to'garaklarning asosiy maqsadi murg'ak qalb egalarida jonli va jonsiz tabiat, ularning o'zaro bog'liqligi xaqida tassavvur xosil qilish; bahor, yoz, kuz, qish fasllarining almashinuvi, ularning o'ziga xos xususiyatlari, bu fasldagi kishilar mehnati, meva va manzarali daraxtlarning o'xshash va farqli jixatlari, o't-o'simliklar, daraxt nomlari, qushlarning uchib ketuvchilari yoki qishlashlari bir so'z bilan aytganda tabiat bilan inson orasidagi munosabat odoblarini tarbiyalashga xizmat qiladi.

Tarbiyaviy tadbirlarni: *“Navro'z”, “Hosil bayrami”, “Mehrjon sayli”, “Qovun sayli”, “Gul bayrami”, “Lola bayrami”, hamda ekologik suhbatlarni “Suv-hayot manbai”, “Onajonim tabiat” “Tabiatni e'zo'zlaylik”, «Tabiat va inson», “Ekologiya va inson”, “Orol madad so'raydi”, “Qushlar bizning do'stimiz”, “Tabiat sirlarini bilгим keladi”, “Tomchi suvda hayot jilvasi”, “Tabiat soqchilari”* kabi mavzularda tashkil etish mumkin.

Bunday tadbirlar orqali bag'ritosh, shavqatsiz, tabiatga mensimaslik kayfiyati bilan qaraydigan ayrim bolalarni xushyorlikka chorlaydi. Yana xasharotlarni tutib, ularga ozor beradigan chumolilar inini, qushlar uyasini buzadigan, o'simliklarni bosib, yulib oladigan o'quvchilar xatti-harakatlarini muxokama qilish zarurligi uqtiriladi.

Suhbatlarda o'quvchilarga ekologik ta'lim-tarbiya berishda xalqimizga xos milliy tarbiyasidan o'rinli foydalaniladi. Milliy tarbiyamizda 4 narsa – yer, suv, tuproq va havo muqaddas hisoblangan. Bu haqda o'quvchilarga suhbat davomida ma'lumotlar berib boriladi. Ota-bobolarimiz “Suv” tabiat in'omi, hayot manbai deb bejiz aytishmagan. Har tomchi suvni gavhardek qadrlab, bog'-rog'lar yaratishgan. O'qituvchi yosh avlod bilan mazkur yo'sinda ish olib borgan vaqtda bular haqida ham tushuncha va ma'lumotlar berishi maqsadga muvofiqdir.

## Nafosat tarbiyasi

Nafosat tarbiyasi barkamol shaxs tarbiyasining ajralmas tarkibiy qismidir. O'quvchilarda nozik didlilikni, go'zallikni fahmlay va qadrlay olishga o'rgatish nafosat tarbiyasining asosiy masalalaridan biridir.

Nafosat tarbiyasi (*estetik tarbiya*) bu o'quvchilarni voqelikdagi, san'atdagi, tabiatdagi, kishilarning ijtimoiy va mehnat munosabatlaridagi, turmushdagi go'zallikni idrok qilish hamda to'g'ri tushunishga o'rgatish, ularning badiiy didini o'stirish, ularda go'zallikka muhabbat uyg'otish va hayotiga go'zallik olib kirish qobiliyatlarini tarbiyalashdir.

### *Nafosat tarbiyasining vazifalari:*

- *nafosat tarbiyasiga doir bilimlarni shakllantirish;*
- *nafosat madaniyatini tarbiyalash;*
- *madaniy qadriyatlarga ongli munosabat;*
- *faoliyatga estetik munosabat;*
- *nafis his-tuyg'ularni rivojlantirish;*
- *insonni hayot, tabiat, mehnat go'zalliklariga oshno qilish;*
- *nayoti va faoliyatini qurishda go'zallik qonunlariga qirish istagini rivojlantirish;*
- *hayolda, faoliyatda, hatti-harakatda, tashqi ko'rinishda go'zal va yoqimli bo'lish istagini uyg'otishdan iborat.*

Madaniy qadriyatlarga, faoliyatga estetik munosabatni shakllantirish maqsadida tevarak-atrofdan tanlab olingan turmush, tabiat, san'at go'zalligi va bolalarning badiiy faoliyatini tashkil etishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon nafosat tarbiyasining muhim vositalari hisoblanadi. Ba'zi ota-onalar bolalarda did va nafosat o'stirishni yuzaki tushunadilar va o'z bolalarida shu hislatlarni tarbiyalamoqchi bo'lgan vaqtlarida jiddiy xatolarga yo'l qo'yadilar. Chunonchi, bolani sodda va ozoda kiyintirish o'rniga qimmatbaho kiyim va buyumlar olib beradilar va shunday qilish bilan bolaning did va nafosatini buzayotganliklarini

sezmaydilar. Shuni yaxshi bilish kerakki, did va farosat tug`ma bo`lmaydi. U bolalarda yoshlik chog`dan boshlaboq oilada, bog`chada, maktabda, qurshab olgan muhit, kishilar, o`rtoqlari ta`siri ostida, shuningdek, kinofilmlar va turli madaniy muassasalar ta`sirida tarbiyalanadi va kamolotga yeta boradi.

Shuning uchun oila, maktab, maktabdan tashqari muassasalar, “Kamolot” va “Kamalak” tashkilotlari bolalardagi yaramas odatlarni yo`qotishga, ayniqsa, yuqori sinf o`quvchilari orasidagi “stilga” intilish (harakatlari)ga barham berishga, ularda chin insonga xos bo`lgan did va farosatni tarbiyalash va takomillashtirishga alohida e`tibor berishlari kerak. Barkamol shaxsning nafosat tarbiyasidagi zaruriy jihatlardan biri, ularning eng yuksak nafosat tuyg`uga ega bo`lishlari, sodda, ozoda va chiroyli kiyinishlari, san`atni qadrlashlari va ma`naviy jihatdan pok bo`lishlari lozim. Pedagog-tarbiyachilarining birdan-bir vazifasi bolalarga ana shunday hislat va odatlarni singdirish hamda bolalarda did va farosat qanchalik taraqqiy etgan bo`lsa, ularning intizomi ham shuncha yaxshi bo`lishini unutmastikdan iborat. Bolalarda did va farosatni tarbiyalash masalasi bilan faqat oila, bog`cha va maktabgina emas, balki maktabdan tashqari muassasalar va butun jamoatchilik ham shug`ullanishi lozim.

Bolalar o`rtasida “*Madaniy xuliq to`g`risida*”, “*Odob to`g`risida*”, “*Xushmuomalalik to`g`risida*”, “*Muomala odobi*”, “*Kiyinish to`g`risida*” va boshqa shu singari mavzularda tez-tez suhbat, ma`ruza va munozaralar o`tkazib turish kerak.

***Nafosat tarbiyasini berish yo`llari.*** Maktabda nafosat tarbiyasini berish turli yo`llar bilan amalga oshiriladi. Nafosat tarbiyasi ta`lim va tarbiya jarayonlarida amalga oshiriladi.

*Ta`lim jarayonidagi nafosat tarbiyasi.* Maktabning boshlang`ich sinflarida o`qitiladigan har bir fan hamda maktabdan va sinfdan tashqari jarayonda tashkil etiladigan tarbiyaviy tadbirlar, tarbiyaviy soatlar bolalarga nafosat jihatdan ta`sir etish imkonini beradi.

Nafosat tarbiyasi o`qish jarayonida, o`quvchilarga badiiy jihatdan tarbiyalaydigan “*Matematika*”, “*O`qish*”, “*Jismoniy tarbiya*” “*Mehnat darsi*”



fanlarni o'qitish jarayonida, ijtimoiy foydali mehnat jarayonida, turmushni chiroyli qilib tashkil etish va o'quvchilarning bir-birlari bilan bo'ladigan munosabatlarida beriladi.

Matematika darsini aniq uyushtirish, masalalar tuzish uchun badiiy jihatdan chiroyli qilib yasalgan ko'rsatmali quroflardan, masalan, kartondan qilingan daraxt maketining kesik joylariga qog'ozdan yasalgan rang-barang qushlarni qo'yish, darslikda berilgan illyustratsiyalar ustida ishlash o'rganilayotgan fanga qiziqtiribgina qolmay, balki bolalarda nafosat his-tuyg'ularni uyg'otadi va kamolotga yetkazadi. O'qish darslari o'quvchilarda go'zallikni idrok etishni yanada kattaroq ahamiyatga egadir. Darsliklarga kiritilgan badiiy o'qish materiallari o'quvchilar nutqini boyitadi. ularni nutqning tasviriy vositalari: taqqoslash, epigriflar, metaforalar bilan tanishtiradi. tartibli ritmik nutqqa qiziqish uyg'otadi. O'quvchilar she'rlar, hikoyalar, xalq og'zaki ijodi namunalari – maqol, matal, ertak, doston, qo'shiq, rivoyat va hikoyatlarni o'qish orqali ularda go'zallikka intilish kuchayadi. Shoir va yozuvchilarning hayoti va ijodiy faoliyati, asarlari bilan tanishish taxlil qilish orqali o'quvchilarning bilim doirasi kengayadi. his-tuyg'ulari va til boyligii takomillashadi. O'qish darslari o'quvchilarda go'zallikni idrok etishni ta'minlaydi. Boshlang'ich sinflardagi mehnat darsi ham bolalarda nafosat tuyg'usining o'sishiga yordam beradi.

O'quvchilar arralash va kesish, kashta tikish, loydan turli buyumlar yasash malakalarini oltirish paytida chiroyli bezak va shakllarni tanlashga, rangiga qarab ip tanlashga, ishda saranjom-sarishtalikka, sabr-toqatli bo'lishga. eng asosiysi, o'zlarining chiroyli qilib yasalgan buyumlaridan zavqlanishga o'rganadilar.

Mehnat jarayonida tayyorlangan har bir buyum (tovar)ning ahamiyati, funktsiyasi, zaruriligi insonning tabiiy ehtiyojlarini qondirishi jihatidangina emas, balki uning qanchalik go'zalligi bilan ham baholanadi.

Jismoniy tarbiya fani bolalarni aniq va chiroyli harakat qilish, ularda musiqaga jo'r bo'lib ommaviy ravishda jismoniy mashqlarni bajarish vaqtida muvofiqlashtirilgan jamoa harakatlarining chiroyli chiqishini ko'rish va undan quvonish imkonini beradi.

I-IV sinflarning jismoniy tarbiya rejasiga harakatli o'yinlar, musiqa va sanoqqa qarab harakat qilish kiritilgan. Bu o'yin va mashg'ulotlar bolalarda nafosat tuyg'usi va kechinmalarini hosil qiladi.

*Maxsus fanlarni o'qitish jarayonida nafosat tarbiyasi.* Boshlang'ich maktablarning o'quv rejasiga umumiy ma'lumot beradigan fanlardan tashqari nafosat fanlar sikli: rasm, ashula va sinfdan tashqari o'qish kiritilgan.

Bu darslarni o'qitishdan maqsad bolalarda nafosat tuyg'usini uyg'otibgina qolmasdan, balki o'quvchilarga muayyan san'at turining xususiyati va asosi haqida tushuncha berish, ularda ijodiy malaka va ko'nikmalarni, tegishli qobiliyatlarni o'stirishdir.

*Badiiy so'z vositasi bilan nafosat tarbiyasini berish.* Bola o'qishni o'rganmasdan ilgariroq unga badiiy so'z ta'sir eta boshlaydi. U kattalar o'qib beradigan bolalar kitobini, kattalar hikoyasini tinglaydi, maqol va masallarni eshitadi, bolalar yozuvchilarining she'rlarini yod oladi.

Sinfdan tashqari o'qish darsining asosiy vazifasi bolalarni kitobga qiziqtirish, ularning zamondosh yozuvchilarimiz haqidagi bilimlarini kengaytirish, o'qish darsi rejasiga kirmagan asarlarni ham o'qishga qiziqtirishdir.

Sinfdan tashqari o'qish darsiga o'qish texnikasini o'stirish vositasi deb emas, balki bunday dars jarayonida bolalarda kitob o'qishga qiziqish hislarini, nafosat tuyg'ularini uyg'otuvchi vosita deb qarash kerak.

Shuning uchun o'qituvchi sinfdan tashqari o'qish darsida o'quvchilarning odatdagi darslardagiga qaraganda ifodaliroq, o'qishiga ko'proq e'tibor berishi lozim, chunki ta'sirchan va ifodali qilib o'qilgan asarlar kishiga ta'sir etadi.

O'qituvchining o'zi ifodali o'qishda namuna bo'lishi, ya'ni hikoyani ta'sirchan ohangda o'qiy olishi, hikoya qahramonlarining kayfiyati va ularning nutqidagi o'ziga xos xususiyatlarni yetkazib bera olishi, o'qilayotgan narsaga o'z munosabatini bildirishi lozim.

*Tasviriy san'at vositasida nafosat tarbiyasini berish.* Badiiy ishlangan rasm va suratlar o'quvchilarni tevarak-atrofdagi hayot bilan tanishtiradi, tabiatni, insonni va

uning mehnatini sevishga o'rgatadi, o'z imkoniyatiga qarab, go'zalliklar yaratishda ishtirok etish orzusini uyg'otadi.

Agar o'qituvchi rasm darsini xilma-xil metodlar (san'atga oid suhbatlar o'tkazish, bolalar tushuna oladigan badiiy materiallar ko'rgazmasini uyushtirish, rassomlar va san'at arboblari bilan uchrashuvlar o'tkazish) qo'llangani holda qiziqarli olib borsa, bu dars bolalarning sevimli darsiga aylanishi mumkin.

Badiiy materiallar yuzasidan ish olib borilganda bolalarda kuzatuvchanlik o'sadi, ular tasviriy san'at janrlari to'g'risida, ranglarning bir-biriga uyg'unligi to'g'risida, har xil ranglar to'g'risida boshlang'ich tushunchaga ega bo'ladilar, o'tmishdagi va hozirgi zamon atoqli rassomlarining nomlarini bilib oladilar, ularning ijodi bilan tegishli tanishadilar.

*Musiqqa vositasi orqali nafosat tarbiyasini berish.* Musiqqa kishining fikr va tuyg'ularini musiqiy obrazlar yordamida ifodalaydi. Ashula darslarida, xor yoki musiqqa to'garaklariga ishtirok etish o'quvchilarni kuy, ohanglar dunyosiga olib kiradi, ularning tuyg'u va kayfiyatiga ta'sir etadi.

Bolalar ashula darsida, xor to'garagi mashg'ulotlarida nota savodini o'rganadilar, musiqqa terminlari bilan, musiqqa janrlari va cholg'u asboblarning turlari bilan tanishadilar hamda vokal ko'nikma va malakalariga ega bo'ladilar.

Musiqqa ta'sirining kuchayib borishi, musiqqa eshitish uquvining o'sishi, bolalarning musiqqa va ashula sohasidagi bilim doirasining kengayishi o'quvchilarning musiqani o'zlashtirib olish qobiliyatining o'sishiga yordam beradi, ularda musiqqa didini hosil qiladi.

*Raqs san'ati vositasi orqali nafosat tarbiyasini berish.* Raqs san'ati san'atning boshqa turlari kabi bola fikri va tuyg'usini boyitadi, ijrochilarga ham, tomoshabinlarga ham zavq bag'ishlaydi. Raqsni yaxshi ijro etish uchun chaqqonlik, noziklik, maqomni bilish, kuzatuvchanlik, xayol va xotira kerakdir. O'quvchi raqsqa tushayotgan paytida raqsning g'oyasi va kayfiyatini tushunishi, o'zining his-tuyg'ularini raqsda ifodalay bilishi kerak.

Raqs texnikasini egallash uchun ko'pgina kuch va mehnat sarflash, jismoniy jihatdan chiniqqan, chaqqon, epcil bo'lishi, o'z harakatini ongli ravishda kuzata bilish lozim. Raqs san'ati jismoniy tarbiya bilan mustahkam bog'langandir.

Raqs mashg'ulotlari jarayonida ko'pchilik ma'naviy hislar: iroda, qat'iylik, intizom, mehnatsevarlik, o'rtoqlik tuyg'usi va shu kabilar tarbiyalanadi.

Har qanday raqs his-tuyg'u ko'tarinkiligi bilan bog'langan bo'lib, ijrochiga quvonch baxsh etadi, uning butun borlig'ini egallab oladi va unga nafosat jihatdan ta'sir ko'rsatadi.

Boshlang'ich maktab bolalarini raqs vositasi bilan tarbiyalash juda muhimdir, chunki raqs nafosat kechinmalarini vujudga keltirish bilan bir vaqtda shu yoshdagi bolalarning harakatlanishga bo'lgan ehtiyojini qondiradi, ularni maqomga o'rgatadi. bir-biriga moslab qilinadigan jamoa harakatidan quvonish hissini uyg'otadi.

*Tabiatni hissiy idrok etishni tarbiyalash.* Qurshab olgan tabiat go'zallikning tuganmas manbaidir. Gullar, bepoyon dalalar, qor bilan qoplangan tog'larning go'zal ko'rinishlari ko'zni quvontiradi, kishida nafosat kechinmalarini tug'diradi. Kishiga, ayniqsa, o'zi o'sib-ungan joyning tabiati kuchli ta'sir etadi. Biroq o'quvchilarning tabiatni estetik idrok etishlari uchun ularni o'z tevarak-atroflaridagi go'zalliklarni payqashga, qurshab olgan olamning jozibadorligini ko'ra bilishga, yilning har faslidagi go'zalliklarga e'tibor berishga o'rgatish kerak.

O'qituvchi shu maqsadda tabiatga ekskursiya uyishtirishi mumkin. Maktab bolalarda tabiatdan shunchaki zavqlanish hissiga emas, balki dunyoni yanada go'zalroq qilishga, tabiatdan insonga foyda beradigan narsalarni olishga intilish hislarini ham tarbiyalaydi.

Shuning uchun ham bolalarning maktabning tajriba maudonchalarida, polizda, maktabning "Jonli burchagi" da, dalalarda, chorva fermalarida ishlashlari g'oyat muhimdir. Bolalarda tabiatga bo'lgan muhabbatni mustahkamlash va ularni tabiatni ehtiyot qilishga o'rgatish uchun maktabda "*Yosh tabiatshunoslar*", "*Qush do'stlari*", "*Daraxt do'stlari*" va shuning singari to'garaklar tuzish mumkin.

To'garak qatnashchilari daraxtlarni, hayvonlar va parrandalarni zararkunandalardan muhofaza qilishda o'z maktabdoshlariga boshchilik qiladilar

va bu bilan Respublikamizda qabul qilingan “Tabiatni qo`riqlash to`g`risidagi Qonun” ni amalga oshirishga yordam beradilar.

Maktab yoshidagi kichik bolalarda tabiatga muhabbat va nafosat tuyg`ularni tarbiyalashda yozuvchilarning tabiat haqidagi hikoyalaridan. shuningdek, kinofilmlardan, multiplikatsion filmlardan foydalanish kerak.

Bolalar peyzaj va naturmortlarni ko`zdan kechirib, tabiat haqida ashula va she`rlar ijro etib, tabiatni sevib qoladi. ularning nafosat tasavvurlari va hislari o`sadi.

Shuningdek, xalq amaliy san`atini o`rgatuvchi “Kulolchilik”, “Milliy kashtachilik”, “Naqqoshlik”, “Yog`och o`ymakorligi”, “Ganch o`ymakorligi” kabi to`garaklar ham nafosat tarbiyasini amalga oshirishga hizmat qiladi.

#### ***Nafosat tarbiyasiga qo`yiladigan talablar:***

– *nafosat tarbiyasini xilma-xil usullarda amalga oshirish, badiiy materiallarni tushuntirishda o`quvchilarni zeriktirib qo`ymaslik va ularga ortiqcha nasihatgo`ylik qilmaslik;*

– *nafosat tarbiyasini berishda san`at asarlaridan, internet va televideniya foydalanish hamda bolalarni didini buzadigan narsalardan ehtiyot qilish;*

– *nafosat tarbiyasiga doir suhbatlar va boshqa tadbirlarni oldindan ishlab chiqilgan rejaga muvofiq tizimli va rejali o`tkazish hamda bu jarayonda o`quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish;*

– *tabiiyki, o`qituvchi o`quvchilarning nafosat tarbiyasini olishlariga muvaffaqiyatli rahbarlik qilishi uchun o`zi barcha go`zalliklarni sezishi va sevishi, san`atning turli sohada yaratilayotgan barcha yaxshi asarlardan xabardor bo`lishi, bu sohada o`z bilimini kengaytirib borishi, bitta-ikkita badiiy to`garakka rahbarlik qila olish qo`lidan kelishi lozim.*

Yaxshi yo`lga qo`yilgan nafosat tarbiyasi yosh avlodni barkamol shahs qilib tarbiyalashda muvaffaqiyatlarni qo`lga kiritishga yordam beradi.

## **Jismoniy tarbiya**

Barkamol avlodni jismoniy tarbiyasiz tasavvur qilib bo'lmaydi, bu tarbiyaning bosh maqsadi jismonan chiniqqan, mard va sabotli, qat'iyatli va vatanparvarlarni kamol toptirishdir.

Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan 2010-yilni "Barkamol avlod" yili deb e'lon qilinishi bu tarbiyaga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirdi.

Prezidentimiz: "*Farzandlari sog'lom yurt qudratli bo'ladi, qudratli yurtning farzandlari sog'lom bo'ladi*", deb ta'kidlaydi. Yurtboshimiz fikrini davom ettirar ekan, eng avvalo har bir odam o'z sog'ligi haqida qayg'urishi, har bir oila o'zidan sog'lom nasl, sog'lom zurriyot qoldirishni o'ylashi zarurligini ta'kidlaydi.

Jadidshunos olimlar Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitratlar jismoniy salomatlik tarbiya tizimida muhim o'rinni egallashini ta'kidlaydilar.

Fitrat bolalarning jismoniy tarbiyasida turli harakatli o'yinlar katta o'rin tutishini, ota-onalarga o'z bolalarining shunday o'yinlar bilan mashg'ul bo'lishlarini ta'min etishlarini maslahat beradi: "*Harakat har bir kishi uchun, ayniqsa bolalar uchun zarurdir. Shuning uchun bolalarni jismoniy chiniqtirishda ularni ayrim o'yinlar bilan mashg'ul qilish foydalidir. Bolalarni o'yindan m'an etishning foydasi yo'qdir. Ularning doimo bir joyda o'tirishlari, harakat qilmasliklari ularni badanlarini zaif bo'lishga olib keladi. Ota-onalar doim o'z bolalarini o'yinga tashviq va targ'ib qilishlari lozimdir. Ammo bolalarning o'yinlari odob va axloq doirasidan tashqari chiqmasligi kerak*". Fitrat harakatli o'yinlar bolaning aqli, farosati, ilmini rivojlanishiga va to'g'ri axloqiy tarbiya topishiga yordam berishi kerak, deb hisoblaydi. U bu o'yinlar orqali bolaga hayotni o'rgatish, aqliy va axloqiy tarbiya ham berish mumkin, asosiysi bolani jismonan chiniqtirishdir deb biladi.

***Jismoniy tarbiyaning maqsadi – o'quvchilar tanasidagi barcha a'zolarini sog'lom o'sishini ta'minlash barobarida ularni aqliy va jismoniy mehnatga, shuningdek, Vatan mudofaasiga tayyorlashdir.***

***Jismoniy tarbiyaning vazifalari:***

- *sog'liqni mustahkamlash, jismoniy jihatdan to'g'ri rivojlantirish;*

- *aqliy va jismoniy layoqatlilikning oshirish :*
- *tabiatan berilgan harakat sifatlarini rivojlantirish va takomillashtirish;*
- *harakatning yangi turlariga o'rgatish;*
- *asosiy harakat sifatlarini rivojlantirish (kuchlilik, epchillik, chaqqonlik v.h.k.);*
- *sanitar-gigiena ko'nikmalarini shakllantirish;*
- *axloqiy sifatlarni tarbiyalash (mardlik, maqsadlilik, intizomlilik, javobgarlik, jamoada yashash);*
- *jismoniy tarbiya va sport bilan doimiy ravishda shug'ullanish ehtiyojini shakllantirish;*
- *sog'lom, tetik bo'lishga intilishni rivojlantirish asosida o'ziga va atrofidagilarga quvonch ulashish.*

Jismoniy tarbiya kishilarga katta ta'sir ko'rsatib, salomatligini mustahkamlaydi, ishlash qobiliyatini oshiradi. uzoq umr ko'rishga yordam beradi. Sport – har qanday yoshda ham qaddi-qomatni tarbiya qilish. kuch-quvvatni saqlab turishning vositasi hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya tarbiyaning ajralmas qismlaridan biri bo'lib, maktabda tarbiyaning boshqa tomonlari bilan birgalikda amalga oshiriladi. Bu bilan jismoniy tarbiya inson shaxsining har tomonlama kamol topishini ta'minlaydi.

Bolani oilada jismoniy jihatdan tarbiyalash u tug'ilgan kundan boshlanadi. Bu davrda jismoniy tarbiya, asosan, uning to'g'ri o'sishi va sog'lom bo'lishini ta'minlaydigan gigienik talablarga rioya qilishdan, jismoniy jihatdan parvarishlashdan iborat bo'ladi. Jismoniy tarbiya bolaning jismoniy kuchi va kishi psixik faoliyatining moddiy negizi bo'lgan markaziy asab tizimini o'stirish va taraqqiy ettirish bilan birga, uning aqliy qobiliyatlarini to'g'ri o'sishiga ham yordam beradi.

Jismoniy tarbiya axloqiy tarbiya bilan uzviy bog'liqdir. Jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish mardlik. qat'iylik, o'zini tuta bilishlik, matonatlilik kabi axloqiy-irodaviy sifatlarni tarbiyalashga yordam beradi. Harakatli o'yinlar va sport o'yinlari, turli estafetalar bolalar o'rtasida jamoali. o'rtoqlik va do'stlik hissini o'z

oldidagi va sport jamoasi oldidagi burchini, mas'uliyatlilik va talabchanlikni his qilishni tarbiyalaydigan eng yaxshi vositalaridandir.

*Jismoniy madaniyat* jismoniy tarbiyaning tarkibiy qismi bo'lib, unga quyidagilar kiradi:

- *inson a'zolarining tuzilishi va ularning funktsional kamolati;*
- *ichki a'zolar, nerv va harakat, suyak-muskul tuzilishi, badanning uyg'unligi va ularning funktsional faoliyatini boshqarish;*
- *o'quvchilar sog'ligini mustahkamlash;*
- *gigiena qoidalariga ko'nikish;*
- *o'quvchilarni har tomonlama mohirligini o'stirish;*
- *bo'lajak ishchi, mehnatkashlarning jismoniy va fizik sifatlarini, kasb ahamiyati jixatidan shakllantirish, ish qobiliyatlarini oshirish;*
- *o'quvchilarning jismoniy va yosh xususiyatlari uchun sharoit yaratish;*
- *o'quvchilarning iroda, chidamlilik, qat'iyon intizom, do'stlik hissini kamol toptirish;*
- *kasbiy, jismoniy qobiliyatlarini tarbiyalash.*

Jismoniy mashqlar gavdaning yirik muskullari (orqa, yelka kamari, qorin go'shti muskullari) ning o'sishi va mustahkamlanishiga, yurak-qon aylanish tizimi hamda nafas olish jarayonlarining yaxshilanishi va ular faoliyatining normal o'sishiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi.

Organizmning odatdagicha faoliyati butun tana qismlarini qon bilan to'xtovsiz ta'minlab turilishini talab qiladi. Kishi tinch, zo'riqmasdan ishlaganda, mayda qon tomirlarining hammasi harakatga keltirilmaydi, natijada tananing ayrim qismlari qon bilan to'la ta'minlanmay, o'sishdan orqada qolishi mumkin.

Jismoniy mashqlar organizmda qon aylanishi va modda almashinuvining to'g'ri bo'lishini ta'minlab, uni yaxshilanishi uchun imkon beradi.

Jismoniy mashqlar asab tizimining faoliyatiga, xususan bosh miya po'stlog'ining tana harakatlarini boshqaradigan qismlariga ham yaxshi ta'sir



ko'rsatadi. Buning natijasida harakatlarning mosligi, uyg'unligi takomillashadi, harakatlarning aniqligiga, zaruriy kuch va bir maromdaligiga erishiladi.

**Gimnastika.** Gimnastika maktab o'quvchilarini jismoniy jihatdan tarbiyalashning asosiy vositalaridan biridir. Gimnastikaning quyidagi turlari farqlanadi (jadvalga qarang):

<b>Gimnastika turlari</b>		
asosiy gimnastika	sport gimnastikasi	gimnastikaning yordamchi turlari
gigienik gimnastika	akrobatika va badiiy gimnastika	davolash gimnastikasi; dars boshlanishidan oldingi gimnastika.

**Asosiy gimnastika** saflanishlar. barcha muskullarni o'stiradigan mashqlar, yurish, yugurish, sakrash, irg'itish, muvozanat saqlash, tirmashib chiqish va oshib o'tish kabilardan iboratdir. I-II sinflarda gimnastika va harakatli o'yinlar asosiy o'rinni egallaydi. III sinfdan boshlab gimnastikaga akrobatika mashqlari, tayanib sakrashlar, oddiy va aralash osilishlar, yengil atletika mashqlari, harakatli o'yinlar va sport o'yinlariga tayyorlaydigan o'yinlarni mashq qilish kiritiladi.

**Gigienik gimnastika.** O'quvchilarning jismoniy jihatdan to'g'ri o'sishlari uchun kundalik ertalabki gimnastika yoki badantarbiya katta ahamiyatga ega. Kishi sog'lig'ini mustahkamlash, uning kun buyi charchamay, normal ishlash qobiliyatini ta'minlash va unda turmushda zarur bo'ladigan muhim higienik ko'nikmalar hosil qilish – higienik gimnastikaning vazifasidir. Ertalabki gimnastika ochiq havoda yoki derazasi (fortochkasi) ochib qo'yilgan xonada uyqudan turish bilanoq qilinadi. Bu gimnastika barcha muskullarning ishtirok etishini ko'zda tutadigan bir necha mashqlar va suv protsedurasidan iborat bo'ladi. Lanjlik, ta'sirchanlik, betoblik sezilganida, ishtahasizlik va uyqusizlik paydo bo'lganida darhol shifokorga murojaat qilish va gimnastika mashg'ulotini vaqtincha to'xtatish lozim. Bolalarni har kuni ertalabki gimnastika bilan shug'ullanishga odatlantirishda ota-onalar va o'qituvchilarning o'zlari namuna ko'rsatishlari ahamiyatlidir.

**Sport gimnastikasi.** Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga jismoniy tarbiya dasturi asosida umumiy jismoniy tayyorgarlik beriladi. Bu yoshdagi o'quvchilar sport gimnastikasi bilan to'la shug'ullanmaydilar, uning oddiy elementlari bilangina

tanishadilar. Ularning yoshi ulg`aygan sari sport gimnastikasi darsda ham, darsdan tashqi jismoniy tarbiya mashg`ulotlarida ham katta o`rin egallay boshlaydi. Sport gimnastikasi mashg`ulotlarini ehtiyotlik bilan o`tkazish, jismoniy yuklamani bir maromda taqsimlash, o`smir organizmiga ortiqcha zo`riqish berib yuborishiga yo`l qo`ymaslik kerak.

*Davolash gimnastikasi* – maxsus davolash muassasalarida mutaxassis shifokorlar va jismoniy tarbiya sohasida ish olib boruvchi hodimlar rahbarligida o`tkaziladi. Ayrim hollarda, agar maktab shifokori yoki jismoniy tarbiya o`qituvchisining ma`lum tayyorgarligi bo`lsa, davolash gimnastikasini maktabda o`tkazsa ham bo`ladi. Agar maktab shifokori yoki jismoniy tarbiya o`qituvchisi bu maxsus sohani, ya`ni davolash gimnastikasini bilmasalar, uni o`tkazishga urinmasliklari kerak.

*Jismoniy daqiqalar.* Gimnastikaning yuqorida ko`rsatib o`tilgan turlaridan tashqari quyi sinf o`quvchilari bilan o`quv mashg`ulotlari davomida jismoniy daqiqalar o`tkaziladi.

Odatda, jismoniy daqiqalar o`quv kunining ikkinchi yarmidagi darslarda, ya`ni o`quvchilarning charchaganligi o`quv materialining idrok qilinishi va o`zlashtirilishiga ta`sir eta boshlagani sezilganda o`tkaziladi. Charchashlikning oldini olish, markaziy asab tizimiga qisqa dam berish va bolaning harakat qilishga bo`lgan tabiiy istagini qanoatlantirish uchun 2-3 daqiqa davomida bir necha mashq (2-3 mashqni partalar yoniga chiqib turib bajarish) qildiriladi.

Jismoniy daqiqalarni sinf o`qituvchisi bolalar diqqatining susayganini, o`quv materialining o`zlashtirilishi pasayganini yoki o`quvchilarning charchaganligini payqagandan keyin o`tkazadi.

*Sinfdan tashqari ishlar.* O`quvchilarni jismoniy jihatdan tarbiyalash ishlari darslardagina emas, balki sinfdan tashqari vaqtlarda ham olib boriladi. Boshlang`ich maktabda jismoniy tarbiyada sinfdan tashqari mashg`ulotlarning asosiy shakllari: jismoniy tarbiya to`garaklari, jismoniy tarbiya bayramlari, jismoniy tarbiya chiqishlari, musobaqalar, maktabda va maktabdan tashqarida dam olishni uyushtirish (tanaffus vaqtlaridagi o`yinlar, ekskursiyalar, sayrlar)dan iboratdir.

Sinfdan va maktabdan tashqari tashkil etiladigan turli shakldagi ishlar jismoniy tarbiya darslarini mazmunan to'ldirib boradi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida bolalar va o'smirlar sportiga alohida e'tibor qaratilib, mazkur yo'nalish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etildi. Respublikada yoshlarni jismoniy tarbiyalashga qaratilgan *"Sog'lom avlod dasturi"* ishlab chiqildi. Mazkur dastur talablariga muvofiq respublika miqyosida quyidagi uch bosqichli sport musobaqalarining o'tkazilishi yo'lga qo'yildi:

1. Umumiy O'rta ta'lim maktablari o'quvchilar o'rtasidagi *"Umid nihollari"* bellashuvi.
2. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari o'rtasidagi *"Barkamol avlod"* bellashuvi.
3. Oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalar o'rtasidagi *"Universiada"* bellashuvi.

Shuningdek, sportning turli yo'nalishlari bo'yicha joylarda ommaviy sport bayramlari, musobaqalarning tashkil etilishi ommaviy tus oldi.

Jismoniy tarbiya maktabgacha tarbiya muassasalaridan boshlab tizimli ravishda amalga oshiriladi hamda maktabda jismoniy tarbiya asosiy fan sifatida o'tiladi.

### **Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar**

*Sinfdan tashqari ishlar* – maktab o'qituvchilari yoki chetdan taklif qilingan mutaxassislar rahbarligi ostida maktabda darsdan tashqi vaqtda o'quvchilar o'rtasida yo'lga qo'yiladigan va olib boriladigan ta'lim-tarbiya ishlari hisoblanadi.

Maktabdan tashqari ishlar o'quvchilar bilan olib boriladigan, maxsus tashkil etilgan muassasalar tomonidan uyushtiriladigan ta'lim-tarbiya va madaniy ishlardan iboratdir. Bu ishlarni olib borish tartibi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining II bob 17-moddasida "Maktabdan tashqari ta'lim" ni tashkil etish tartibi aniq belgilab berilgan: *"Bolalar va o'smirlarning yakka tartibdagi ehtiyojlarni qondirish, ularning bo'sh vaqti va dam olishini tashkil*

*etish uchun davlat organlari, jamoat birlashmalari, boshqa yuridik va jismoniy shaxslar, madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda maktabdan tashqari ta'lim muassasalarni tashkil etishlari mumkin*". Maktabdan tashqari ta'lim muassasalariga bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, bolalar va o'smirlar sport maktablari, san'at maktablari, musiqa maktablari, kutubxonalar, sog'lomshtirish va boshqa muassasalar kiradi.

O'quvchilar bilan olib boriladigan sinfdan va maktabdan tashqari ishlar ta'lim-tarbiya jarayoning ajralmas tarkibiy qismidir. U darslarda olib boriladigan o'quv-tarbiya ishlarini mustahkamlab, to'ldirib borishi bilan birgalikda o'quvchilarni pedagogik ta'sir ostiga to'la ravishda jalb etishga hamda dars uchun ajratilgan vaqt ichida amalga oshirilishi qiyin bo'lgan yoki butunlay iloji bo'lmagan bir qancha muhim tarbiyaviy vazifalarni hal qilishga yordam beradi.

Qiziqish va intilishlarini darslarda, masalan, matematika darslarida, yetarlicha qondirish mumkin emas. Bu vazifani o'quvchilar bilan ularni qiziqtirgan masalalar bo'yicha darsdan tashqi mashg'ulotlar o'tkazish yo'li bilangina maqsadga muvofiq ravishda hal qilish mumkin.

*Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning mazmuni.* Bunga eng avvalo o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish, kengaytirish, bilimlaridan amaliy va mustaqil ravishda foydalana bilishga o'rgatish, o'quvchilarni ijtimoiy foydali mehnatga tayyorlab borish va shu bilan birga, ularga ijtimoiy-siyosiy tarbiya berish maqsadiga qaratilgan tadbirlarni uyushtirish kiradi. So'ngra o'quvchilarga badiiy tarbiya berish, ularning turli qobiliyat va iste'dodlarini o'stirish, o'quvchilarning sog'lig'ini mustahkamlash, jismoniy kuch-quvvatlarini rivojlantirish ishlari va nihoyat o'quvchilarning madaniy dam olishlarini uyushtirish bilan bog'liq bo'lgan mashg'ulotlar kiradi.

*Sinfdan tashqari ishlarda to'garaklar.* Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar har tomonlama kamol topgan inson tarbiyasining maqsad va vazifalariga muvofiq ravishda hamda o'quvchilarning tashabbuskorligiga tayanish asosida tashkil qilinadi va olib boriladi. Bundan tashqari o'quvchilarning yoshi, ularning qiziqish-havaslari ishning u yoki bu turiga tayyorgarlik darajalari hisobga olinadi.

Buni ayniqsa ishning mazmuni va usulini belgilashda hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar o'quvchilarning kuchiga yarasha va ular uchun qiziqarli bo'lishi kerak. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar "Kamalak", "Kamolot" singari tashkilotlar hamda ota-onalar jamoasi yordamiga olib boriladi.

To'garak ishlarini tashkil qilish sinfdan tashqari ishlarning eng ko'p tarqalgan shakllaridan biridir. To'garak – sinfdan tashqari havaskorlik ishlarining biror turiga umumiy maqsad va intilish bilan birlashgan o'quvchilar jamoasidir.

To'garak, odatda, bir sinf yoki parallel sinflarning yoki bo'lmasa aralash sinflarning 10 tadan 20 tagacha bo'lgan o'quvchilarini o'z ichiga oladi. To'garak a'zolariga haddan tashqari ko'p o'quvchilarni jalb qilishga intilish ma'qul emas, chunki bu to'garak ishini qiyinlashtiradi.

***To'garaklarning quyidagi turlari bor:***

- *fan to'garaklari;*
- *kasb-hunar yo'nalishidagi to'garaklar;*
- *sport to'garaklari;*
- *san'at yo'nalishidagi to'garaklar.*

To'garakka yozilish ixtiyoriy ravishda olib boriladi. Uning birinchi majlisida to'garak a'zolaridan biri to'garakning boshlig'i etib tayinlanadi. Agar to'garak a'zolari ko'p bo'lsa, bunday hollarda, odatda, uch o'quvchidan iborat to'garak byurosi saylanadi. To'garakka maxsus tayinlangan pedagog rahbarlik qiladi.

Har bir to'garak o'zining taxminiy ish rejasiga ega bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Bu rejada to'garakning o'z oldiga qo'ygan vazifalari ko'rsatilgan bo'ladi. Ushbu reja asosida to'garakning kalendar rejasi tuziladi.

To'garakning faoliyati va ish sharoitiga qarab uning reja va ish rejasi o'zgartirilishi mumkin.

To'garaklarning mashg'ulotlari o'qishdan tashqi vaqtda, muntazam ravishda o'tkazilishi lozim. Har bir to'garakning qilgan ishi albatta to'garakning kundalik jurnaliga to'garak boshlig'i yoki uning birona a'zosi tomonidan yozib borilishi

kerak. Fan to'garaklarining vazifasi to'garak a'zolarining ushbu fanga bo'lgan qiziqishlariga tayanib o'quvchilarning bilimi va ongini har tomonlama kengaytirish va chuqurlashtirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini o'stirish, ularni mustaqil ishlashga o'rgatib borish, ularda amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qildirishdan iboratdir.

O'quvchilar bilan olib boriladigan sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni o'qituvchilar jon dillari bilan sevishlari, bu ishga rahbarlik qilishda ishtirok etishni o'zlarining eng muhim vazifalaridan biri deb bilishlari zarur.

Maktabning vazifasi har bir o'qituvchidan faqatgina o'z fani va uni o'qitishni a'lo darajada bilishnigina emas, balki bilimlarni chuqur egallashni, bundan sinfdan tashqari ishlarni maqsadga muvofiq yo'lga qo'yishda ijodiy foydalana bilishni, har tomonlama ma'lumot va mahoratga ega bo'lishni talab qiladi. Bu vazifalarning muvaffaqiyatli hal qilinishiga har taraflama yordam ko'rsatish har bir o'qituvchining oliy burchidir. Sinfdan tashqari ishlar shaklini tanlaganda uning tarbiyaviy ahamiyatini shu ishning maqsadi, vazifalari nuqtayi nazaridan baholash kerak.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Tarbiya tushunchasiga ta'rif bering.
2. Tarbiyada o'quvchilarning yosh va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish qoidasi tarbiyaning qaysi jihatlarini nazarda tutadi?
3. Huquqiy tarbiyaning maqsad va vazifalarini ochib bering.
4. Iqtisodning shakllanishi va rivojlanishi tarixi haqida nimalarni bilasiz?
5. Mehnat tarbiyasining maqsadi va mazmunini yoritib bering.
6. Ekologik tarbiyaning bosh vazifasi nimalardan iborat?
7. Tashqi va ichki go'zallikni siz qanday tushunasiz?
8. Jismoniy tarbiyaning vositalari nimalardan iborat?
9. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari olib boradigan sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarga ta'rif bering.
10. Allomalarning tarbiya haqidagi hikmatli so'zlaridan misollar keltiring.

## IV QISM

### X BOB. MAKTABSHUNOSLIK

#### Ta'lim tizimini boshqarish

Xalq ta'limi tizimi deganda aniq maqsadni ko'zlab mamlakat yoshlariga ta'lim-tarbiya beradigan muassasalar majmui tushuniladi. Har bir mamlakat xalq ta'limi tizimining taraqqiyoti shu mamlakatda ishlab chiqarish kuchlari, ishlab chiqarish munosabatlarining rivojiga va jamiyat taraqqiyotiga ta'sir etadigan ijtimoiy, iqtisodiy masalalarga va milliy xususiyatga bog'liq bo'ladi.

Ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlarining huquqlari doirasiga quyidagilar kiradi:

1. Ta'lim sohasidagi yagona davlat siyosatini ro'yobga chiqarish;
2. Ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish va uslubiy masalalarda ularga rahbarlik qilish;
3. DTS, mutaxassislarning bilim saviyasi va kasb tayyorgarligiga bo'lgan talablarning bajarilishini ta'minlash;
4. O'qitishning ilg'or shakllari va yangi pedagogik texnologiyalarni, ta'limning texnik va axborot vositalarini o'quv jarayoniga joriy etish;
5. O'quv va o'quv uslubiy adabiyotlarni yaratish va nashr etishni tashkil qilish;
6. Ta'lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi va davlat ta'lim muassasalarida eksternet to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash;
7. Davlat oliy ta'lim muassasalarining rektorlarini tayinlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasiga takliflar kiritish;
8. Pedagog xodimlarni tayyorlash, ularning malakasini oshirish, qayta tayyorlashni tashkil etish, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlar. Respublika ta'lim tizimini boshqarishda mahalliy davlat hokimiyati organlari ham ishtirok etadi. Ularning Respublika ta'lim tizimini boshqarishdagi o'rni va roli quyidagilar bilan belgilanadi:

1. Ta'lim muassasalarini tashkil etadilar, qayta tashkil etadilar va tugatadilar (respublika tasarrufida bo'lgan muassasalar bundan mustasno) ularning ustavlarini ro'yxatga oladilar;

2. O'z hududlaridagi ta'lim muassasalarini vakolat doirasida moliyalash miqdorlarini va imtiyozlarini belgilaydilar;

3. Ta'lim sifati va darajasiga, shuningdek, pedagog xodimlarning kasb faoliyatiga bo'lgan davlat talablariga rioya etilishini ta'minlaydilar. Shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq bosh vakolatlarni ham amalga oshiradilar.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasida ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari quyidagilar deb ko'rsatiladi:


1. Ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi.
2. Ta'limning uzluksizligi va izchilligi.
3. Umumiy o'rta, shuningdek o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi.
4. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining yo'nalishi: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi.
5. Ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi.
6. Davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi.
7. Ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalash tirilgan yondashuv.
8. Bilimli bo'lish va iste'dodni rag'batlantirish.
9. Ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvining uyg'unligi.

Mazkur Qonunning 9 moddasiga ko'ra ta'lim tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini;
- ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan ilmiy tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalarni;
- ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari, shuningdek, ularga qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlarni.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 10-moddasiga muvofiq quyidagi turlarda amalga oshiriladi.





**Maktabgacha ta'lim.** Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi.

Bu ta'lim olti-yetti yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'iy nazar boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi. Maktabgacha ta'lim maqsadi va vazifalarini ro'yobga chiqarishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi.

(O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" gi qonunning 11-moddasi)

Maktabgacha tarbiyani rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim bo'ladi:

- malakali tarbiyachi va pedagog kadrlarni ustuvor ravishda tayyorlash;
- maktabgacha ta'limning samarali psixologik-pedagogik uslublarini izlash va joriy etish;
- bolalarni oilada tarbiyalashni tashkiliy, psixologik, pedagogik va uslubiy jihatdan ta'minlash;
- zamonaviy o'quv-uslubiy qo'llanmalar, texnik vositalar, o'yinchoqlar va o'yinlar yaratish hamda ularni ishlab chiqarish;
- maktabgacha yoshdagi bolalarni xalqning boy madaniy-tarixiy merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratish;
- maktabgacha tarbiya muassasalarining har xil turlari uchun turli variantlardagi dasturlarni tanlab olish, maktabgacha tarbiya-ning barcha masalalari bo'yicha malakali konsultatsiya xizmati ko'rsatish imkoniyatini yaratish;

- maktabgacha tarbiya va sog'lomlashtirish muassasalari tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqish.

**Umumiy o'rta ta'lim.** Umumiy o'rta ta'lim bosqichlari quyidagicha:

Boshlang'ich ta'lim (I-IV sinflar);

Umumiy o'rta ta'lim (I-IX sinflar). Boshlang'ich ta'lim umumiy o'rta ta'lim olish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim va ko'nikma asoslarini shakllantirishga qaratilganidir. Maktabning birinchi sinfiga bolalar olti-yetti yoshdan qabul qilinadi. Umumiy o'rta ta'lim bilimlarining zarur hajmini beradi, mustaqil fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantiradi, dastlabki tarzda kasbga yo'naltirishga va ta'limning navbatdagi bosqichini ta'minlashga yordam beradi. Umumiy o'rta ta'limning yangicha tizimi va mazmunini shakllantirish uchun quyidagilar zarur:

- maktabning I—IX sinflari doirasida sifatli umumiy o'rta ta'lim olishni ta'minlovchi davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish, bunda akademik litseylar va kasb-hunar kollejlaridan keyin olinadigan ta'lim dasturlari bilan mantiqiy bog'liqlik hisobga olinishi lozim;
- yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlash;
- hududlarning geografik va demografik xususiyatlariga, shaxs, jamiyat va davlatning ehtiyojlariga muvofiq ravishda ta'lim muassasalari tarmoqlarini rivojlantirish;
- o'quvchilarning qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda ta'limga tabaqalashtirilgan yondashuvni joriy etish;
- ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv-uslubiy majmualarni yaratish va o'quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash;
- o'quvchilarni kasb-hunarga yo'llaydigan va psixologik-pedagogik jihatdan maslahatlar beradigan markazlar tarmoqlarini tashkil etish. Bolalarning qobiliyati, iste'dodini rivojlantirish uchun ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etilishi mumkin.

Umumiy o'рта ta'lim tugallanganidan keyin ta'lim fanlari bo'yicha olingan baholar ko'rsatilgan holda davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi attestat beriladi. (O'zb. Resp. "Ta'lim to'g'risida" gi qonunning 12-moddasi).

*O'рта maxsus, kasb-hunar ta'limi*, o'рта maxsus, kasb-hunar ta'limi olish maqsadida har kim umumiy o'рта ta'lim asosida akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida o'qishning yo'nalishini ixtiyoriy ravishda tanlash huquqiga ega.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari egallangan kasb-hunar bo'yicha ishlash huquqini beradigan hamda bunday ish yoki ta'limni navbatdagi bosqichda davom ettirish uchun asos bo'ladigan o'рта maxsus, kasb-hunar ta'limi beradi. Akademik litsey o'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini jadal o'stirishni, ularning chuqur, tabaqalashtirilgan va kasb-hunarga yo'naltirilgan bilim olishlarini ta'minlaydigan uch yillik o'рта maxsus o'quv yurtidir. Akademik litseylarda o'quvchilar o'zlari tanlab olgan ta'lim yo'nalishi bo'yicha bilim saviyalarini oshirish hamda fanni chuqur o'rganishga qaratilgan maxsus imkoniyatga ega bo'ladilar. Bu ko'nikmalarni, o'qishni muayyan oliy ta'lim muassasalarida davom ettirish yoki mehnat faoliyatida ro'yobga chiqarishlari mumkin. Kasb-hunar kolleji o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, mahorat va malakasini chuqur rivojlantirishni, tanlagan kasblar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisos olishni ta'minlaydigan uch yillik o'рта maxsus kasb-hunar o'quv yurtidir.

Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari ta'lim olish o'quvchilarga o'z bilimlarini chuqurlashtirish va tanlagan ixtisosliklariga ega bo'lishni ta'minlaydi. Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomlar beriladi. Bu diplomlar ta'limning keyigi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki egallagan ixtisosligi bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradi. (O'zb.Resp. "Ta'lim to'g'risida" gi qonunning 13-moddasi).

*Oliy ta'lim*. Oliy ta'lim yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni ta'minlaydi. Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash oliy o'quv yurtlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar va oliy maktabning boshqa ta'lim muassasalarida) o'рта maxsus, kasb-hunar ta'limi asosida amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim ikki bosqichga: davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjatlar bilan dalillanuvchi bakalavriat va magistraturaga ega. Bakalavriat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha puxta bilim beradigan, o'qish muddati kamida to'rt yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir.

Magistratura aniq mutaxassislik bo'yicha bakalavriat negizida kamida ikki yil davom etadigan oliy ta'limdir. Ikki bosqichli oliy ta'lim tizimini tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur:

- bakalavriat va magistratura uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish;
- oliy ta'lim muassasalari uchun professor-o'qituvchi kadrlar tayyorlash, shu jumladan, chet ellardagi yetakchi o'quv va ilmiy markazlarda tayyorlash;
- oliy ta'lim muassasalarida tarkibiy o'zgartishlar o'tkazish;
- oliy ta'lim muassasalari boshqaruvini takomillashtirish, bu muassasalarning mustaqilligini kuchaytirish, muassislar, vasiylar kengashlari, jamoat nazorat kengashlari shaklidagi jamoat boshqaruvini joriy etish;
- ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasi ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;
- o'qishni, mustaqil bilim olishni individuallashtirish hamda distansion ta'lim tizimi texnologiyasi, vositalarini ishlab chiqish va o'zlashtirish;
- yangi pedagogik va axborot texnologiyalari, tayyorgarlikning modul tizimidan foydalangan holda talabalarni o'qitishni jadallashtirish;
- xalqning boy ma'naviy va intellektual merosi va umumba-shariy qadriyatlar asosida ta'limning insonparvarlik yo'nalishini ta'minlash.

Fuqarolar ikkinchi va indan keyingi oliy ma'lumotni shartnoma asosida olishga haqlidirlar. (O'zb. Resp. "Ta'lim to'g'risida" gi qonunning 14-moddasi)

***Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim.*** Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim jamiyatning yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlashga qaratilgandir. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim oliy

o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida (doktorantura, muslaqil tadqiqotchilik) olinishi mumkin.

Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash, ilmiy darajalar va unvonlar berish tartibi qonun hujjalarida belgilanadi. (O'zb.Resp: "Ta'lim to'g'risida" gi qonunning 15-moddasi).

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish tadbirlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- „Ta'lim to'g'risida” gi Qonunga hamda mamlakatni ijtimoiy va iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari ga muvofiq oliy malakali ilmiy pedagog kadrlarni tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish tizimini takomillashtirish;
- kasb ta'limi tizimi uchun oliy malakali ilmiy pedagog kadrlarni hamda ilg'or pedagogik texnologiyalar sohasida ilmiy kadrlarni ustuvor ravishda tayyorlash;
- rivojlangan mamlakatlarning ilg'or ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha oliy malakali ilmiy va ilmiy pedagog kadrlar tayyorlanishi uchun sharoitlar yaratib berish;
- fan, texnologiya va ta'lim sohasida rivojlangan mamlakatlar bilan xalqaro hamkorlikni chuqurlashtirish.

***Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash.*** Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash kasb bilimlari va ko'nikmalarini chuqurlashtirish hamda yangilashni ta'minlaydi. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimini tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagilar zarur:

- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimi faoliyatida yangicha tarkib, mazmun hamda bu tizimni boshqarishni shakllantirish;
- yuqori malakali o'qituvchi-mutaxassis kadrlar tayyorlash va sohani ular bilan to'ldirib borishni ta'minlash;

- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimida raqobatga asoslangan muhitni shakllantirishni va samarali faoliyat olib borishni ta'minlovchi normativ bazasini yaratish;
- kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'lim muassasalarini davlat attestatsiyasi va akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;
- iqtisodiyotning davlat va nodavlat sektorlari, mulkchilikning turli shaklidagi tashkilot va muassasalarning talab-ehhtiyojlariga muvofiq kadrlar va mutaxassislarini ildam qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni ta'minlovchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etish va rivojlantirishga ko'maklashish;
- professional treningning ilg'or texnologiya va uskunalarini, shuningdek, murakkab fan yutuqlarini talab qiluvchi texnologiya jarayonlari imitatorlarini ishlab chiqish, yaratish va amaliy o'zlashtirib olish.

***Maktabdan tashqari ta'lim.*** Bolalar va o'smirlarning yakka tartibdagi ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, jamoat birlashmalari, shuningdek boshqa yuridik va jismoniy shaxslar madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa yo'nalishlarda maktabdan tashqari ta'lim muassasalarini tashkil etishlari mumkin.

Maktabdan tashqari ta'limni rivojlantirish, ularning tuzilmasi va mazmun-mundarijasini takomillashtirish vazifalarini hal etish uchun quyidagilarni amalga oshirish kerak:

- ta'lim berish va kamol toptirishga yo'naltirilgan xizmatlar ko'rsatuvchi muassasalar tarmog'ini kengaytirish va bunday xizmatlar turlarini ko'paytirish;
- milliy pedagogik kadrlarga asoslangan va jahondagi ilg'or tajribani inobatga oluvchi dasturlar va uslubiy materiallar ishlab chiqish;
- o'quvchilarning bo'sh vaqtini tashkil etishning, shu jumladan, ommaviy sport va jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish tadbirlarining, bolalar turizmining, xalq hunarmandchiligining mavjud turlari va shakllarini takomillashtirish, milliy turlari va shakllarini tiklash hamda amaliyotga joriy etish.

Hozir O'zbekiston hududida faoliyat ko'rsatib turgan maktabdan tashqari muassasalar quyidagilar:

- o'quvchilar saroylari va uylari;
- yosh texniklar stansiyalari;
- yosh tabiatshunoslar stansiyasi;
- yosh turistlar stansiyasi va bazalari.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 41-42-moddalarida O'zbekiston fuqarolarining ta'lim sohasidagi huquqlari belgilab berilgan, unga ko'ra: "Har kim bilim olish huquqiga ega. Bepul umumiy ta'lim olish davlat tomonidan kafolatlanadi. Maktab ishlari davlat nazoratidadir" (O'zb.Resp. Konstitutsiyasi 41-modda). "Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qiladi" (O'zb.Resp. Konstitutsiyasi 42-modda). O'zbekistonda ta'lim Respublika ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy, madaniy hayotining eng muhim tarmog'idir.

***Respublikada ta'limning asosiy maqsadi:***

- mustaqilligimizni, istiqbolimizni his eta biladigan, o'zligini anglab yeta oladigan kishilarni tarbiyalash;
- oila, jamiyat va davlat oldida o'z burchini anglaydigan komil insonlarni tarbiyalash;
- axloqan pok va jismonan barkamol, vatanparvar shaxsni tarbiyalash.

***Bu mas'uliyatli vazifani amalga oshirishda:*** umuminsoniy qadriyatlar va milliy madaniyat asoslarini e'tiborda tutgan holda, ta'lim-tarbiya mazmunini milliy mafkura, mustaqil Vatan tuyg'usi asosida takomillashtirish;

- ta'lim samaradorligini oshirish, variantli o'quv mazmunini joriy etish (o'quv reja, dastur, darsliklar);
- o'quvchining yangi avlodini tarbiyalash;
- ta'lim muassasalarini moddiy texnika bilan ta'minlash;
- ta'lim - tarbiyaga texnika yutuqlarini kiritish, hamda bosqichma-bosqich, eski o'zini oqlamagan usullardan voz kechish asosida ish olib borish.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra: "Jinsi, tili, yoshi, irqiy, milliy mansubligi, e'tiqodi, dinga munosabati, ijtimoiy kelib chiqishi, xizmat turi, ijtimoiy mavqei, turar joyi, O'zbekiston Respublikasi hududida qancha vaqt yashayotganligidan qafiy nazar, har kimga bilim olishda teng huquqlar kafolatlanadi". Bilim olish huquqi:

- davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini rivojlanirish;
- ishlab chiqarishdan ajralgan va ajralmagan holda ta'lim olishni tashkil etish;
- ta'lim va kadrlar tayyorlash davlat dasturlari asosida bepul o'qitish, shuningdek ta'lim muassasalarida shartnoma asosida to'lov evaziga kasb-hunar o'rgatish;
- barcha turdagi ta'lim muassasalarining bitiruvchilari keyingi bosqichdagi o'quv yurtlariga kirishda teng huquqlarga ega bo'lishi;
- oilada yoki o'zi mustaqil ravishda bilim olgan fuqarolarga attestatsiyadan o'tgan ta'lim muassasalarida eksternat tartibida attestatsiyadan o'tish huquqini berish orqali ta'minlanad

### **Maktab ishini boshqarish va unga rahbarlik qilish**

O'quv-tarbiya ishlariga rahbarlik. Prezident I.A.Karimov rahbar ma'suliyati xususida shunday yozadi: *"Ayniqsa, zamonning yurishi, o'zgarishi bilan avvalo rahbarlar, yetakchilar o'zgarishi kerak. Biz XXI asr – intellektual taraqqiyot asri, deb ko'p gapiramiz. Modomiki, shunday ekan, bugungi kunda rahbar nafaqat aniq bir kasb-hunarning egasi avvalo, o'zining faoliyati va insoniyligi bilan xalqning ishonchiga munosib bo'lishi yuksak intellektual tafakkur sohibi, uzoqni ko'ra oladigan, doimo yangilikka intilib, zamon bilan hamqadam bo'lib yashaydigan qattiyatli shaxs bo'lishi lozim"*.

Ta'lim muassasasi uning rahbari (direktor yoki rektor) tomonidan boshqariladi. Ta'lim muassasasi direktori o'quvchilarni ma'naviy barkamol, jismonan sog'lom bo'lislari, fan asoslarini puxta o'zlashtirishlari, umumiy ta'lim muassasasining bugun faoliyati uchun javobgar shaxs sanaladi.



Tashkilotchi oliy ma'lumotli, kamida 3 yillik pedagog ish stajiga ega bo'lgan eng yaxshi o'qituvchi tuman xalq bo'limi tavsiyasiga binoan viloyat xalq ta'limi (Toshkent shahrida shahar xalq ta'limi) bo'limi tomonidan direktor tayinlanadi.

Bir maktabdan ikkinchi maktabga ko'chiriladi, ishdan bo'shatiladi. Viloyat xalq ta'limi bo'limi bu haqida O'zbekiston Respublikasi XTB ga ma'lum qiladi.

Maktab direktori ta'lim muassasasi boshqaruvni zamonaviy usullarda tashkil etishi zarur. Bu esa ilg'or tajribalarni va fan texnika yutuqlarini muntazam o'rganib o'z faoliyatiga tatbiq etib borishni, kasbiy faoliyatiga ijodiy yondoshuvni talab qiladi.

Xalqimizda rahbar kadrlar va ularga xos xususiyatlarga sharqona yondashuvning boy tarixiy-madaniy an'analari mavjud. Abu Nasr Forobiy rahbar tabiatan nozik, farosatli bo'lib, umumiy ahvol qandayligini ravshan tasavvur qila olishi; voqyea-hodisalarni xotirasida to'la-to'kis saqlab qoladigan; zehni o'tkir zukko, o'z fikrini chiroyli so'zlar bilan ifodalaydigan, ravshan tushuntira oladigan; talim olishga, bilim va ma'rifatga havasli bo'lib, uning mashaqqatlaridan haq va haqiqatni, odil va haqiqiy odamlarni sevadigan, yolg'on va yolg'onchilarni yomon ko'radigan; o'z qadrini bilvchi, oriyatli; tabiatan adolatparvar va o'zi zarur deb hisoblaganda chora-tadbirlarni amalga oshirishda qat'iyatli, sabotli, jur'atli kabi insoniy hislatlarga ega bo'lishi kerakligini ta'kidlab o'tilgan. Zamonaviy maktab faoliyatini tashkil etish va boshqarishda ta'lim muassasasi barcha xodimlarini o'z mehnat faoliyati natijalaridan birdek qoniqish hosil qilishlari jamoadagi to'g'ri mehnat taqsimoti, xodimlarni o'z vazifalariga nisbatan ma'suliyat hissining shakllanishi o'quv jarayonini hozirgi zamon talablari darajasida ilmiy asosda tashkil etish samaradorligi ko'p jihatdan ta'lim muassasasi rahbarlarining funksional vazifalarini qay darajada tushunib yetish va amalga oshirishga bog'liq bo'ladi. Rahbar xodim ta'lim muassasasidagi mavjud munosabatlar, o'quvchilarning jismoniy, ruhiy va intellektual rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, ya'ni o'qituvchilar bilan o'quvchilar, ota-onalar bilan ta'lim muassasasi hamda o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlardan yaxshi xabardor bo'lishi lozim. Jarayonda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy xolatlarni o'z vaqtida aniqlash hamda unga

ta'sir ko'rsatishning eng maqbul yo'llarini belgilash, ta'lim tarbiya jarayonining holati to'g'risida ishonchli axborotlar to'plash, qayta ishlash va ob'ektiv baholash muhim ahamiyatga ega.

**Rahbarning ta'lim muassasasidagi vazifalari asosan quyidagilardan iborat:** o'quv muassasasining pedagogik jamoasiga rahbarlik qilish, kadrlarni to'g'ri tanlash, joy-joyiga qo'yish, xodimlarning ijtimoiy-g'oyaviy saviyasini, malakasini oshirish uchun zarur shart-sharoitni yaratish. o'quvchilar bilimi va tarbiyasi sifatli bo'lishini ta'minlash, sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning tashkil etilishiga rahbarlik qilish va tegishli nazorat o'rnatish.

O'quvchilarning to'g'ri kasb tanlashini ta'minlashni yo'lga qo'yish, ota-onalar va jamoatchilik bilan olib boriladigan ishlarni tashkil etish. Maktabda ichki intizom. sanitariya gigiena, mehnatni muhofaza qilish, umumiy tartib va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya etishni ta'minlash va hokazolar.

Maktab direktori o'qituvchi yoki yordamchi xodimlarni ishga qabul qiladi va ishdan bo'shatadi, xodimlar va o'qituvchilarni rag'batlantiradi, shuningdek, ayrim holatlarda ularni jazolaydi, alohida o'rnak ko'rsatgan o'qituvchi va xodimlarni davlat mukofotlariga tavsiya etadi. Rahbar muayyan masalalarni hal etishda pedagogik jamoa fikr-mulohazalarini inobatga oladi.

Ta'lim muassasasi faoliyati yuzasidan tegishli masalalarni hal qiladi, davlat oldida javob beradi. Ta'lim muassasasi faoliyatini tashkil etishda rahbarga o'quv hamda tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarlari ko'maklashadilar.

**O'quv ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari** ta'lim muassasasining o'quv ishlari bo'yicha mas'ul shaxsdir. U o'quv ishlariga bevosita rahbarlik qiladi.

Oliy ma'lumotli, kamida uch yillik pedagogik stajga ega bo'lgan eng yaxshi o'qituvchilargina mazkur lavozimda ishlashlari mumkin. Uning nomzodini ta'lim muassasasi rahbari tavsiya etadi, tuman, (shahar) xalq ta'limi bo'limi tasdiqlaydi. O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari maktabdagi ta'lim jarayonining to'g'ri tashkil etilishi, o'quv dasturlari talablarining bajarilishi, dars mashg'ulotlarning to'g'ri tashkil etilishi hamda o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishlari uchun javobgar bo'lib, ta'lim ishini yo'lga qo'yilishi o'quvchilar bilim darajasining o'sishi

ustidan nazorat olib boradi. O'qituvchilarga metodik yo'l-yo'riq ko'rsatadi, ta'lim ishining uyushtirilishini rejalashtiradi. metod birlashmalarning ishiga rahbarlik qiladi.

***Ma'naviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarlari*** ta'lim muassasalarining tarbiyaviy ishlarga bevosita rahbarlik qiluvchi mas'ul shaxsdir. Oliy ma'lumotli, kamida uch yillik pedagogik stajga ega bo'lgan eng yaxshi o'qituvchilargina mazkur lavozimda ishlashlari mumkin. Uning nomzodini ta'lim muassasasi rahbari tavsiya etadi, tuman, (shahar) xalq ta'limi bo'limi tomonidan tasdiqlanadi.

Ma'naviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari ta'lim muassasasida tarbiyaviy jarayonning to'g'ri tashkil etilishini, tarbiyaviy ishlarning yillik rejasini ishlab chiqarish va uning bajarilishi ustidan nazorat o'rnatish, ichki tartib qoidalariga rioya etilishini ta'minlash, o'quvchi va xodimlarning ma'naviy qiyofasini shakllantirish. ularning xulq-atvorlari ustidan nazoratni tashkil etish kabi ishlarni olib boradi.

***Xo'jalik ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari*** ta'lim muassasasining xo'jalik-moliyaviy ishlarini yuritish ishiga mas'ul sanalgan shaxsdir. Ushbu lavozimga nomzodni ta'lim muassasasi rahbari tavsiya etadi va tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limi tasdiqlaydi. Uning asosiy vazifasi moliyaviy mablag' bilan o'quv muassasasining ta'minlanishi, qo'shimcha daromad manbaalarini yaratish borasidagi takliflar bilan chiqish, ta'lim muassasasining o'quv jihozlar bilan ta'minlanishi, binoning joriy hamda to'la ta'mirlanishiga erishish kabi masalalarni hal etishdan iboratdir.

***Maktab direktorining funksional vazifalari.*** Maktab direktori ta'lim muassasasining asosiy maqsadi bo'lgan ta'lim-tarbiya ishini tashkil etish rivojlantirishda o'ziga xos bo'lgan axborot-taxlil, maqsadli-motivlashtirish, oldindan ko'rish, rejalashtirish, tashkiliy-ijrochilik, nazorat-tashxis va tartibga solish, muvofiqlashtirish funksiyalarini tizimli va to'g'ri amalga oshirishi zarur.

***Axborot- taxlil funksiyasi*** boshqaruvda alohida ahamiyatga ega bo'lib, axborotlarni olish va taxlil qilish nazarda tutiladi. Bundan ko'zlangan birinchi maqsad - pedagogik tizimlar to'g'risida muntazam ravishda axborotlar to'plab borish, ularni chuqur o'rganish hamda ob'ektiv baholashdan iborat.

Olingan xulosalar asosida boshqaruv faoliyatining strategiyasi, rivojlanish omillarini aniqlash, chora-tadbirlarini belgilash, ularning bajarilishini tashkil etish va nazorat qilib borishni yo'lga qo'yish lozim. Bunda axborotlar ishonchli, yangi bo'lishi zarur.

*Maqsadli – motivlashtirish funksiyasi* amalga oshirishda, avvalo, ta'lim muassasasi oldiga qo'yilgan maqsad umumiy ekanligini hamda mavjud shart – sharoitlar va vaziyatlarni hisobga olish zarur.

Shuningdek, vazifalarni taqsimlashda maqsadlarning birligini saqlash, topshiriqlarning bajaruvchilar tomonidan o'z vaqtida va samarali bajarilishi uchun maqsadni belgilash jarayoniga ularni ham jalb etish, kutilayotgan natija yuzasidan oldindan tushunchaga ega bo'lish. topshiriqlar taxlil qilinib ularning bajarilish muddatini aniq belgilash zarur.

Bunda motivlarning xususiyatlarini hisobga olish, ya'ni ularning qaysi biri boshqaruv faoliyatini to'g'ri yo'naltirishga, qaysilari samarali harakatlar rejasini tuzishga imkoniyat yaratishini bilish o'ziga xos ahamiyatga ega.

*Oldindan ko'ra bilish – rejalashtirish funksiyasi* tashkiliy shakllar, usullar bo'lib, ta'sir etuvchi vositalarni aniqlaydi, nazoratning me'yori va natijalarini baholashga xizmat qiladi. Shuningdek, pedagogik tizim va uning ishtirokchilari faoliyatini muvofiqlashtirish, tartibga solishga imkoniyat yaratadi. Demak, rahbar tomonidan ta'lim muassasasining holatini, erishgan natijalarini, rivojlanish imkoniyatlari va dinamikasini aniqlash, jamoadagi ruhiy muhit, o'zaro munosabat va ehtiyojlarni o'rganish hamda barcha uchun qulay bo'lgan o'zaro ta'sir jarayonini vujudga keltirish strategiyasini belgilash oldindan ko'rish-rejalashtirish funksiyasining asosini tashkil etadi.

*Tashkiliy – ijrochilik funksiyasi* boshqaruv faoliyatining barcha yo'nalishlarida o'z ifodasini topadi. Bu funksiyaning mohiyati kadrlarni tanlash, ularni joyiga qo'yish, ijrochilarning o'zaro ta'sir etish tizimini shakllantirish, axborotlar to'plash va ularga ishlov berish bilan bog'liq. Bu faoliyat natijasida ma'lum bir pedagogik boshqaruvga xos tarkibiy tizim vujudga keladi. Uni samarali amalga oshirish o'zaro ishonch va yordam, har kimga tanlash huquqini berish, faqat maqsadni emas, balki

unga erishish mezonlarini ham belgilash, xodimlarning kasbiy imkoniyatlari va qobiliyatlarini to'la namoyon etish uchun sharoitlar yaratish, tashabbuskorlikni rag'batlantirish va har bir xodimning mehnatini obektiv baholash bilan bog'liq bo'lib, jamoada sog'lom ijtimoiy-psixologik muhitning vujudga kelishida o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

*Nazorat - tashxis funksiyasi.* Nazorat boshqaruv jarayonida amalga oshiriladigan barcha funksiyalar bilan bog'liq bo'ladi. Pedagogik tizimni boshqarish jarayonida ko'zlangan yo'nalishdan ma'lum bir ma'noda og'ishlar ham vujudga kelishi mumkin. Aynan shunday vaziyatlarda yo'l qo'yilayotgan xatolarning sababini o'z vaqtida aniqlash va tuzatish usullarini belgilashda nazoratning o'rni muhim.

*Tartibga solish-muvofiqlashtirish funksiyasi* pedagogik tizimning holatini zaruriy, belgilangan darajada ushlab turish, uni yangi sifat darajasiga ko'tarish va pedagogik jarayonda yo'l qo'yilayotgan xatolarni tuzatish hamda ishtirokchilarning xatti-harakatlarini tartibga solish uchun xizmat qiladi. Mazkur funksiya yordamida pedagogik tizim sub'ektlarning faoliyati o'zoro muvofiqlashtiriladi. O'z navbatida muvofiqlashtirish pedagogik tizimining harakat yo'nalishi bilan birga barcha bo'g'inlarning o'zoro uyg'unlashuvida yuqori darajadagi tezkorlikni talab etadi.

Maktab rahbari boshqaruvda pedagogik jamoaning ilmiy –pedagogik faoliyati maqsadlarini aniqlaydi va shakllantiradi, rejalashtiradi, rag'batlantirish vositalari va usullarini belgilaydi, shu jarayonlarni nazorat qilib boradi. Jumladan yosh pedagogning o'zi tanlagan kasbiga mehr qo'yishi, o'qituvchilik kasbining sirlarini mukammal o'rganishi va unda o'z kelajagiga nisbatan ishonch tuyg'ulari rivojlanishida ham maktab direktori katta ta'sir kuchiga ega shaxs hisoblanadi. Maktab direktori yosh o'qituvchilarning darslarini kuzatishi, taxlil qilishi, zaruriy ko'rsatmalar berishi zarur.

***Darslarni taxminan quyidagisha taxlil qilish mumkin:***

- *dars haqida umumiy ma'lumot: sinf, fan, mavzu, o'qituvchi ma'lumoti va ish faoliyati;*

- darsning maqsad va vazifalari, tuzilishi, darsni rejalashtirilishi, vaqtdan foydalanish, sinfning sanitariya-gigiena sharoiti;
- darsning mazmuni, berilayotgan materialning dasturga mosligi, ilmiyligi, bolalar yoshiga muvofiqligi, hayot bilan bog'liqligi, yangi pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish tartibi, mavzu mazmunining tarbiyaviy xarakteri;
- dars o'tish usuli, yangi dars materialining o'tgan mavzuga qanday bog'lanishi, takrorlash va bolalar bilimni baholash, ko'rsatmali materiallardan foydalanish, o'quvchilarning mustaqil ishlari, uy vazifasining berilishi;
- o'quvchilarning darsdagi diqqati, qiziqishi, faolligi, ishtiyogi, intizomi;
- o'quvchining xulqi, o'qituvchining o'quvchilar bilan muomalasi, sinfni boshqara olishi, nutq madaniyati, tashqi qiyofasi, shu sinf o'quvchilari o'rtasida uning obro'si;
- darsning natijasi;
- darsning ijobiy va salbiy tomonlari.

**Maktab direktori rahbarlik vazifasini bajarishda:**

1. Ma'naviy-ma'rifiy, siyosiy yetuklik, davlat va ta'lim siyosatini to'g'ri tushunish va talqin qilishi;
2. Direktorlik lavozimiga zarur bo'lgan tajriba, bilim, ko'nikma, malakaga ega bo'lishi;
3. Ta'lim tizimi va o'quv muassasasi o'qituvchilari, xodimlari, o'quvchilar faoliyatini oldindan seza bilishi, shunga qarab chora tadbirlarni belgilashi;
4. Axloqlik va tarbiyalanganligi obro'-e'tibori, rostgo'ylik, adolatlilik, kamtarlik, kamtarinlik, barcha kamchiliklarga murosasiz bo'lishi;
5. So'zi bilan ishi birligi- ishchanlik va uddaburonlik;
6. Inson psixologiyasini bilishi- aniq bir maqsadga yo'naltirilganlik, har tomonlama rivojlangan psixologik muhit o'rnatishga intilishga erisha olishi;
7. Ta'lim muassasasining barcha rahbariyati-pedagogik xodimlarning vazifalarini to'g'ri taqsimlay olish ularning natijalarini xolisona baholashi;
8. Ta'lim muassasalari pedagogik xodimlari va o'quvchilar bilan samimiy munosabatda bo'lish, mumkin qadar qulay sharoit yarata olishi;

9. *O'z mehnat faoliyatini to'g'ri tashkil eta olish*, o'quv tarbiyaviy jarayonini samarali bo'lishiga imkoniyat yaratish;

10. *Pedagog- o'qituvchilar, xodimlari, o'quvchilarning sog'lom bo'lishlari*, ishchanlik holatlarini saqlashi. ularning kundalik ehtiyojlarini qondirishga bo'lgan sharoitni yaratish, zarur moddiy hamda ma'naviy yordam berishning imkoniyatlarini tanlay bilishi zarur.

Rahbarlik amal kursisi emas, kasbdir. Direktorning rahbarlik tushunchasini quyidagicha ifodalash mumkin. Rahbarlik – bu:

*Yo'naltirish* – pedagogik va o'quvchilar jamoasini milliy istiqloq mafkurasining asosiy g'oyalari, tamoyillari asosida faoliyat ko'rsatishga yo'naltirish;

*Vazifa qo'yish*- “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun, shuningdek, shu kabi rasmiy xujjatlar asosida pedagog va o'quvchilar jamoasi oldiga shaxs va jamoani tarbiyalash bo'yicha vazifa qo'yadi;

*O'rganish* - Pedagogik jamoani ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish uchun aniq maqsad qo'yish va kerakli metod, shakllari topishga o'rganish;

*Yordam berish*- jamoada mehnat faoliyati va ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etish va faoilashtirishga yordam beradi;

*Qo'llash*- pedagogik va o'quvchilar jamoasi , o'qituvchi o'quvchilar tashabbusini qo'llab – quvvatlash va rag'batlantirish;

*Maslahat berish* - jamoaga o'z imkoniyatlarini to'liq ishlatishlari uchun kerakli amaliy uslubiy maslahatlar berish;

*Kuzatish*- kattalar va bolalar jamoasining saviyasi, axloqiy va madaniy – ma'rifiy o'sishini takomillashtirib borishini kuzatish va o'rgatish;

*Tartibga solish*- jamoaning ishga bo'lgan va o'zaro munosabatlarini, jamoa a'zolarining mehnat faoliyatlarini ijobiy salbiy tomonlarini tartibga solish;

*Ko'rsatma berish*- jamoaga mehnat faoliyatlarini tashkil etishlariga kerakli ko'rsatma berish;

*Nazorat qilish*- pedagogik xodimlar va o'quvchilar faoliyatlari natijalarini muntazam nazorat qilib berish.

**Boshqaruvning quyidagi turlari farqlanadi:**

1. *Avtoritar*: ya'ni yakka xokimlik usulida barcha ishlarni o'zi hal etishga harakat qilishi "Men"ni yuqori qo'yish;

2. *Demokratik*: ya'ni pedagogik jamoa va o'quvchilar bilan hamkorlikda fikrlashib ish olib borish;

3. *Liberal*: ya'ni o'z ishiga, vazifalariga e'tiborsizlik bilan qarash, mas'uliyatni sezmaslik.


SHAKL	MAZMUNI
<b>AVTORITAR USLUB</b>	
Qisqa ish farmoyishlari; Po'pisali ta'qiqqlar; Qo'l ostidagilar bilan sovuqqon muomala; Maqto'v va tanbeh sub'ektiv; Rahbarning o'rni-guruhdan tashqarida, undan yuqorida.	Guruh ishlari rahbar tomonidan oldin rejalashtiriladi; Qarorlar o'zboshimchalik bilan qabul qilinadi; Rahbarning so'zi - qat'iy; Faqat bevosita maqsadlar qabul qilinadi, istiqbol noma'lum.
<b>DEMOKRATIK USLUB</b>	
Qo'llanmalar taklif sifatida beriladi; O'rtoqlik, muomala, xodimlarga hurmatli va e'tiborli munosabat; Farmoyishlar va ta'qiqilar munozaralar asosida bo'ladi; Maqto'v va tanbehlar-maslahat bilan; Rahbarning o'rni – guruh ichida.	Tadbirlar yakka emas, guruh bilan rejalashtiriladi; Qarorlar kollegial muhokama qilinadi; Taklifni bajarilishida hamma javobgar (rahbar ham, xodimlar ham).
<b>LIBERAL USLUB</b>	
Maqto'v va tanbehlar yo'q; Jamoa ishlarida rahbar umuman chetlashgan; Hech qanday hamkorlik yo'q.	Ishlar guruhda o'z-o'zidan boradi; Rahbar topshiriqlar bermaydi; Kichik guruhlar liderlarning ayrim manfaatlari hisobiga ish qisman bajariladi.

### **Maktab pedagogik jamoasi**

*Maktab pedagogik kengashi.* Pedagogik kengash maktab direktori huzuridagi maslahat kengashi bo'lib, uning qarorlari o'qituvchilar jamoasining yagona va umumiy fikrini aks ettiradi. Shuning uchun uning ta'sir kuchi katta. Pedagogik kengash qabul qilgan qarorlar maktab uchun ham, direktor uchun ham majburiy hisoblanadi. Chunonchi, ta'lim-tarbiya ishlarining holati, yutuq va kamchiliklari.



o'qituvchi-xodimlarni davlat mukofotlariga tavsiya etish, (maktablarda o'quvchilarni sinfdan sinfga ko'chirish) o'quvchini haydash kabi masalalar pedagogik ilmiy kengashda hal qilinadi, pedagogik kengash ilmiy yig'ilishlarida respublika hukumati qarorlari. Prezident farmonlari, yuqori organlarning ko'rsatmalari masalan, XTV va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklarining amalga oshirishga doir tadbirlarni belgilash, ta'lim jarayonini amalga oshirish, ta'lim-tarbiya ishlarini yaxshilash, innovatsion va axborotli texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish, ilg'or ish tajribalarini ommalashtirish, oila, jamoatchilik bilan ta'lim muassasasi o'rtasidagi hamkorlikni yuzaga keltirish uni mustahkamlash va hokazo masalalar ko'rib chiqiladi. Kengashning har bir a'zosi ta'lim-tarbiya ishiga oid masalani o'z tashabbusi bilan Kengash yig'ilishi muhokamasiga olib chiqish huquqiga ega. Kengash qarori ta'lim muassasasi rahbari tomonidan tasdiqlanganidan so'ng kuchga kiradi va jamoaning har bir a'zosi uchun majburiy hisoblanadi. Pedagogik kengashga - maktab direktori (rais), o'quy ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari, maktabdagi barcha o'qituvchilar, kutubxona mudiri, maktab shifokori, ota-onalar kengashining raisi a'zo bo'lib kiradilar (jadvalga qarang).



***Pedagogik kengash ishini rejalashtirish va tashkil etish quyidagilarni o'z ichiga oladi:***

- *Pedagogik kengash ishini bir yilga rejalashtirish;*
- *Har bir pedagogik kengash ishiga avvaldan tayyorgarlik ko'rish;*
- *Pedagogik kengashni reja asosida o'tkazish;*
- *Pedagogik kengash qarorlarini bajarish.*

***Pedagogik kengash ishinining vazifalari:***

- *Ijodiy faoliyat yurituvchi jamoani shakllantirish;*
- *Metodik ishlarni takomillashtirish;*
- *Har bir darsning yuqori natijali bo'lishiga erishish;*
- *O'qitish ishlarini sifali bo'lishini ta'minlash;*
- *Iqtidorli bolalarni aniqlash, ularning iqtidorini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratish;*
- *"Tarbiyasi og'ir" bolalar bilan olib boriladigan ishlarni takomillashtirish;*
- *O'quvchilarning jipslashgan jamoasini shakllantirish;*
- *Maktabning barcha yo'nalishlari bo'yicha ish rejalarini tasdiqlash, uning bajarilishini muhokama qilish;*
- *Turli yo'nalishdagi to'garaklarni tashkil etish haqidagi qarorlarni qabul qilish;*
- *O'quvchilarning sog'ligini, maktabning sanitar-gigienik hamda psixologik-valeologik holatini nazorat qilish.*

Pedagogik kengashning qarorlari maktabning ish tajribasiga, rahbar tashkilotlarning ko'rsatmalariga va pedagogika fanining yutuqlariga asoslangan bo'lishi kerak. Pedagogik kengashning qarorlari maxsus daftarga yozib boriladi, rasmiylashtiriladi, bajarilishi kuzatiladi va nazorat qilinadi, natijasi navbatdagi yig'ilishda kengash a'zolariga xabar qilinadi. Qarorlar daftari maktabning muhim hujjati bo'lgani uchun uni yuritishga alohida e'tibor beriladi.

***Ta'lim muassasalarining muhim hujjatlari sirasiga:***

1. *O'quvchilarning alfavit asosidagi ro'yxati.*
2. *O'quvchilarning kasbiy ishlari.*
3. *Sinfjurnallari.*
4. *Fakultativ mashg'ulotlar jurnali.*
5. *Kuni uzaytirilgan guruhlar jurnali.*
6. *To'liqsiz o'rta ma'lumot haqidagi shahodatnoma berish qayd daftari.*
7. *Maktab pedagogik kengashi qarorlari kitobi.*

8. *Buyruqlar daftari.*

9. *Pedagogik xodimlarni hisobga olish daftari kiradi.*

***Maktabda ish yuritish hujjatlari quyidagi tartibda joylashtiriladi:***

1. *Rahbar organlarining ko'rsatmalari.*

2. *Tashkiliy masalalarga oid hujjatlar.*

3. *O'quv masalalariga oid hujjatlar.*

4. *Tarbiyaviy masalalarga oid hujjatlar.*

5. *Kadrlarga oid hujjatlar.*

6. *Jamoatchilik bilan olib boriladigan hamkorlik, ta'lim muassasalarining ommaviy ishlariga oid hujjatlar.*

7. *Moliya, xo'jalik ishlariga moddiy ta'minot va ta'mirlash ishlariga oid hujjatlar.*

8. *Ta'lim muassasasidan yuborilgan va unga kelgan hujjatlar qayd etiladigan daftar va boshqalar.*

***Pedagoglar va sinf rahbarlarining hujjatlariga esa quyidagilar kiradi:***

1. *Dars rejasi.*

2. *Tarbiyaviy ish rejasi.*

3. *Tematik ish reja.*

Mazkur hujjatlarning yuritilishi ta'lim muassasasi faoliyatiga to'la baho berish, mavjud kamchilklarni aniqlash imkonini beradi.

***Maktabning ota-onalar bilan olib boradigan ishlari.*** Hamkorlik ishlarini maktabda ota-onalar bilan suhbatlar, majlislar, maslahatlar o'tkazish, ota-onalar kengashi shakllarida amalga oshirish mumkin.

***Ota-onalar bilan individual suhbatlar o'tkazish.*** Bola maktabga kirib, to uni tamomlab chiqqunga qadar ota-ona maktab bilan yaqindan aloqada bo'lishi, o'z bolasining xulq-atvoridan, o'qishidan doimo xabardor bo'lib turishi, bola tarbiyasiga doir masalalarni o'qituvchi bilan maslahatlashib hal qilishi, maktabdan tashqarida bolaning nima bilan mashg'ul bo'lishidan o'qituvchini xabardor qilib turishi lozim.

*Ota-onalar majlisi.* Sinf va umummaktab ota-onalar majlisi maktab bilan oila o'rtasida aloqa bog'lashda katta rol o'ynaydi. Bunday majlislarning tematikasi ota-onalarni qiziqtiradigan, ularning talablarini qondiradigan bo'lishi kerak.

*Ota-onalar uchun maslahatlarlar o'tkazish.* Maktab ma'muriyati o'quvchilarning ota-onalari bilan yaqindan aloqada bo'lish va ularni ta'lim-tarbiyaviy bilimlar bilan qurollantirib turish maqsadida ota-onalar uchun maslahatlar o'tkazadi.

*Ota-onalar kengashi.* O'quvchilarning ota-onalari bilan yaqindan aloqada bo'lish va ularga to'g'ri rahbarlik qilish maqsadida maktablarda ota-onalar kengashi tashkil etiladi. Ota-onalar kengashiga asosan, maktab direktori rahbarlik qiladi.

Maktab direktori ota-onalar kengashining ishini yaxshi yo'lga qo'ysa, u kengash maktabning barcha ishida katta yordam beradi.

Ota-onalar kengashining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilar bilan olib boriladigan sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni keng yo'lga qo'yishda maktabga yordam berishdir.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Xalq ta'limi tizimi deganda nimalarni tushunasiz?. Xalq ta'limi tizimida boshlang'ich ta'limning tutgan o'rni haqida so'zlab bering.
2. O'zbekiston Respublikasining „Ta'lim to'g'risi“ dagi Qonunining mazmunini ifodalang.
3. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplarini aytib bering.
4. Maktab direktorining funksional vazifalarini sanab o'ting.
5. Pedagoglarning kasbiy faolligini oshirishda rahbarning vazifalari.
6. Maktab pedagogik kengashining vazifasi nimalardan iborat?

## V QISM

### XI BOB. PEDAGOGIKA TARIXI

Pedagogika tarixi fanining maqsad va vazifasi. Pedagogika tarixi fani jamiyat a'zolarini mazkur jamiyatning yetakchi omillariga mos qilib shakllantirish bilan shug'ullanadigan ilmiy-nazariy va amaliy faoliyatlar tizimidir. Shaxs ma'naviy fazilatlarining qaysidir bir miqdori tug'ma bo'lsada, asosan, ta'lim va tarbiya vositasida shakllantiriladi. Shunday ekan, pedagogika tarixi jamiyat taraqqiyotida, xalqimizning, shu jumladan yoshlarimizning mentaliteti va ma'naviy qiyofasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

*Pedagogika tarixi fanining predmeti* – qadim zamonlardan tortib mustaqil O'zbekiston Respublikasining bugungi kunigacha bo'lgan davrlaridagi ta'lim-tarbiyaning jahon xalqlari pedagogik-tarixiy taraqqiyotini yaxlit rivojlanish jarayoni sifatida o'rganishdan iboratdir.

*Pedagogika tarixi fanining maqsad i*– qadimgi O'rta Osiyo hududida, shuningdek, dunyoning boshqa mintaqalarida pedagogik fikr taraqqiyotini, buyuk Sharq mutafakkirlari va ma'rifatparvar shoirlari hamda jadidlarning ta'lim-tarbiya nazariyasiga qo'shgan hissalarini, mustaqillik davrida zamon va makon talabiga javob beruvchi milliy maktab va milliy pedagogikani rivojlantirish hamda ta'lim-tarbiyaning nazariy asoslarini yaratish qonuniyatlarini o'rganishdan iborat. Shuningdek, eng qadimgi davr pedagogikasining o'ziga xos xususiyatlarini, Sharqning yetuk allomalari, ma'rifatparvarlari, jadidchi olimlarning ta'lim-tarbiya nazariyasi va amaliyotiga qo'shgan hissalarini, O'zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida milliy maktab va milliy pedagogikani rivojlanishini, ta'lim-tarbiyaning nazariy asoslarini yaratish qonuniyatlarini o'rganishdan iborat.

Pedagogika tarixi fani o'tmishning ta'lim – tarbiya sohasidagi eng ilg'or tajribalarini o'rganadi, bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashga yordam beradi. Pedagogika tarixi ta'lim-tarbiya sohasidagi to'plangan tajribalarni umumlashtiradi, uni amaliyotga tatbiq etish yo'llarini ko'rsatib beradi, ta'lim-tarbiyaning maqsadi, mazmuni shakllarini jamiyatning iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan bog'liq holda o'rganadi, jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida jahonda,

O'rta Osiyodagi pedagogik fikr taraqqiyotini va ta'lim–tarbiya holatini tarixan haqqoniy tasvirlab, o'qituvchi–murabbiylarni pedagogik–tarixiy bilimlar bilan qurollantirish vazifalarini bajaradi. Bu vazifalarning muvaffaqiyatli amalga oshishi o'qituvchilarning pedagogik mahoratni egallashlariga, pedagoglik madaniyatini o'rnatishga xizmat qiladi.

*Pedagogika tarixi fanining tadqiqot metodlariga* arxeologik va tarixiy yodgorliklarni, xalq og'zaki ijodi materiallarini, turli davrlarda yaratilgan qo'lyozmalar va nashr etilgan asarlarni, ta'lim-tarbiyaga doir hujjatlarni, statistik ma'lumotlarni o'rganish, ularni umumlashtirish uchun sotsiologik, matematik tadqiqot usullari va pedagogika nazariyasida qo'llaniladigan metodlar kiradi.

*Pedagogika tarixi fanining manbaalari* O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", I.A. Karimovning ta'lim-tarbiyaga doir yaratgan asarlari, qadimgi yozuvlar, bitiklar, qo'lyozma yodgorliklari, xalq og'zaki ijodi, Qur'oni Karim, Hadislar, Sharq mutafakkirlari, shuningdek, ma'rifatparvar shoirlar va jadidlarning pedagogik asarlari, turli davrlarda yaratilgan o'quv qo'llanma va darsliklar, ta'lim-tarbiya muassasalari faoliyatiga doir boshqa xujjatlar tashkil qiladi.


Pedagogika tarixi pedagogika, O'zbekiston tarixi, jahon xalqlari tarixi, falsafa, psixologiya, madaniyat tarixi, etnografiya, arxeologiya, axloqshunoslik kabi bir qator fanlar bilan uzviy aloqa ish ko'radi.

Pedagogika tarixi fanini o'rganish – kishilik jamiyati taraqqiyoti yo'lidagi ta'lim-tarbiya bosqichlari bo'lajak o'qituvchida pedagogik va tarixiy asoslarni. taxlil qilish va ularga munosabat bildirish kabi malaka va ko'nikmalarni shakllantirishdan iborat.

### **Qadimgi davrlarda madaniyat va pedagogikaning rivojlanishi**

O'zbek xalqi bir necha ming yillik tarixga ega bo'lib, o'zining tarixiy taraqqiyoti mobaynida yuksak va o'ziga xos madaniyatni vujudga keltirgan. Prezident I. A. Karimov ta'biri bilan aytganda: "Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kamdan-kam topiladi". Tosh qurollaridan tirikchilik uchun

foydalanishdan tortib to takomillashgan mehnat quollarini yasash, ijtimoiy hayotda madaniy taraqqiyotga erishiishgacha yutuqlarni o'z ichiga olgan tariximiz xalqimizning boy qadimiy ma'naviy madaniyatga ega ekanliklaridan dalolatdir. Eng qadimgi madaniy boyliklarimizni o'rganishda quyidagi 3ta manbaga tayaniladi (jadvalga qarang).



**Avesto.** Eng qadimgi yozma yodgorlik “Avesto” ajdodlarimizning ko'p ming yillik tarixi, ijtimoiy iqtisodiy hayoti, madaniyati, ma'naviyati, tili, yozuvi, urf-odatları, an'ana va qadriyatları, ta'lim-tarbiya tizimi va pedagogik qarashlarini ilgari surgan muhim yozma manbaadir. I.A.Karimov ta'kidlaganidek: “Otabobolarimizning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribasi, diniy, axloqiy, ilmiy, adabiy qarashlarini ifoda etadigan bu kabi tarixiy yodgorliklar orasida bundan qariyb uch ming yil muqaddam Xorazm vohasi hududida yaratilgan, “Avesto” deb atalgan bebaho ma'naviy obida alohida o'rin tutadi”. Zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto” ta'limotining axloqiy omillarini “ezgu fikr,” ezgu so'z,” ezgu amal” tashkil etadi. “Avesto”da oila, sog'lom avlodning paydo bo'lishi, benuqson naslning tug'ilishi uchun zarur bo'lgan sog'lom turmush tarzi, naslning sog'lomligi, zurriyotining pokizaligi, uning aqliy, axloqiy, ruhiy, jismoniy, ma'naviy - ma'rifiy tarbiyasi xususida qayg'urish birinchi o'ringa qo'yilgan. “Avesto”da poklikka, ozodalikka alohida e'tibor qaratilgan. “Avesto”da quyidagi tartibdagi ta'lim-tarbiya tizimi ishlab chiqilgan:

- diniy va axloqiy tarbiya;
- jismoniy tarbiya;
- o'qish va yozishga o'rgatish.

“Avesto”da bolalarning diniy e'tiqodini mustahkamlash. ma'naviy kamolotini rivojlantirishga alohida e'tibor berilgan. Shuningdek, asarda oila tarbiyasi, mehnat tarbiyasi, ekologik tarbiya masalalari o'ziga xos echim topgan.

**Gerodotning “Tarix” kitobi.** Eramizdan oldin taxminan 484(480)—431(425) yillarda yashagan yunon tarixchisi Gerodotning “Tarix” kitobida qadimgi forslar, saklar, massagetlarning ta'lim-tarbiya tarziga oid muhim ma'lumotlar berilgan. Unda jasurlik qabilalar orasida qadrlanganligini ta'kidlagan. O'g'il bolalar tarbiyasiga ko'proq e'tibor qaratilgan, o'g'il farzandi ko'p oilalar rag'batlantirilgan. O'g'il bolalarda quyidagi sifatlarni bo'lishiga ahamiyat berilgan:

- otda yurish;
- kamondan otish;
- to'g'ri so'zlilik.

Insoniyat tarixida ma'rifatparvar g'oyalari bilan nurli iz qoldirgan olimlardan *Platon, Demokrit, Mark Fabiy Kvintilian, Konfutsiy*lar ta'lim va tarbiya va uning inson kamolotida tutgan o'rni masalalari xususiça o'zlari yashagan davrga nisbatan ancha ilg'or fikrlarni bayon qilganlar. Tarbiyaga ta'rif berar ekan, *Platon*, uning davlat tomonidan tashkil etilishiga va hukmron guruhlarining, ya'ni faylasuflar va jangchilarning, manfaatlarini ko'zlashiga asosiy e'tiborni qaratadi. Faylasuf – materialist *Demokrit* tarbiya haqidagi qarashlarida birinchi o'ringa mehnatni qo'yadi. U shaxsning ijobiy xulqini tarkib toptirishda mashqning ahamiyatini yuqori baholaydi. Eramizning 42-118 yillarida yashagan *Mark Fabiy Kvintilian* “*Notiqni tarbiyalash to'g'risida*”gi asarida bolalarning qobiliyatlari alohida o'rin tutishi, befahm va qobiliyatsiz bolalar kamdan-kam uchrashini ta'kidlaydi. U boladagi yomon xulq – atvor asosan oiladagi noto'g'ri tarbiya mahsuli ekanligini uqtiradi. Muvaffaqiyatsiz tarbiyaning asosiy omili oiladagi bolaga bo'lgan noto'g'ri munosabatda deb hisoblaydi. Kvintilian zamondoshlariga nisbatan ilg'or fikrlab, o'qituvchi oldiga bir qator talablarni qo'yadi:



- *mutaxassisligi bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lish;*
- *o'qituvchilarni doimiy ravishda o'z bilimlarini va pedagogik mahoratini oshirib borish;*
- *bolalarni sevishi, o'zini tuta bilishi, bolalarni bo'lar-bo'lmasga rag'batlantira bermasligi yoki jazolay bermasligi;*
- *o'z shogirdlari uchun o'rnak bo'lishi va ularni sinchiklab o'rganishi lozim.*

Sharq falsafasining zabardast vakillaridan biri **Konfutsiy** o'zining ta'limotida quyidagi axloqiy-siyosiy qoidalarni ilgari suradi: *xalqni shafqat bilan boshqarish va xalq ichiga xulq-atvor qoidalari yordamida tartibni joriy qilish; o'lganlar ruhini hurmat bilan yodga olish; tug'ma bilimlarga ega bo'lganlar (mukammal donishmandlar) va o'qish-o'rganish natijasida bilimga ega bo'lganlar mavjudligini tan olish, ya'ni o'qish-o'rganish tufayli bilimlarni kasb etish imkoniyati borligi va talim-tarbiyaning buyuk rolini qayd etish; oltin o'rtamiyonalik yo'li, ikki qarama-qarshi qirralini qo'lda ushlab, ammo xalq uchun o'rtasidan foydalanish qoidasini qo'llash, ya'ni qarama-qarshilikni yumshatish va murosasizlik nazariyasiga rioya etish.*

Konfutsiy birinchi marta "oltin qoida" deb nom olgan va keyinchalik ko'pchilik mutafakkirlar tomonidan qolipga solingan: "O'zingga ravo ko'rmaganni boshqa odamlarga ham ravo ko'rma" qoidasini shakllantirdi. U o'qituvchi to'rt narsadan: "Quruq foydasi: fikrlashdan; o'z mulohazasida qat'iy turib olishdan; qaysarlik qilishdan; faqat o'zi haqida o'ylashdan qat'iy saqlanishi kerak" degan g'oyalarni ilgari surdi.

*Xalq og'zaki ijodi.* Xalqning hayotiy tajribalari asosida og'zaki tarzda yaratilib, avloddan-avlodga o'tib kelayotgan shu xildagi badiiy asarlar "og'zaki so'z san'ati", "folklor" yoki "xalq og'zaki poetik ijodi" atamaları bilan ifodalanadi. Xalq pedagogikasining tarbiyaviy jihatlarini ilmiy asoslab bergan Z.F.Mirtursunov folklorning har bir janri orqali bola tarbiyasida ijobiy natijalarni ko'rish mumkinligini ta'kidlaydi: "Xalq og'zaki ijodi qadim zamonlardan buyon jahon xalqlarining, shu jumladan, o'zbek xalqi pedagogikasining ham yagona tarbiya vositasi bo'lib kelgan va bizning zamonamizda ham o'z qimmatini yo'qotmagan.

*Hatto ma'lum ma'noda xalq ijodining alohida janrlarini, to'g'ridan-to'g'ri bola tarbiyasi tarkibidagi ayrim tomonlarini tarbiyalash vositasi bo'lib xizmat qilib kelgan va bundan keyin ham xizmat qiladi*<sup>9</sup>.

Xalq og'zaki ijodining qo'shiq janri tugal fikr badiiy ifodalangan, el orasida keng tarqalgan va barcha kishilar tomonidan kuylanishi mumkin bo'lgan mustaqil to'rtlikdir. "Qo'shiq" termini XI asrda yozilgan, ilmiy adabiyotlarning bizgacha yetib kelgan eng qadimiysi hisoblangan Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida ilk bor "koshug" shaklida berilgan va uning izohi "she'r", "qasida" deb ko'rsatilgan. Xalq qo'shiqlarining tarbiyaviy ahamiyati haqida M. Ismoilova shunday yozadi: *"Xalq qo'shiqlari bolalarda eng yaxshi insoniy fazilatlar: vatanparvarlik, mehnatga muhabbat, odamlarga ishonch, do'stlarga sadoqat tuyg'ulari va o'z-o'ziga talabchanligini shakllantiradi. Xalq qo'shiqlari o'quvchilar uchun ilk tarbiya darsligi, ma'naviy-axloqiy boyliklarning bitmas-tuganmas xazinasidir"*<sup>10</sup>.

O'zbek xalq og'zaki ijodining qadimiy ommaviy janrlaridan biri bo'lgan maqol bo'lib, unda avlod-ajdodlarimizning dunyoqarashi, jamiyatga bo'lgan munosabati va axloqiy hayot normasi o'z ifodasini topadi.

Ertaklar xalq og'zaki ijodiyotining eng qadimiy, ommaviy va keng tarqalgan janrlaridan biri sifatida mehnatkash xalq ommasining eng yaxshi sifatleri – insonparvarlik, vatanparvarlik, do'stga sadoqat, vafodorlik, shu yo'lda qahramonlik, jasorat ko'rsatish kabi fazilatlarni targ'ib etadi. Ertaklarda axloq va odobning yuksak namunalari ulug'lanib, zulm va zo'rlik qoralanadi. Ertaklarning kelajakka umid ko'zi bilan qarashga, farovon hayot uchun kurashishga chaqirishi, kishilarda hayotga muhabbat, yer yuzida adolat va insofning tantana qilishiga ishonch uyg'otishi juda muhim tarbiyaviy mohiyatidan dalolat beradi. Bebaho asarlari bilan dunyoga mashhur bo'lgan Alisher Navoiy, Hamid Olimjon, Oybek kabi yozuvchi va shoirlarning tarjimai holidan ma'lumki, ularning buyuklik shohsupasiga ko'tarilishlarida xalq ertaklari cheksiz ruhiy oziq bergan. Ertakning tarbiyaviy

<sup>9</sup>Миртурсунов З.Ф. Ўзбек халқ педагогикаси. – Тошкент: Фан, 1973 – 296.

<sup>10</sup>Исмоилова М.Э. Халқ кўшиклари воситасида ўқувчиларнинг маънавий-ахлоқий фазилатларини шакллантириш. Пед.фан.ном. ... дисс. – Тошкент, 2006. – 27 б.

ahamiyati xususida professor N.Ortiqov yozadi: “*Ota-onalarning tunda uyqu oldidan aytib bergan ertaklaridan farzandlari ruhiy oziq olganlar, hayotdagi va odamlardagi yaxshi fazilat, yomon xususiyatlarni bilib olishgan, hurmat, muruvvat, adolat kabi tushunchalar haqida tasavvurga ega bo‘lishgan. Natijada butun hayotlari davomida ertaklar ularning doimiy hamrohi, hayot darsligi bo‘lib xizmat qilgan va hozir ham ana shunday*”<sup>11</sup>.

Topishmoqlar o‘zbek folklorida qadim zamonlardan hozirgacha yashab kelmoqda. M.Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida boshqa adabiy janrlar bilan bir qatorda topishmoqlarning ham izohlangani nazarda tutilsa, uning yaratilish tarixi qadim zamonlarga borib taqalishi ayon bo‘ladi. Topishmoq aytish, asosan, yoshlarning so‘z boyligini oshirish, hayot va uning hodisalari haqidagi bilim-tushunchasi, idroki va mulohazalarini kengaytirish. dunyoqarashini boyitish uchun zarur tarbiyaviy vositalardan bo‘lgani tufayli unga soddadan murakkabga, osondan qiyinga tamoyili asosida yondashiladi.

Xalq og‘zaki ijodining barcha namunalarida jasurlik, mardlik, sadoqat, insoniylik, xushxulqlik xislatlariga ega bo‘lgan inson qiyofasi gavdalantirilgan bo‘lib, u shaxsni kamolga etkazishdagi asosiy vositalardan bibridir.

## VII-IX asrlarda ta'lim - tarbiya

Islom ta'limotida ta'lim-tarbiya masalalarining ifodalanishi. *Islom dini* insonga mohiyat, faoliyatga maqsad va yo‘nalish beruvchi, jamiyat a‘zolari o‘rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirib, birlashtirib, ijtimoiy-ma‘naviy taraqqiyotni tezlashtirish uchun xizmat qiladigan ma‘naviyat, ma‘rifat odob-axloq tarbiyasining barcha jihatlarini o‘z ichiga qamrab olgan ta‘limotdir. VII- VIII asrlar Islom ta‘limotining keng yoyilishi kishilarning Shariat qoidalariga, Islom dini aqidalariga bo‘ysunishi, yagona va qudratli Ollohga sig‘inishi. shuningdek, Ollohning yerdagi rasuli (elchisi) bo‘lgan Muhammad Alayhis-salom ko‘rsatmalariga rioya etishi bilan Movarounnahrda islomiy qadriyatlar tarkib topa boshladi. Islomning shar‘iy ma‘nosi - bu Alloh yagona deb e‘tiqod qilib, unga

<sup>11</sup>Ортиқов Н. Миллий ва умуминсоний кадриятлар асосида ўқувчи шахсини ахлоқий шакллантириш Пед.фан.док. . дисс. – Тошкент, 2000. –85 б

bo'ysunmoqlik va butun qalb bilan unga ixlos qilmoqlik va Alloh buyurgan diniy e'tiqodga iymon keltirmoqlikdir. Islomda Allohga itoat qilgan va Alloh yuborgan payg'ambarlarga ergashgan kishi musulmon deyiladi. Islom diniy ta'limotiga ko'ra, har bir musulmon ushbu beshta asosiy ruknni bajarishi shart.

1. Iymon, "La ilaaha illalloh va Muhammadur-rasululloh" deb Olohning borligi, yagonaligi va uning qudratiga, shuningdek, Muhammad Allayhis-salomning Tangrining yerdagi elchisi. rasuli ekanligiga shahodatlik berish.

2. Namoz o'qish.

3. Zakot berish.

4. Ramazon oyida ro'za tutish.

5. Haj. Imkoniyat darajasidan kelib chiqqan holda haj safarini o'tash.

***Qur'onda ta'lim-tarbiya masalalarining ilgari surilishi.*** Musulmonlarning muqaddas kitobi bo'lgan "Qur'on" - dunyo madaniyatining ulkan boyligidir. "Qur'on" arab tilida "qiroat" ma'nosini anglatib, u 114 suradan iborat. "Qur'on"ning "Zumar" surasi 9-oyatida kishilarni ilm o'rganishga da'vat etuvchi shunday fikrlar bayon etiladi: "Ayting: Biladigan zotlar bilan bilmaydigan kimsalar barobar bo'lurmi? Darhaqiqat, faqat aql egalorigina pand-nasihat qila olurlar".

"Qur'on"da insonning ma'naviy-axloqiy xususiyatlari yuqori baholanadi, kishilarni tenglik, birodarlik, tinch-totuv yashash va ezgulikka undaladi. "Kim chiroyli amal qilsa, unga o'n barobar bo'lib qaytarilur. Kim biron yomon ish qilsa, faqat o'shaning barobarinda jazolanur" ("An'om" surasi. 160-oyat). Islomiy g'oyalar odamlarni yaxshilikka da'vat etadi, ularni yomonlikdan qaytaradi. Insonparvarlikni targ'ib etib, razolatni qoralaydi, odob-axloq, ruhiy-ma'naviy poklik, mehnat qilish hamda yer yuzini obod va go'zal etishga undaydi. U adolat, tenglik, tinchlik, erkni targ'ib etadi. Buni biz "Qur'on"ning inson kamolotga erishishidagi ahamiyati, uning insonga va butun borliqqa nisbatan munosabati mazmunidan ham bilsak bo'ladi. Sura va oyatlar vositasida zohir etilgan musulmon olami, xususan, islom diniga e'tiqod qiluvchi xalqlarning madaniyati, ma'naviyati va ma'rifatiga oid qarashlar axloqiy me'yorlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, inson kamoloti avvalo uning bilim va tafakkur

darajasi bilan belgilanadi. Islom dini asrlar davomida insonlarni chuqur bilim olish, ilm-fan sirlarini puxta egallash, o'zlashtirilgan bilimlar asosida ijtimoiy faoliyatni tashkil etishga undab kelgan. Islom ta'limoti xususidagi mulohazalarimizni fransuz faylasufi Jak Kondersening "Tafakkur taraqqiyotining tarixiy manzarasi chizgilari" nomli asaridagi "O'rta asrlar musulmon olamida to'plangan ilmiy bilimlar G'arbda Uyg'onish davrini tayyorlashga xizmat qilmaganida insoniyat besamar yo'qolib ketar edi", deb yozganligi ham fikrimizni tasdiqlaydi. Islomda insonning aqliy kamoloti va tafakkurini rivojlantirishga katta e'tibor beriladi va ilm va haqiqatni dalillar yordamida isbotlash; so'zlaganda va amaliy harakatni tashkil etganda aniqlikka e'tibor berish, fikr yuritishda va muayyan faoliyatni yo'lga qo'yishda o'zgalarga taqlid qilishdan saqlanish maqsadga muvofiq ekanligi qayta-qayta uqtiladi.

"Qur'on"da har bir mo'min-musulmon bajarishi zarur bo'lgan yaxshi amallar inson kamolotini belgilovchi omillardir, deb tushuntiriladi. Zero, Islom dini g'oyalarining asl mohiyati ham kishilarga yomonlikning salbiy oqibatlarini ko'rsatish, ularni doimo to'g'ri yo'lda yurishga da'vat etish va yomonlikning oldini olishdan iboratdir. Beva-bechora, yetim-yesir va qarovsiz kishilarga nisbatan ehson ko'rsatish, xayr qilish insonga xos bo'lgan eng muhim axloqiy xislatlardan biri ekanligi, insonda iymonning o'ziga xos mezoni sanalgan sahovat, mehmonnavozlik, jasorat, sabr va qanoat, to'g'rilik, vafodorlik va sodiqlikka katta e'tibor beriladi. Shundanmi, insondagi axloqiy xislatlardan eng muhimi hayru ehson haqida alohida fikr yuritiladi. "Ehson" tushunchasi mazmunan keng qamrovli bo'lib, unda muomala ham, inson tomonidan amalga oshiriladigan barcha yaxshi amallar mohiyati ham aks etadi. O'zgalarga nisbatan ehson ko'rsatish - har bir insonning eng oddiy insoniy burchi bo'lishi lozimligi aytiladi. Zero, ikki olamning yaratguvchisi bo'lgan Olloh barcha ne'matlarni o'zi yaratgan mavjudotlarga ehson etgan. Olloh tomonidan qilingan ehsondan foydalanguvchi bandalar ham aholining eng nochor qatlami vakillariga nisbatan muruvvatli bo'lishlari, ularga xayru-ehson ko'rsatishlari lozim: "Olloh senga ehson qilgani kabi sen ham (Ollohning bandalariga) infoq-ehson qil" ("Qasos" surasi, 77-oyat). Shuningdek, kim birovga

ehson qilsa, uning foydasi o'ziga qaytishi, chunki birovga yaxshilik qilgan kishi o'zida ruhiy qanoat his etishi, boshqalar tomonidan hurmat-ehtiromga sazovor bo'lishi ta'kidlanadi.

“Qur'on”da sabrli, sabotli bo'lish, qiyinchiliklarga bardosh berish, yomon kishilar tomonidan yetkazgan nohaqliklarga chidash, boshga tushgan musibatlariga nisbatan bardoshli bo'lishga da'vat etiladi. Jumladan “Albatta biz Ollahning (bandalarimiz) va albatta biz u zotga qaytguvchilarimiz”, deydigan sobirlarga xushxabar bering (Ey Muhammad)! Ana o'shalarga Parvardigorlari tomonidan salovat (ma'rifat) va rahmat bordir. Ana o'shalar haq yo'lini topguvchilardir” (“Baqara” surasi, 155-157-oyatlar). “Qur'on”da yana insonni axloqiy kamolga yetkazishga zid xususiyatlar: manmanlik, aroqxo'rlik, qimorbozlik, yolg'onchilik, boshqalarni kamsitish, badgumonlik, josuslik, g'iybatchilik, maishiy buzuqlik, g'azabnoklik, hasadgo'ylik, ochko'zlik kabilar salbiy illatlar qoralanadi.

*Hadis ilmi.* VIII-IX asrlar hadis ilmining rivojlanishida “Oltin davr” hisoblanadi. Islom dunyosida eng nufuzli manbalar deb sanalgan oltita ISHONCHLI to'plam (as-sahih as - sitta)ni yaratgan muhaddislar Abu Abdullox Muhammad ibn Ismoil al -Buxoriy 194 (810)-256 (870), Imom Muslim ibn al -Xajjoj 206 (819) - 261 (874), Imom Iso Muhammad ibn Iso at -Termiziy 209 (824), - 279 (892), Imom Abu Dovud Sulaymon Sijistoniy 202 (817) - 275 (880). Imom Ahmad an - Nasoniy 215 (830) - 303 (915), Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Yazid ibn Majja 209 (824) - 273 (886) kabi allomalardir.

Olimlar “Al-kutub as-sitta” (olti kitob)ni quyidagilardan iborat deb ko'rsatadilar:

1. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy tomonidan yozilgan “As-Sahih”.
2. Imom Muslim an-Nishlpuriy (imom Muslim ibn al -Hajjoj) tomonidan yozilgan “As-Sahih”.
3. Imom Ibn Mojja tomonidan “Sunnai”.
4. Imom Lou Dovud Sulaymon - Sijistoniy tomonidan yozilgan “Sunnai”.
5. Imom ibn Iso at-Termiziy tomonidan yozilgan “Aj-jami al-Kabir”.
6. Ahmad an - Nasoiy tomonidan yozilgan “Sunnai” kabi to'plamlardir.

Imom al - Buxoriyning shoh-asari "Al-Jome' as-sahih" ("Ishonchli to'plam") 4 jildan iborat bo'lib, unga 600 ming hadisdan 7275 ta eng "sahih" hadislar kiritilgan, takrorlanmaydiganlari 4000 hadisdan iboratdir.

Hadislarda ilm bilan shug'ullanish bilan birga kishilarni undan xabardor qilishning muhimligi ta'kidlanadi: "Kimki ummatlarimga mening sunnatimga oid 40 hadisni yodlab yetkazsa, qiyomat kunida men uni shafaotimga loyiq kishilar safiga kirgizaman" (112-Hadis).

***Odob-axloq qa oid hadis namunalaridan ayrimlarini keltiramiz:***

- *Tangri nazdida eng yaxshi gap-rost gapdir.*
- *Ilm ibodatdan afzaldir, taqvo dinni tutib turuvchi( ustun) dir.*
- *Bir soatgina ilm o'rganish bir kechalik ibodatdan yaxshi. Bir kunlik esa uch oy tutilgan nafl ro'zadan afzaldir.*
- *O'zingga yoqqan narsalarni boshqalarga ham ravo ko'r.*
- *Odamlarga keng qalbli bo'linglar, shunda odamlar ham sizlarga shunday bo'lurlar.*
- *Garchi Xitoyda bo'lsa ham ilmga intilinglar.*
- *Iymonning afzali sabr va keng qalbli bo'lishdir.*
- *Orangizda eng kuchlilarini kimligini aytaymi?! U g'azabi kelganda o'zini tutib tura oladiganingizdir.*
- *Kimki hayotda tejamkor bo'lsa, qashshoqlikka tushmaydi.*
- *Uch kundan ortiq arazlashib yurish islomda yo'q.*
- *O'zi bilimsiz bo'la turib, turli nizo va muxokama ishlarida qatnashib yuradigan odam to bu ishidan qaytmaguncha Tangrining g'azabida bo'lur.*
- *Yurib ketayotgan otliq- o'tirganga, ozchilik – ko'pchilikka salom bersin.*

Islom ta'limotiga ko'ra ilmi tolib holis, kamtarin bo'lishi lozim, bilganini ko'z-ko'z qilish, maqtanishi gunohdir. Kishi bilganini e'tirof etish bilan birga bilmaganini ham tan olishi joiz. Hadislarning birida shunday deyiladi: "Kimki birodariga bir ish qilishga bilib noto'g'ri maslahat bersa, demak birodariga hiyonat qilgan bo'ladi" (110-Hadis). Ilm o'zligini anglash, xudoni, dinni bilish demakdir. Ilm olimni pesh qilish vositasi bo'lmasligi zarur. "Kimki odamlarga maqtanish uchun. - deyiladi

hadislarda,- yoki nodonlar bilan tortishish, yohud odamlarning dillarini o‘ziga moyil qilish uchun ilm olsa do‘zaxga boradi” (108-Hadis). Ilmli kishilarni e‘zozlash, hurmat qilish har kim uchun ham farz, ham qarzdır. Shuning uchun ilmli kishilarga insonlar, butun mavjudot xayrihoh. Bir hadisda aytiladi: “Ilmga har bir narsa istig‘for aytadi, hatto dengizdagi baliqlar ham” (93-hadis). Ilm olish, hunar o‘rganish olijanob va savobli. Ilm, hikmatlar, hunar kishini turli nopok ishlardan asraydi: “Hattoki bir soat ilm o‘rganish, kechasi bilan ibodat qilib chiqqandan afzaldir” (536-hadis). Ilm kishilarga naf keltirishi lozim. Olimlar ilm o‘rganib boshqalar yo‘lini yorug‘ qilishlari, ularga rahnamo bo‘lishlari joiz. Ilm foydali bo‘lishi uchun u odamlarga o‘rgatilishi lozim. Ilmli kishi sadoqatli bo‘lishi, kishilarga yaxshilikni o‘rgatishi kerak. Ilm bilimli kishi uchun fazilat bo‘lsa, bu holatni u boshqalarga singdirishi lozim. “Ilmni o‘rganish kasbiy manfaat uchun bo‘lmasligi darkor. Bir kishi Alloh ilmini (Islomni) teran o‘rganadir, teran tushunadir va undan manfaatlanadir va Alloh yuborgan xidoyatni o‘zi o‘rganib, o‘zgalarga ham o‘rgatadilar. Ikkinchi bir kishi ilm o‘rganib, odamlarga o‘rgatadilar. Ammo o‘zi amal qilmaydi. Uchinchi bir kishi mutakabbirlik qilib o‘zi ham o‘rganmaydir, o‘zgalarga ham o‘rgatmaydir. Bulardan birinchisi mo‘min, ikkinchisi fosiq, uchinchisi kofirdir” (26-hadis). Ilm, hikmat o‘rganmoq mo‘minning eng yuksak fazilatidir. Chunki ilm kishilarga tayanch, rahnamo, zebu-ziynat, ilm hayotining yo‘ldoshi va dushmanlarga qarshi kurashda quroldir. “*Ilm egallang!*-deb xitob qilgan payg‘ambarimiz. Ilm sahroda do‘st, hayot yo‘llarida tayanch, yolg‘izlik damlarida - yo‘ldosh, bahtiyor daqiqalarda - rahbar, qayg‘uli onlarda - madadkor, odamlar orasida - zebu-ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda – quroldir”.

Hadislarda insonlarni har bir hayrli amallariga ko‘ra taqdirlanishi bayon etilgan: “Mo‘min kishiga vafotidan keyin savobi tegib yetib turadigan amali solihlar quyidagilardir:

1. Tarqatgan ilmi.
2. Qoldirgan solih farzandi.
3. Meros qoldirgan Qur‘oni.
4. Qurgan masjid.



5. Yo'lovchilar uchun qurgan mehmonxonasi.
6. Qazigan arig'i.
7. Tirikligida va sog'lomligida sadaqa - ehson uchun ajratgan moli" (253-hadis).

Xulosa qilib aytganda. Qur'oni Karim va hadisi sharif komil insonni tarbiyalashning muhim omillaridan biridir.

#### **Savol va topshiriqlar:**

1. Pedagogika tarixi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari haqida nima bilasiz?
2. Bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda pedagogika tarixi fanining o'rni va roli nimadan iborat?
3. Eng qadimgi madaniy boyliklarimizni o'rganishda qanday manbalarga tayaniladi.
4. "Avesto" qanday asar? Unda qaysi tartibdagi ta'lim-tarbiya tizimi ishlab chiqilgan.
5. Qur'oni Karim ta'limotidagi axloqiy g'oyalar mazmuni haqida qanday fikrga egasiz?
6. "Hadis" va "Sunna" tushunchalarining mazmunini so'zlab bering

## **XII BOB. SHARQ UYG'ONISH DAVRIDA ILM-FAN VA MADANIYAT.**

Sharq uyg'onish davri IX asrdan boshlab XV-XVI asrlargacha davom etdi. Uyg'onish davri xalifalikning Bag'dod, Damashq, Xalab shaharlaridan boshlanib, barcha boshqa xalqlar madaniy hayotiga tarqalgan, bu esa u davlatlarning ham madaniy rivojlanishga zamin tayyorlagan.

Xalifa Xorun ar-Rashid davrida (786-833 y.y.) va uning o'g'li al-Ma'mun davrida Bag'dodda "Bayt-ul-hikma" ("Donishmandlik uyi") (hozirgi Akademiya ma'nosida) tashkil etiladi. Mazkur Akademiya barcha ilm sohiblarining ilmiy markazi bo'lib, uning qoshida jahon kutubxonasi tashkil etilgan. Akademiya qoshida rasadxona ham bo'lgan, keyinchalik yangi kutubxona qurilgan. Bog'doddagi mazkur ilm markazi, o'z navbatida Sharq va G'arbda ilm-fanning taraqqiy etishiga, ma'naviy hayotning rivojlanishiga ta'sir etgan. Bu o'rinda xalifa al-Ma'munning ilm-fan ravnaqida ko'rsatgan homiyligini alohida ta'kidlash joiz. Zero, xalifa al-Ma'mun ilm fanni juda qadrlagan. U IX asr boshlaridan xalifalikning Xurosondagi noibi bo'lib turganda ham Movarounnahr va Xurosondagi olimlarni to'plab, ularning ilmiy ijodiga sharoit yaratib bergan. Bular orasida al-Xorazmiy, al-Xuttaliy, al-Javhariy, al-Farg'oniy, al-Marazviy kabi vatandosh olimlarimiz ham bo'lgan.

Uyg'onish davri madaniyatining yaratilishi va rivojlanishiga qadimgi yaratilgan madaniy yodgorliklar, ular xoh yunon, xoh arab, xoh Movarounnahr va Xuroson xalqining eng qadimgi antik davrlar madaniyati bo'lsin, asos bo'lib xizmat qildi.

Yaqin va o'rta Sharqda, jumladan, Eron, Kavkazorti va Movarounnahrda savdo aloqalarining rivojlanganligi, ilm-fan, hunarmandchilikning taraqqiy etishi moddiy va madaniy aloqalarning barchasi umumiy rivojlanishga ta'sir etdi.

Somoniylar davlatida Marv, Buxoro, Samarqand va Urganch o'sha davrning madaniy markazlari sanalardi. Bu davrda arab tili ilmiy va aloqa tili edi. Maktablarda darslar arab tilida olib borilar edi. Rasmiy hujjatlar, shariat qoidalari arab tilida yuritilar edi. Ilmiy asarlar ham arab tilida yozilar edi. X asr o'rtalariga

kelib, fors-tojik tilida ham ish yuritila boshlandi. Ammo hujjatlar, ishlar fors-tojik tilida bo'lsa ham, arab imlosida yozilar edi. Bu shaharlardagi maktablarga hatto tevarak-atrofdagi qishloqlardan oddiy xalq bolalari ham kelib o'qiganligi manbalarda keltiriladi.

XI asrda Xorazmda ilm-fan taraqqiy etadi. Xorazm shohi Ma'mun II o'z saroyiga zabardast olimlarni taklif etadi. U tashkil etgan "Bayt-ul-hikma" - Donishmandlar uyi tarixda "Ma'mun akademiyasi" deb nom qoldirgan.

*Sharq "Uyg'onish davri" da ilm-fan rivojlanishi uch yo'nalishda bo'ldi.*

*Birinchi yo'nalish.* Matematika-tibbiyot yo'nalishi bo'lib, bularga matematika, astronomiya, kimyo, geodeziya, minerologiya, tibbiyot, farmalogiya va boshqalar kiritilgan.

*Ikkinchi yo'nalish.* Ijtimoiy-falsafiy yo'nalish bo'lib, bunda falsafa, tarix, mantiq, fiqh, ruhshunoslik, notiqlik kabilar kiritilgan.

*Uchinchi yo'nalish.* Ta'limiy-axloqiy yo'nalish bo'lib, qomusiy olimlarni asarlaridagi didaktik va axloqiy fikr asosiy o'rinni egallagan.

Movarounnahr va Xurosonda IX asrlarga kelib ma'naviy ko'tarilish Sharq Renessansi – Uyg'onish davrining boshlanishga olib keldi. Movarounnahrda ilm-fan va ma'rifat sohasida o'z xizmatlari bilan dunyoga mashhur bo'lgan faylasuf va munajjim, matematika, fizika, tibbiyot, tarix, til va adabiyot, pedagogika sohasida ilmiy merosi bilan nom qoldirgan Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi qomusiy olimlar faoliyat olib bordilar. Qomusiy olimlar o'z ilmiy merosida ta'limiy-axloqiy asarlar yaratishga ham katta e'tibor berdilar. Mazkur asarlarda ilgari surilgan g'oyalar insonning ham aqliy, ham axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan kamol topishida, pedagogik fikr taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Shuningdek, Sharq uyg'onish davrida sof pedagogik asarlar ham yaratilib, ta'lim-tarbiyada inson takomilining xususiy va umumiy metodlari haqida o'lmas ta'limoti bilan nom qoldirgan tarbiyashunos olimlar ham maydonga chiqdi.

*Abu Abdulloh Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (783-850)ning riyoziyot va falakiyot ilmiga asos solgani o'z zamonida ham, hozir ham tan olingan. U turk,*

arab, fors, sanskrit, yahudiy tillarini mukammal egallagan. Olimning ijodi va hayoti haqida juda kam ma'lumotlar yetib kelgan, bo'lib bugungi kunda uning qalamiga mansub 10 dan ortiq asarlari ma'lum:

1. Arifmetik asar, lotincha *Algorithmi de numero indarum*, ("Hind arifmetikasi haqida kitob" arabcha nusxasi saqlanmagan);
2. "Al-jabr –al muqobila hisobi haqidagi qisqacha kitob";
3. "Ziji al-Xorazmiy";
4. "Usturlab yordamida azimutni aniqlash";
5. "Marmar soat haqida kitob";
6. "Tarix kitobi";
7. "Yahudiyning eralari va bayramlari haqida risola";
8. Xorazmiy "Geografiya"si;
9. "Usturlab bilan amal tutish haqida kitob".

Al-Xorazmiy insonning kamolga yetishi va insoniy munosabatlarni yo'lga qo'yishda ilm-fanning muhim ahamiyatiga ega ekanligi to'g'risidagi g'oyani ilgari surgan holda pedagogik fikr taraqqiyotida munosib o'rin egallaydi. Uning matematika sohasida yangilik yaratgan nazariyotchi hamda pedagog-uslubiyotchi olim sifatida olib borgan ishlari yuksak baholanadi. Xorazmiy o'z davrigacha bo'lgan qadimiy matematika fani rivojlangan mamlakatlar Vavilion (Babil), Yunoniston, Hindiston, Xitoy, Misrdagi deyarli barcha matematiklarning kashfiyotlarini o'rgandi va o'zi hayotiy talablar nuqtai nazarida ulardan farq etuvchi yangi kashfiyot yaratdi. Muhammad al-Xorazmiy ilmiy merosi bilan bilish nazariyasiga o'zining ulkan hissasini qo'shdi. Uning "Al-kitob al-muxtasar fi-hisob al-jabr va-l muqobala" asari uch qismdan iborat bo'lib: birinchisi algebraik qism; ikkinchisi geometrik qism; uchinchisi esa vasiyatlar haqida bo'lib, muallif uni "Vasiyatlar kitobi" deb ataydi. Mazkur asar matematika fanini rivojlantirib, "Al-jabr" keyinchalik matematika fanining alohida bo'limiga aylandi va "algebra" deb ataladigan bo'ldi. Mazkur amallar yordamida har qanday tenglamani kononlik shakliga, ya'ni asosiy tiplardan biriga keltirib, keyin yechiladi. Bu usul fan olamida muhim ahamiyatga ega edi. Shu asar tufayli "Al-Xorazmiy" nomi lotincha

transkripsiyada “Algoritmi” shaklini oldi, keyin “Algoritmus” va nihoyat hozirgi zamon hisoblash matematikasining asosiy tushunchasi “algoritm” (“algorifm”) ga aylandi.

Al-Xorazmiy matematikaning nazariy rivojlanishi bilan birga, undan turmushda foydalanish yo‘llarini ham ilmiy asoslab, meros taqsim qilish, vasiyatnomalarni tuzish hamda mol taqsim etish uchun zarur bo‘lgan hisoblarni ta’lif etdi. Muhammad al-Xorazmiyning matematikaga oid ikkinchi kitobi “*Hind arifmetikasi haqida kitob*” (“*Hisob al-hind*”)dir. Asar o‘nlik tizim raqamlari (1,2,3,4,5,6,7,8,9)ga bag‘ishlangan. Asarda Hindistonda kashf etilgan raqamlar soddalashtirildi va birinchi marta arab tilida bayon etildi. Ungacha ancha qo‘pol sanoq usullaridan foydalanib kelingan. O‘nlik tizimining kashf etilishi fan olamida sanoq tizimida inqilobiy o‘zgarish deb ta’riflanadi. yevropaga 1,2,3,4,5,6,7,8,9 raqamlaridan foydalanish va nol yordamida eng katta sonlarni yozish va joylarni aniq ko‘rsatish X-XI asrlarda arablardan kirib kelgan. Muhammad al-Xorazmiy o‘zining falakijyotga doir ishlarida hindlarning falakijyot jadvallarini taxlil etib, “Xorazmiy ziji” nomi bilan mashhur astronomik jadvallar tuzdi. Allomaning bu asari XII asrda lotin tiliga tarjima etilib, bir necha asr davomida undan foydalanib kelindi. Bundan tashqari “*Kitob surati-l-ard*” (“Yevropa surati kitobi”) birinchi yozilgan geografiyaga oid kitob sanaladi. Bu asar xaritanı tavsıflagan asardır. Asar Muhammad al-Xorazmiyning ko‘p yillik olib borgan tekshirish-kuzatish ishlarining natijasi edi. Alloma sharq mamlakatlari ustida kuzatishlar olib borib, mamlakat va shaharlarning xaritalarini chizadi, nomlar ro‘parasiga uzunlik va kenglik darajalarini ko‘rsatadi. U geografiyaga oid asarlarida yernı yetti iqlimga bo‘lib, yerning xaritasini chizadi. Olimning to‘rt xaritasi (Azov dengizi, Nil daryosi, Yaqin va o‘rta Sharq xalqlari xaritasi) saqlanib qolgan. Uning yuqoridagi asari ham Sharq va g‘arbda katta ahamiyatga egadir. 827 yilda Xorazmiy rahbarligida yer kurrasining kattaligini aniqlash maqsadida yer meridianining bir gradusi o‘lchab chiqildi. Bag‘dodda yozilgan trigonometriyaga oid dastlabki asar ham Xorazmiyga tegishli bo‘lib, unda sinus, tangeneslarning o‘zgarish qonuniyati ko‘rsatiladi. Uning trigonometrik jadvali o‘sha davr jadvalaridan farq qilgan. Muhammad al-

Xorazmiyning tarix va musiqaga oid, quyosh soatlari to'g'risida ham asarlari bo'lib, "Tarix kitobi" ("Kitob at-tarix") xalifalik tarixiga oid va xalifalikning birinchi tarixchilaridan sanaladi. Shuni ta'kidlash joizki, alloma o'zigacha bo'lgan ilmiy bilimlarning asosiy g'oyalari, prinsip va metodlarini sintezlashtirdi. U ilmiy bilimlarni o'rganuvchilarning mustaqil bilim olishlariga e'tiborni qaratdi. Xorazmiy bilim olishda talabanning kasbiy kuzatishlariga hamda olgan bilimlaridan foydalanishga katta e'tibor berdi. Bunda u ilm izlovchilarning ilmiy manbalarni to'plash, ularni ifodalash va kuzatganlarni tushintira olish malaka va ko'nikmalarini hosil qilishga katta baho berdi. Masalan, "Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va-l muqobala" asarida olimlarni uch guruhga bo'lib shunday yozadi: "Ulardan biri o'zidan avvalgilar qilgan ishlarni amalga oshirishda boshqalardan o'zib ketadi va uni o'zidan keyin qoluvchilarga meros qilib qodiradi. Boshqasi o'zidan avvalgilarning asarlarini sharhlaydi va bu bilan qiyinchiliklarni osonlashtiradi, yopiqni ochadi, yo'lni yoritadi va uni tushunarliroq qiladi. Yoki bu ayrim kitoblarda nuqsonlar topadigan va sochilib yotganni to'playdigan odam bo'lib. u o'zidan avvalgilar haqida yaxshi fikrda bo'ladi, takabburlik qilmaydi va o'zi qilgan ishidan mag'rurlanmaydi". Muhammad al-Xorazmiyning bu fikri bir tomondan, olimlar faoliyatining ezgulikka xizmat qilishini yoritisa, ikkinchi tomondan, o'sha davrda ilmiy tadqiqot ishlari va o'qitishning metod va vositalaridan qay darajada foydalanganligini ko'rsatadi.

Barcha mutafakkirlar kabi Muhammad al-Xorazmiy ham ko'rgazmali - tajriba metodlari, bilim berishning turli vositalari, savol-javob, malaka va ko'nikmalarni shakllantirish metodlari, bilimlarni sinash metodlaridan foydalangan. Allomaning arifmetikaga oid risolalari tafakkurni rivojlantirish uchun bilimlarni izchil bayon etishga e'tibor berganligini ko'rsatadi. "Men arifmetikaning oddiy va murakkab masalalarini o'z ichiga oluvchi "Aljabr val-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob"ni ta'lif qildim, chunki meros taqsim qilishda, vasiyatnoma tuzishda, mol taqsimlashda va adliya ishlarida, savdoda va har qanday bitimlarda, shuningdek, yer o'lchashda, kanallar o'tkazishda, geometriyada va boshqa shunga o'xshash turlicha ishlarda kishilar uchun zarurdir". Muhammad al-Xorazmiy bilishni sezgidan

mantiqiy tasavvur orqali farq qilish haqida fikr bayon etib, shunday yozadi: “Sezgi orqali bilish bu qisman bilish bo‘lsa, mantiqiy bilish esa haqiqiy bilimning muhim tomonini namoyon etadi”.

Xorazmiyning faoliyatida inson sifatida ham, olim sifatida ham bag‘rikengligi unga katta obro‘ keltirgan. Al-Xorazmiy Bag‘doddagi ilm markazini uzoq yillar boshqargan. Al-Xorazmiy arifmetika, algebra, falakiyot, handasa, jug‘rofiya, tarix va boshqa fanlar bo‘yicha jiddiy ilmiy kuzatishlar olib borgan. Olim insonning kamolga yetishi va insoniy munosabatlarda ilm fanning muhim ahamiyatini g‘oyasini ilgari surgan holda pedagogik fikr taraqqiyotida ham muhim o‘rin egallaydi. Xorazmiy matematika, geodeziya, geografiya, falakkiyot sohalarida yirik tadqiqotlar olib borgan. Lekin u matematika sohasida yangilik yaratgan nazariyotchi hamda pedagog uslubiyotchi olim sifatida tarixda qolgan.

***Xorazmiy tomonidan:***

- hisoblash matematikasi yaratildi;
- tenglamalar haqidagi tushunchalar alohida fan darajasiga ko‘tarildi;
- algebra fani kashf etildi;
- yangi geometrik kashfiyotlar yaratildi;
- geometrik kashfiyotlar bilan algebraik munosabatlar orasidagi bog‘lanish kashf etildi;
- hozirgi zamon matematik mantiq va kibernetika fanlarining muhim qismi bo‘lgan algoritmlar nazariyasida asosiy rol o‘ynaydigan tushunchalardan biri – algoritim tushunchasi yaratildi.

Muhammad al-Xorazmiy o‘zining falakiyotga doir ishlarida hindlarning falakiyot jadvallarini taxlil etib, “Xorazmiy ziji” nomi bilan mashhur astronomik jadvallar tuzdi. Xorazmiyning tarix va musiqaga oid, quyosh soatlari to‘g‘risida ham asarlari bo‘lib, “Tarix kitobi” (“Kitob at-tarix”) xalifalik tarixiga oid va xalifalikning birinchi tarixchilaridan sanaladi. Shuni ta’kidlash joizki, alloma o‘zigacha bo‘lgan ilmiy bilimlarning asosiy g‘oyalari, prinsip va metodlarini sintezlashtirdi. U ilmiy bilimlarni o‘rganuvchilarning mustaqil bilim olishlariga

e'tiborni qaratdi, bunda talabani kasbiy kuzatishlariga hamda olgan bilimlaridan foydalanishga katta e'tibor berdi. Olim ilm izlovchilarning ilmiy manbalarni to'plash, ularni ifodalash va kuzatganlarni tushintira olish malaka va ko'nikmalarini hosil qilishga katta baho berdi. Masalan, "Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va-l-muqobala" asarida olimlarni guruhlarga bo'lib shunday yozadi: "Ulardan biri o'zidan avvalgilar qilgan ishlarni amalga oshirishda boshqalardan o'zib ketadi va uni o'zidan keyin qoluvchilarga meros qilib qodiradi". Al-Xorazmiy insonning bilish qobiliyatlarini o'rganuvchi fanlarni tasniflaganda: "*Tarix-xotiraga, she'riyat tasavvurga, falsafa xulosaga, mantiq esa pedagogik ilmlarga tegishlidir*" degan mantiqiy-ilmiy xulosaga keladi. Bu al-Xorazmiy kuzatishlarining nozikligidan. uning chuqur bilimlarga ega bo'lganligidan, har bir fan sohasiga ilmiy yondoshganligidan dalolat beradi.

Al-Xorazmiy "*Aljabr muqobala hisobi haqida qisqacha kitob*" asarida aytadi: "*Men kishilarga hisoblashda nima kerakligini (tekshirib) qaraganimda, buning hammasi son ekanligini ko'rdim*". Agar al-Xorazmiyning matematikaga oid ikkala asari ham umuman olganda hisob va songa taalluqli ekanligini nazarda tutsak, olim bu asarlari bilan insonning kundalik hayotida hisobga ehtiyojini qondirishga harakat qilganligini ko'ramiz. Al-Xorazmiy inson tafakkurining quvvatiga, kishilarning imkoniyatiga ishonar va o'z asarlarini ularga bag'ishlar edi. U algebra bag'ishlangan risolasida: "*Bu asarni yozishdan maqsadi kishilar unga o'z nigohini qaratar degan umid*" ekanligini uqtiradi. Demak, u insonni kundalik hayotida o'z aql-idroki, tafakkur quvvatiga tayanishga undaydi.

Al-Xorazmiyning tabiiy-ilmiy, ma'rifiy-pedagogik qarashlari algebra fanining kelib chiqishi va unga bag'ishlab asar yozishi sababini bayon etishda ham aniq ko'rinadi: "*...Men arifmetikaning oddiy va murakkab masalalarini o'z ichiga oluvchi "Al-jabr va-al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob"ni ta'lif qildim, chunki meros taqsim qilishda, vasiyatnoma tuzishda, mol taqsimlashda va adliya ishlarida, savdoda va har qanday bitimlarda, shuningdek, yer o'lchashda, kanallar o'tkazishda, handasa va boshqa shunga o'xshash turlicha ishlarda kishilar uchun*



*bu zarurdir*". Demak, al-Xorazmiyning bu soʻzidan ravshanki, risola hayot taqozosi tufayli vujudga kelgan.

Al-Xorazmiyning asarlarida insonni ulugʻlash. adolat. vatanparvarlik. mehnatsevarlik. xalqparvarlik. mardlik. saxiylik. kamtarlik. rostgoʻylik, doʻstlik. olijanoblik, karamlilik, muruvvatlilik, odob va axloq, ilmu maʼrifat toʻgʻrisida ilgari surilgan gʻoyalar faqat oʻsha davr uchun ahamiyatli boʻlibgina qolmasdan, bugungi kunda ham oʻzining maʼrifiy-tarbiyaviy qimmatini yoʻqotmagan.

Sharq uygʻonish darvriining yana bir qomusiy olimi "Muallimi soniy" (Ikkinchi muallim) *Abu Nasr Forobiy (873-950)* Oʻrta asr Sharqining mashhur mutafakkiri, qadimgi yunon ilmi va falsafasining sharqdagi eng yirik targʻibotchisi va uning rivojiga hissa qoʻshgan olim. "Falsafani oʻrganishdan oldin nimani bilish kerak?", "Substansiya haqida soʻz". "Falsafaning maʼnosi va kelib chiqishi". "Aql toʻgʻrisida", "Mantiq ilmiga kirish", "Fozil odamlar shahri", "Masalalar mohiyati" kabi 160 dan ortiq risolalar yaratdi. Forobiy birinchilardan boʻlib oʻz davri ilmlarini klassifikatsiya qilgan, ijtimoiy-siyosiy masalalar boʻyicha yirik asarlar yaratgan mutafakkirdir. Forobiyning taʼlim-tarbiya, inson kasbiyatini kamol toptirishning yoʻl-yoʻriqlari, ilm-maʼrifatga erishuvning usullari haqidagi fikrlari ijtimoiy muammolarni yechish masalalariga bagʻishlangan. U oʻz asarlarida didaktika, taʼlim-tarbiyaning psixologik asoslari. etika. nafosatning muhim nazariy masalalarini falsafaning muhim qismi sifatida talqin etib. insonni har tomonlama yaxlit va oʻzaro uzviy bogʻliq boʻlgan qismlardan iborat deb oʻrganish kerak degan fikrni ilgari suradi. Mutafakkir taʼlim tarbiyaga oid asarlarida sezgi, aqliy bilish, bilim, hayotiy tajribalar inson maʼnaviy kamolotining muhim asosi ekanligini taʼkidlaydi. Forobiy "*Baxt-saodatga erishuv toʻgʻrisida*", "*Aql haqida soʻz*", "*Ilm va sanʼatning fazilatleri*" nomli risolalarida taʼlim-tarbiyadan maqsad jamiyat talablariga javob beradigan ideal shaxsni tarbiyalashi zarur degan gʻoyani ilgari surib, bunda taʼlim berish oddiydan murakkabga. quyidan yuqoriga borishi lozimligini koʻrsatadi. Forobiy inson baxt-saodatga erishuvi uchun ularni baxtli saodatli qila oladigan jamoa rahbari boʻlishi kerak, deydi. U fozil shaharni boshqaradigan xokim tabiatdan:

- 1) Sog'-salomat bo'lib, o'z vazifasini bajarishda xech qanday qiyinchilik sezmasligini;
- 2) Tabiati nozik, farosatli;
- 3) Xotirasi mustahkam;
- 4) Zehni o'tkir;
- 5) O'z fikrini tushuntira oladigan notiq;
- 6) Bilim ma'rifatga havasli;
- 7) Taom yoyishda, ichimlikda, turli o'yinlardan (qimor yoki boshqa) huzur olishdan uzoq bo'lishi;
- 8) Haq va haqiqatni, odil va haqgo'y odamlarni sevadigan, yolg'onni va yolg'onchilarni yomon ko'radigan;
- 9) O'z qadrini biluvchi va oriyatli bo'lishi;
- 10) Mol dunyo ketidan quvmaydigan;
- 11) Adolatparvar;
- 12) Qat'iyatli, sabotli, juratli, jasur bo'lishi muhimligini qayd etadi.

Forobiyning fikricha, ta'lim - tarbiya insonni aqlan va axloq an komil shaxs qilib shakllantirishga qaratilishi, uning vazifasi mustaqil fikrlash madaniyatiga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat bolishi lozimligini uqtirib, ilm o'rganuvchi quyidagi 3 shartga rioya qilgandagina maqsadga erisha olishini ta'kidlaydi:

- Muayyan qoidalarga bo'ysunish;
- Muayyan fan sohasiga tegishli emperik dalillardan xulosa chiqara olish salohiyati;
- Boshqalarning fikriga tanqidiy yondosha bilish.

U "Ta'lim degan so'z insonga o'qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish, tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan, ya'ni shu xalq shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo'lgan ish xarakterat, kasb-hunarga o'rganishdir"<sup>12</sup> - deb ta'lim-tarbiyaga ta'rif beradi.

<sup>12</sup>Хайруллаев М. Ўтмиш мутафаккирлари таълим-тарбия ҳақида. Тошкент. 1992й. 79б.

Forobiy ta'limda quyidagi pedagogik va didaktik prinsiplardan foydalanishni tavsiya qiladi:

- *ta'limning ilmiyligi va amaliy ahamiyatga egaligi;*
- *tizimliliigi, mantiqiyligi va ketma-ketligi;*
- *hayot bilan bog'liqligi;*
- *tushunarli bo'lishi;*
- *kuzatish va tajribalar;*
- *dialektik, isbotli, tortishuvli, ritorik va she'riy mulohaza yuritish usullari;*
- *induksiya va deduksiya usuli;*
- *mashqlarni bajarish, takrorlash va h.k.*

Ustoz faoliyati, Forobiy fikriga ko'ra, yosh insonlarda axloqiy talablarni va muayyan fan sohasidagi amaliy malakalarni hosil qilmog'i lozim. Ustozlik faoliyatining maqsadi – o'quvchi shogirdlarni baxt-saodatga erishish yo'llarini qidirishga, izlanishga tayyorlashdir. Shu nuqtai nazardan o'z kasbiga halol yodoshmaydigan, vijdotsiz murabbiylarni Forobiy hurmat, izzatga arzimaydigan kishilar deb qaragan. Ustozning vazifasi davlat boshlig'i bajaradigan ma'suliyatli vazifaga o'xshaydir, deydi u. U nimani ko'rsa va eshitsa xotirada saqlay olishi kerak; o'tkir va uzoqni ko'ra oladigan aql sohibi bo'lmog'i lozim; u o'quvchilarga bilim bera olishni ham sevishi. ayni paytda bu faoliyat hamroxi bo'lgan mashaqqatli mehnatdan xormasligi, mast qiluvchi ichimliklarni ichishdan o'zini saqlashi kerak; haqiqatni va unga intiluvchilarni sevishi; yolg'onni va uni shior qilib olganlarga qattiq g'azab tuyishi; mag'rur ruhga ega bo'lishi va o'z sha'nini yuksak tutishi; o'z shogirdlariga adolatli munosabatda bo'lishi; qo'yilgan maqsadga erishishda qat'iylik ko'rsata olishni talab etiladi.

Abu Nasr Forobiy "*Baxt-saodatga erishuv haqida*" risolasida ta'lim-tarbiyani ikki yo'l bilan amalga oshirishni nazarda tutadi. Bulardan:

*birinchisi* — *ixtiyoriy usul* bo'lib, bunda qanoatbaxsh va ilhomlantiruvchi so'zlar yordamida odat hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi va shaxsdagi g'ayrat-intilish harakatga aylantiriladi:

*ikkinchi usul — majbur etish yo'li* bo'lib, bu usul gapga ko'nmaydigan shaxslarga nisbatan qo'llaniladi.

Forobiy ta'lim-tarbiyada *rag'batlantirish, odatlantirish, majbur etish usullarini* ko'rsatgan. "*Falsafani o'rganishdan oldin nimani bilish kerakligi haqida*" risolasida: "*Qattiqqollik muallimga nisbatan nafrat uyg'otsa, o'ta bo'shanglik esa shogirdning muallimga va uning o'qitayotgan faniga nisbatan mensimaslik xislatini paydo qiladi*"-deb, muallim shogirdiga nisbatan o'ta hokimlikka ham, o'ta bo'shanglikka ham yo'l qo'ymasligi kerakligini aytib o'tadi. Forobiy "*Aql to'g'risida*" risolasida: "*Aqlli deb shunday kishiga aytamizki, unda o'tkir zehn-idrok bo'lishi bilan birga, fazilati ham bo'lsin. Bunday kishi o'zining butun qobiliyati va idrokini yaxshi ishlarni amlaga oshirishga, yomon ishlardan o'zini saqlashga va tortishga qaratmog'i lozim*" deydi. Forobiyning ta'lim-tarbiya to'g'risidagi teran fikrlari, ibratli mulohazalari pedagogik fikr taraqqiyotida muhim o'rin tutadi.

*Abu Ali ibn Sino (980-1037)* falsafa, tabobat, falakiyot, botanika, geologiya, zoologiya, musiqa, mantiq, psixologiya, axloq, tilshunoslik va adabiyot kabi fan sohalariga bag'ishlab asarlar yozdi.

"Tib qonunlari", "Hadiyat ar-ra'is" "Al- majnu", "Kitob al-val-ism", "Tadbir-al manozil", "Donishnoma", "Kitob - ash-shifo", "Kitob an-najot" kabi 450dan ortiq asarlarni yaratgan, lekin ularning 220dan ortig'i bizgacha yetib kelgan. Ulardan 80 tasi falsafa, ilohiyot va tasavvufga tegishli, 43 tasi tabobatga oid, 19 tasi mantiqqa, 26 tasi psixologiyaga, 23 tasi tibbiyot ilmiga, 7 tasi astronomiyaga, 1 tasi matematika, 1 tasi muzikaga, 2 tasi kimyoga, 9 tasi etikaga, 4 tasi adabiyotga va 8 tasi boshqa olimlar bilan bo'lgan ilmiy yozishmalarga bag'ishlangan. Allomaning boy ilmiy merosi tufayli u "Shayx – Ur - Rais", Sharqda "Olimlar boshlig'i", Ovro'pada "Olimlar podshosi" nomlarga sazovor bo'lgan. Ibn Sinoning "Tib qonunlari" asarini tibbiyot qomusi deb atash mumkin. Chunki asar g'arb mamlakatlarida to XVIII asrgacha tibbiy qo'llanma bo'lib kelgan.

Abu Ali ibn Sino o'zidan ilgari yaratilgan barcha fan va madaniyat yodgorliklarini egalladi. Ularning ko'p tarmoqlarini rivojlantirdi, natijada uning

ilmiy merosi jahon fani va madaniyatiga ulkan hissa boʻlib qoʻshildi. Ibn Sino fanlarni tasnif etib, ularni ikkiga: nazariy va amaliy guruhlarga boʻladi. Nazariy guruh kishilarni oʻzidan tashqaridagi borliq holati haqidagi bilimlarni egallashga yoʻllasa, amaliy qism bizga bu dunyoda nimalar qilishimiz kerakligini oʻrgatadi deydi. U birinchi guruhga etika, iqtisod, siyosatni. ikkinchi guruhga fizika, matematika, metafizika, dunyo qonuniyatlarini oʻrganuvchi barcha fanlarni kiritadi. Taʼlimning mazmuni va usullari haqida Ibn Sinoning barcha asarlarida koʻplab fikrlarni uchratish mumkin. "Nurlanish falsafasi" risolasida u shunday deb yozgan edi: *"Har bir fanda eng avvalo predmetlar ta'rifini bilib olish kerak. Ularning mavjudligi esa oxiri oqibatda isbotlash vositasida bilib olinadi, chunki ular ayni mana shu fan tomonidan belgilanadigan xodisalardan iboratdir. Boshqacha aytganda, biz aytamizki, har qanday fan o'z mavzusi, muammolari va asosiy ta'riflariga egadir"*.

Ibn Sino oʻquvchiga taʼlim berishda ularning mantiqiy tafakkuriga, kasbiy kuzatishlari va tajribasiga tayanish kerakligi xususida fikr yuritadi. U "Tadbiri al manzil" asarida bolaning oila muhitidagi tarbiyasiga alohida eʼtibor qaratib, oila jamiyatning ajralmas tarkibiy qismi ekanligini taʼkidlaydi. Olim oilada ota-onaning vazifasi va burchiga katta eʼtibor beradi. Oila munosabatlariga toʻxtalar ekan, ota-onalarning oilada mehnatsevarligi bilan farzandlarini ham kasb - hunarga oʻrgatishi borasida muhim fikrlarni bayon etadi. Insonning xulqi va ruhiga mehnatning ijobiy taʼsirini taʼkidlash bilan bir qatorda turli kasb egalari: hunarmandlar, dehqonlar mehnatini ulugʻlaydi va qimorboz, sudhoʻr kabilarni qoralaydi. U mehnatsiz hayot kechirish insonga ham jismoniy ham ruhiy tomondan salbiy taʼsir etishini toʻgʻri talqin etadi. Ibn Sino oʻqituvchiga taʼlim berishda muvafaqiyatga erishish garovi boʻlgan quyidagi tavsiyalarni beradi:

- *bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy boʻlish;*
- *biriktirilgan bilimning talabalar tomonidan oʻzlashtirilishiga eʼtiborni qaratish;*
- *taʼlimda turli shakl va metodlardan foydalanish;*
- *talabaning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, kasbiy xususiyatlarini bilishi;*
- *fanga qiziqтира olishi;*

- *berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olishi;*
- *bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish;*
- *axloq qoidalarini yaxshi bilishi;*
- *o'z talabasining tabiatini, mijozini va aqliy salohiyatini o'rganishi;*
- *ta'limda so'zlarini imo-ishora, undovlar bilan ham ifodalay olishi;*
- *har bir so'zning bolalar hissiyatini uyg'otish darajasida bo'lishiga erishish.*

Ibn Sino inson kamolotida aqliy, axloqiy tarbiya bilan bir qatorda jismoniy tarbiyaning ham nazariy, ham amaliy ahamiyatini taxlil etadi. Insonning kamolga yetishida jismoniy tarbiyaning ta'siri haqida Ibn Sinogacha bir butun, yaxlit, ta'limot mavjud bo'lmagan. Alloma badanni toza tutish, to'g'ri ovqatlanish, jismoniy mashqlar va uyqu, tartibiga rioya etish inson sog'lig'ini saqlashda muhim omillardan ekanligini ham ilmiy ham amaliy jihatdan asosladi. Bolaning yetuk inson bo'lib shakllanishida unga g'amxo'rlik qilish, tarbiya mas'uliyatini his etish, unga nisbatan do'stona munosabda bo'lish zarur, deydi olim.

Ibn Sino axloqiy tarbiyaga doir quyidagi fikrlarini bayon qilgan: *“Yaxshi va yomon xulqning hammasi sharoit, tarbiya, odatlanish natijasida vujudga keladi”. “To'g'rilik, agar u to'g'riligi isbotlanayotgan narsaning bevosita o'zida topilsa, u holda u o'sha narsani mustahkamlaydi, yaxshilaydi”, “Xulqning muvozanatda bo'lishi salomatlikni saqlaydi”, “Xulqlarning barchasi o'z tabiati bilan go'zal, yomon xulq-atvorga esa keyin erishilgan bo'ladi”.*

Olim shu bilan birga ta'lim tarbiyaga oid bir qancha tushunchalarni ta'riflagan:

- *Ilm-narsalarning inson aqli yordami bilan o'rganilishini;*
- *Bilim narsalarni idrok qilish ekanligi;*
- *Farosat – sezgidan keladigan ishoraning asl ma'nosiga tezda yetishmoq ekanligi;*
- *Sabr inson boshiga tushgan alam va chidab bo'lmas og'riqni to imkoni yetggunga qadar ushlab turish;*
- *Shijoat-dovyuraklik qo'rqqoqlik bilan qo'pollik o'rtasida bo'ladi;*
- *Sahiylik – yordamga muxtoj kishilarga ko'maklashuvchi insoniy quvvat;*

- *G'azab – biror ishni bajarishda jasurlik;*
- *Chidamlilik – inson o'z boshiga tushgan yomonliklarga bardosh beruvchi quvvat;*
- *Aqllilik – biror ishni bajarishda shoshma – shosharlikdan saqlovchi quvvat;*
- *Ziyraklik - narsalar va hatto harakatlarning haqiqiy ma'nosini tezlik bilan tushunishga yordam beruvchi quvvat, achinish, kishilar baxtsizlik, azob – uqibatga duchor bo'lganda, ular bilan xushmuomalada bo'luvchi insoniy quvvat;*
- *Kamtarlik - xudbin ishlar bilan shug'ullanishdan to'xtatuvchi kuch degan ta'riflarni beradi.*

Ibn Sino “Tib qonunlari” asarida bola tarbiyasini ona qornidaligidanoq boshlash masalasiga alohida e'tibor beradi. Uning fikricha, bola tug'ilganidan boshlab ma'lum tartibda ovqatlantirilishi, cho'miltirilishi, uxlatilishi, yo'rgaklanishi lozim. Ibn Sino bola tabiatini mustahkamlashda asta-sekin aytilgan allaning, eshittirilgan musiqaning, osoyishta tebratishning foydasi xusuida so'z yuritib, tebratish uning tanasiga, musiqa uning ruhiyatiga orom baxsh etishini ta'kidlaydi:

*Bolaga do'q qilma, yomon bo'lma qo'pol,*

*Uyqu qochar, qo'r qar, axir bo'lur battol.*

*Yumshoq beshik bo'lsin o'rni uxlaganda.*

*Qorongulik tushib tursin misli tunday...*

Ibn Sino nazarida, “*Bola xulqini mo'tadillikda saqlashga alohida e'tibor berish kerak. Bundan ikki manfaat bor. Biri - bolaning ruhi uchun bo'lib, u yoshlikdan boshlab yaxshi xulqli bo'lib o'sadi va keyinchalik bu unga ajralmas malaka bo'lib qoladi. Ikkinchisi — uning badani uchundir, chunki yomon xulq turli mijoz buzilishlaridan bo'ladi. Shuningdek, agar yomon xulq odatga kirib qolsa, u mijoz buzilishini keltirib chiqaradi. Masalan, g'azab kuchni qizdiradi, qayg'u kuchni quritadi...*”.

Ibn Sino bolani kamolotga erishishining birinchi mezoni hisoblangan ilmu ma'rifatni egallashga da'vat etadi. Chunki, ilm-fan insonga xizmat qilishi, ilmni o'rgangan har bir kishi o'zi o'rganganlarini kelajak avlodlariga yetkazishi, bu yo'lda qiyinchiliklardan qo'rqqanligi zarur, deydi. “Ey birodarlar! Odamlarning

botiri mushkulotdan qo'rqmaydi. Kamolot hosil qilishdan bosh tortgan kishi odamlarning qo'rqog'idir". Zero, ma'rifatli kishi jasur, o'limdan ham qo'rqmaydigan, faqat haqiqatni bilish uchun harakat qiladigan bo'ladi, deydi u fikrini davom ettirib. Shuningdek, insondagi yomon illatlarni bartaraf etishda ilmu ma'rifatning ahamiyati, insondagi aqlu-tafakkur quvvatining yomon illatlardan qutilishi, o'zligini anglash vositasi ekanligini ta'kidlaydi. Ibn Sinoning axloqiy tarbiya haqidagi qarashlari o'z mohiyati bilan insonparvarlikka ega. Olim axloqlilikning asosini yaxshilik va yomonlik tushunchalari bilan ta'riflaydi: *"Dunyoda mavjud bo'lgan jami narsalar tabiatiga ko'ra kamolot sari intiladi. Kamolot sari intilishning o'zi esa mohiyat e'tibori bilan yaxshilikdir"*.

Ibn Sino yuksak axloqiy xislatlarga yana kishilarning bir-birlariga do'st bo'lib yashashi, hamkorlik qilishini ham kiritadi. Chunki, har bir kishi jamiyatda, odamlar bilan yashar ekan, ular bilan do'stona yashashga intiladi. U insonda yaxshi hulqning shakllanishida xushhulq, ilmi do'st muhim rol o'ynaydi, deydi.

*Olim do'stlikni 3 turga bo'lib, shunday ta'rif beradi:*

- 1) *Har qanday qiyinchiliklarga qaramay o'z do'stini xavf xatarda yolg'iz goldirmaydigan do'stlik;*
- 2) *Manfaatlari o'xshash va g'oyaviy yaqinlikka asoslangan do'stlik;*
- 3) *O'z kasbiy manfaati va ehtiyojini qondirishga qaratilgan do'stlik.*

Olim birinchi va ikkinchi toifa do'stlikni haqiqiy do'stlik deb e'tirof etadi.

Ibn Sino shaxs kamolotining muhim axloqiy jihatlari pedagogik-psixologik nuqtai nazardan ta'rif beradi. Olim adolatni ruhiy lazzatning bosh mezonini, deb hisoblaydi. Inson qanoat, jasurlik, donolik bilan adolatga ega bo'ladi, yomon illatlardan o'zini tiyib, yaxshilikni mustahkamlaydi, haqiqiy ruhiy lazzat oladi, deydi. Insondagi ijobiy axloqiy xislatlarga saxiylik, kamtarlik, sevgi-muhabbat, mo'tadillik, aqllilik, ehtiyotkorlik, qat'iyatlilik sadoqat, intilish, uyatchanlik, ijrochilik va boshqalarni kiritadi. Shuningdek, ibn Sino insonning barkamol bo'lishiga to'sqinlik qiluvchi nuqsonlar sifatida johillik, nodonlik, shafqatsizlik, takabburlik va nafratning ham ta'rifini beradi. Johillikni - ilmga, nodonlikni - zehni o'tkirlikka, shafqatsizlik va takabburlikni - adolatga, nafratni - sevgi - muhabbatga



qarshi illat sifatida ta'riflaydi. Ibn Sinoning ta'lim-tarbiyaviy qarashlarida oila munosabatlari va oilaviy tarbiya masalalariga ham keng o'rin berilgan. Olim oila munosabatlariga to'xtalar ekan, ayniqsa, ota-onaning vazifasi va burchiga katta e'tibor beradi. U bolada axloqiy xislatlarni mehnat, jismoniy va aqliy tarbiya bilan uzviy holda shakllantirishni, uni barkamol shahs qilib tarbiyalashda asosiy omil deb biladi. Ibn Sino ko'rsatmalilik ta'limni aniq, yorqin va qiziqarli qiladi, kuzatuvchanlik va fikrlash, mushohada yuritishni o'stiradi deydi. Narsalarning aslini yoki ularning suratini ko'rish orqali bolalarda ular haqida ma'lum bir tasavvur hosil bo'ladi. Olim o'qitishning oddiydan murakkablikka tomon yo'naltirishdan kelib chiqqan holda mashqlar qildirish, o'qitishni esa faqat chuqurlashtirish asosida, ya'ni sinf tarzida o'tkazish zarur, deb hisoblaydi. Ibn Sino yakka tarzda o'qitgandan ko'ra, guruhlarda (sinfda) o'qitish ko'proq samara beradi, chunki guruhlarda o'quvchilar o'rtasida o'z-o'zidan musobaqa paydo bo'ladi, deydi: *"Bolalarni guruh qilib o'qitish tashkil qilinsa, juda yaxshi samara beradi. Chunki bu jarayonda ular bir-birlaridan ibrat oladilar". O'quvchilar o'qish va tarbiya davomida ilmga chanqoqlik sezadilar. O'z bilimlari bilan g'ururlanadilar, bir-birlarining bilimlariga havas qiladilar. G'urur va o'ziga e'tibor tarbiyalanuvchilarni bir-birlaridan orqada qolmaslikka undaydi. O'quvchilar birga bo'lganda, doim bir-birlari bilan gaplashadilar va bu bilan o'z xotiralari va nutqlarini rivojlantiradilar"*.

Ibn Sinoning "Tib qonunlari" asarining birinchi kitobidan o'rin olgan "Ro'zg'or yuritish haqida risola"sida bola tarbiyasiga oid juda ko'p pedagogik tavsiyalar bayon etilgan. *"Tarbiyadan maqsad, - deydi olim, bolaning aqliy va jismoniy quvvatlarini o'stirishdir. Chunki bola yaxshi yoki yomon, yovuz yoki olijanob bo'lib dunyoga kelmaydi. U bu xususiyatlarga tarbiya, atrofdagilar ta'siri tufayli erishadi"*. Ibn Sinoning fikricha, bola qalbi, misoli "Pokiza oyna". Unga istalgan shaklni chizish mumkin. Bolada olijanob ma'naviy - axloqiy xususiyatlarni shakllantirish uchun mashq uslubidan foydalanish, ya'ni uni hayotda qo'llashga o'rgatish kerak. Olim suhbat, tushuntirish, misol keltirish kabi uslublarning imkoniyatlari haqida so'z yuritadi. Salbiy xislatlarni tuzatish, shaxsni qayta

tarbiyalash muammosi haqida ham mulohaza bildiradi. Buning uchun avvalo bolani har tomonlama o'rganish va shu asosda undagi salbiy qiliqlarni bartaraf etish, ijodbiy fazilatlarni shakllantirishga kirishish mumkin. Olim ayniqsa, jismoniy mashqlarga katta e'tibor beradi. Tug'ilgan kundan boshlab bolaning jismoniy rivojlanishi xususida qayg'urish kerak, deydi. Buyuk tabib bola jismidagi har bir a'zoning salomatligini ta'minlash uchun lozim bo'lgan maxsus mashq usullari ishlab chiqqan. Bu mashqlarni tananing holatiga muvofiq bajarish, kamquvvat, zaif a'zolari og'ir jismoniy mashqlar bilan toliqtirmaslikni ta'kidlaydi. U ishlab chiqqan mashqlar kichik va katta, juda kuchli va zaif, tez va sekin, keskin va tez harakatni taqazo etadigan harakatlarga bo'linadi.

XI asrning buyuk mutafakkiri *Yusuf Xos Hojib* taxminan 1020 yilda tug'ilgan. Yusuf Xos Hojib o'z davrining yetuk mutafakkiri, chuqur bilimli, donishmand kishisi edi. Uning "Qutadg'u bilig" asari 6500 baytdan yoki 13000 misradan iborat bo'lib, unda olimning tibbiyot, falakiyot, tarix, tabiyot, geografiya, riyoziyot, handasa, falsafa, adabiyot, ta'lim-tarbiya, fiqhga oid fikrlari bayon etilgan. Qutadg'u bilig - baxt va saodatga eltuvchi bilim, ta'lim degan ma'noni bildirib, mazmunan pand-nasihatlar, ta'lim-tarbiyaga oid, har tomonlama komil insonni tarbiyalaydigan yetuk didaktik asardir. Adabiyotshunos olim B.To'xliiev "Qutadg'u bilig"ning pedagogik ahamiyati haqida shunday yozadi: "...*Komil inson haqida gapirar ekan, kamolotning qator belgilarini ko'rsatib o'tadi. Ularning eng asosiysi alohida shaxsning o'z manfaatlari, kasbiy istaklari doirasini yorib chiqib, boshqalar g'ami bilan yashashi, ko'pchilik manfaati uchun fidoyi bo'la bilishdir*". "Qutadg'u bilig"dagi bosh g'oya-insonni hayotda baxt-saodatga eltuvchi asosiy qarashlari to'rt ramziy qahramon: Kuntug'di-elig podsho –adolat timsoli, Oyto'ldi-vazir-davlat timsoli, O'gdulmish-vazir-aql timsoli, O'zgormish – vazirning qarindoshi – qanoat timsolining hayoti va davlatni boshqarish jaryonidagi hattiharakatlari va fikrlari orqali berilganki, bular inson kamolotining muhim mezonini sanaladi. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida markaziy masala inson kamoloti masalasidir. Asarda insonning haqiqiy baxti bilimda ekanligini bayon etilib, ilm, zakovatning ahamiyati haqida fikr yuritish bilan birga ilm-ma'rifatning

amaliyotdagi o'rnini ham yoritilgan: *"Bilim va zakovatni egallab, uni kishilar uchun xizmat qildirmasdan kishilardan yashirib, sir tutib yurish yaramaydi, mumkin ham emas. Chunki dengiz tubidagi injuni odam olib chiqmasa, uning soy toshidan farqi yo'q, yer qobig'idagi oltin tosh kovlab olingandagina shohlar boshidan o'rin oladi. Xuddi shuningdek, o'rganilib, amal qilinmagan bilim ham u yillar o'tgani bilan zim-ziyolikda, ro'yobga chiqmasdan befoyda yotaveradi"*. Yusuf Xos Hojib ilmi, ma'rifatli kishilar mash'al kabi hayot yo'lini yoritib berishlari, to'g'ri yo'l ko'rsatishlari uchun qadrlash kerakligini ta'kidlaydi. Dunyoda inson bilim va zakovati tufayli orzu-tilaklarga, ulug'likka erishilishi, bilim va zakovatning qadriga donolar va zakovatlilar yetishi, johil va telbalar bunday xislatlarga ega emas, deydi. Chunki u jamiyatdagi barcha xatolar bilimsizlik, nodonlik, jaholat tufayli sodir bo'lishidan qayg'uga tushadi, hayotda nodon va johillar ko'payib ketganligidan afsuslanadi.

Yusuf Xos Hojib xalqni boshqaruvchilarni va yurtni idora etuvchilarni ikki toifaga bo'ladi: adolatli siyosatni yurituvchi beklar, dono olimlar. Siyosatchilar yurtni boshqarsa, olimlar ma'rifiy yo'l-yo'riq ko'rsatadi. Olim bilimni insonni yuksaltiradigan, jahonning sir-asrorini bilib olishga yordam beradigan, ziyoga, tengi yo'q javohirga o'xshatadi. Barcha ijobiy natijalarga bilim tufayli erishilishini ta'kidlaydi. Bilim va zakovatni muqaddas do'st, mehribon qarindosh, kiyim va ozuqa sifatida ta'riflab, bu boylikni, hech kim o'g'irly olmasligini uqtiradi. Asarda insoniylik, rostgo'ylik, to'g'rilik, soflik, mehr-muhabbat, vafo, shafqat, muruvvat, insof, adolat, ishonch, sadoqat, xushmuomalalik, shirinsozlik, saxovat, mardlik, himmatlilik, tavoze, hurmat va ehtirom, tadbirkorlik kabi axloqiy xislatlar mohiyati to'laqonli ochib beriladi. Aql zakovat, halollik, ezgulik kabi xislatlar ulug'lanadi, ularga yolg'onchilik, noinsoflik, fisqu fasod, bevafoqlik, mehrsizlik, dag'allik, qo'pollik, baxillik, nomardlik, quvlik, hurmatsizlik, nodonlik, johillik, haromxo'rlik, ochko'zlik kabi xislatlarni qiyoslab, ezgu xislatlarning yaxshi oqibatleri va salbiy xususiyatlarning yomon oqibatlerini misollar vositasida ishonarli qilib bayon etadi. Mutafakkirning fikricha kishi ikki narsa bilan hayotda mangu qoladi: biri xushxulqlik bo'lsa, ikkinchisi yaxshi so'z.

Yusuf Xos Hojib oila a'zolarining bir-biriga bo'lgan muomala-munosabatlari katta yoshlilarning kichiklarga, kichiklarning ulug'larga, amaldor va mansabdorlarning o'z xizmatchilariga, xizmatchilarining o'z xo'jalariga, turli ijtimoiy guruh a'zolarining bir-birlariga, oilada oila a'zolarining bir-birlariga muomala madaniyati masalalariga alohida e'tibor qaratgan.

Yusuf Xos Hojib kishilarni o'ylab oila qurishdan boshlab, farzand tarbiya etish, oilaning moddiy ta'minotini yuritishgacha bo'lgan eng zaruriy vazifalarni birma-bir bayon etadi. U oiladagi farzand tarbiyasiga alohida e'tibor berib, farzand tug'ilganidan boshlab xulq-odob qoidalarini, bilim va hunarni o'rgatish, buning uchun pok va bilimli muallim-murabbiy tanlash, farzandning hatti-harakatini doimo nazoratda saqlash kabi muhim jihatlarga to'xtaladi. Yusuf Xos Hojib kishilarning xulq atvoridagi bilimlilik bilan johillik, yaxshilik bilan yomonlik, yorug'lik bilan ziyo, rost bilan yolg'onchilik, samimiylik bilan yasamalilik, kamtarlik bilan takabburlik, saxiylik bilan baxillik va boshqa juda ko'p axloqiy xislatlarni taqqoslash orqali mohiyatini ochib berishga intilgan.

Yusuf Xos Hojib kishilarning o'zaro munosabatida o'rtamiyonalikni tavsiya etgan. Shunda do'st dushmanga aylanmaydi, ezgu ishlar amalga osha boradi, deb ta'lim beradi. Xulosa qilib aytganda, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida insonni kamolotga yetishi uchun quyidagilarni nazarda tutadi:

- aqliy kamolot – bilim, zakovat, o'quvga ega bo'lish;
- axloqiy kamolot;
- jismoniy kamolot.

Yusuf Xos Xojib insonning kamolga yetishining yuksak mahorat bilan yoritib berdi. Bu usul va choralar, yo'l-yo'riqlar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda. Shuning uchun ham bu asar insonni har tomonlama kamolga yetkazishda ilmiy, ma'rifiy, tarbiyaviy ahamiyatga ega.

***Abu Rayxon Beruniy pedagogik qarashlari.*** Abu Rayhon Beruniy (973-1048) 362 yil 3-zulhijjada (milodiy 973 yil 4-sentyabr) Xorazmning Qiyod (Kot) shahrida dunyoga keldi. Berun yoki birin so'zi "tashqari" degan ma'noni anglatadi.

Beruniy Xorzam tili bilan birga sugʻdiy, forsiy, suryoniy, Yunon, qadimgi yahudiy tillarini, hatto qadimgi hind tili sanskritni ham oʻrgangan. U Yunon klassik ilmi, astronomiya, geografiya, botanika, matematika, geologiya, tarix, etnografiya, falsafa va filologiyadan ham chuqur bilim oladi.

Abu Rayhon Beruniy ilmiy asarlar roʻyxati 152 ta kitob boʻlib, uning 31tasi yetib kelgan. Bular “Geodeziya”, “Hindiston”, “Saydona”, “Tafxim” (“Munajjimlik fanining maʼlumotlarini tanishtirish kitobi”) kabi asarlaridir. Beruniy insonni tabiatning bir qismi deb bilgan, ilmni oʻrganishda “Oʻzim tekshirmagunimcha ishonmayman” degan shiorga bir umr amal qilgan.

Ilmiy bilimning eng muhim usuli, Beruniy talqinicha, erkin suhbat, savol-javobdir. Shuningdek olimning fikricha, ilgari qoʻlga kiritilgan maʼlumotlarni tekshirish va aniqlash maqsadlarida yozma manbalarni oʻrganish muhimdir.

Beruniy oʻz davrida oʻqitishning soxta, puch metodlariga qarshi chiqib, “Oʻquvchini hamma narsaga oʻrgatish”ga, tabiiy koʻrsatmalarga asoslanishga, bolaning kasbiy xususiyatlarini hisobga olishga chaqirgan. Beruniyning didaktik qarashlari mohiyatan ilgʻor gʻoyalarga asoslanadi. U taʼlim jarayonida oʻqitishning turli shakl va metodlarini qoʻllashni taklif etib shunday yozadi: “*Oʻquvchi fandan fanga oʻtib tursa, turli bogʻlarda yurganga oʻxshaydi. Birini koʻrib ulgurmay, boshqasi boshlanadi va oʻquvchi ularni koʻrishga qiziqadi. Bir xil narsa charchatadi, xotiraga malollik keltiradi*”.

Bilimlarni oʻquvchilarga tushunarli boʻlishi, taʼlimda samaradorlik uchun Beruniy quyidagilarga amal qilishni tavsiya etadi:

- *sezgi organlarining maʼlumotlariga koʻra... bilishni davom ettirish;*
- *fanni oʻrganayotganda fikrlash, xotirlab esga olish;*
- *oʻrganilayotgan ilmlarni toʻla bilish uchun, oʻsha ilmni tashkil etib turgan unsurlarni puxta oʻrganib chiqish;*
- *bilishda oddiydan murakkabga, maʼlumdan nomaʼlumga, yaqindan uzoqqa, osondan qiyinga, dalillardan xulosalarga qarab borish;*
- *uzoq oʻtmishga oid bilimlarni oʻrganganda shu ilm, fan tarixini oʻrganish;*

- hodisalarni, fan asoslarini bir-biriga taqqoslab, solishtirib, har tomonlama chog'ishtirib o'rganish.

Beruniy fikricha, kishi ehtiyoji tufayli paydo bo'lgan til uning hayotiy zaruriyatiga aylanib, doimo rivojlanib hamda takomillashib boradi. Bunday mehnat qilish jarayonida til kishilar fikr almashuvi, muomala qilishi va tajriba almashinishida asosiy vosita sifatida muhim rol o'ynaydi. Tilning bunday vazifasini va ijtimoiy hayotda tutgan o'rmini yaxshi payqagan Beruniy *"So'z, til yordamida hamma narsaga erishsa bo'ladi"*, - deydi. Mana shuning uchun ham mutafakkir muomala vositasi - til kishilarning o'zaro fikr almashish ehtiyoji tufayli paydo bo'lgan, degan qat'iy ilmiy xulosaga keladi.

Beruniy ilm o'rganish insonlar uchun foyda ekanligi hususida shunday yozadi: *"Ilmni uning mohiyati uchun o'rganadilar. Ilm o'zi lazzat bag'ishlaydi. Odamlar ilm tufayli ezigulikka erishadilar. Ular ilm tufayli yovuzlikdan xalos topadilar. Shuning o'zi eng aniq foyda, eng katta davlat emas-mi, axir"*.

Shuningdek, Beruniy bilim umuminsoniy qadriyatlarini o'rganishning kaliti ekanligini, ilm-ma'rifatli odam jamiyat taqdiri, insonlar taqdiri uchun kurashuvchan, barcha yomonliklardan uzoqda bo'lishini ta'kidlaydi: *"Ilmning foydasi ochko'zlik bilan oltin-kumush to'plash uchun bo'lmay, balki u orqali inson uchun zarur narsalarga ega bo'lishdir"*.

Beruniyning fikricha, yoshlarning ijtimoiy kamoloti ilm-fan yordami bilan tarbiyalanadigan yuksak intellektual va axloqiy qoidalarni hamma joyda joriy qilish jarayonida amalga oshiriladi. U insonning axloq - odobli bo'lishi, yurish-turish va hayot kechirishning barcha qoidalariga rioya qilishi lozimligini, bu esa uning o'ziga bog'liqligi hususida shunday yozadi: *"Inson o'z ehtiroslariga hukmron, ularni o'zgartirishga qodir, o'z jon va tanini tarbiyalar ekan, salbiy jihatlarni maqtagulik narsalarga aylantirishga uni ma'naviy shifokorlik bilan davolashga hamda asta-sekin axloq haqidagi kitoblarda ko'rsatilgan usullar bilan illatlarni bartaraf etishga qodirdir"*.

Beruniy insonning tabiati va insonning jamiyatdagi o'rni masalalariga baho berishda ham o'z davrining yirik tarbiyashunos olimi edi. Olim o'z asarlarida inson

o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy mavjudot ekanligini, u faqat boshqa kishilar bilan birgalikda yashay olishini ta'kidlaydi. Mutafakkir iisonning olijanoblighi haqida mulohaza yuritib, insonning qiyofasi uning hayot tarzi, ta'lim-tarbiyasi bilan aniqlanadi, degan xulosaga keladi. Mana shu fikrlarining o'ziyoq Beruniyni kishilik jamiyati vujudga kelishi va insonning ta'lim-tarbiyasi muammosiga aql-idrok bilan yondoshganini ko'rsatadi. Beruniy ayni chog'da iste'dodli tarbiyashunos bo'lgan. Olimning "Kitob al-javohir fi-ma'rifat al-javohir" ("Mineralogiya"). "Al asorul boqiya anil-qurun il-xoliya" ("Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar"), "Attafhim-li avoidi sinoatit tanjim" ("Munajjimlik san'atidan boshlang'ich tushunchalar"), "Tarixul hind". ("Hindiston") va boshqa asarlarida pedagogika va psixologiya masalalariga oid g'oyat qimmatli fikr-mulohazalari mavjuddir. Olim ilmiy-pedagogik faoliyatida o'z davrida ma'lum bo'lgan deyarli barcha fan yutuqlariga tayangan, tarbiyashunoslik va ruhshunoslik ilmi bo'yicha dadil fikrlarni ilgari surgan. *"Hind munajjimlari yoniga borganimda", - deb yozadi u "Hindiston" asarida, - dastlab o'zimni muallim huzuridagi shogird kabi tutdim, chunki men ular orasida muhojir va ularning yutuqlari, usullaridan bexabar edim. Shu borada bir oz bilim orttirgach, men ularga riyoziyot fanining haqiqiy usullarini tushuntira boshladim. Ular huzurimga to'p-to'p bo'lib kelar, hayron qolar, shuningdek, mendan foydali bilim olishga intilishardi".*

Bilim tarqatish ishtiyoqi bilan to'lib-toshgan Beruniy yevklidning riyoziyot ibtidosi haqidagi kitobi va Ptolemeyning "Al-magest" asarini hindlarning sanskrit tiliga tarjima qilgan. Bundan tashqari, hindlarga o'zining usturlob haqidagi asarini aytib turib yozdirdi. Talabalar tushunishi oson bo'lishi, hamda ular turli kitoblarni qidirib yurmasligi uchun u o'z asarini iloji boricha sodda yo'sinda yozar edi. Beruniy "Tafxim" ("Munajjimlik fanining ma'lumot-larini tanishtirish kitobi") nomli asarida didaktika muammolariga, ayniqsa, riyoziyot fanlarini o'qitish va uni keng yoyishga jiddiy e'tibor bergan. Olimning mazkur asari o'ziga xos qomusdir, unda arifmetika, algebra, xandasa va falakiyotga oid turli masalalar bo'yicha talay ma'lumotlar to'plangan. Shu boisdan "Tafxim"ni faqat muhim ilmiy asar debgina emas, balki g'oyat ko'p qirrali tarbiyaviy hikmatlarga boy o'quv qo'llanmasi desa

bo'ladi. Beruniy o'zining ma'rifiy-pedagogik qarashlarida ta'lim- tarbiya birligi va axloq masalalariga ham faqat o'z davrining yetuk mutafakkiri sifatida emas, balki yetuk tarbiyashunos olim sifatida yondoshadi. Istedodli mutafakkirning ma'rifiy-didaktik qarashlarida, o'quvchi-talabalarni o'qitish va tarbiyalash jarayonida, birinchidan, turli mavzular yuzasidan mulohazalar yuritishni, shuningdek, o'quvchi-talabani zeriktirmaslikni, xotirasiga malol keltirmaslikni ta'kidlab: *"Bizning maqsadimiz o'quvchi (talaba)ni toliqtirib qo'ymaslikdir, hadeb bir narsanqi o'qiy berish zerikarli bo'ladi va toqatni toq qiladi. Agar o'quvchi (talaba) bir masaladan boshqa bir masalaga o'tib tursa, u xuddi turli-tuman bog'-rog'larda sayr qilgandek bo'ladi, bir bog'dan o'tar-o'tmas, boshqa bog' boshlanadi. Kishi ularning hammasini ko'rgisi va tomoish qilgisi keladi. Har bir yangi narsa kishiga rohat bagishlaydi, deb behuda aytilmagan"*, - deydi.

Beruniy mamlakatning obodonligi ilm-fanning ravnaqiga bog'liq bo'lsa, yoshlarning baxt-saodati va kamolotini uning bilimi va ma'rifatiga bog'liq deb biladi va yoshlarni ilm-ma'rifatga chorlaydi: *"Ilm dargohiga kirar ekansan, qalbing kishini ozdiruvchi illatlardan, odamni ko'r qilib qo'yadigan holatlardan, chunonchi, qotib qolgan urf-odatlardan, hirsdan, raqobatdan, ochko'zlikni quli bo'lishdan ozod bo'lmogi darkor"*.

Beruniyning fikricha, yoshlar kasb-hunar va ish-tajribaning ibtidosiga ega bo'lganlaridan keyin, ularni asta-sekin egallashda yuqorilay boradilar va nazariy bilimlarini mantiqiy fikrlash yo'lida ishlatishga odatlanadilar. Shu tartibda bolalarga ilmlarni o'rgatish yo'li bilan ular to kamolga yetguncha ta'lim-tarbiya qilinadi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad savodsizlikka barham berishdir. Olim yoshlarga bilim berish, ularni xat-savodli qilish haqida gapirarkan, bu o'rinda o'zining "Hindiston" asarida qog'ozning paydo bo'lishi, yozuvning vujudga kelishi, yozuvning o'ziga xos xususiyati va belgilari, o'quv qurollari, har bir xalqda ta'lim berish va o'qitishning o'z tizimi haqida ham batafsil ma'lumot beradi. Beruniyning ma'rifiy-pedagogik qarashlarida ta'lim bilan tarbiya birligi masalalari muhim o'rin tutadi. Olim ilmi bo'lish, yaxshi inson bo'lish oson emasligi va bu esa faqat chidam bilan qilingan mehnat mahsuli ekanligini ta'kidlab: *"Daryolarning doimo dengizga*



*quyilishi uning suviga ta'sir ko'rsatmaganidek, amal va lazzat — haqiqiy ilm oluvchiga ta'sir ko'rsata olmasligi kerak*", — deydi.

Bu yerda Beruniy ilm oluvchida ilmga nisbatan intilish va quvonish, sharoit va vaqt masalalarini ham ta'kidlaydi. inson ilm olish uchun o'z ko'nglini barcha illatlardan tozalashi, pok bo'lishi lozim, degan marifiy-pedagogik qarashlarini ilgari suradi. Bu bilan ta'lim va tarbiya birligi tufayligina barkamol shaxsni tarbiyalab yetishtirish g'oyasi ustunligini amalda isbotlaydi.

*"Inson eng olijanob fazilatlar sohibidir, — deb yozadi Beruniy "Mineralogiya" nomli asarida, — yaqin do'sti bor kishi chinakam baxtiyor kishidir. U do'st munosib hayot tarziga ega, yoqimli xususiyatlar sohibi bo'lishi lozim. Ana shunday chin do'st har bir kishida bitta bo'ladi. Bundan ortiq bo'lmaydi. Odam hamisha boshqalarga yaxshilik ko'rsatishi kerak. Agar yaxshilik qilish imkoniga ega bo'lmasa, yaxshi tilaklar izhor etsin"* — deydi u.

*"Insonning chehrasi chiroyli, qaddi-qomati kelishgan bo'lsa, unga boqish yoqimli bo'ladi. Kishining ismi ham jarangdor bo'lishi kerak. Kishining chehrasi hali u onasining qornidalik paytidayoq shakllanadi. Shuning uchun uni o'zgartirib bo'lmaydi. Lekin odam axloqiy qiyofasi va turmush tarzini o'zgartirmoqqa qodir. Agar kishi o'z hirslaridan ustun tura olsa, o'zidagi bor nuqsonlarni yo'q qilib, ularni yaxshi sifatlarga aylantira oladi"*.

Mutafakkir "Mineralogiya" asarida ijtimoiy-foydali mehnatda hunarmandchilik sirlarini, ayniqsa, ayollar uchun zeb-ziynat buyumlar yasashda xotin-qizlarning ishtirokini, ularning zargarlik san'atidagi qobiliyatlarini ham e'zozlab, ajoyib fikrlarni aytgan. Barcha qimmatli narsalar inson mehnati bilan yaratiladi va inson qadr-qimmatini uning avlod-ajdodining kim bo'lganligi bilan emas, balki o'zining halol mehnati bilan belgilanadi. Shuning uchun ham Beruniy oilada hammani o'z kuchi va qobiliyatiga qarab ijtimoiy-foydali mehnatning, kasb-hunarning biror turi bilan shug'ullanishga da'vat etadi. Biror kishi ham bekorchi bo'lmasin. Bekorchilik jamiyatga moddiy, ham ma'naviy zarar keltiradi, deb ko'rsatadi. Beruniy mehnat va kasb-hunar yoshlar tomonidan erkin, ya'ni ixtiyoriy ravishda qobiliyatiga yarasha tanlanishi zarurligini ta'kidlaydi. Chunki erkin ijodiy mehnat va zo'r qiziqish orqali

tanlangan kasb-hunar foydali bo'lish bilan birga, kasbni takomillashtiradi, hunar sohibini ulug'likka ko'taradi. Majburiy mehnat va ixlossiz egallangan kasb-hunar esa samarasiz bo'ladi, deydi. Beruniyning xotira ilgari o'tgan voqeyalarni bilib olish va ongda qayta tiklashni ta'minlashi bilan inson ruhiy faoliyatining ajralmas qismi ekani haqidagi fikrlari hozirgi zamon psixologiya fanidagi xotiraning vazifasi va ahamiyati to'g'risidagi tushunchaga aynan muvofiqdir. Beruniy psixologiya masalalarini bilish faqat tarbiyachi, o'qituvchi va ota-onalar uchungina emas, balki munajjimlar uchun ham zarurligini uqtiradi. Buning sababini esa munajjim o'z oldiga kelgan kishining so'zlaridagi va xarakteridagi har bir faktni hisobga olishi, shundan keyingina psixologik tajriba va hayotiy bilim asosida to'g'ri mantiqiy xulosa chiqarishi kerak, deb izohlaydi. Shubhasizki, Beruniyning o'zi ham o'tkir zehniligi, ko'p masalalar xususida bashoratli so'zlarni aytishi bilan shuhrat qozongan.

Beruniy ta'limning muhim masalasi ta'lim jarayonida amaliyotda sinalgan, ishonchli dalillar bilan o'quvchi-talabalarni qurollanishidir, deb hisoblaydi. Uning fikricha, har qanday ta'lim jarayoni o'quvchi-talabalarning ongli faoliyatini, uning mantiqiy mushohada yuritishini faollashtirishga yo'naltiril-gandir. Chunki anglamagan hodisalar anglagan hodisalar orqali tushuniladi. Tajriba asosida yangilik o'zlashtiriladi. Og'zaki va yozma ma'lumotlarni o'rganish tajribasi, dalillarga tanqidiy yondashishi, qiyoslash, mantiqiy umumlashtirish, bilimni ongda qayta ishlash borliqni anglashning ilmiy uslubidir, deydi u. O'quvchi-talabalarning yaxshi o'qishi uchun muallim rostgo'y, savodxon bo'lishi, o'quvchi-talabani doimo to'g'ri yo'lga boshlashi, uning sezgir va talabchan bo'lishi lozimligini uqtiradi. Zotan, o'quvchi-talabaga mehr-muhabbatli bo'lish ta'lim-tarbiya mezonidir. Olim o'qilganlarning hammasini qaytarib o'qish deganda, asosan, xato qilmay, so'zlarni buzmay, ortiqcha tovush ishlatmay, bo'g'inlarni tushirib qoldirmay, so'z urg'usini o'z o'rnida qo'llab to'g'ri o'qishni ta'kidlaydi. O'qishning tez, to'g'ri va ifodali bo'lishi, o'qish davomida bolaning o'z-o'zini tuzatib borishi xatosiz o'qishga yordam beradi. Bunday o'qishda asar mazmunini

tushunib soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qilib va ifoda etilgan voqyealarning ichki va tashqi mohiyatini anglab oʻqishni taʼkidlaydi.

Aby Rayhon Beruniy ilm olishda takrorlashni ustun qoʻyadi, shu bilan birga, bilim berish xilma-xil yoʻl bilan, eng muhimi, oʻquvchi-talabani toliqtirmasdan, charchatmasdan turli vositalar bilan oʻquvchi xotirasini kuchaytirish, tafakkurini boyitish va bilishni chuqurlata borish orqali amalga oshirilishi zarurligini uqtiradi. U haqiqiy maqsadga erishish yoʻlini toʻsib turgan hamma noaniqliklar va shubhalarni bartaraf qilish, bunda juda ehtiyotkorlik bilan harakatlanish lozimligi, oʻzlashtirilgan bilimlar hayotda tajriba qilib olinmasa bundan hech naf boʻlmashligi haqida gapiradi. Beruniy “Hindiston”, “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Mineralogiya”, “Geodeziya” kabi asarlarida inson va jamiyatning paydo boʻlishi, davlatni boshqarish siyosati, ijtimoiy adolat, jamoa faoliyati, mehnat taqsimoti va pul muomalasi, oila va nikoh munosabatlari masalalariga ham toʻxtaladi.

Beruniy inson va jamiyatning paydo boʻlishi masalasiga toʻxtalib: “Qadimgi tarixlarning eng avvalgisi va eng mashhuri bashariyatning boshlanishidir”, deydi. Beruniy kishilik jamiyati paydo boʻlishi haqida fikr yuritar ekan, insonlar oʻrtasida tafovutlar boʻlsa-da, kishilarning ichki tuzilishi barchada umumiydir, degan xulosaga keladi. Ana shu nuqtai nazardan xalqlarning turli ajdodlaridan paydo boʻlgan degan ehtimolni butunlay rad etdi. U inson bilan maymun oʻrtasida oʻxshashlik borligini juda koʻp ilmiy dalillar asosida tushuntirib beradi: “*Ular aʼzolarining oʻxshashligi bilan, tashqi koʻrinishlari ham oʻxshab ketadi*”. Beruniy fikricha, inson hayvondan aql bilan farq qiladi. Lekin mutafakkir insonning hayvondan farq qiladigan bu xususiyati qanday paydo boʻlganligini tushuntirganda, xudoga murojaat qilib, insonni xudo azaldan shunday yaratgan, deydi. Beruniy oila va nikoh munosabatlarining juda nozik tomonlarini axloqiy va huquqiy nuqtai nazardan tadqiq qilar ekan, oilani mustahkam va tinch-totuv boʻlishi er-xotinning ahilligi, shirin soʻzligi, bir-biriga boʻlgan mehr-oqibatiga bogʻliq, degan xulosaga keladi. Ayniqsa, uning yoshlarga qarata aytgan quyidagi purmaʼno pand-nasihatlari gʻoyat muhim ahamiyatga egadir: “*Ey qizim, sen oʻrgangan uyingdan ketib, notanish xonadonga tushmoqdasan, sen boʻlajak kuyovingning hamma xislatlarini*

*bilmaysan. Sen yer bo'l, u osmon bo'ladi. Demak, sen u bilan shunday yo'l tut, uning oldida yer kabi kamtar bo'lsang, u osmon kabi olijanob bo'ladi. Osmon shifoli yomgiri bilan yerni ko'kartirgani kabi u ham o'z mehru shafqati bilan seni xushnud etadi... Ering sendan faqat yumshoq va shirin so'zlar eshitsin, yaramaydigan yoki eski libosda yoki sochlaring tartibga solinmagan holda uning oldida o'tirma. Qizim. Kuyovingdan kuchi yetmagan va olib berishga qudrati bo'lmagan narsalarni talab qilma. Bunday qilsang oradagi totuvlik yo'qoladi, turli xil janjallar paydo bo'ladi. Qizim. Rashk qilishdan saqlangin, chunki u ajralib ketishning kalitidir. Eringga hadeb, gina qila berishni man qilaman. Chunki bu ezmalik nafratini uyg'otadi. Yaxshisi, sen u bilan xushmuomalada, shirin so'zli bo'lgin, bu ishing har qanday sehr-jodudan yaxshidir. Suvdan tez-tez foydalaning. O'zingga xushbo'y narsalar bilan oro ber. Pokizalik hamisha yo'ldoshing bo'lsin...".* Abu Rayhon Beruniy o'z asarlarini mol-davlat orttirish va soxta shuhrat uchun emas, balki ilmu fanga sidqidiidan xizmat qilish, dunyo sirlarini ochish, haqiqat tantanasi va yosh avlod kamoloti uchun yozgan edi. Uning ilm-fanning jamiyat taraqqiyoti va unda insonning tutgan o'rni barkamol shahs ta'lim-tarbiyasi bilan bog'liq axloqiy-huquqiy qarashlari hech qachon o'z qimmatini yo'qotmaydi.

**Unsurul – Maoliy Kaykovus.** Kaykovus 421 hijriy yilda tug'ilgan. U o'z hayoti davomida ko'rgan bilganlari asosida "Qobusnoma" asarini yaratdi. Kitobni u o'g'li Gilonshohga bag'ishlagan. Bu paytda Kaykovus taxminan oltmish yoshlarda edi. Kaykovusning "Qobusnoma"si XI asrda yuzaga kelgan, pand-nasihat tarzidagi yirik ta'limiy –axloqiy asardir. "Qobusnoma" 44 bobdan iborat bo'lib, unda har bir yoshning aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiyalash yo'llari va usullari ko'rsatilgan. Kitobda juvonmardlik tarbiyasi ifodalanadi. *Kaykovus juvonmardlikda odamlarning tarbiyasini uchga bo'ladi: birinchisi aytgan so'zining ustidan chiqish, ya'ni rostlik, ikkinchisi rostlikka xilof qilmaslik, uchinchisi, hayr ishini ilgari tutish.* Insondagi boshqa barcha xislatlar shu uch narsaga bog'liq, deydi Kaykovus. Juvonmardlikning ustunlarini quyidagilarda deb ko'rsatadi: jasurlik, mardlik, sabr-matonat, va'daga vafo qilmoq, pok dil va pok zamon bo'lmoq; asirlarga ziyon

yetkazmaslik, bechora kishilarga madad berib, yomonlarning yomonlig'ini yaxshilardan yiroq tutish, rostgo'ylik, yaxshiga yomonlik qilmaslik, ziyon-zahmatdan saqlash, odamlarga ziyon-zahmat yetkazmaslik. Juvonmard sipohiyalar esa sabr-bardosh bilan ish tutishi, kamtarlik va mehmondo'stlik, sahiylik, to'g'rilik, haqshunoslik, pok kiyinish, yaxshi qurollanishi zarurligini qayd etadi. Mazkur bobda yana juvonmardlik yo'lini tanlagan yoshlarga uch narsadan o'zini: ko'zni yomon nazardan, qo'lni yomon ishdan, tilni yomon so'zdan saqlashni tavsiya etadi. Uch narsani do'st va dushmanga ochiq tut: uy eshigini, supra boshini, hamyonning bog'ichini, deydi. Shuningdek, Kaykovus juvonmardlikning kamolot nuqtasini ko'rsatuvchi mezon deb o'z mol-mulkini o'zganikidan ajrata bilish, xalq mulkiga ta'ma qilmaslik, bironing mol-mulkiga xiyonat qilmaslik, xalqqa yomonlik qilmaslik, qanoatli bo'lish kabilarda deb biladi. Shuningdek, mazkur bobda Kaykovus aql haqida ham fikr bildirib, inson qobiliyatining bir xil emasligini, inson aqlining tug'ma, ya'ni azaliy aql (tabiiy aql) va kasbiy aql, ya'ni muktasib (o'rgatilgan aql) kabilarga bo'linishini bayon etadi. Kasbiy aqlni donish ham derlar, deydi. Muktasib aqlni o'rganish mumkin, ammo azaliy aqlni o'rganishga yo'llaydi. Kaykovus aql hikma (falsafa) bilan kamol topadi, deb ko'rsatadi. Muktasib aqlning takomillashib borishini, tabiiy aql ham muktasib aqlsiz rivojlanishi mumkin emasligini ta'kidlaydi va fikrlari bilan ta'lim-tarbiyaning ahamiyatiga katta e'tibor berib, insonning kamolga erishishida aqliy shakllantirish g'oyasini ilgari suradi. *Kitobda juvonmardlar egallashi zarur bo'lgan quyidagi yo'nalishlarda ta'lim-tarbiya berish nazarda tutilgan:*

1. *Kaykovus bilim olish haqida.*
2. *Hunar va turli kasb egalari haqida.*
3. *Turmush va xulq-odob qoidalari haqida.*
4. *Jismoniy yetuklik haqida.*

Chunki har bir juvonmard uchun tan, jon, havos va maoniy, ya'ni ham sipohiylik, ham ma'rifat, ham donishmandlikka ega bo'lish zarur bo'lib, bu xislatlar ana shu yuqoridagi to'rt yo'nalishda zikr etilgan. Kaykovus ilmni uchga bo'ladi: biror kasb-hunarga bog'liq bo'lgan ilm: ilm bilan bog'liq kasb-hunar hamda xayr va

dalolatga taalluqli odat. Birinchisiga, ya'ni biror kasb bilan bog'liq ilmlarga tabiblik, munajjimlik, muhandislik, yer o'lchash, shoirlilik va boshqalar kiritiladi. Ilmga taalluqli kasblar musiqa asboblari ustasi, hayvonlarni davolovchi, binokorlik va boshqalar bo'lib, har qanday usta bo'lsa ham bu boradagi ilmni bilmasa. Hеч ish qila olmasligi ta'kidlanadi.

Shuningdek, ilm olish yo'liga kirgan toliblarga ham yo'llanmalar berib: "Hamma vaqt parhyezli va qanoatbaxsh bo'lish, bekorchilikdan o'zini tiyish. doimo shod-xurram va harakatchan bo'lish, kitob o'qishga berilish, ilm yo'lida qayg'u-hasratga berilmaslik, ilmni yodda saqlash uchun takrorlab borish, yod olish, ilmga haqiqat uchun kurashish, taqlid qilmaslik, doimo o'z yonida kitob va boshqa o'quv qurollarini saqlash, oz so'zlab, ko'p tinglash"- zarurligini uqtiradi.

Ilm yo'lida munozaradan chekinmaslik, lekin uni janjalga aylantirmaslik, isbot va dalillar bilan o'z fikrini bayon qilish zarurligini ta'kidlaydi.

Yana u olimning aytgani bilan qilgan ishi bir bo'lishi kerakligi, ilmni chuqur o'rganish, har bir kasb, sohaning bilimdoni bo'lishda doimo kamtar, oqil, xalqparvar, har bir narsani oldindan ko'ra biladigan bo'lish kerakligini ham ko'rsatib o'tadi.

Zero, ilmni faqat kitobdan o'rganish bilan cheklanib qolmay, aql, tafakkur bilan hukm chiqarish zarurligini ham ta'kidlaydi.

Ana shu talablar asosida u tijorat ilmi, tib ilmi, nujum (yulduzlar) ilmi, handasa (geometriya) ilmi borasida o'z qarashlarini tarbiyalashda ularga ilmu odob o'rgatishlari zarurligi ham ta'kidlanadi. Kaykovus bilim va aqlning ahamiyatini ulug'lar ekan, uni mol-dunyodan ham yuqori qo'yadi: "*Agar molsizlikdan qashshoq bo'lsang, aqldan boy bo'lmoqqa sa'y ko'rguzgilki, mol bila boy bo'lg'andan, aql bila boy bo'lg'on yaxshiroqdur, nedinkim aql bila mol jam etsa bo'lar, ammo mol bila aql o'rganib bo'lmas. Bilg'il, aql bir moldurki, uni o'g'ri ololmas, u o'tda yonmas, suvga oqmas*"<sup>15</sup>— deb ta'riflar ekan, inson adabi ham aqlning belgisi, ("Al-adab-suratil aql") deya xulosa chiqaradi. Kaykovus jamiyat taraqqiyotida ilm bilan birga kasb-hunarning ham zarurligini ta'kidlaydi: "*Agar kishi har qancha oliy nasab*

<sup>15</sup>Кайковус. Қобуснома. 31 — бет.

va asl bo'lsa-yu, ammo hunari bo'lmasa, u haloyiqning izzat va hurmatidan noumid bo'lur. Ulug'lik aql va bilim biladur, nasl-nasab bila emas. Otni senga ota va onang qo'yimishlar, sen unga g'urra bo'lmag'il ... Ammo sen hunar bila bir nomga ega bo'lg'il"<sup>16</sup>. Shuning uchun ham asarda turli kasb egalari ulug'lanadi. Kasb-hunar o'rganishni bilim olish bilan qo'shib olib borishni tavsiya etadi. Fanni amaliyot bilan uzviy aloqada qaraydi. Kaykovusning bu qarashlari o'sha davrning ilg'or qarashlaridan sanaladi. Asarda munajjimlik, yer o'lchash, musiqa, tibbiyot sohasidagi kasb egalarining faoliyati ilmiy nuqtai nazardan yoritiladi. Ayniqsa, tibbiyot ilmiga oid qarashlari Kaykovusning zukko, donishmand, har tomonlama yetuk bilimga ega kishi bo'lganligidan dalolat beradi. Ayniqsa, uning turli kasb-hunar vakillari haqidagi fikrlari amaliyotga tatbiq etishda o'ta muhimligi bilan diqqatga sazovor. Masalan, "Dabirlik va kotiblik zikrida" bobida yozma nutqni yaxshi egallash, chiroyli yozish va mashq qilishni maslahat beradi. U xat yozishda saj'ga rioya etish, har bir so'zni yoqimli, tushunarli, qisqa yozish, zukko va sezgir bo'lishni ta'kidlaydi. Xattotlikning ulug' hunar ekanligi, ammo bu hunarda hyech qachon soxtalik, pastkashlik qilmaslikni, sir saqlashni tavsiya etadi va bu borada ibratli hikoyatlar keltiradi. Kasb-hunarga oid uning "Dehqonchilik va bozor peshalari bayoni zikrida" bobi ham diqqatga sazovor. Kaykovus insonlarini ilm, hunar egallashga, mehnat qilishga undagan. Xususan, "Dehqonchilik va bozor peshalari bayoni zikrida" bobida ham u, avvalo, dehqonchilik ilmni egallash, mazkur ishda yerni tarbiya qilish, tezkor va g'ayratli bo'lishni ta'kidlaydi. Boshqa hunarlarni egallashda ham rostgo'y bo'lish, xiyonat qilmaslik, muhtojlarga yordam qilish kabi xislatlarga ega bo'lishga undaydi. Ayniqsa, uning bozor bilan bog'liq kasb-hunar kishilariga bergan o'g'itlari qiziqarli. Masalan, u: "Bozor xalqi bila bozori bo'lg'il. Tosh va tarozini rost qilg'il. O'z aqchang haqida ikki dil va ikki hamyon bo'lmag'il. Sheriklaringga xiyonat qilmag'il, har peshakim qilsang, unga hiyla qilmag'il va hamisha hamma ishingni birdek qilg'il. Agar moldor bo'lsang, muhtojga qarz bermoqni g'animat bilg'il", — deb to'g'ri ta'kidlaydi. Bu pandlar ham hukmdorga, ham oddiy fuqaroga bab-baravar zarur bo'lib hisoblanadi. Bu bilan

<sup>16</sup>Кайковус. Қобуснома. 32 – бет.

Kaykovus yoshlarda mehnatsevarlikni, mehnatkash insonga hurmat tuygʻusini tarbiyalaydi, jismoniy mehnat bilan ham aqliy mehnat kabi shugʻullanish lozimligini bayon etadi. Kaykovusning “Qobusnoma” asarida yoshlar tarbiyasida — juvonmardlik talablaridan eng muhimi — axloq tarbiyasi deb koʻrsatiladi. U yoshlarda insonga nisbatan insoniy munosabatda boʻlish, adolatlilik, samiylik, saxiylik kabi xislatlarni tarkib toptirishni istaydi va asarning boshidan oxirigacha ana shu ezgu maqsadni amalga oshirishga harakat qiladi. Koʻrinib turibdiki, Kaykovus qarashlarida inson tarbiyasi omili muhim oʻrin tutadi. U axloq lilikning birinchi belgisi, suxandonlik deb biladi. U (suxangoʻylik) notiqlikda rost soʻzlash kerakligini taʼkidlaydi. U soʻzlarni toʻrt xilga boʻlgani kabi odamlarni ham toʻrt xilga boʻladi. Birinchi xil kishilar koʻp narsani biladi va yana bilgisi kelaveradi. Bular olimlar boʻlib, ularga boʻysunish kerak, deydi. Ikkinchisi, bilmagan narsasini bilishga harakat qiladi, ular qobil kishilar boʻlib, bunday kishilarga oʻrgatish kerak. Uchinchisi, bilganini ham bilmaydi, uyquda yashagandek, ularni “uygʻotish” kerak. Toʻrtinchisi, bilmaydi va bilmaganini tan olmaydi. Bular johil kishilar boʻlib, ulardan qochish kerak, deydi. Soʻzlarning esa birinchi xili bilinmaydi va aytilmaydi; ikkinchisi aytiladigan va biladigan; uchinchisi ham bilinadi, ham bilishga zarurati yoʻq, ammo aytsa boʻladi. Toʻrtinchisi, bilinadigan va aytiladigan. Eng yaxshisi, toʻrtinchisi, yaʼni bilinadigan va aytiladigani deydi. Soʻzlaganda andishalik boʻlish, sovuq soʻzlik boʻlmaslik, kam gapirish, kamtarlik, maqtanmaslik, bironing soʻzini diqqat bilan eshitish odoblarini taʼkidlaydi. Uning axloqiy oʻgʻitlari kitobda ota-ona haqqini bilish bilan boshlanadi. Unda Kaykovus “Qurʻon” va “Hadis” taʼlimotiga tayangan holda oʻzining nuqtai nazarini bayon qiladi: *“Oʻz farzanding sening haqingda qanday boʻlishini tilasang, sen ham ota-onang haqida shunday boʻlgʻil, nedinkim sen ota-onang haqida nima ish qilsang, farzanding ham sening haqingda shundoq ish qilur, chunki odam mevaga, ota-ona daraxtga oʻxshaydir”*<sup>17</sup>. Kaykovus oilada otaning vazifasi va burchiga alohida ahamiyat beradi. Farzand tugʻilganda avvalo unga yaxshi ot qoʻyish, undan soʻng aqlli va mehribon murabbiyga topshirish, oʻqitish, ulgʻaya boshlaganda kasb va hunar oʻrgatish, harbiy ish bilan

<sup>17</sup>Кайковус. Қобуснома. 30—бет.



tanishtirish, so'ng suvda suzishni o'rgatish kerak, deydi. Kaykovus otaning burchi yana o'z farzandlariga nisbatan qattiqqo'l bo'lishini talab etadi. Lekin bolalarni jazolashni otaning o'zi emas, murabbiy tomonidan bajarilishini istaydi. Chunki otaning o'z qo'li bilan farzandini jazolashi unda adovat hissini paydo qiladi, deydi. Lekin otadan farzand hayiqib tursin, agar u hayiqmasa, ota-onani xor qiladi, deydi. Kaykovus ota-onaning yana bir muhim vazifasi farzand balog'atga yetgach, o'g'il bo'lsa uylantirib, qiz bo'lsa uzatib, o'z burchini ado etishi kerak, deb ko'rsatadi. Ayniqsa qiz bola tarbiyasiga e'tibor berish, unga g'amxo'rlik qilish kerakligini alohida qayd etadi: *“Agar qizing bo'lsa, uni mastura doyalarga topshirg'il, toki yaxshi parvarish qilg'aylar va kattaroq bo'lg'andin so'ng muallimga topshirg'il ... Balog'atga yetgandan so'ng harakat qilib erga berg'il, unga shafqat va marhamat ko'rguzg'il, nedinkim qiz otaning asiri bo'lur”*<sup>18</sup>.

Kaykovusning hayotida xulq-odob qoidalariga qanday rioya etish haqidagi, yoshlarni adolatparvar, insonparvar, saxovatli, qanoatli, muruvvatli bo'lishi haqidagi qarashlari, ayniqsa diqqatga sazovor. Ular yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi qarama-qarshilik asosida bayon etilgan: *“Ey farzand, yaxshilik qil va qilg'on yaxshilikdan hargiz pushaymon bo'lmag'il. Bir kishiga bir yaxshilik qilsang, ko'rgilki, yaxshilik qilg'on vaqtda u kishiga naqadar rohat yetg'on bo'lsa, sening ko'nglingga ham undan ziyodroq shodlik va xurramlik yetishur. Agar kishiga yomonlik qilsang, unga naqadar ranj yetsa, sening ko'nglingga ham ul miqdor tanglik yetishur. Demak, bu jahonda yaxshilik va yomonlik mukofoti, albatta, yetgusidur”*<sup>19</sup>.

Kaykovusning kundalik turmushdagi xulq-odob qoidalariga oid fikrlari asarning “Majoz (hazil-mazah) qilmoq, shatranj (shaxmat), nard o'ynamoq zikrida”, “Shikorga (ovga) chiqmoq zikrida”, “Chavgon o'ynamoq zikrida”, shuningdek, ovqatlanish, dam olish, hammomga borish, mehmondorchilik, sharob ichishga bag'ishlangan boblarida bayon qilingan bo'lib, hozirgi paytda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Bunday xulq-odob qoidalari inson kamolotini ko'rsatuvchi sevgi va

<sup>18</sup>Кайковус. Қобуснома. 86 — бет.

<sup>19</sup>Кайковус. Қобуснома. 86 — бет.

muhabbat, do'st tanlash va dushmandan saqlanish masalalarida ayniqsa, namoyon bo'ladi. "Ishq va uning odatlari zikrida" bobida Kaykovus ishqda yanglishmaslikni, latif ta'b bo'lishni manzur ko'radi. *"Ey farzand, to kishining ta'bi latif bo'lmag'uncha oshiq bo'lmag'usidir, nedinkim ishq beshak ta'bi latiflikdin paydo bo'lur. Har narsaki, ta'bi latiflikdan paydo bo'lsa, u beshak latif bo'lur. Shul vajdankim, latif ta'bdin latiflik tug'ilur ..."*. Kaykovus yuksak axloqlilikning yana bir tarkibiy qismi do'stlik deb biladi va do'st tutmoq odobi haqida fikr bayon etar ekan. uning asosiy talablarini talqin etadi. Kaykovus, avvalo, inson do'stsiz bo'lgandan ko'ra, birodarsiz bo'lgani durustdir, deydi. Kishining do'sti qancha ko'p bo'lsa, aybi shuncha sir tutiladi va fazilati ko'payadi. Kaykovus qiyinchiliklarda hamdard, tayanch bo'ladigan, sadoqatli, ta'magir, hasadchi bo'lmagan, aqlli, ilmi, muruvvatli kishilarni do'st tutish mumkin, deb ta'kidlaydi. Shuningdek, do'st bilan dushmani ajrata bilish, dushman oldida o'zini ojiz ko'rsatmaslik, kuchli dushman va xiyonatchi, chaqimchi, sir ochuvchi do'stdan saqlanishni maslahat beradi. U quyidagi xislatlarni har bir kishi o'zida tarkib toptirishni ta'kidlaydi. Bular: o'zidan zo'r kishi bilan urushmaslik, hasadchi kishi bilan birga jamoat o'rtasida o'tirmaslik, nodon bilan munozara qilmaslik; riyokor, ikkiyuzlamachi kishi bilan do'st bo'lmaslik; yolg'onchi kishi bilan muomala qilmaslik; baxil bilan suhbatda bo'lmaslik; dushman kishi bilan sharob ichmaslik; xotinlar bilan bir yerda ko'p o'tirmaslik; kishilarga sir aytmalik; biror kishi aybingni aytsa, shu aybni yo'qotishga harakati kilish, biror kishini ortiqcha maqtash yoki ortiqcha yomonlamalik, muhtoj bo'lgan odamni hojatini chiqarish, kechirimli bo'lish, kichiklarga mehribon bo'lish; bir ishni ikki kishiga buyurmaslik, ya'ni sheriklik ish qilmaslik kabi hayotiy tavsiyalardir. Bulardan ko'rinib turibdiki, Kaykovus do'stlikni insonning kamolotini ko'rsatuvchi axloqiy xislatlardan biri sifatida talqin etgan. Kaykovus "Qobusnoma" asarida jismoniy tarbiyaga ham katta ahamiyat bergan. Zero, Kaykovus asarini juvonmardlar tarbiyasiga bag'ishlar ekan, ularning eng avvalo jismonan sog'lom bo'lib kamolga yetishini alohida ta'kidlaydi. Buni biz asardagi "Shikorga chiqmoq zikrida", "Urush qilmoq zikrida", "Chavgon o'ynamoq zikrida", "Sipohsolarlik shartlari va odatlari zikrida" va boshqa boblarda ko'ramiz.

Kaykovus, avvalo har bir tartibli, aqlli kishi o'z vaqtini to'g'ri taqsimlashi va undan to'g'ri foydalanishini tavsiya etadi: *“Hushmand (aqlli) kishilar o'zlarining har bir ishlariga aniq vaqtni tayin etibdurlar. Ular kecha va kunduzning yigirma to'rt soatini o'z ishlariga taqsim qilibdurlar. Bir ishni yana bir ishdan farq etib, unga vaqt, had (chegara) va andoza (o'lchov) paydo qilibdurlar, toki ishlar bir-biriga aralashmag'ay”*<sup>20</sup>. Kaykovus bir kecha-kunduzni shunday taqsim etadi: sakkiz soati ibodatga, sakkiz soati ishratga va ruhni tozalamoqqa va sakkiz soatni mana shu o'n olti soat davomida qiynalg'on a'zolarga orom bermakka tayin etmoq kerakdur. toki a'zo harakat takallufidin osuda bo'lsin. Inson salomatligida to'g'ri va oqilona ovqatlanish ham katta ahamiyatga ega. Bunga Kaykovus alohida bob ajratgan. U bir kecha-kunduz ikki mahal — erta tong va peshinda ovqatlanishni tavsiya etadi. Kechki ovqatni esa tavsiya etmaydi. U ohista, shoshilmasdan. hamtovoqlari bilan suhbatda bo'lib, ularning luqmasga boqmasdan ovqatlanishni ma'qul ko'radi. Kaykovus inson o'z tanining toza. pokiza bo'lishiga ham e'tibor berishi kerak, deydi. Uning “Hammomga borish zikrida”. “Uxlamoq va osuda bo'lmoq zikrida”, “Tamkin sharofatining va taom tartibining bayoni” kabi boblarida uxlamoq, yemoq-ichmoq, hammomga bormoq qoidalari asosida yoshlarga jismoniy-axloqiy tarbiya asoslari singdirilgan. Shuningdek, asarda o'sha davrga xos har bir yosh egallashi zarur bo'lgan aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiya bilan bog'liq faoliyat turlari: otda yurish, merganlik, suvda suzish, harbiy mashqlar san'ati. ifodali o'qish, hattotlik san'ati, she'r yoza olish, musiqiy bilimga ega bo'lish, shatranj va nard o'yinini bilish kabilar ham o'z ifodasini topgan. Kaykovusning “Qobusnoma” asari yoshlarni hayotga tayyorlashda ularni har tomonlama kamolga yetkazishning nazariy masalalarini amaliy faoliyatga tatbiqi nuqtai nazaridan ifodalashi bilan bugungi kunda ham o'z qimmatini yo'qotmay dasturamal bo'lib xizmat qilmoqda.

### Savol va topshiriqlar:

1. Sharq uyg'onish davri qaysi asrda vujudga kelgan va qancha davom etgan?

<sup>20</sup>Кайковус. Қобуснома. 53 – 54 бетлар

2. Al-Xorazmiy asarlarida ilgari surilgan g'oyalarning ma'rifiy-tarbiyaviy ahamiyati haqidagi fikrlaringizni ayting.
3. Abu Nasr Forobiy va Ibn Sinoning qaysi asarlarida ta'lim-tarbiyani amalga oshirish yo'llari hususida fikr yiritgan?
4. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asaridagi yetakchi g'oya haqidagi fikringizni ayting.
5. Abu Rayhon Beruniyning fan va ta'limni rivojlantirishdagi xizmati nimalardan iborat?
6. Kaykovusning "Qobusnoma" asari nechanchi yilda yozilgan va unda nimalar aks ettirilgan?

### XIII BOB. TEMURIYLAR DAVRIDA MADANIYAT TA'LIM-TARBIYA MASALALARI

**AMIR TEMUR.** A.Temur Kesh (Shahrisabz)ning Xo'jailg'or (hozirgi paytda bu qishloq Yakkabog' tumaniga qarashli) qishlog'ida 1336 yilning 9 aprelida tavallud topgan. U yosh bolalik davridan boshlab zehnlil, mard, dovyurak, jasur bo'lib o'sdi. Amir Temur Qur'oni Karimni yod oladi, hadis ilmini o'rganish bilan birga dunyoviy bilimlarga ham ega bo'ladi. Uning olgan bilimi, tarbiyasi uning iymon-e'tiqodli, halol pok, aql-zakovatli, o'z e'tiqodiga mustahkam rioya qiladigan, adolatli inson bo'lib yetishishiga xizmat qildi.

Amir Temur o'zining hayoti prinsiplari haqida shunday degan: "Men o'z hayotim mobaynida besh narsaga qat'iy e'tiqod qo'ydim va hamishalig' ularga amal qildim, ular ushbulardir:

*Olooh* — ul har narsaga qodir kuch, sidqidildan sig'insang, istagan murodu maqsadingga yetkazadi;

*tafakkur* — fikrlash va mushohada qobiliyati;

*qilich* — ul yigitning yo'ldoshi, el-yurt osoyishtaliginining posboni, har qanday dushmani mahv etish quroli, aning qudrati ila dinsizlarni dinga solmoq mumkin;

*imon* — ul insonni barcha jonlifardan farqlantirib turuvchi xususiyatdir. Imonli odam xiyonat qilmaydi, qarindosh-urug'lari, elu-xalqning or-nomusini himoya qiladi, halollik va poklikni fazilat biladi;

*kitob (bitik)* — barcha bunyodkorlik, yaratuvchanlik va aql idrokning, ilmu donishning asosi, hayotni o'rgatuvchi murabbiydir".

**Amir Temurning tarix oldidagi xizmatlari benihoya katta bo'lib, u:**

1. U mamlakatda kuchayib ketgan feodal tarqoqlikka barham berdi, yirik markazlashgan feodal davlatga asos soldi. Bu bilan ilm-fan, dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq va madaniyat rivojiga mustahkam zamin yaratdi.
2. Bir qator xalqlar va yurtlarga mustamlakachilar zulmidan ozod bo'lishga yordam berdi.
3. Turkiston zaminini rivojlangan ilg'or mamlakatga aylantirdi.

Tarix fanlari doktori, professor Ashraf Ahmad A. Temurning o'zi amal qilgan 11 sifatini keltiradi:

1. Men sifatlarning eng avvali deb beg'arazlikni tushundim. Hammaga bir xil: jiddiy va odil qaradim.
2. Men har doim Islomga qat'iy rioya qildim.
3. Men kambag'allarga ko'p xayr-ehson qildim.
4. Xaloyiqqa rahm qildim, barchaga naf yetkurdim.
5. Islomga taaluqli ishlarni men har doim kundalik va dunyoviy ishlardan ustun qo'yib keldim.
6. Barcha so'zlarimda doim haqiqatgoylikka amal qildim.
7. Men har kimgaki va'da bersam, unga vafo qildim.
8. Doimo o'zimni Allohning yerdagi mulkining posboni deb bildim.
9. Men har doim Tangrimning amri va uning Payg'ambarining hadislarida aytilganlariga to'la amal qilishga intildim.
10. Men har doim insof bayrog'ini baland ko'tardim va iymon tarqatishni o'z buyukligimning qudratli zamini deb bildim.
11. Men doim saidlarga ehtirom bilan qarardim, ulamo va shayxlarni e'zozladim.

“Temur tuzuklari” hukmdorning hokimiyatni boshqarish qoidalari hamda odob-axloq me'yorini belgilab beruvchi yo'riqnomadir. Bu xususda I.A.Karimov “Yuksak ma'naviyat-yengimas kuch” asarida shunday fikr bildiradi: “Temur tuzuklari”ni har gal o'qir ekanman, xuddiki o'zimga qandaydir ruhiy kuch-quvvat topgandek bo'laman. O'z ish faoliyatimda bu kitobga takror-takror murojaat qilib, undagi hech qachon eskirmaydigan, inson ma'naviyati uchun bugun ham oziq bo'ladigan hikmatli fikrlarning qanchalik hayotiy ekaniga ko'p bor ishonch hosil qilganman. Masalan, “Tajribamda ko'rilgankim, azmi qat'iy, tadbirkor, hushyor, mard va shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir”, degan so'zlar bugungi kunda ham ma'naviy jihatdan naqadar dolzarb ahamiyatga ega ekani barchamizga ayon”<sup>21</sup>. Amir Temur bu asarida insonparvarlik, mehnatsevarlik, adolatlilik, vatanga sadoqat, jasorat, to'g'rilik, do'stlik va hamkorlik, mehr va

<sup>21</sup>I.A.Каримов. Юксак маънавият- энгилмас куч. Тошкент. “Маънавият”. 2008й., 45-бет

muruvvat ko'rsatish, sabr-qanoat, yaxshilik kabi xislatlarni ulug'laydi va xiyonat, bevafoqlik, sotqinlikni qoralaydi. Hayotda "rosti-rusti" qoidasiga rioya etib, naqshbandiylik tariqatidagi "Dil ba yoru, dast ba kor" prinsipiga ko'ra ish tutgani Yusuf Xos Hojib, Abu Nasr Forobiy. Jaloliddin Davoniy va boshqalar tomonidan targ'ib etilgan va haqiqiy komil inson, adolatli hukmdor uchun zarur bo'lgan o'n ikki qoidani o'ziga yo'riq qilib olganini ko'ramiz. Amir Temur o'zi qat'iy rioya etgan, haqiqiy yetuklik belgisi sanalgan din, imon, aql bilan ish yuritish va ilmga e'tiqodni boshqalarga ham tavsiya etgan hamda avlodlarni ham shu ruhda tarbiyalashga e'tibor bergan. Amir Temur jismoniy tarbiyaga ham katta e'tibor berib, yigitlarni mard, jasur qilib tarbiyalashga. ularda merganlik. chavandozlik. suvda suzish. ovchilik. qilichbozlik. shaxmat o'yinlarni o'rgatishga e'tibor qaratgan. Buyuk sohibqiron shunday ta'kidlaydi: *"Cherik tuzib, navkar olmoqda uch qoidaga amal qildim: birinchidan, yigitning kuch-quvvatiga, ikkinchidan, uning qilichni o'ynata olishiga, uchinchidan, aql-zakovatiyu kamolotiga e'tibor qildim. Shu uch fazilat jamul-jam bo'lsa, navkarlik xizmatiga oldim. Negakim, kuch-quvvatli yigit har qanday qiyinchiliklarga, azobu uqubatlarga chidamli bo'ladi, qilich o'ynata oladigan kishi raqibini mag'lub eta oladi, oqil navkar har joyda aql-idrokini ishga solib, mushkulotni bartaraf etmog'i mumkin"*, — deb askarlarning faqat jismoniy emas, balki aqlan ham barkamol bo'lishiga e'tibor bergan. Amir Temurning o'zi odob-axloq, iymon-e'tiqod, ta'lim-tarbiya, madaniyat, ma'naviyat va ma'rifat bobida yuksaklikka, mukammallikka erishgan siymolardan biridir. Uning saltanati yuksak ma'naviyat va oliy darajadagi madaniyatga yo'g'rilgan saltanat edi. Amir Temurning tarix oldida ma'rifiy xizmatlari beqiyos. Uning ta'lim-tarbiyaga oid o'g'itlari, tutgan siyosati bugungi kunda ham o'z qiymatiga ega.

**Mirzo Ulug'bek** markaziy Osiyo xalqlari ilm-fani va madaniyatini jahon miqyosiga olib chiqqan, markaziy Osiyoda pedagogik fikr tarqqiyotiga munosib hissa qo'shgan ulug' siymolardan biridir. U 1394 yilning 22 martida Eronning g'arbidagi Sultoniya shahrida bobosi Sohibqiron Amir Temurning harbiy yurishi paytida tavallud topdi, unga Muhammad Tarag'ay ismi berildi "Ulug'bek" unga bobosi tomonidan mehr bilan berilgan nomdir.

*“Buyuk Amir Temurning nabirasi, benazir alloma Mirzo Ulug‘bekning o‘rta asrlar sharoitida namoyon etgan ilmiy jasorati bugungi kun olimlarini ham hayratga solmasdan qo‘ymaydi. Taqdir bu ulug‘ zotning zimmasiga behad ulkan va mashaqqatli vazifalar yukladi. Buyuk sarkarda Amir Temur bunyod etgan saltanatning vorisi bo‘lishdek o‘ta mas‘uliyatli vazifa aynan unga nasib etdi. Mirzo Ulug‘bek qariyb qirq yil mobaynida Movarounnahr diyorining donishmand hukmdori sifatida xalqning azaliy orzusi - tinchlik, totuvlik, ilm-fan va madaniyatni taraqqiy toptirish yo‘lida ulkan shijoat va matonat ko‘rsatdi”<sup>22</sup>.*

Mirzo Ulug‘bek ta‘limotida ilm inson ma‘naviyatining asosi ekanligi haqidagi g‘oya yetakchi o‘rin tutadi. Darhaqiqat, ilm jaholat, xurofotning kushandasidir. Ilm insonni g‘aflat uyqusidan uyg‘otadi. fikrini teranlashtiradi. tafakkurini o‘tkirlashtiradi. Inson ilm-ma‘rifat yordamida ulug‘lar darajasiga yetadi. Ulug‘bek asarlari va falsafiy-axloqiy o‘g‘itlarida dunyoda ilm-ma‘rifatdan naf ko‘rmagan va ko‘rmaydigan inson zoti yo‘qligi takror - takror qayd etilgan. Ulug‘bek ayni paytda insonda har bir ishni ado etishda aql-idrok va tafakkur, o‘tkir zehn, qobiliyat, talant va iste‘dod mavjudligini alohida uqtirdi. Madaniy-ma‘naviy taraqqiyotga ilmdan boshqa yo‘l bilan erishib bo‘lmasligini, bilimni faqat kitoblardan emas, balki faoliyat orqali, hayotdan olish zarurligini ta‘kidladi. Ulug‘bek Buxoroda o‘zi qurdirgan madrasa peshtoqiga: “Bilim olish har bir muslim va muslimaning burchidir”, deb yozdirib qo‘ydirgan. Ulug‘bekning fikricha, odob va axloq inson ma‘naviyati va ma‘rifati kamolotida katta o‘rin egallaydi. Insonlar orasidagi o‘zaro munosabat, odamgarchilik, mehr-muhabbat, do‘stlik, birodarlik, ahillik asosida yashash va faoliyat ko‘rsatish aqliy-axloqiy tarbiyaga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Ulug‘bek ma‘naviyat va ma‘rifat haqidagi yo‘l-yo‘riqlari va falsafiy-pedagogik ta‘limotida haqiqiy va soxta do‘stlarni ajratish lozimligi, g‘arazli kishi do‘st bo‘lmasligini, bunday “do‘stlar” kishilarni to‘g‘ri yo‘ldan chiqarishi haqidagi g‘oyalarni dasturiy yo‘llanma sifatida ilgari surgan. Ulug‘bekning: *“Hech qachon ixtiyoringni tilyog‘lamaga berma, atrofingga laganbardorlarni to‘plama, ular sening emas, o‘z manfaatlarini ko‘zlab seni maqtaydilar, o‘z ixtiyoringni shunday*

<sup>22</sup>И.А.Каримов. Юсак маънавият- энгилмас куч. Тошкент, “Маънавият”, 2008й., 45—46 б.



*kimsalarga berib qo'ygan hukmdorga sadoqatli insonlar yaqinlaishmaydilar*", degan fikr-mulohazalaridan ko'rinib turganidek, qalbi nopok, niyati buzuq, iymoni sust, beoqibat kishilardan har qanday yo'l bilan bo'lsa-da, yiroq bo'lish, tuzog'iga ilinmaslik, tilyog'lamaligiga uchmaslik, aksincha, zoti toza. nasl-nasabli kishilarni qo'ldan qo'ymaslik kerak. Inson yakka-yolg'izlikda qila olmagan yumushlarini ko'pchilik bilan birgalikda bajarishi mumkin. Do'stlarsiz hech narsaga erishib bo'lmaydi. Ulug'bekning ilmiy-amaliy faoliyati uning bu nazariy fikrini tasdiqlaydi.

Ulug'bek jasurlik, mardlik, chidamlilik, jismoniy sog'lomlik va baquvvatlik masalalariga alohida e'tibor beradi. Uning ta'kidlashicha, bularning hammasi hayotda zarurdir. Odam sog'lom va baquvvat bo'lishi uchun yoshlik chog'laridan boshlab otda yurishi, kurash tushishi, suvda suzishi, nayzabozlik bilan muntazam shug'ullanishi lozim. Ruhani va jismonan baquvvat, aqlan yetuk, axloq an barkamol kishilar, olimning fikricha, o'z yurtini, vatanini dushmanlardan himoya qila oladigan, xalqparvar bo'lib shakllanadi.

Ulug'bek ma'naviy-ma'rifiy va pedagogik ta'limotida mehiatsevarlik haqidagi g'oyani o'z davri talab va ehtiyojlarini nazarda tutib rivojlantirdi. Tinimsiz harakat qilmasang, mehnat qilib kasb-hunar o'rganmasang, murabbiylardan ta'lim-tarbiya, o'git olmasang, - deydi bu haqda u, - aql-zakovatda yetuk, odob-axloq va ilmida barkamol bo'la olmasan, jamiyatda qadr-qimmat topolmasan. Davlat ishlari bilan bog'liq bo'lgan yurish, ko'chishlar, rasadxonadagi kuzatishlar, madrasadagi darslar va ilmiy ishlarga umumiy rahbarlik qilish ham Ulug'bekni ko'p vaqtini olardi. Shu tufayli uning qalamiga mansub bo'lgan ilmiy asarlar son jihatdan ko'p emas: "Ziji jadidi Ko'ragoniy", "Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola", "Risolai Ulug'bek", "Tarixi arba' ulus" asarlaridir. Ulug'bek nafaqat o'zi mansub millatning, ayni paytda butun insoniyatning ham faxridir. Ulug'bekday farzandi bo'lgan xalq har qancha faxrlansa arziydi. O'z tomirlarimizda Ulug'bek qoni oqayotganligidan, ruhimizda ul muborak zotning ruhi barhayotligidan baxtiyormiz. "*Mirzo Ulug'bek o'z umrini kelajak uchun, bugungi hayot uchun fido etdi. O'sha uzoq zamonlarda bashariyat taraqqiyotini o'ylab yashadi, o'z avlodlari asrlar osha tartib etajak ma'rifatli bir jamiyatni orzu qildi. Har qanday millat ham Ulug'bekday farzandni*

*tarbiya etgani uchun g'ururlanishi tabiiy holdir. Chunki bunday insonlar faqat o'z xalqiga emas, balki umumbashariy sivilizatsiya uchun ham xizmat qiladi va jahonning e'tiborini qozonadi".*

Insoniyat tarixida buyuk iz qoldirgan Mirzo Ulug'bekning hayoti. ilmiy-amaliy faoliyati o'zbek milliy ma'naviyati-ma'rifati poydevoriga qo'yilgan tamal toshlardan biri bo'lib, xalqimizning o'rta asrlarda fundamental va gumanitar fanlarga nechog'lik buyuk ahamiyat berganini ko'rsatadi.

**Abdurahmon Jomiyning ta'limiy-axloqiy qarashlari.** Abdurahmon Jomiy (1414-1492) 1414 yilning 7 noyabrida Jom shahrida tavallud topgan. Sa'diddin Qoshg'ariy, Shayx Bahoviddin Umar va Mavlono Muhammad Asad kabi allomalarning qo'lida tahsil oldi. Abdurahmon Jomiy tinimsiz izlanish, o'qib-o'rganish evaziga matematika, arab tili va adabiyoti, sintaksis, badiyot ilmi, musiqa, falakiyot, falsafa, fiqh, notiqlik ilmini, Qur'onni qiroat bilan o'qish va sharhlash bilimiga ega bo'ldi. Chuqur bilim va keng dunyoqarashga ega bo'lganligi bois Abdurahmon Jomiy xalq orasida shoir va olim sifatida shuhrat qozondi, hurmat-e'tiborga sazovor bo'ldi. Alloma uchta lirik devoni, ta'lim-tarbiya masalalariga oid "Bahoriston", shuningdek, yettita dostonni o'z ichiga olgan "Haft avrang" ("Yetti taxt") nomli asarlari bilan jahon madaniyati va pedagogik fikrlar taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan allomalardandir. Abdurahmon Jomiy o'zining mashhur "Silsilatus zahab" ("Oltin tizmalar") dostonining "Sevimli, aziz farzandga nasihat" bobida, eng avvalo har bir yosh bilim olishi zarurligi, chunki inson umri juda qisqa bo'lib, bu umrni behuda o'tkazmasligi, ammo bilim olgandan so'ng unga amal qilish lozimligini ta'kidlaydi va amaliyotsiz ilm ham behuda ekanligini uqtiradi:

*Ilm yo'liga qadam qo'y, chunki shu yo'l farovon,  
Ammo umringning yo'li, g'oyatda qisqa — bir on.  
Har bir kishiga bo'lmas qayta yashash muyassar,  
Egalla sen bilimni, mangu turar muqarrar.  
Bilim egalladingmi, unga doim amal qil,  
Ilming amalsiz bo'lsa, sen oni bir zahar bil.  
Faraz qildik bilarsan, ul ilmi kimyoni,*

*Zar qilmasang misingni, qolmas ishing nishoni.*

Alloma ilmning ahamiyati haqida gapirar ekan, bu bilimni egallashda kitobning bilim olishidagi o'rniga. uning hislatlariga alohida to'xtaladi. kitobni "teri yopingan olim"ga o'xshatadi. U bilimni yoshlikdan egallash lozimligini ta'kidlaydi va johillikni qattiq qoralab, dono bilan nodonni bir-biriga qarama-qarshi qo'yadi.

Abdurahmon Jomiy "Bahoriston" asarida bilimlarni yoshlikdan egallash zarurligini, bilimlarni o'rganishda kitobning o'rnini alohida ekanligini, o'rganilgan ilmlar jamiyat va shaxs manfaatlariga xizma qilishi zarurligini ta'kidlaydi. Abdurahmon Jomiy ilm va hunarni e'zozlagan rahbarning o'z xalqi hurmat-e'tiboriga sazovor bo'lishi hamda rahbar qachonki, elning ehtiromiga muyassar bo'lar ekan, ana shundagina mamlakat gullab yashnashi mumkinligini ta'kidlaydi.

Abdurahmon Jomiy asarda bilimning inson hayotidagi ahamiyati hamda ijtimoiy jamiyat taraqqiyotini belgilashdagi o'rnini va rolini ochib berish bilan birga har bir kishi tomonidan ma'lum hunar sirlarini o'zlashtirish foydadan holi bo'lmasligini uqtiradi. Ayni o'rinda insonning qadr-qimmatini uning molu mulki bilan emas, aksincha, u tomonidan egallangan hunarning kishilar maishiy hayotini farovonligini ta'minlashdagi ahamiyati bilan belgilanishiga urg'u berib o'tadi. Xususan, asarda mazkur fikr mohiyatini to'laqonli yoritishga xizmat qiluvchi quyidagi misralarni keltiriladi:

Odamning qiymati emas siymu zar.

Odamning qiymati bilim ham hunar.

Mutafakkir bilim hamda hunarsiz kishini o'tindan boshqa narsaga yaramaydigan mevasiz daraxtga o'xshatadi. U har bir yoshni ilmu hunar sirlarini o'rganishga, bu yo'lda sabrli, matonatli bo'lishga undaydi. Shuningdek, Abdurahmon Jomiy ilmi va nodon kishilarni bir-biriga qarama-qarshi qo'yib, nodon shaxslarning savodsizligini yengil kulgi ostiga oladi: "*Bir bo'zchi bir olimga pulini omonat qo'ygan edi. Bir necha kundan keyin o'ziga kerak bo'lib qoldi va olimning uyiga keldi. Olim eshigi tagidagi supada o'tirib mudarrislik qilar, oldida shogirdlari saf tortib o'tirishar edi. Ey ustod, kechagi omonatni bersang, kerak bo'lib qoldi, dedi, bo'zchi olimga. Birpas o'tir, darsim tamom bo'lsin. Bo'zchi kutib*

*o'tirdi, ammo dars cho'zilib ketdi, domlanning dars paytida boshini chayqab qo'yish odati bor edi. Shoshib turgan kosib buni ko'rib, dars berish bosh qimirlatishdan iborat ekan, deb o'yladi-da, ustodga:*

*— Sen kirib omonatni olib chiq, sening o'rningga men bosh irg'ab turay, ishim zarur, - dedi.*

*Doniishand buni eshitib kulib dedi:*

*Bilimdin lofurar shahar fakixi,*

*Har ilmni bilar oshkoru nihon.*

*Undan ne so'rasang ko'l bilan imo,*

*Yoki bosh irg'ishlab qiladi oson".*

Abdurahmon Jomiy inson kamolotida musiqaning ham o'z o'rni borligiga alohida e'tibor beradi. Alloma "*Musiqa haqida risola*" asarini yaratgan ekan, o'z o'tmishdoshlarining musiqiy tarbiya haqidagi qarashlarini rivojlantiradi. Olim mazkur asarda an'anaga ko'ra musiqaning kelib chiqishi, ohanglar haqida qimmatli fikrlar bildiradi, maqomlarga tavsif berib, musiqa asboblari haqida ma'lumotlar keltiradi. U musiqaning ba'zi kuylari insonda ko'tarinki ruh paydo qilsa, ba'zilari insonda ijodiy ruh paydo qiladi, deydi. Abdurahmon Jomiy tarbiya haqida fikr yuritgan ekan, har bir narsani ham parvarish etsa, undan yaxshi natija chiqishini, insonni ham yaxshi tarbiya etsa, u barkamol bo'lishini alohida ta'kidlaydi.

Abdurahmon Jomiy tasavvurida haqiqiy yetuk inson el, xalq uchun xizmat qilib, yaxshi nom qoldirishi zarur. Uning asarlarida yaxshilik barkamol shahs ega bo'lishi zarur bo'lgan eng muhim axloqiy xislat sifatida tarannum etilishi bejiz zmas. Zero, eng qadimgi ma'rifiy yodgorliklardan boshlab yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash va yaxshilik, ezgulikning g'olib kelishiga bo'lgan oliy istak barcha pandnomalarning asosini tashkil etgan. Abdurahmon Jomiyning merosi bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmay, barkamol shaxs tarbiyasida dasturilamal bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

*Alisher Navoiy ta'lim tarbiya xaqida.* A.Navoiy(1441-1501) "Xamsa" ("Hayrat ul -abrор", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab'ai sayyor", "Saddi Iskandariy") "Nasoyimul muhabbat", "Munоjot". "Vaқfiya", "Majolis-un-

nafois”, “Muhokamat-ul-lug‘atayin”, “Mahbub ul-qulub” kabi asar va dostonlarida ta‘lim-tarbiyaga oid qarashlarini bayon etadi. Mazkur asarlarida Navoiy komil inson obrazini yaratib, ular qiyofasida namoyon bo‘luvchi ma‘naviy-axloqiy sifatlarni ulug‘lagan bo‘lsa, ta‘limiy-axloqiy muammolarni yorituvchi asarlarida esa komil insonni shakllantirish jarayonining mazmuni, ushbu jarayonning o‘ziga xos jihatlari, yo‘llari, shakl va usullari borasidagi mulohazalarni bayon etadi. Mazkur o‘rinda navoiyshunos olim V.Zohidov quyidagi fikrni ifoda etadi: “Navoiy ijodi hamda amaliy faoliyatining eng asosiy, markaziy masalasi, yo‘nalish nuqtasi har narsadan oldin inson, uning taqdiri, baxti, saodati, uning yaxshi yashashi, bu uchun zarur jamiyat masalalaridir”.

Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” (“Ko‘ngillarning sevgani”) asari sharq pedagogik fikr taraqqiyotida inson kamolotini shakllantirishda muhim o‘rinni egallaydi. Alloma asar muqaddimasida uni yozishdan ko‘zlagan asosiy maqsadini bayon etib, shunday yozadi: “Har ko‘cha-ko‘yda yuguribman va olam ahlidin har xil kishilarga o‘zimni yetkazibman. Yaxshi va yomonning fe‘l-atvorini bilibman, yomon-yaxshi xislatlarini tajriba qilibman. Yaxshilik va yomonlikning aslini ham, zahrini ham tortib ko‘rdim. Xasislar va karamlar yetkazgan yara va bergan malhamni ko‘nglim tag-tugi bilan sezgandirman. Zamon ahlidan ba‘zi hamsuhbatlar va davr kishilaridan ayrim do‘stlar bu hollardan xabarsiz va ko‘ngillari bu yaxshilik va yomonliklardan asarsizdir. Bu xildagi hamsuhbat va do‘stlarni xabardor qilmoq va bu hollardan ogohlantirmoq lozim ko‘rinadiki, har toifaning xislatlaridan ma‘lumotlari va har tabaqaning ahvolidin bilimlari bo‘lsin, keyin munosib kishilar xizmatiga yugursinlar va nomunosib odamlar suhbatidan tortinishni zarur bilsinlar va barcha odamlar bilan maxfiy sirlardan so‘z ochmasinlar. Shayton sifatlar hiyla va aldovlariga o‘yinchoq bo‘lib qolmasinlar. Kimki har xil kishilar bilan suhbatlashish va yaqinlashishni havas qilsa, bu borada kaminaning tajribasi yoshlar uchun yetarlidir”. Asar uch qismdan iborat bo‘lib, uning birinchi qismida turli toifaga mansub odamlarning fe‘l-atvorlari; ikkinchi qismida yaxshi xislatlar va yomon fe‘llar, ularning o‘ziga xos jihatlari; uchinchi qismida esa yaxshi fe‘l va xislatlar, insonda ularni shakllantirishga oid qarashlar bayon etilgan.

Navoiy insonga xos bo'lgan ma'naviy-axloqiy xislatlar qanoat, sabr, tavoze (adab), o'zgalarga nisbatan mehr-muhabbatli bo'lish, ishqda vafodorlik, saxovat, himmat, karam, muruvvat, yumshoq ko'ngillik (hilm) kabilar xususida so'z yuritadi hamda ularga ta'rif berib, tanbeh va hikoyatlar vositasida kasbiy qarashlarini bayon etadi. Mutafakkir axloqlilikning eng muhim mezonini deb odobni hisoblaydi. Odobli, axloqli bo'lish insonga atrofdagi kishilar o'rtasida muayyan mavqe hamda hurmatga sazovor bo'lishga yordam beradi. Odobga ega bo'lishning inson hayotidagi rolini ko'rsatib berar ekan, Alisher Navoiy shunday fikrlarni ifoda etadi: "Adab kichik yoshdagilarni ulug'lar duosiga sazovor etadi va u duo barakati bilan umrbod bahramand bo'ladi. Adab, kichiklarni mehrini ulug'lar ko'ngliga soladi va u muhabbat ko'ngilda abadiy qoladi. Alisher Navoiyning fikriga ko'ra yaxshi xulqning asosi bo'lgan odob barcha insoniy xislatlarning bosh bo'g'ini ekanligini: qanoat, sabr, tavoze, ishq, vafo, saxovat, himmat, karam, muruvvat, hilm (yumshoq ko'ngillik) kabi ijobiy fazilatlar odobli, axloqli kishilar qiyofasidagina namoyon bo'lishiga urg'u beradi. Mutafakkir insonga xos bo'lgan ma'naviy-axloqiy xislatlar xususidagi fikrlarini ularning har biriga to'laqonli ta'rif berish asosida davom ettiradi. U qanoatni "chashma"ga qiyos qiladi. Uning uqtirishcha: *"Bu chashmadan qancha suv olgan bilan uning suvi kamaymaydi, u bir xazinadirki, undan boylik sochilgani bilan kamaymaydi. U bir ekinzorki, urug'i izzat va shafqat hosilini beradi; u bir darxtdirki, unda karam va hurmat mevasi bordir"*. Ayni o'rinda sabr deb ataluvchi xislatga shunday ta'rif beradi: *"Sabr achchiqdir – ammo foyda beruvchi, qattiqdir – ammo zararni daf etuvchi, sabr shodliklar kalitidir va bandlar ochqichidir. U o'rtoqdir – suhbatini zeriktirarli, ammo maqsadga olib boruvchi; u ulfatdir – umidi uzun, ammo oxiri istakka eltuvchi. Ulovdir – yurishi taxir, ammo manzilga yetkazuvchi; tuyadir – qadami og'ir, lekin bekatga tushirguvchi. Achchiq so'zli nasihatqanday tabiat undan olinadi, lekin zaminida maqsad hosil bo'ladi. Badxo'r dori beruvchi tabibday kasal undan qiynaladi, ammo so'ngida sog'liq yuz beradi"*. Alisher Navoiy yoshlarni vaqtning qadriga yetish, ilm-fan asoslarini puxta o'zlashtirishga, ulardan amaliy faoliyatda samarali foydalanishga undaydi. U ta'lim olish yo'llari xususida shunday tavsiyalarni beradi:

- *maktab yoki madrasada tahsil olish;*
- *olim, hunarmand yoki san'atkorlarga shogird tushish asosida ta'lim olish;*
- *mustaqil ravishda ilm o'rganish.*

Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida ilm o'qib uni ishlatmagan kishi urug' sohib hosilidan bahra olmagan kishiga qiyoslanishini aytib, aniq hayotiy maqsad asosida bilimlarni tinmay, uzluksiz o'rganish zarurligini ta'kidlaydi. Ushbu asar orqali Navoiy asarda hasad, g'iybat, yolg'onchilik, nodonlik, takabburlik, manmanlik, faqat o'z foydasini ko'zlab ish yuritish, johillik, ikkiyuzlamachilik, ta'magirlik, shoshmashosharlik, bachkanalik, pala-partishlik, fisqi-fasod yuritish, yalqovlik, haromdan hazar qilmaslik kabi illatlarni qoralaydi. Alisher Navoiy o'z davrining ilg'or, ma'rifatparvar allomasi sifatida islomdagi ta'lim-tarbiya to'g'risidagi o'g'itlarni, aqidalari, o'zidan ilgari o'tgan mutafakkirlarning pedagogik qarashlarini an'anaviy tarzda davom ettirdi. Ayniqsa, inson kamolotida ilm-fanning o'rni aql-idrokning ahamiyati, aqliy tarbiyaning mohiyatini yoritib beradi. Alisher Navoiy tasavvurlaridagi komil insonga xos bo'lgan eng yuksak fazilatlar: ijodkorlik, qobilyat, ilm-fanga muhabbatni kiritadi. Uning fikricha, baxtli hayotga intilgan oqil, qobilyatli, dono inson-o'zining kuch-quvvatiga, aqlu-zakovatiga ishonadi. Alisher Navoiy o'zining badiiy asarlari bilan bir qatorda ta'limiy-axloqiy asarlarida o'zi orzu etgan komil insonga xos axloqiy fazilatlar deb qanoat, adolat, sahovat, himmat, muruvvat, vafo, to'g'rilik, hilm, rostgo'ylik, tavozu', adab va boshqalarni tushungan, ana shu hislatlar tarkib topgan insonda yomonlik, razillik bo'lmasligi, bunday insonlar yashagan jamiyat ham ravnaq topishi, barcha xalq baxt-saodatga erishishi mumkin, deb hisoblagan.

O'z davridagi ta'lim-tarbiya talablariga ko'ra ham, tarbiya an'alariga binoan ham, Alisher Navoiy asarlarida shaxsning har tomonlama barkamol bo'lib yetishishida yoshlarning jismonan sog'lom va baquvvat bo'lishiga ham, jiddiy e'tibor beradi. Alloma tomonidan yaratilgan aksariyat asarlarda yigit kishi yoshligidanoq o'zlashtirishi shart bo'lgan kamondan ota olish – merganlik, qilichbozlik, suvda suzish, kurash tusha olish kabi harbiy-jismoniy fazilatlar ulug'lanib, ularni tarbiyalash yo'llari ham ko'rsatib beriladi. Alisher Navoiy

asarlari komil insonni tarbiyalash usullari va vositalari ham ifodalangan. Alloma asarlari bola tarbiyasi bilan oilada va maktabda shug'ullanib, namuna uslubidan foydalanishni tavsiya etilgan. Tarbiya va ta'lim ota-ona hamda o'qituvchi tomonidan olib borilishi lozimligini ta'kidlagan. Navoiy ta'lim-tarbiya masalalariga alohida e'tibor berar ekan, tarbiya jarayonlarini, vositalarini, talablarini ko'rsatadi. U ta'limda ilmiylik, asoslanganlik, tarixiylik kabi talablarni asos qilib oladi. O'z davridagi musulmon maktablarining yutuq va kamchiliklarini taxlil etib, o'sha davrning ayrim maktabdorlarini qattiqqo'lligi, ta'magirligi va johilliklarni qoralab, shunday yozadi: *“Mudarris kerakki, g'arazi mansab bo'lmasa va bilmas ilmni aytishga urinmasa, manmanlik uchun dars berishga havas ko'rgazmasa va olg'irlik uchun gap — so'z va g'avg'o yurgizmasa, nodonlikdan sallasi katta va pechi uzun bo'lmasa, gerdayish uchun madrasa ayvoni boshi unga o'rin bo'lmasa. Yaramasliklardan qo'rqsa va nopoklikdan qochsa, nainki, o'zini olim bilib, necha podshoga turli xil fisq ishlarni mumkin, balki halol qilsa, qilmas ishlarni qilmoq uchun sodir bo'lsa va qilar ishlarni qilmaslik unga qoida va odat bo'lib qolsa. Bu mudarris emasdir. Yomon odatni tarqatuvchidir”*. Shu bilan birga o'qituvchi mehnatining mashaqqatli ekanligini ta'kidlab deydi: *“Uning ishi odam qo'lidan kelmas, odam emas, balki dev ham qila bilmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashga o'zlik qilardi, u esa bir to'da bolaga ilm va adab o'rgatadi, ko'rkim bunga nima yetsin. Shunisi ham borki, u to'dada fahm - farosati ozlar bo'ladi, unday kishiga yuzlarcha mashaqqat kelsa qanday bo'ladi. Har qanday bo'lsa ham, yosh bolalarga uning haqqi ko'pdir. Agar shogird podshohlikka erishsa ham unga (muallimga) qulluq qilsa arziydi”*.

Inson komilikka intilar ekan, zinxor bu intilishning oxiriga yeta olmaydi. Shu bois, men komilman, kamolotga erishdim, degan odam xato kiladi. Inson o'z faoliyati mobaynida, nuqson va kamchiliklarga ham yo'l qo'yadi. Ammo shu nuqsonu kamchiliklarni tushunib, tuzatib ularni takrorlamaslikka xarakat qiladigan kishi barkamol shahsdir. Bu haqda Alisher Navoiy shunday degan:

*Nokis uldirkim, o'zin komil degay,*

*Komil ulkim, nuqsin isbot aylagay.*



Inson kamolotiga chek-chegara yo`q. Muttasil kamolat sari intilmoq – tarakkiyot boisidir. Kishi umrini baland himmat bilan boyitmogi shart. Yuksak maqsadlar sari intilmoq, insoniyatga naf yetkazib yashashni xayotning mazmuni deb bilmog-himmat balandlikdan nishonadir. Alisher Navoiy bu xususda bunday degan:

*Birovkim, anga ximmat uldi baland,*

*Erur olam axli aro arjumand*

*Ani, anga mufliski yuk ximmati,*

*Chu yuk ximmati, yuk aning xurmati.*

Utmish ma`naviy merosimiz komil inson goyasi bilan charog`on. Xazrat Alisher Navoiy dostonlarining xar biri komillikning o`ziga xos mezonidir. Darhaqiqat, Navoiy asarlarining har bir saxifasi, misrasi va xulosasida ana shu mezon zo`r kuch bilan tashvik etila boradi. Chunonchi. buyuk shoirning «Arba`in» asarida quyidagi xikmat, ayniqsa, muhimdir:

*El aro yaxshiroq, deding, kimdur,*

*Eshitib shubxa ayla raf andin.*

*Yaxshiroq bil ana ulus arokim,*

*Etsa ko`proq ulusga naf andin.*

Ya`ni, el orasidagi eng yaxshi odam – ulusga (xalqqa) ko`p foyda yetkazgan kishidir. Inson koinotdagi barcha mavjudotlar ichida hammadan ulugi hisoblanadi. Uning kamolati oldida aql hayron qoladi, chunki. inson haqiqat haqida chuqur o`ylaydi. Kamolat yo`liga chiqish uchun u asta-sekin o`zligini izlaydi, olimni tanlaydi. Alisher Navoiy “kamol et kasbkim” deya da`vat qilganlarida komillik uchun zarur juda ko`p xususiyatlarni nazarda tutgan. Kishi o`zini xirs-ta`ma, nafs, gaffat, nodonlik singari mayllardan poklamsa, hech payt komil bo`la olmaydi. “Olam uyi”da yashash – uning fuqarosiga aylanishdir. Alisher Navoiy insonning jahon farzandi mavqeiga kutarilishini hohlagan. Xuddi shu mavqeni esa kamolatning oliy cho`qqisi deb bilgan. Navoiy o`z davrida komil insonlarni “axli ma`ni” deb bilgan. “Axli ma`ni” bu fikrli odamlardir. Fikrsiz xaloyiqning ongida ma`ni chuqurligi bo`lmaydi. Fikrlash – haqiqatni anglashdir - deydi, u. Alisher Navoiy Hirotda fan, madaniyat, ma`rifat ishlarini yo`lga qo`yishda, u yerni

obodonlashtirishda katta xizmatlar qildi. Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma"da Hirot to'g'risida yozar ekan butun dunyoda bunday obod shaharni ko'rmaganligini aytadi. Alisher Navoiy masjidlar, madrasalar, hammomlar, kasalxonalar, hovuz va ko'priklar, rabotlar qurdirgan. U shaharning eng hushhavo joyida barpo etgan Xalosiya va Ixlosiya binolari fan, adabiyot, san'atga xizmat qiladigan madaniy markazga aylangan.

**Zahiriddin Muhammad Boburning** (1483 -1530) adabiyot, san'at, tarix, falsafa, geografiya, musiqa kabi fanlarga doir "Boburnoma", aruzga doir risolasi, "Xatti Boburiy", "Xarb ishi", "Musiqiy ilmi" kabi asarlari ma'lum.

U o'zining asarlari, ruboiylari, ma'naviyat, odob-axloqqa oid o'g'itlari va ta'limotida davlatni boshqarish, xalq bilan muomala qilishda ilm-ma'rifatning ahamiyati bebaho ekanligini bot-bot qayd etgan. Bobur o'g'li Humoyunga yozgan xatlaridan birida davlatni boshqarishni kengash asosida olib borish zarurligini ta'kidlab shunday deydi: *"Agar mening rizomni tilarsan, xilovatninishlikni va el bilan kam ixtilotlikni bartaraf qilgin. Kunda ikki navbat iningni va beklarni ixtiyoriga qo'ymay, qoshingga chorlab, har maslahat bo'lsa kengashib, ish ko'rgaysan"*. Zahiriddin Muhammad Bobur yirik davlat arbobi, mohir lashkarboshi bo'libgina qolmay buyuk shoir, adib, mashhur muharrir, nozikta'b, faylasuf, yirik madaniyat va siyosiy arbob hamdir. "Boburnoma"ni ingiz tiliga tarjima qilgan Uilyam Erskim Osiyodagi podshohlar ichida sahovatlilik, mardligi, iste'dodi, fanga, san'atga muhabbati va nafis nazmiy-nasriy ijodi, ilmiy quvvai hofizasi jihatdan Bobur Mirzoga teng keladigan podshohni topib bo'lmaydi, deydi: *"Bobur Sharq matlakatlari taxtiga yarashib tushgan hukmdorlarning yorqin namoyondalaridan biridir. Uning shaxsi oliyjanob inson va ulug' shohga mansub bo'lgan fazilatlaridan tarkib topgan. U jasur va tadbirkor hamda shijoatli sarkarda bo'lib, kishilarni o'z ortidan ergashira oladigan tashkilotchi lashkarboshi edi. U ko'ngli beg'araz hamda ishonuvchan kishi bo'lib, yoshlik g'ayrati va shijoati uni hech qachon tark etmagan... shu bilan birga yuksak etiqod kishisi bo'lgani uchun ulug'vorlik va go'zallikni nihoyatda qadrlar va har tomonlama qo'llab-quvvatlashga intilar edi. U buyuk qudrat va ulug'vorlik egasi bo'lib, shon-*

*shuhratning har qanday ko'rinishi uchun tassavurini yanada kengaytirar va bironing shuhratiga sherik bo'lishni istamas va o'zining ega bo'lishi ma'qul ko'rar edi. Hali yosh bolaligidayoq Farg'ona tahtiga chiqqanda, artof mamlakatlarning taxtida sulton va xonlar o'tirar edi. U hali yigitlik davridayoq sultonlardan birortasi qolmadi. Ular saroydagi fitnalari yoki bo'lmasa chetdan kelgan bosqinlar qurboni bo'ldilar. O'sha shafqatsiz shamollar Boburni ham uzoq ellarga eltib tashladi. Lekin, qonidagi g'ayrat-shijoat va iroda kuchi tufayli ana shu hayot bo'ronlariga bardosh berib, undan ustun kelgan yakka-yu-yagona Temuriy Bobur edi"*<sup>23</sup>.

Qalbiga go'zallikni, san'at asarlarini qadrlash, irsiy me'ros bo'lgan Bobur yuksak didli, nozikta'b, adibu sultondir. U turkiydan tashqari forsiy tilda ham bemalol ijod qilgan. Boburda adabiyotshunoslik va shoirlik qobiliyatidan tashqari xattotlik iste'dodi ham juda yaxshi rivojlangan. Boburning mashhur asari "Boburnoma"sidir. Asarning qamrovi shu qadar keng. mazmuni shunchalik chuqur va mukammalki, uni hech bir ikkilanmasdan va mubolag'asiz o'zbek adabiyotinigina emas, balki jahon ilm-fani va madaniyatining ham bebaxo qomusiy asari, deb aytsa bo'ladi. "Boburnoma" dunyo tan bergan nodir tarixiy asar bo'lib, unda murakkab ijtimoiy-siyosiy voqea va jarayonlar bilan birga ilm-fan, madaniyat va ma'naviyatning, xalq onmasi hayotining turli sohalariga oid qimmatli ma'lumotlar berilgan. Bobur o'g'lining yuqori tabaqali mansabdorlar yozma nutqiga xos jarangdor va balandparvoz jumalalar bilan to'la bo'lgan dabdabali bir xatini qattiq tanqid qiladi. Xatni tushunarli, sodda va ravon yozsa o'ziga ham, o'quvchiga ham qiyin bo'lmasligini uqtirib, o'z fikrini aniq, rostgo'ylik bilan ifoda qilishga harakat etish kerakligini ta'kidlaydi. Bu esa uning murabbiylik va muallimlik faoliyatini ko'rsatadi. Boburning zukko, estetik fikrlash doirasi keng ekanligini, yoshlarni she'r san'ati bilimini puxta egallamay turib she'r yozmaslikka va she'r bilimini qunt bilan o'rganishga undaganligidan bilish mumkin. Sulton Mahmud Mirzo haqida yozar ekan, bunday deydi: *"Tab'i nazmi bor edi, devon tarkib qilib edi. Vals she'ri bisyor past va bema'za edi. Andoq she'r aytqondin aytmag'on*

<sup>23</sup>Уильям Эрскин. Бобур Хиндистонда. -Г: «Чулпон», -1985., 102-103 бетлар

*yaxshirog`dur*”. Bobur ana shu zaruriyatni his etgan holda she’riyat nazariyasining aruz vazni qoidalariga bag’ishlab “Muxtasar” asarini yozdi. Ta’kidlash joizki, “Muxtasar”da misol o’rnida keltirilgan she’r yoki she’riy parchalar tarbiyaviy jihatdan xalq pedagogikasiga to’la mosligi bilan hozir ham tarbiya vositasi sifatida xizmat qilayotir. Demak, Bobur yosh avlodning oson savod chiqarishi haqida qayg’urib, imloning oson belgilarini yaratish bilan birga yozma va og’zaki nutqning ravn va tushunarli bo’lishini talab qilib, nutq madaniyatini tashviqot va targ’ibot etdi. Eng murakkab hisoblangan aruz nazariyasini dalillar bilan sharhlab adabiyotshunoslik faniga, ma’lum ma’noda yangiliklar kiritdi. Zahiriddin Muhammad Bobur o’z davrining yetuk psixologi sifatida o’ziga yaqin kishilarnigina emas, balki atroflaridagi boshqa kishilarning ham xatti-harakatlarini va axloqini kuzatadi, ular xulqini o’rganadi, taxlil qiladi, yaxshi fazilatlarini o’zida, oila a’zolarida, yaqin kishilarida tarbiyalashga, yomon xulqlarni bartaraf etishga harakat qiladi. U “Boburnoma” asarida 80 dan ortiq shaxsning nomini tilga olib, 50 dan ortiq zamondoshi xulq-odobi, iisoniyligi, nasl-nasabi, mansabi, kasbi, ijodi va ilmi-fanga qo’shgan hissasi haqida to’xtaladi, ularga adolatli baholar beradi, o’z munosabatini bildiradi. Bobur tomonidan xulqi taxlil etilgan shaxslar asosan o’z axloqi bilan xalqqa ta’sir etishi mumkin bo’lgan shohlar, shahzodalar, vazirlar, beklar, mirzolar, dindorlar, shoirlar, olimlar edi. Eng muhimi, xulqi ma’lum darajada yuqori bo’lgan mansabdorlarning o’ziga xos xususiyatlaridan xabardor shaxsgina hukmdor yoki nufuzli kishilarga munosabat bildirishi, baho berishi mumkin edi. Boburning fikricha, o’z davrining ma’rifatli kishisi esa odamlar xulqini hukmdor sifatidagina emas, balki xulq atvorda, axloqda namunali kishi sifatida kuzatishi va tahlil etishi, uning natijasi asosida o’z hukmini berishi kerak edi. Boburning oilaviy tarbiya haqidagi fikrlari ham qimmatlidir. U oilada ongli holda qattiqqo’l bilan bolalarni tartibli, intizomli qilib tarbiyalashni talab etadi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. A.Temur o’gitlarini mohiyati va vazifasiga qarab qanday guruhlashtirish mumkin?

2. Mirzo Ulugʻbek ta'limotidagi yetakchi gʻoya haqidagi fikringizni ayting.
3. Abdurahmon Jomiyning tarbiyaga oid qarashlarinin taxlil qiling.
4. A.Navoiy qaysi asar va dostonlarida ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini bayon etgan?
5. Boburning inson hulqi va oilaviy tarbiya haqidagi qarashlari mazmuni nimalardan iborat?

## XIV BOB. XIX ASRNING OXIRI XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONDA IJTIMOYIY PEDOGOGIK FIKRLAR

Turkistonda jadidchilik harakati va ta'lim-tarbiya. Turkistondagi jadidchilik harakati tasodifiy hodisa bo'lmay, balki hayotimizdagi ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar maxsulidir. Ular Turkistonni chor Rossiyasi tomonidan zo'ravonlik yo'li bilan bosib olinishiga, mustamlaka qilinishiga norozilik bildirib, xalqimizning ozodlik, mustaqillik yo'lida olib borayotgan kurashlarini qo'llab-quvvatlash, ularga g'oyaviy rahnamolik qilishga harakat qilganlar.

Shunday islohot tarafdorlarini jadidchilar, ya'ni yangilik tarafdorlari deb atay boshlaydilar. *Jadidizm arabcha "jadid" so'zidan olingan bo'lib "yangi" degan ma'noni bildiradi.* Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdurauf Fitrat, A.Avloniyalar bu harakatning asosiy namoyandalari sifatida maydonga chiqdilar. Jadidchilik jamiyati to'ntarish yo'li bilan emas, islohotlar yo'li bilan rivojlantirishni o'zining asosiy vazifasi deb belgilaydilar. Uning harakat dasturi quyidagi masalalarni hal qilishga qaratilgan edi:

1. Diniy taassuf va fanatizmga qarshi kurash.
2. Diniy aqidalarga asoslangan o'rta asr maktablari o'rniga Ovro'po qabiladagi dunyoviy ilmlarni ona tilida o'qitishga moslangan yangi usuldagi maktablarni tashkil etish, feodal davri maorif tizimini isloh qilish.
3. Jadidchilik g'oyalarini keng xalq ommasiga yetkazish niyatida yangi o'zbek adabiy tilini ishlab chiqish, matbuot hurligi uchun kurash, xalq ommasiga tushunarli adabiyot va teatni yaratish.
4. Xotin-qizlarni paranjidan chiqarish va jadid maktablariga qatnashlarini ta'minlash yo'li bilan ular taqdirini o'zgartirish va oilada islohot o'tkazish.
5. Mahalliy boylar va savdogar ahlining siyosiy va iqtisodiy jihatdan rus burjuaziyasi bilan bir huquqda bo'lishi, mahalliy amaldorlarning chor hukmdorlari tomonidan siquvga olishiga qarshi kurash. Shu yo'l bilan mustamlakachilik siyosatini isloh qilish. Asosiy talabalari ana shundan iborat bo'lgan jadidlar uchun

ilm va ma'rifat yagona qurol bo'lib, ular shu qurol yordami bilan o'lkada ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot uchun kurashmoqchi bo'ldilar.

**Mahmudxo'ja Behbudiy (1874-1919).** Turkistonda jadidlar harakati asoschilaridan biri Behbudiy "usuli jadid" maktabining zarurligi, uning qonun-qoidalari, maktabda o'tiladigan darslar, qanday imtihonlar olinishi, maktabning qay tarzda tuzilishi, unga qanday asbob-uskunalar kerakligi, muallimlarning vazifalari, ularning ta'minot masalalari va boshqa ko'p jihatlarini G'aspiralidan va uning asarlari hamda maqolalaridan o'rgandi. Shular asosida Turkistonda "usuli jadid" maktablarini tashkil etish uchun bor kuchini sarfladi. Nafaqat tashkil etish, balki maktablarni kitoblar bilan ta'minlashda ham jonbozlik ko'rsatdi. U Samarqandning eski shahar qismida bepul kutubxona, qiroatxona. o'z hovlisida maktab ochdi. Mahmudxo'ja Behbudiy "usuli jadid" maktablari uchun "Muxtarasi tarixi islom" ("Islomning qisqacha tarixi"), "Madxali jo'g'rofiya umroniy" ("Aholi jo'g'rofiyasiga kirish"), "Muxtarasi jo'g'rofi rusiy" ("Rossiyaning qisqacha jo'g'rofiyasi"), "Amaliyotchi islom" kabi bir qancha kitoblarni yozdi va ulardan darslik sifatida foydalandi.

"Usuli jadid" maktablarida hamma o'qish huquqiga ega bo'lgan. Maxmudxo'ja Behbudiyning "usuli jadid" maktabidagi o'qitish ikki bosqichdan iborat edi.

*Birinchi bosqich* – ibtidoiy qism. deb nomlangan. Buning tahsil muddati to'rt yil.

*Birinchi yilida:* forsha va arabcha yozuv hamda o'qishni o'rganilgan. Suralar yod olingan. Hisob darsi o'rgatilgan. Umuman bir yil davomida yozmoq o'qimoqni to'liq o'rganganlar.

*Ikkinchi yilida:* xaftiyak, imon va e'tiqoddan dars, fors, turkiy va arab tilida she'rlar, qasidalar o'qitilgan.

*Uchinchi yilida:* Qur'oni Karim, islom ibodati, tajvid, Sa'diydan nasihatlar, fors va turkiy til puxta o'rgatilib, undan insholar yozdirilardi. Hisobdan turli taqsimot va ish yuritish kabi zaruriy jihatlar o'qitilgan.

*To'rtinchi yilida:* esa Kalomu Sharif, mufassal tajvid, forsiy va turkiy nazm va nasr, axloq darsi, turkiy va forsiy til, hisobi tarix, jo'g'rofiya o'qitilgan. Bu to'rt sinfni tamomlagan bolalarni muallimlarning o'zi taqsimlagan. Xohlasa ikkinchi

bosqichga qoldirar, ularning o'zlashtirishlariga qarab madrasaga yuborar, bolaning o'zi xohlasa Yevropa maktablariga yuborar yoki tirikchilik uchun ishlashga yo'llanma berardi.

*Maktabning ikkinchi bosqichi* – rushadiya bo'lib, bunga to'rt sinf – ibtidoiy qismni tamomlaganlar o'tkazilar edi. Bu bosqichda o'qitiladigan dars va ilmlarning mundarijasi quyidagicha:

*birinchi yili* arab tili, jo'g'rofiya, shafaqiya, fors tili, tarjima jumla muxtasar, tarixi anbiyo va islom tarixi, Sa'diyning "Guliston", turkiy tili o'qitilgan;

*ikkinchi yil* – arab tili, shifoxiya, tarix, islom axloq, turk tili, hisob, fors yozuvi va hokazolar;

*uchinchi yil* – arab tili, hisob, xat yozuvi, tarix, turkiy til, rus tili ham o'qitilgan;

*to'rtinchi yil*– arab tili, rus qozixona xatlari, turk tili va adabiyoti, salomatlik, maktab va hayot, ishq va muhabbatsiz axloq va boshqa ko'pgina hayotiy daralar o'qitilgan.

**Munavvar qori Abdurashidxon o'g'li** (1878—1931). 1901—1904 yillarda Toshkentda "Usuli savtiya" maktabini ochadi. U maktabni isloh qilmay turib, odamlarning ongida o'zgarish yasab bo'lmasligini yaxshi tushunib yetadi va shunday yozadi: "*Turkistonda maktab va madrasa yo'q emas, bor, ammo ular benizom va beusuldir... Turkistonlik yoshlarning tarbiyasi va ta'lim olishiga jiddiy e'tibor berilmayapti, millatning istiqboliga loqayd va beparvo qaralmoqda*".

Munavvar qori farzandlari tarbiyasiga bee'tibor otalar xususida kuyinib, shunday fikr bildiradi: "... *ilm berishni o'ylamay, jonidan shirin bolalarini ko'chabako'cha kezdirib, bechora mas'umni aziz umrini jaholat otashila yondig'uvchi behamiyat va bediyonat otalar ham oramizda oz emasdur*".

Munavvar qori Abdurashidxon o'g'li maktab tartib qoidalariga qat'iy amal qilishni muallimlardan ham talab qilgan, bolalar bilan qo'pol muomalada bo'lishni, ularni urish va jerkishni taqiqlagan. U bolalarga beriladigan jazo va tanbeh juda demokratik va insonparvarlik ruhida bo'lishi lozim, deydi.



Munavvar qori fors, arab, rus, turk tillarini mukammal bilgan, u ko'p ulug' adiblarning asarini mutolaa qilgan. Munavvar qori o'lkaning qoloqligi sababini axtarar ekan: *"Bizning Turkiston mamlakati tuproq, suv va havo jihatidan eng boy mamlakatlardan bo'la turib, na uchun o'zimiz bundan foydalana olmaymiz?"* deb afsus-nadomatlar qiladi.

**Abdulla Avloniy (1878-1934).** Abdulla Avloniy pedagogik fikr taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan, o'z asarlarida o'zbek xalqining eng yaxshi an'alarini, ta'lim-tarbiyaga oid muhim hayotiy masalani aks ettirgan pedagog, olimdir. Abdulla Avloniy "Usuli jadid" maktablari uchun to'rt qismdan iborat "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" hamda "Birinci muallim" (1912). "Turkiy guliston yoxud axloq" (1913), "Ikkinchi muallim" (1915), "Maktab gulistoni" (1917) kabi darslik va o'qish kitoblarini yaratdi. Bu asarlarida hamda publitsistik maqolalarida dunyo xalqlari madaniyatini, ilm-fanni, maktab va maorifni ulug'lab, o'z xalqini ilmi, madaniyatli bo'lishga chaqiradi. A.Avloniy o'zining "Muallimi avval" ("Birinci muallim") alifbo darsligini yaratishda o'quvchiga uchun oson bo'lishiga alohida e'tibor qaratadi, ularning yosh va individual xususiyatlarini hisobga oladi. Avloniyning "Ikkinchi muallim" kitobi "Birinci muallim" kitobining uzviy davomidir. Muallifning "Muallimi soniy" kitobi 40 darsga mo'ijallangan bo'lib, unda o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish, badiiy asarni yod olish, ifodali va ta'sirchan o'qishga e'tibor beriladi. Kitobda berilgan "Aqli bola", "Arslon ila ayiq", "Nafsi buzuq hayitda o'lar", "Aqli qarg'a", "Saxiylik", "Baxillik" kabi hikoya va masallarda insoniy fazilatlar ulug'lanadi, salbiy illatlar qoralanadi. Abdulla Avloniyning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari axloqiy va ta'limiy tarbiyaviy asardir. Asarda insonlarni *"yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlardan qaytaruvchi"* bir ilm-axloq haqida fikr yuritiladi.

O'zbek pedagogikasi tarixida Abdulla Avloniy birinchi marta pedagogikaga "Pedagogiya", ya'ni bola tarbiyasining fanidir". deb ta'rif berdi. Tabiiy bunday ta'rif Avloniyning pedagogika fanini yaxshi bilganligidan dalolat beradi. Abdulla Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda quyidagi to'rt bo'limga ajratadi:

### *1. Tarbiyaning zamoni.*

2. *Badan tarbiyasi.*

3. *Fikr tarbiyasi.*

4. *Axloq tarbiyasi.*

Avloniyning fikricha tarbiya xususiy ish emas, milliy, ijtimoiy ishdir. Tarbiya zurriyot dunyoga kelgandan boshlanib, umrining oxiriga qadar davom etadi. U bir qancha bosqichdan — uy, bog'cha, maktab va jamoatchilik tarbiyasidan tashkil topgan. Avloniy tarbiyaning doirasini keng ma'noda tushunadi. Uni birgina axloq bilan chegaralab qo'ymaydi. U birinchi navbatda bolaning sog'ligi haqida g'amxo'rlik qilishi lozimligini uqtiradi.

Avloniyning fikricha, sog'lom fikr, yaxshi axloq, ilm-ma'rifatga ega bo'lish uchun badanni tarbiya qilish zarur. *“Badanning salomat va quvvatli bo'lmog'i insonga eng kerakli narsadur. Chunki o'qumoq, o'qutmoq, o'rganmoq va o'rgatmoq uchun insonga kuchli, kasalsiz jasad lozimdir”.*

Abdulla Avloniy badan tarbiyasi masalasida bolani sog'lom qilib o'stirishda ota-onalarga murojaat qilsa, bolani fikr tomondan tarbiyalashda o'qituvchilarning faoliyatlariga alohida e'tibor beradi.

Abdulla Avloniy ta'lim va tarbiya uzviy bog'liq ekanini ta'kidlaydi: *“Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo'lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kbidur”*— deydi.

Abdulla Avloniy yoshlarni foydali kasb-hunar egallashga chaqiradi. Mehnatsiz kun kechirishni barcha yomon sifatlarning ibtidosi, deb hisoblaydi. Avloniy intizomni inson xarakterini tarbiyalovchi, mukammallashtiruvchi manba, deb biladi, hamda unga doim rioya qilish kerakligini ta'kidlaydi: *“Intizom deb qiladurgan ibodatlarimizni, ishlarimizni har birini o'z vaqtida tartibi ila qilmoqni aytilur. Agar yer yuzida intizom bo'lmasa edi, insonlar bir daqiqa yashay olmas edilar. Har bir millatning taraqqiysi va toliysi ishlarini vaqtida, nizomdan chiqarmay tartibi ila yuritilmoqg'a bog'liqdur... Chunki tartib va nizomga rioya qilmagan kishilarning ishlari hamma vaqt notamom, o'zlari parishon bo'lurlar. Ammo ishlarini tartib uzra yuritgan kishilarning ishlari joyida, o'zlari tinch va rohatda bo'lyrlar”.*

Abdulla Avloniyning ta'lim-tarbiya sohasidagi qarashlari o'zbek xalqining ruhiyati, turmush tarzi, milliy qadriyatlarini bilan chambarchas bog'langan. Uning boy pedagogik merosi milliy maktab, milliy pedagogikani rivojlantirishda qimmatbaho manba bo'lib xizmat qiladi. Shu ma'noda Avloniyning siyosi, faoliyati biz uchun qadrlidir.

*Abdurauf Fitrat* (1886—1938). Fitrat ham barcha jadidlar qatori xalqni ilmiy qilib, hayotni, jamiyatni yangilashga intiladi. U ham ilmiy va badiiy ijod sohasidagi dastlabki qadamlarini ma'rifat izlash va hammani ma'rifatga da'vat etishdan boshlaydi. Fitrat ta'lim-tarbiyada oilaning o'rni beqiyos ekanligini o'zining "Rahbari najot" asarida ifodaladi. Bu asarda ota-onalar o'z bolalarini yetuk kishilar qilib tarbiyalashlari zarurligi, bunda ayniqsa, uch tarbiyaga:

1. *Jismoniy tarbiya — salomatlik.*

2. *Aqliy tarbiya — sog'lom fikrlilik.*

3. *Axloqiy tarbiya — axloqiy sano, ya'ni axloqiy poklikka e'tibor berishlari zarurligini uqtirdi.*

Fitrat jismoniy tarbiyaga, kishining salomat va baquvvat bo'lib tarbiyalanishiga alohida e'tibor beradi: "*Badan tarbiyasiga qadim zamonlardan boshlab katta ahamiyat berilgan. Insonning butun a'zosi salomat bo'lib, quvvatga ega bo'lmasa, unda inson uzoq yashamaydi. Agar insonning tanasidagi a'zolaridan biriga halal tegsa, u kishi ishdan qo'lini tortib, boshqalarning muhtojiga aylanadi. Biz farzandlarimizning ilm olishlari bilan birga, ularning badan tarbiyasiga ham ahamiyat berishimiz lozimdir*".

Shuningdek, A.Qodiriy, M.So'fizoda, I.Ibrat, A.Shakuriy, S.Siddiqiy, I.Raxmatullayevlar ham jadidchilik harakatini qo'llab-quvvatlaganlar. O'z xalqini millatini ilm-ma'rifatni egallashga chaqirganlar, o'z hisoblaridan maktablar ochib, bu maktablarda bolalarga dunyoviy ilmlardan saboq berganlar.

Umuman olganda, jadid harakati namoyondalari xalqning milliy ongini oshirish va o'zligini anglatishning asosi, najot va istiqbolning kaliti deb ilmu urfonini tushunganlar.

## **Chet-el va rossiyadagi ilg'or pedagogik g'oyalar**

*Yan Amos Komenskiy* (1592—1670). U o'zining qariyb 80 yillik umri davomida pedagogika, ta'lim-tarbiya, falsafa, ilohiyotga oid 250 dan ortiq asarlar, darsliklar yaratdi. Bulardan yiriklari: "Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi" (1631), "Buyuk didaktika" (1632), "Onalar maktabi" (1632), "Pansofiya maktabi" (1651), "Yaxshi tashkil etilgan maktab qonunlari" (1953), "Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlari" (1658) nomli asar va darsliklardir. Darsliklari hayotlik davridayoq ko'p tillarga tarjima qilinib, Komenskiyning nomini butun dunyoga tanitadi.

Komenskiy o'zining pedagogik nazariyasida tarbiyaning tabiatga uyg'un bo'lishi to'g'risidagi qoidani ilgari suradi. "Buyuk didaktika"da o'qitish tabiiylikka bo'ysunishi kerakligi, bolaning aqliy va jismoniy o'sish jarayoni tabiatdagi o'sish jarayoniga o'xshashligini misollar asosida tyshyntiradi. Masalan, bog'bon daraxtlarni parvarish qiladi, uning o'sish xususiyatlarini hisobga oladi. Xuddi shunday o'qituvchi tarbiyalash qonuniyatiga bo'ysinadi. O'qitish jarayoni tabiatga o'xshab sekinlik bilan amalga oshadi. Komenskiyning tabiiylik prinsipida kishini tabiatning bir bo'lagi deb qarashi (xudo tomonidan bunyod etilmagan) tabiat qonunlari uning o'sishiga ta'sir etadi deyishi, o'z davrida ilg'or sanaladi. Komenskiy kishi dunyoga kelganda kishiga xos iste'dodga ega bo'lishi, tarbiyachi boladagi iste'dodni o'stirishi kerakligi haqida fikr yiritib, agar bola pedagogik ta'sirsiz yashasa, bu iste'dod tasodifan o'sishini aytadi. Komenskiy tarbiyaning tabiatga uyg'unlik masalasini tushuntirganda hamma narsaning asosi 4 ta deydi. Masalan: olam 4 narsadan yuzaga kelgan, ya'ni; yer, suv, havo, yorug'lik; dunyoning rivojlanishi ham 4 qismga bo'linadi: bular: bahor, yoz, kuz, qish; insonning rivojlanishi ham 4 davrga bo'linadi; go'daklik, bolalik, o'smirlik, yetuklik. Shuningdek ta'lim jarayoni ham 4 ga bo'linadi: maktabgacha tarbiya, boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim, oliy ta'lim. Komenskiy o'z asarlarida tarbiyaning maqsadini ko'rsatadi. Tarbiyaning maqsadi kishini mangulik dunyosiga tayyorlashdan iboratdir. Buni uch xil tarbiya orqali amalga oshirish mumkin:

*1. Aqliy tarbiya.*

## 2. *Axloqiy tarbiya.*

### 3. *Diniy tarbiya.*

Bu maqsad bolaning tug'ilganidan to 24 yoshigacha amalga oshadi, bu davr ichida bola to'rt maktabni o'qib tugatishi, har birida 6 yil o'qishi kerak, deb hisoblaydi. Komenskiyning bolani yosh davrlarga bo'lishi. Bunda u tabiiylik prinsipiga amal qilib, bola yoshini 4 davrga bo'ladi.

1. *Tug'ilganidan 6 yoshgacha — ona maktabi.* Bu davrda bolaning sezish organlarini o'stirishga, bolaning qabul qilishini. atrofda dunyo bilan tanishtirishga katta ahamiyat beradi. Bolani mehnatga o'rgatish, o'z-o'ziga xizmat qilishga jalb etish kerak. Ona boladagi axloqiy tarbiyaning asoslarini, to'g'rilik, haqqoniylik, mehnatni sevish va boshqalarni vujudga keltiradi. Ona maktabi bog'cha yoshidagi bola tarbiyasini ko'zda tutadi.

2. *6—12 yoshgacha — xalq maktabi yoki ona tili maktabi.* Bunda o'quvchi esda saqlashi, so'zlashga o'rganishi, yozish. boshlang'ich maktab ko'nikmasini hosil qilishi kerak bo'lib, buning uchun geometriya, geografiya. tabiiyot fanlarini o'rganishi lozim.

3. *12—18 yoshgacha — gimnaziya.* Bu o'quv yurtining vazifasi bola tushunchasini, tafakkur qobiliyatini o'stirishdan iborat bo'lib, unda klassik tillar, tabiiyot bilimlari, axloq, ilohiy fanlar o'qitilishi kerak.

4. *18—24 yoshgacha — Universitet. Akademiya.* Bu o'quv yurtlari o'quvchining irodasini, shaxsini bir butun o'stirishi kerak.

Komenskiy o'zining "Buyuk didaktika" asarida maktabda o'qitish tizimini amalga oshirishda quyidagi didaktik prinsiplarga amal qilishni tavsiya etadi:

- *ko'rsatmalilik prinsipi;*
- *onglilik prinsipi;*
- *izchillik va tizimlilik prinsipi;*
- *mashq qilish, bilim va malakalarni puxta egallash prinsiplari.*

1. *Ko'rsatmalilik prinsipi.* U bu prinsipni faqat ko'rsatib o'qitish usuli tariqasidagina emas, balki barcha sezgi organlarini narsa va hodisalarni asosli va yaxshi o'zlashtirib olishga jalb etish vositasi tariqasida keng ma'noda to'g'ri

tushunadi. Ko'rsatmalilikni o'qitishning "Oltin qoidasi" deb ataydi. Ko'rsatmalilik prinsipida:

- bolaga real narsalarni ko'rsatish;
- dunyoni rasmlar orqali tushuntirish;
- narsalar modelini ko'rsatish;
- o'qituvchining so'zi.

Komenskiy "Mir chuvstvennyx veshney v kartinkax", ya'ni "Dunyodagi narsalarning rasmlarda aks etishi" asarida o'qitilayotgan, o'rganilayotgan narsalarni ushlab, ko'rish, yeyish, hidlash kerakligini aytib, bu o'rganilayotgan materialni chuqur bo'lishga va esda uzoq vaqt saqlanishiga olib keladi, deydi.

2. *Onglilik prinsipi*. Komenskiy onglilik prinsipini ilgari surar ekan. o'qitishda ma'no-mazmunini tushunmay, og'zaki yodlashga qarshi chiqib, shunday yozadi: "Aql-idrok bilan yaxshi tushunib olingan narsadan boshqa hech bir narsani zo'rlab yodlatmaslik lozim. O'rganilayotgan narsa kundalik hayotda qanday foyda yetkazishini o'qituvchi yordamida anglab olishlari kerak. Shu bilan hodisalarning sabablarini anglatmoq, har bir narsani to'la tushuntirib bo'lguncha, shu narsa ustida to'xtatmoq kerak".

3. *Tizimlilik prinsipi*. O'qitilayotgan material o'quvchilarga asosiy qodilar tariqasida lo'nda bayon qilinishi kerak. O'qitishda dalillardan xulosalarga, misollardan qonunlarga o'tish, dalillar va misollarni qoidalar tizimiga solib, umumlashtirib berish lozim, aks holda hodisalarning tizimsiz uyumi hosil bo'lib qoladi. Konkretndan abstraktga, osondan qiyinga, umumiydan xususiyga o'tish kerak; avval narsa, ya'ni hodisaga umumiy tushuncha berib, keyin uning turli tomonlarini ayrim-ayrim o'rganish kerakligini ko'rsatadi.

4. *Izchillik prinsipida* — fan asoslarini izchil bayon qilish va tizimli tarzda o'rgatish talab etiladi. Izchillik prinsipida, kun, oy, yilga vazifa qo'yish va uni amalga oshirish uchun intilish kerakligi aytiladi. Bunda aniq vaqtni belgilash, o'qishning bola yoshiga mos bo'lishi, material izchillik bilan o'rganilishi, ya'ni bugungi material ertagi bilan bog'lanishi va keyingi o'tiladigan materialga yo'l ochish kerak.

**Sinf — dars tizimi.** Komenskiy sinf — dars tizimini ishlab chiqadi. Bunda o'qituvchiga butun sinf bilan jamoa bo'lib sinf - dars tizimida ish olib borishni, ya'ni o'qitishni tavsiya etadi. Dars vaqtida o'tgan darsni qaytarish, yangi mavzuni tushuntirish, mustahkamlash, uyga vazifa berish kerakligini ko'rsatadi. Darsni rejalashtirish va olib borish to'g'risida ko'rsatmalar beradi. Har bir darsning o'z mavzusi va o'z vazifasi bo'lishini aytadi. O'qituvchi o'quvchilarning dars mashg'ulotlarida faol qatnashishlarini ta'minlashi, kuzatib borishi, sinfda intizom saqlanishi kerakligini uqtiradi. O'quv jarayonini tashkil qilishni haddan tashqari oshirib yuborib, o'qituvchi bir vaqtda 300 o'quvchi bilan dars olib borishi mumkin, deb hisobladi. O'qituvchi o'ziga yaxshi o'quvchini yordamchi qilib olishi mumkinligini aytadi.

Komenskiy o'zining "Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi" va "Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlari" kabi asarlarida darslik yaratishga doir quyidagi tavsiyalarni ishlab chiqadi:

- *darslikda o'quv materiali yetarlicha bo'lishi, qisqa, mazmunli, tushunarli, izchil berilishi;*
- *darslik oddiy, bolalarga tushunarli tilda yozilishi, rasmlarga boy bo'lishi kerak;*
- *darslikdagi material muntazam tartib bilan joylashtirilishi;*
- *darslikdagi material bolalarning yoshiga qarab ravshan bayon etilishi.*

**Axloqiy tarbiya.** Komenskiy yoshligidan boshlab bolada axloq va odob hosil qilish kerakligini aytadi. U mardlik, o'zini tuta bilish, chidamlilik, vaqt va vaziyat talab qilganida foyda yetkazishga tayyor bo'lib turish, burchni ado qilish kabi xislatlarni inson fazilati deb biladi. Shu asosiy fazilatlardan tashqari kamtarlik, mo'min-qobillik, kishilarga xayrixohlik, pokizalik, puxtalik, xushmuomalalik, kattalarni hurmatlash, mehnatsevarlik xislatlarni tarbiyalashni ham muhim vazifa, deb hisoblaydi.

**Komenskiy axloqiy tarbiyaning quyidagi vositalarini ko'rsatadi:**

- *ota-ona, o'qituvchi, o'rtoqlar namunasi;*
- *bolalarga yo'l-yo'riq ko'rsatish;*
- *bolalarlar bilan suhbatlar o'tkazish;*

- *mashqlar o'tkazish;*
- *yalqovlik, o'ylamay ish qilishga, intizomsizlikka qarshi kurashish.*

Komenskiy intizomning katta ahamiyati borligini ko'rsatib, "Intizomsiz maktab bamisoli suvsiz tegirmondir" degan chech maqolini keltiradi. U o'rta asr maktablarida kaltak vositasi bilan o'rnatiladigan intizomga qarshi chiqadi. Bolalarga insoniy muomalada bo'lishni tavsiya etadi. Intizom: o'qituvchining namuna ko'rsatishi, samimiy, ochiq xayrixohligi, o'qituvchining bolaga bo'lgan to'g'ri munosabati (agar u bolani sevsa, uning yaxshi bo'lishini istasa, darsi mazmunli bo'lsa, tushuntira olsa intizomlilik vujudga keladi), bolani ko'pchilik oldida, o'rtoqlari o'rtasida oqilona maqtash yoki qoralash intizomlilikka olib keladi, deydi. Komenskiy yaratgan pedagogika jahon madaniyatiga qo'shilgan katta hissadir. Uning qarashlari hozirgacha o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

**Iogann Genrix Pestalotssi** (1746—1827). I.G.Pestalotssi Shveysariyaning Syurix shahrida vrach oilasida tug'ildi. Pestalotssi avval boshlang'ich maktabda, so'ngra lotin maktabida o'qib ilm oldi.

XIX asrning boshlaridayoq Pestalotssining "Gertruda o'z bolalarini qanday qilib o'qitadi", "Onalar kitobi yoki onalar uchun o'z bolalariga kuzatish va gapirishni qanday o'rgatish haqida qo'llanma", "Kuzatish alifbesi yoki o'lchash haqida ko'rsatmali qo'llanma", "Son to'g'risida ko'rsatmali ta'lim", "Oq qush qo'shig'i" degan kitoblari bosilib chiqdi. Bu kitoblarida boshlang'ich ta'limning yangi usullari bayon qilindi. Pestalotssining ijtimoiy-pedagogik va falsafiy qarashlari. Pestalotssi o'z xalqini oyoqqa turg'azishni orzu qildi, u mehnatkashlarni o'qitish va tarbiyalash yo'li bilan ularning turmushini o'zgartirish mumkin, deb o'yladi. U xalq boshiga tushgan kulfatlarning manbai iqtisodiy sharoit emas, balki ma'rifatning yo'qligi deb bildi.

Pestalotssi hamma odamlar tarbiya va ilm olish huquqiga ega bo'lishi. maktablar jamiyatni ijtimoiy jihatdan o'zgartirishning muhim vositalaridan biri bo'lishi kerakligini ta'kidlab, har bir kishining haqiqiy insoniy kuchlari harakatga kelib, mustahkamlangandagina eng muhim ijtimoiy masalalar hal qilinishini, bunga esa tarbiya yo'li bilan erishish mumkinligini ta'kidlaydi. Pestalotssining fikricha.



mehnat odamni tarbiyalash va oʻstirishning eng muhim vositasidir, mehnat odamning jismoniy kuchlarinigina emas, shu bilan birga, aqlini ham oʻstiradi, shuningdek, unda axloq ni ham tarkib toptiradi. Pestalotssining bilish nazariyasiga oid qarashlari ahamiyatli boʻlib, u bilish sezgi organlari orqali idrok qilishdan boshlanishi va tasavvurlarni qayta ishlash yoʻli bilan gʻoyalar darajasiga koʻtarilishi, gʻoyalar esa, garchi ravshan boʻlmasa ham odamning ongida tarkib toptiruvchi kuch tariqasida mavjud, lekin oʻzining namoyon boʻlishi va jonlanishi uchun sezgilar yetkazib beruvchi materialga muhtoj ekanligini uqtiradi. Elementar taʼlim nazariyasi. Pestalotssi nazariyasiga koʻra tarbiyalash eng oddiy elementlardan boshlanib, asta-sekin tobora murakkabroq darajaga koʻtarilib borishi lozim. Pestalotssining elementar taʼlim nazariyasi jismoniy tarbiyani, mehnat tarbiyasini, axloqiy va estetik tarbiyani hamda aqliy tarbiya va oʻqitishni oʻz ichiga oladi. Tarbiyaning mana shu jihatlarini Pestalotssi bir-biriga bogʻlab olib borishni taklif qildi, shunday tarbiyalash natijasidagina insonning hamma jihatlari bir-biriga uygʻun boʻlib kamol topishini taʼminlash mumkin, deydi. Jismoniy tarbiya va mehnat tarbiyasi. Pestalotssi bolaning barcha jismoniy kuchlari va imkoniyatlarini oʻstirishni ularni jismoniy jihatdan tarbiyalashning maqsadi deb, bolaning harakatga, oʻynashga, bir joyda oʻtirib qolmaslikka, hamma narsaga yopishishga, hamisha harakatda boʻlishga majbur qiluvchi tabiiy intilishini jismoniy tarbiyalashning asosi, deb hisobladi.

Pestalotssi tarbiyaning asosiy vazifasi — kelgusida ijtimoiy hayotda qatnashib foyda yetkaza oladigan va hamma jihatlari uygʻun boʻlib kamol topgan inson yetishtirishdir, deb biladi. Bolani boshqalarga foyda keltiradigan ishlarda muttasil mashq qildirish yoʻli bilan uning axloqi voyaga yetkaziladi. Pestalotssi koʻrsatmalilik prinsipini taʼlimning eng muhim negizi deb hisoblaydi. Pestalotssi oʻzining umumiy didaktik qoidalariga tayanib, boshlangʻich taʼlimning xususiy metodikasi asosini yaratib berdi. U ona tili oʻqitishning asosiy vazifasi bolaning nutqini oʻstirish va uning soʻz boyligini orttirishdan iborat boʻlishi lozim, deb hisobladi. Pestalotssi savod oʻrgatishda tovush metodini birinchi oʻringa qoʻydi, bunday qilish harflarni qoʻshib oʻqitish metodi hukmronlik qilib turgan oʻsha vaqt

uchun g'oyat muhim edi. Bolalarda yozuv malakasini hosil qilmoq uchun Pestalotssi dastlab to'g'ri va egri chiziqlarni - xatlarning elementarlarini chizdirib, mashq qildirishni tavsiya etdi. Pestalotssi yozuv o'rgatishni narsalarni o'lchash va suratni chizish bilan shuningdek, nutqni o'stirish bilan bog'lab olib borishni taklif qildi. O'lchashni o'rgatmoq uchun Pestalotssi dastlab to'g'ri chiziq chizishni, so'ngra burchak, kvadrat chizishni va bu kvadratni bo'laklarga (yarimta, chorakta qilib va hokazo) bo'lishni o'rgatishni taklif qildi.

Pestalotssi odamning barcha tabiiy kuchlarini va qobiliyatlarini bir-biriga uyg'un qilib o'stirishdek vazifani tarbiyaning asosiy vazifasi deb bildi. Pestalotssi boshlang'ich maktabda beriladigan bilimlarning mazmunini kengaytirishni talab qildi, boshlang'ich maktabni xalqqa yaqinlashtirishga, uni xalq ommasining turmushi va ehtiyojlari bilan chambarchas bog'lashga intildi, bolalarni mehnatga o'rgatishga, ularni turmushga tayyorlashga katta e'tibor berdi.

**Konstantin Dmitrievich Ushinskiy** (1824—1870). Mashhur rus pedagogi, rus pedagogikasi va xalq maktablarining asoschisi, “rus o'qituvchilarining o'qituvchisi” Ushinskiy 1824 yilning 19 fevralida Tula shahrida tug'ildi.

K.D.Ushinskiy pedagogik faoliyatini ilmiy-ijodiy ish bilan birga qo'shib olib bordi. 1848 yilda uning birinchi ilmiy ishi — “Kameral fanlarni o'qitish haqida” degan asari, so'ngra I va II o'quv yillari uchun “Ona tili” darsligi, “Muallimlar uchun qo'llanma”si, “Inson — tarbiya predmeti sifatida” (“Pedagogik antropologiyadan tajriba”) nomli asarlari bosmadan chiqdi.

K.D.Ushinskiyning pedagogika nazariyasi xalqchilik g'oyasi asosida qurilgandir. U “Ijtimoiy tarbiyada xalq ruhi” sarlavhali maqolasida tarbiyaning xalqchilik ruhida bo'lishi kerakligini, boshqa xalq pedagogikasini mexanik suratda rus tuprog'iga ko'chirishni aqlga mutlaqo muvofiq emasligini ta'kidlab yozadi: *“Har bir mamlakatda bolalarni tarbiyalash tizimi, xalqning rivojlanish sharoitlari, uning ehtiyoj va talablari bilan belgilangan. Hamma uchun umumiy bo'lgan birgina tug'ma moyillik borki, tarbiya hamisha shunga tayanishi mumkin: bu biz xalqchilik deb atagan narsadir. Xalqning o'zi tomonidan yaratilgan va xalqchilik asosiga qurilgan tarbiya shunday tarbiyaviy kuchga egaki, bunday kuch abstrakt*

*g'oyalarga asoslangan yoki boshqa xalqlardan olingan eng yaxshi tizimlarda ham yo'qdir".*

Ushinskiy tarbiyada xalq ruhining eng yaxshi ifodasi ona tili ekanligiga, rus bolalarini o'qitishda rus tili asos bo'lishligini, boshlang'ich maktablardagi ta'lim ham bolalarni rus tarixi, Rossiya geografiyasi va uning tabiati bilan tanishtirmoq' i lozimligini ta'kidlaydi. U o'zining "Ona tili" sarlavhali maqolasida *"Xalq tili — uning qadim zamonlardan boshlanuvchi bugungi ma'naviy hayotining eng yaxshi, hech qachon so'lmaydigan, doimo yangidan ochilib yashnab turadigan gulidir. Butun xalq va uning vatani til bilan tirikdir, bularning hammasi xalq ijod etgan til orqali ifodalanadi. Xalq avlodlari birin-ketin yashab o'taveradi, ammo har bir avlod hayotining natijalari keyingi avlodlarga til orqali meros bo'lib o'tadi. Har bir avlod o'z his-tuyg'ularini, tarixiy voqyealar, diniy e'tiqod, maslak natijalarini, boshidan kechirgan qayg'u va xursandchiliklarini ona tili xazinasiga qo'shadi. Til eng jonli, eng boy va mustahkam aloqa vositasi bo'lib, xalqning yashab o'tgan, yashayotgan va kelajakda yashaydigan avlodlarini bir-birlari bilan chambarchas bog'laydi, ularning ulug', tarixiy, jonli bir butunga aylantiradi. Til bor ekan, xalq ham bor, xalqning hayot ekanligini til orqali bilish mumkin. Til xalqning hayotidir. Xalq tili yo'qolganida xalqning o'zi ham yo'q bo'ladi",* - deb uqtiradi. K.D.Ushinskiy axloqiy tarbiya bolalarda odamlarga hurmat va muhabbat bilan qarashni, ularga nisbatan samimiy, xayrixoh va adolatli munosabatda bo'lishni o'stirishini ta'kidlab: *"Tarbiyaning asosiy vazifasi axloqiy jihatdan ta'sir etishdan iboratdir, bu aqlni umuman o'stirish, boshni bilimlar bilan to'ldirishdan ko'ra ham muhimroqdir",* — deb yozgan edi. Ushinskiy egoistlik, mansabparastlik, bekorchilik, g'arazgo'ylik, munofiqlik singari nuqson va kamchiliklarni qattiq qoralaydi.

***Ushinskiy axloqiy tarbiyaning quyidagi vositalarini ko'rsatadi:***

- *axloqiy tarbiyada kitob va darsliklarni o'rni;*
- *o'qituvchining kasbiy namunasi;*
- *e'tiqod;*
- *pedagogik odob;*

- *ogohlantirish choralari (rag'ballantirish va jaz'olash).*

K.D.Ushinskiyning didaktika sohasidagi qarashlari pedagogika tarixida o'zining chuqurligi va o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ushinskiy xotira bilan esda saqlab qolish to'g'risida gapirib, unutishning oldini oladigan tez-tez takrorlash yo'li bilan tarbiya oluvchilarda o'z xotiralariga ishonchni mustahkamlash kerak, deb ko'rsatdi. Ushinskiy pedagogika o'qituvchilari va o'rta maktab o'qituvchilari tayyorlaydigan pedagogika fakultetlari to'g'risidagi fikrni olg'a surdi. U bunday deb yozgan edi: *"Bizda meditsina fakultetlari bor-u, pedagogika fakultetlari yo'q ekan, bu shuni ko'rsatadiki, biz axloqiy va tarbiyaviy sog'lig'imizga qaraganda tanamiz sog'lig'ini ko'proq qadrlar ekanmiz"*. Uning bu fikri so'nggi yillarda amalga oshdi. K.D.Ushinskiy o'qituvchining mehnatini va uning tarbiyalanuvchi shaxsga ta'sirini yuqori baholadi.

U o'qituvchilar tayyorlash tizimini birinchi marta ishlab chiqdi. Ushinskiy boshqa xalqlarning ham pedagogikasi va xalq maktablari taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi.

### **Savol va topshiriqlar**

1. Jadidchilik harakatining kelib chiqish omillari va g'oyalari nimalardan iborat?
2. Mahmudxo'ja Behbudiy ta'lim tizimini rivojlantirishga qanday hissa qo'shdi?
3. Munavvar qori Abdurashidxon o'g'li qanday g'oyalar bilan maydonga chiqdi?
4. A. Avloniyning ta'limiy-axloqiy qarashlari mazmuni nimalardan iborat?
5. Ya. A. Komenskiyning sinf-dars tizimi nimalardan iborat edi?
6. Pestalotssining dunyoqarashi va uni pedagogikada tutgan o'rni.
7. K.D.Ushinskiyning tarbiya haqidagi fikrlarini izohlang?

## IV QISM

### XV BOB. PEDAGOGIK MAHORAT

#### **Pedagogik mahorat fanining nazariy asoslari va uning o'qituvchi faoliyatidagi ahamiyati**

Milliy mustaqillikni mustahkamlash va rivojlantirish sharoitida respublikamizning ijtimoiy – iqtisodiy, siyosiy – madaniy va ma'naviy hayotida ro'y berayotgan hodisalar, uni jahon hamjihatligiga tezkor kirishini, hamda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish borasida olib borayotgan islohotlarni tezlashtirishni talab etmoqda. Buni amalga oshirishning muhim shartlaridan biri mamlakat mehnatkashlarining, hususan yoshlar ta'lim, tarbiyasi bilan shug'ullanuvchilarning kasb malakalari va mahoratlarini takomillashtirish ehtiyojini tug'diradi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan – kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi – talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularning egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Zero, bugungi kunda axborotlar oqimining keskin ko'payishi, rivojlanishi, ilmiy texnikaviy taraqqiyotning jadallashuviga, mavjud pedagogik, psixologik, metodik, amaliy tayyorgarlikning ma'lum darajada "eskirishi" ga olib keldi va bu o'z navbatida pedagogik mehnat bilan shug'ullanuvchilarning kasbiy mahorati, ijodkorligini rivojlantirishga e'tiborni yanada ko'proq qaratish lozimligini taqozo etdi.

Bu e'tibor va talabni amalga oshirishning muhim omillaridan biri. kasbiy mahoratni takomillashtirish texnologiyasini joriy etish va mukammallashtirish demakdir. Shu o'rinda savol tug'iladi. Mahorat nima?.

Mahorat bu –yuqori va doimo yuksalib boruvchi tarbiya va o'qitish san'atidir.

Mahorat faoliyat jarayonida shakllanadi va takomillashadi. U ishbilarmonlik, zukkolik, layoqat va zehn vositasida rivojlanib boradi. Bu xususiyatlarning barchasi faoliyat jarayonida tarkib topib boradi.

"Faoliyat –deb yozgan edi, akademik A.N.Leontev – dunyoni o'zlashtirishning birinchi shartidir". Shunday ekan pedagogik mahoratning shakllantirish va rivojlantirishda faoliyat yetakchidir. Pedagogik mahoratni egallashda o'qituvchining pedagogik faoliyati asosiy rol o'ynaydi. Pedagogik mahorat pedagogik faoliyat bilan uzviy bog'liqdir. Pedagogik faoliyat o'qituvchining kasbiy mahorati va mehnati orqali qo'lga kiritiladi, mehnat esa, faoliyatning tarkibiy qismlari (o'qish, ijtimoiy ish, o'yin, sport mashg'ulotlari va h. k.) dan biri hisoblanadi. Shu asosda pedagogik faoliyat o'qituvchi mehnatining istiqboli, texnologiyasi, vazifalari va ta'sir ko'rsatish usullarining majmuidir. Pedagogik mahoratni shakllantirish muayyan sohani mukammal egallash, nazariy, amaliy ma'lumotlarga to'liq ega bo'lish, kasbiy tayyorgarlik ustida tinmay ishlashdan iborat. Pedagogik mahoratning betakror, noyob, mohir ustasi bo'lish uchun o'qituvchi – tarbiyachiga ilhom, ijod va o'z kuchiga ishonch bo'lishi kerak. Mana shu ilhom, ijod va ishonchni yo'lga qo'yuvchi, uning imkoniyatlarini to'la ishga soluvchi kuch faoliyatdir. Pedagogik mahoratni shakllantirishda pedagogik faoliyat muhim o'rin tutadi. Faoliyat to'la ma'noda usullar, xolatlar, shakllarning umumlashgan tizimidan iborat bo'lib, u xar xil sharoitlarda ham mavjud bo'ladi. Har qanday faoliyat singari o'qituvchilik faoliyati ham maqsad, usul, vosita, ob'ekt va sub'ektdan iborat.

Pedagogik maqsad – o'qitish, tarbiyalash va shu asosda talabalar shaxsini shakllantirishdan iborat. Usul esa tarbiyalanuvchilar obro'sini egallash, hurmatiga sazovor bo'lishi va ta'sir ko'rsatishdir. Pedagogik mehnatning ob'ekti sifatida – o'qituvchi shaxsi turadi, uning xarakteri, irodasi, ongi, aqli, odob – axloqining asosi hisoblanadi. Pedagogik faoliyat sub'ekti esa – tarbiyalanuvchiga ta'sir ko'rsatuvchi – pedagogning o'zi. Chunki, u o'quvchi – talabalarga tabiat, jamiyat, tafakkur qonunlari to'g'risida ma'lumot berish uchun, avvalo, ularni o'z faoliyatining ob'ektiga aylantiradi. Shu tariqa bilimlar o'zlashtiriladi,

o'zlashtirilgan bilimlar o'quvchi - talabalarga yetkaziladi. Pedagogik mahorat – bu o'qituvchi – tarbiyachining kasbiy va shaxsiy faoliyati natijasining umumlashmasi sifatida, muayyan bilim, ko'nikma, malakalar yig'indisidan iborat.

Pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchi – talabalarda o'qish, o'qitish, tarbiyalash jarayonida diqqatlarini aniq taqsimlash, bilim, ko'nikmalarini, psixik holatlarini boshqara olish va pedagogik texnika madaniyatini o'zlashtirish malakalarini shakllantiradi.


Albatta, bu malakalarni shakllantirishda uzluksiz ta'lim tizimining turlari, ayniqsa, oliy ta'lim muassasalarining o'рни beqiyos. O'zining aql – zakovati, ilmiy salohiyati, ma'naviyati, madaniyati bilan milliy istiqloq g'oyalari mustahkamlashda, ozod va obod Vatanni qurishda yonib yashaydigan shaxs bo'lib shakllanadi va ta'lim islohotlari hujjatlarida belgilangan vazifalarini bajarishga o'z hissasini qo'shadi. Shunday qilib, insonning ma'naviy yuksalishi, hayotiy tajribasi, bilimi, hatti – harakati, odob – axloqi, kasbiy mahorati, shakllanib takomillashtirib boradi. Bu esa pedagoglarning kasbiy mahoratini shakllantirishning ilmiy, nazariy, amaliy jihatdan o'qitishni yanada yuksaltirish, uning samaradorligini oshirishga da'vat etadi.

O'qituvchilik kasbi murakkab va ma'suliyatli kasbdir. Ushbu kasbning sharafliligi va murakkabligi shu bilan belgilanadiki, u doimo ongning yagona sohibi bo'lgan inson bilan muloqotda bo'ladi. Ongli va tirik jonzot esa aqliy, ruhiy, hamda jismoniy jihatdan doimo rivojlanishda bo'ladi. Shuning uchun, o'quvchi bilan doimo muloqotda bo'lganda, unga ta'sir ko'rsatish uchun muntazam ravishda psixologiya, tarbiya nazariyasi kabi fanlarni mukammal o'rganib, o'z kasbiy mahorati ustida muttasil ish olib borishi kerak. Bu o'qituvchidan pedagogik, psixologik va metodik tayyorgarlikni talab etadi. Darhaqiqat, har bir yosh mutaxassisni puxta ilmiy, nazariy bilimlar bilan qurollantirish, egallagan ilmiy bilimlarini amaliy faoliyatda qo'llash, ko'nikma va malakalarga ega qilish, tarbiyalash albatta oson ish emas. O'qishga ilmiy, ongli munosabat bilan qaraydigan, mustaqil fikrlaydigan, mukammal ma'lumotlarni egallagan, aqliy

mehnat madaniyatini o'zida mujassamlashtirgan yoshlarni voyaga yetkazish muhim va davlat ahamiyatidagi vazifadir. Buning uchun:

1. Pedagog – kasbiy faoliyatning pedagogik yo'nalishlarini aniq belgilay oladigan shaxs bo'lishi lozim. Bu esa o'z navbatida jamiyatning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, pedagogik mahorat asoslarining zamonaviy pedagogikaning ilg'or g'oyalari zaminida shaxsga insonparvarlik nuqtai – nazaridan yondoshish imkonini beradi.

2. Pedagog – pedagogik jarayonni aniq tashkil qilishi, boshqarishi, kutilayotgan natijalarni oldindan loyihalashi va uni ro'yobga chiqarish texnologiyasini, shuningdek, pedagogik jarayonda vujudga kelishi mumkin bo'lgan nizoli vaziyatlarni oldindan ko'ra bilishi va ularni bartaraf etish uchun tayyor bo'lishi kerak. Buning uchun o'qituvchidan pedagogik mahorat talab qilinadi. Pedagogik mahoratni shakllantirishning birinchi sharti, faoliyatdir. Faoliyatga intilish har bir kishida juda barvaqt paydo bo'ladi va hayot davomida takomillashib boradi, insonga qoniqish, mamnuniyat bag'ishlab, kasbning haqiqiy egasi va maftunkori bo'lishga zamin yaratadi. O'qituvchining bunday faoliyatiga quyidagilar kiradi.





Uzluksiz ta'lim tizimini amalga oshirish jarayonida yosh avlodga ta'lim berish va tarbiyalash g'oyat murakkab va ko'p qirrali vazifani faqat yuksak malaka va pedagogik mahoratga ega bo'lgan o'qituvchi kadrlar bilan amalga oshirish mumkin. Shuning uchun, o'qituvchilik kasbiga, ya'ni sog'lom avlod uchun chinakam murabbiy bo'lishga havasi, ishtiyoqi zo'r, zamon talablarini tez va chuqur tushunadigan, o'zining ilmiy, ijtimoiy–siyosiy saviyasini, pedagogik mahoratini izchillik bilan amalga oshirib boruvchi, mustaqillik g'oyasi va mafkurasi bilan puxta qurollantirilgan, haqiqiy vatanparvar va mehnatsevar kishilargina erisha oladilar.

Pedagogik mahorat tug'ma talant yoki nasldan – naslga o'tuvchi xususiyat emas, balki uning negizida izlanish va ijodiy mehnat yotadi. Shunga asosan pedagogik mahorat hamma o'qituvchilar uchun bir qolipdagi ish usuli emas, balki u har bir o'qituvchining o'z ustida ishlashi, ijodiy mehnati jarayonida tashkil topadi va rivojlanadi. Bu jarayonda ilg'or o'qituvchining pedagogik mahorati va tajribalarini boshqa o'qituvchi o'rganishi, undan ijodiy foydalanishi va o'z faoliyatini ilg'or tajribalar bilan boyitishi zarur.

### **Pedagogik fikr tarixi va maktab amaliyotida o'qituvchi mahorati**

O'zbekistonda ta'lim tizimini o'sib kelayotgan yosh avlod talablari asosida tashkil etish, uni jamiyat taraqqiyoti istiqbollari va jahon andozalariga javob bera oladigan darajada bo'lishini ta'minlash bugungi kunning dolzarb masalasidir.

Bugungi kunda o'zbek xalqi siyosiy–ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarida katta yutuqlarga erishmoqda. O'z tarixiga yangicha tafakkur asosida yondashish, ulug' ajdodlar qoldirgan boy madaniy, ma'rifiy merosni o'rganish imkoniyati tug'ildi, milliy g'urur yana qayta tiklandi, ilm-fan, jumladan pedagogika fani yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarilmoqda.

O'tmishdagi pedagogik tafakkur daholarini shuhratini tiklash, ular g'oyalarini hayotga tadbqiq etish bugun hammaga ayon bo'lmoqda.

Qadimdan ota – bobolarimiz yosh avlodni hayoli, imyon – e'tiqodli komil inson qilib tarbiyalashga alohida e'tibor berganlar. Buyuk allomalarimiz

ta'limotlarida kamtarlik insoniy eng go'zal fazilat ekanligi, u inson madaniyati, uning odamiyligi, mardligi kabi xislatlar bilan belgilanadi. Inson kamtarligi eng avvalo uning mexnatida namoyon bo'ladi, kamtar kishida havo – nafs, g'urur, manmanlik bo'lmaydi, u odob – axloqli, mehr – shafqatli bo'ladi, ishida, so'zida qat'iy turadi. O'zbek madaniyati, chunonchi sharqona milliy tarbiya har bir tarixiy davr va bosqichlarda ijtimoiy – siyosiy jarayonlarda o'z ta'sirini o'tkazib kelgan. O'tmishda ota – bobolarimiz, buyuk allomalarimiz, yuksak ma'rifat sohiblari baxt – saodatni ozodlik, erkinlikda ko'rganlar. O'z zamonasida ilm, fan, madaniyat ravnaqi yo'lida katta inqilob yaratgan Abu Nasr Forobiy, Imom Al – Buxoriy, Maxmud Koshqariy, Najmiddin Kubro, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, az-Zamashxari, Yusuf Xos Hojib, Axmad Yassaviy va boshqalar o'z ixtirolari va g'oyalari bilan butun jahonni hayratga soldilar.

Ilm, fan ravnaqi yo'lidagi tadqiqotlarni rivojlantirish maqsadida XI asrda Maxmud Xorazmshox rahbarligida Xorazmda tadqiqot Markazi tashkil etildi, unda sharqning buyuk olimlari o'z faoliyatlarini olib bordilar, keyinchalik ushbu Markaz Markaziy Osiyoda yagona “Ma'mun akademiyasi” deb e'lon qilindi. Markaziy Osiyo ilm, ma'rifatni rivojlantirish muammolari bo'yicha Muso Al – Xorazmiy, Ahmad Al – Farg'oniy, Al – Marvazi, Abu Rayhon Beruniy va boshqa allomalar mazkur Akademiyada tadqiqotlar olib bordilar. Insoniyat jamiyati taraqqiyotida yetuk insonlarning faoliyati, sa'y– harakatlari natijalari muhim o'rin tutadi. Insoniyat hayotida alohida o'rin tutgan bunday shaxslarning surat va siyratlari, bajargan ishlari to'g'risida turli xil manbalarda yozib qoldirilgan va kelajak avlod ana shunday xislat – fazilatlarga ega bo'lishga undalgan. Sharqning buyuk allomasi Abu Nasr Farobiy muallimning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni va uning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida ibratli g'oyalarni ilgari surgan.

“O'qituvchi, – deydi Forobiy, aql – farosatga, chiroyli nutqqa ega bo'lishi va o'quvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarni to'la va aniq ifodalay olishni bilmog'i zarur. Shu bilan birga o'z or–nomusini qadrlashi, adolatli bo'lishi lozim. Ana shundagina u insoniylikning yuksak darajasiga ega bo'ladi va baxt

cho'qqisiga erishadi”, –deb ta'kidlaydi. Mutafakkir o'qituvchi shaxsiga xos qator fazilatlariga xolisona, odilona, oqilona sharh berish imkoniyatiga erishgan buyuk zotdir. Mazkur muammo yuzasidan mulohaza yuritgan atoqli olim Abu Ali ibn Sino "... O'qituvchi matonatli, sof vijdonli, rosgo'y va bola tarbiyalash uslublarini, axloq qoidalarini yaxshi biladigan odam bo'lmog'i lozim. O'qituvchi o'quvchining butun ichki va tashqi dunyosini o'rganib, uning aql qatlamlariga kira olmog'i lozim” – deb ta'kidlaydi.

Husayn Voiz Koshifiyuning fikricha: “Murabbiy bolaga nasihat va ta'lim berishda lutf va odob qoidalarida qat'iy turishi, ularga rioya qilishi darkor. Jamoatchilik joylarida unga pand berish yaramaydi. Balki xilvat joyda bolaga gapirish darkor. Agar murabbiy nasihat berishning fursati kelganini bilsa unga muloyimlik bilan murojaat qilishi lozim. Chunki bizning zamonamizda muloyim va xushfe'l bo'lish maqsadga muvofiqdir”. Tarbiyachilik san'atida ustozni nihoyatda ulug'lab shunday yozadi:

Faromush qilmagilsan haqi ustod,  
Ki oningdin durur ilmingga bunyod.  
Agar ustodinga mehring yo`q o`ldi,  
Degilkim ilmim mani mavq o`ldi.  
Kishikim qildi ustodiga xizmat,  
Zamoni o`tmadi tobt ul izzat.

Koshifiy yaxshi ustozdan olgan pand–nasihatga quloq solmay behuda yo'llarda yurgan farzand o'zini – o'zi rasvo qiladi, deya nasihat beradi.

Nasriddin Tusiy o'qituvchi nutqi haqida shunday deydi: “O'qituvchi munozaralarni olib borishi, rad etib bo'lmaydigan darajada isbot qilishni bilishi, o'z fikrlarining to'g'riligiga ishonishi, nutqi esa mutlaqo toza, jumalari mantiqiy ifodalanadigan bo'lishi lozim... O'qituvchi nutqi hech qachon va hech qaerda zaharxandali, qo'pol va qattiq bo'lishi mumkin emas”.

Alisher Navoiy o'z asarlarida odob, axloq, ziyraklak, irodavii kuch, poklik, samimiylik xislatlari asosiy o'rinni egallaydi. O'qituvchining har jihatdan ibrat va namuna bo'lishlari ta'lim va tarbiya garovi ekanligiga ishora qilgan. Alloma

bolalarga bilim berish bilan bir qatorda ular nutqining rivojlanishiga ham alohida ahamiyat beradi va bunda u turli pedagogik usullardan foydalanadi.

Ahmad Donish o'qituvchini o'quvchiga kuchli ta'sir etuvchi shaxs deb biladi. Uning ta'kidlashicha, o'qituvchilik kasbini tanlaganlarning nopoklik niyatida bo'lishi hoyatla zararlidir, chunki ular o'zlaridagi axloqiy buzuqlikni yosh avlodga tarqatadilar. Demak, Ahmad Donish o'qituvchining axloqiy qiyofasiga katta e'tibor beradi. U o'qituvchidan yosh avlod manfaatini birinchi o'ringa qo'yishni talab qiladi. O'qituvchi o'quvchi va talabalarga ko'p bilim berish, o'z bilimini oshirish va chuqurlashtirish uchun o'z ustida ko'p ishlashi lozimligini ta'kidlaydi. Bundan ko'rinadiki, Ahmad Donish o'qituvchi kasbiga nisbatan jiddiy talab qo'yadi. U go'zal axloqlilik va chuqur bilimdonlikni o'qituvchining beqiyos fazilati deb biladi. Zero, u o'qituvchi timsolida odamlar, binobarin yoshlar o'rtasida ilm –ziyo sochuvchi ma'rifatparvarni ko'rishini orzu qiladi.

Mahmudxo'ja Behbudiy ma'rifat, ilm – fan, badiiy ijod sohasidagi butun faoliyatida millatimiz madaniyati, ma'naviyatining ravnaqi uchun kurashib, buyuk siymo sifatida shuhrat qozongan holda ta'lim – tarbiyaga doir qimmatli fikr – mulohazalarni bayon etdi. Ustoz ta'lim – tarbiya haqida fikr bildirar ekan, mustamlakachilik davrida bu ishda muvaffaqiyatga erishishning birdan – bir yo'li o'lkada o'zaro ixtiloflarga barham berib, ahillik bilan ilm – fanni rivojlantirish kerakligini bayon etadi. Kattalar va muallimlarga murojaat qilib, ularni yoshlarni bilimli qilishga, mehnatga jalb etishga da'vat etadi.

Buyuk mutafakkir Abu Rayhon Beruniy ta'lim va tarbiyaning tabiatga mosligi, ta'lim va tarbiyada mo'tadillik printsiplarini asoslagan buyuk pedagogdir. Beruniy insonni tabiatning bir qismi deb biladi. Tabiatni va jamiyat ilmini o'rganishda "O'zimni tekshirib ko'rmaguncha ishonmayman" degan shiorga amal qiladi. U mohir pedagoglar haqida shunday yozadi: "Maqsad vaqtni cho'zish emas, balki o'quvchini zeriktirmaslik. Chunki doimo bir xil narsaga qaray berish malollik va sabrsizlikka olib keladi. O'quvchi fandan –fanga o'tib tursa, turli bog'larda yurganga o'xshaydi. Birini ko'rib ulgurmay, boshqasi boshlanadi va o'quvchi "Har bir yangi narsaga o'ziga yarasha lazzat bor " – deyilganidek, ularni ko'rishga qiziqadi va ko'zdan

kechirishni istaydi. Bir xil narsa charchatadi, xotiraga malol keltiradi”.

Chet ellik pedagog olimlaridan K.Ushinskiy, A.Disterverg, L. Tolstoylar insonga bilim, ko`nikma va malakalarni singdirishda pedagogik mahoratning roli buyuk ekanligini ta`kidlaganlar.

“Tarbiya san`ati shunday xususiyatga egaki, – degan edi K. Ushinskiy, deyarli barchaga tanish va tushunarli, ba`zilarga esa juda oson ish bo`lib tuyuladi –odam bu ish bilan nazariy va amaliy jihatdan qanchalik kam tanish bo`lsa, unga shunchalik tushunarli va oson bo`lib ko`rinadi. Deyarli buning uchun tug`ma qobiliyat va malaka, ya`ni ko`nikma kerak deb aytadilar: lekin juda kam odam sabr –toqat, tug`ma qobiliyat va malakadan tashqari yana maxsus bilimlar kerakligi haqida ishonch hosil qiladi”. L. Tolstoy haqiqiy o`qituvchi shaxsiga tavsif berib quyidagilarni yozgan edi: “Agar o`qituvchi faqat o`z ishiga havas qo`ygan bo`lsa, u yaxshi o`qituvchi bo`ladi. Agar o`qituvchiga faqat otasi, onasi kabi havas qo`ygan bo`lsa, u oldingi o`qituvchidan yaxshiroq bo`ladi. Bordi –yu. mujassamlashtirsa, u holda u mukammal o`qituvchi bo`ladi”. Kasbiy tayyorgarlikning ahamiyatini yaxshi tushungan A. Disterverg esa: “O`zing bilmagan narsalarni birovlariga o`rgata olmaysan”, –degan edi.

Pedagogik mahoratni shakllantirishda o`qish san`atining roli haqida Emil Tagi shunday degan edi: “O`qish san`ati o`zganing ko`magi yordamida fikr yuritish san`atidir. O`qish o`zga bilan birgalikda fikrlash. o`zganing fikrini mulohaza qilib ko`rish, o`zimizning fikrlarimizni o`lchash va unga zid fikrlarni xayoldan o`tkazish demakdir” –deb yozgan edi. O`qituvchidan jamiyat talab etadigan asosiy ijtimoiy vazifalar va ma`suliyat shaxs kamoloti, uning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi bilan bog`liq. O`qituvchilarga qarata ta`lim – tarbiya ishlarini ijtimoiy hayot, jahon miqyosida sodir bo`layotgan voqealar bilan bog`liq holda olib borishni talab etadi. Sharq mutafakkirlari o`qituvchi o`zi o`qib tursagina – o`qituvchi bo`la oladi, agar o`qishni to`xtatib qo`yar ekan, unda o`qituvchilik ham o`ladi, deb haqqoniy aytgandir. O`qituvchi o`z shogirdlaridan doimo, hech bo`lmaganda, bir necha bosh yuqori turishi kerak, aks holda bolalar oldida uning obro`si bo`lmaydi. chunki kutilmagan savollarga o`qituvchi javob berolmasdan qolishi mumkin.

Hozirgi sharoitda jamiyatning maktab oldiga qo'yayotgan talablari kun sayin ortib bormoqda va bu talablarni amalda to'g'ri hal qilish vazifasi mahoratli o'qituvchiga bog'liqdir.

### **Pedagogik qobiliyat, qobiliyatning pedagogik –psixologik tasnifi.**

Muvaffaqiyatli ishlash uchun har bir o'qituvchi pedagogik mahoratga ega bo'lishi zarur. Qobiliyat hamma insonlarda mavjud bo'lib, bir tekisda bo'lmay, biri yuqori biri o'rta va biri quyi darajadan iboratdir. Faqat aqli zaif insonlarda qobiliyatni uchrata olmaymiz. Maktab o'qituvchisining faoliyati inson shaxsini tiklantirishga qaratilgan. Qobiliyat faoliyat jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi, qobiliyatni rivojlantirish esa layoqat, zehn, iste'dod ya'ni inson asab tizimida anotomik – fiziologik xususiyat bo'lishi ham zarur. O'qituvchining ba'zi psixik protsesslari unda shaxsga xos sifatlarining shunday kompleksini tashkil qiladiki, buni pedagogik qobiliyat deb atash mumkin.

O'qituvchilik faoliyati inson shaxsini shakllantirishga qaratilgandir. O'qituvchining barkamol insonni tarbiyalash, unda milliy va umuminsoniy fazilatlarini tarkib toptirish, yuksak va shu bilan birga eng murakkab vazifadir. O'qituvchi (pedagog, muallim, ustoz) – maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan va pedagogik faoliyat bilan (professional) shugullanuvchi inson. O'qituvchilik kasbini tanlagan inson hamma narsani biladi va hamma narsaga javobgar. O'qituvchilik vazifasi uning har bir o'sib kelayotgan avlod, jamiyat, davlat taqdiri uchun javobgarligi bilan xarakterlanadi. O'qituvchi ta'lim– tarbiya jarayonining asosiy tashkilotchisidir. O'qituvchilarning umumiy tayyorgarlik darajasi asosan o'qituvchiga, uning kasbiga, imon– e'tiqodi bilan bog'liq bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchilar tarbiyasiga oid pedagogik ishlar maxsus uyushqoqlik hamda muayyan malaka va ko'nikmalarnigina emas, balki pedagogik qobiliyatlari darajasiga taalluqli bo'lgan psixik xususiyatlari ham mavjud bo'lishi kerak.

*Qobiliyat* – shaxsning muayyan faoliyat yuzasidan layoqati va uning ishini muvaffaqiyatli bajarishdagi sub'ektiv shart – sharoitini ifodalovchi individual psixik xususiyatlaridir. O'qituvchining kasbiy faoliyati favqulotda umumiy va

xususiy qobiliyatlarni talab etadi. Kasbiy pedagogik faoliyatning muaffaqiyati, xususiy pedagogik qobiliyatlarga bogʻliq boʻladi. Pedagogik qobiliyatlarning quyidagi guruhlari farqlanadi :

- Oʻquvchiga nisbatan sezgirlik;
- Kommunikativlik – insonlarga yuz tutish, xayrixoxlik, xushmuomilalik;
- Perseptiv qobiliyatlar – kasbiy yetuklik, empatiya, pedagogik tuygʻu;
- Shaxs dinamikasi – irodaga taʼsir eta olish va mantiqiy ishonтира olish qobiliyati;
- Xissiy barqarorlik – oʻzini boshqara olish;
- Kreativlik – ijodiy ish qobiliyati.

Pedagogning xususiy qobiliyatlariga bilish, malaka va koʻnikmalarini egallash faoliyati va shaxsni tarbiyalash qobiliyati ham tegishlidir.

***Oʻqitish, oʻrganish va oʻrgatish boʻyicha qobiliyatlariga quyidagilar kiradi:***

- Oʻquvchini tushunishini koʻrish va sezish hamda bunday tushinishning darajasini va xarakterini oʻrganish qobiliyati;
- Oʻquv materialini mustaqil tanlab olish hamda oʻqitishning samara beruvchi usul va metodlarini belgilash qobiliyati;
- Materialni yetarli bayon qilish hamda uning barcha talabalarga tushunarligini taʼminlash qobiliyati;
- Talabalarining individualligini hisobga olgan holda oʻqitish jarayonini tashkil etish qobiliyati;
- Oʻqitish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish qobiliyati;
- Oʻquvchilaning katta odimlar bilan rivojlanishini tashkil etish qobiliyati;
- Oʻzining pedagogik mahoratini takomillashtirish qobiliyati;
- Mustaqil taʼlim olish va mustaqil takomillashish qobiliyati.

***Pedagogik jarayonga qaratilgan pedagogik qobiliyatlarga quyidagilar kiradi:***

- Boshqa insonning ichki holatini toʻgʻri baholash, unga hamdardlik bildirish, hamnafas boʻla olish qobiliyati (empatiya qobiliyati) ;
- Taqlid qilish uchun namuna boʻlish qobiliyati;
- Tarbiya jarayonida individual xususiyatlarini inobatga olish qobiliyati;

– Muloqatning lozim topilgan uslubini hamda o'z o'rnini toppish, kelisha olish qobiliyati;

– Hurmat qozonish, ya'ni talabalar o'rtasida obro'ga ega bo'lish qobiliyati.

*Pedagogik qobiliyatlar ichida pedagogik muloqatga bo'lgan qobiliyat alohida ajralib turadi .*

O'qituvchining talabalar bilan davomiy va samarali aloqalarini tashkil etishni kommunikativ qobiliyat bilan bog'laydilar.

Kommunikativ qobiliyat – bu pedagogik o'zaro aloqalar doirasida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladigan muloqat qobiliyatidir.

Hozirgi jamiyatimizda o'qituvchining mustaqil ravishda bilimlarni egallab, o'z malakasini oshirib borishi – bir tomondan o'qituvchilik faoliyatining borgan sari naqadar muvaffaqiyatli borayotganligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan muhim vazifa ekanligidan dalolat beradi – chunki bu kechiktirib bo'lmas jarayon shaxsni intellektual qashshoqlikdan qutqarib qoladi. Psixologik nuqtai nazardan o'qituvchi doimiy ravishda o'z bilimlarini oshirishi bilan shug'ullanishi zarurdir. Chunki o'qituvchilik mehnatining asosiy xususiyati ham shudir. Pedagog hamma vaqt odamlar orasida bo'larkan, u odamlarni ko'pdan beri qiziqtirib kelayotgan haqiqatni o'z qarashlari bo'yicha to'g'ri tushuntirib berishi lozim.

### **Pedagogik ta'sir ko'rsatish – kommunikativ qobiliyatning asosiy usuli sifatida**

Pedagogik ta'sir ko'rsatish – tarbiyalanuvchiga ongli intizom va mustakil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilish, tarbiyani ma'lum bir maqsadga muvofiq takomillashtirish uchun shaxsga muntazam va tizimli ta'sir ko'rsatish, jamiyatning ijtimoiy–tarixiy tajribalariga yondashib shaxsni har tomonlama kamol toptirish, uning xulq–atvori va dunyoqarashini takomillashtirish, yosh avlodni muayyan maqsad asosida tarbiyalash, ijtimoiy ong va xulq–atvorni xalqimizning boy mafkuralari asosida shakllantirishga yo'naltirilgan faoliyat jarayonidir. Pedagogik ta'sir ko'rsatish asosida tarbiyalanuvchining ongi shakllanadi, ma'naviy boyligi va



his-tuyg'ulari rivojlanadi, unda ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo'ladi. Ta'lim va tarbiya jarayonida o'qituvchi tomonidan pedagogik ta'sir ko'rsatishning asosiy usullariga: talab, istiqbol, jamoatchilik fikri, rag'batlantirish va jazolash kabilar kiradi.

***Pedagogik munosabatda muvaffaqiyatlarga erishish uchun o'qituvchi:***

- o'quvchilar bilan bo'lajak munosabatni modellashtira olishi;
- munosabatda bo'ladigan sinf jamoasi xususiyatlarini oldindan bilishi;
- bevosita samimiy va hamjihatlikka asoslangan munosabat o'rnatish;
- munosabatda ustunlikka ega bo'lib, uni demokratik talablar asosida oqilona boshqarish;
- munosabatning ijobiy va salbiy jihatlarini uzluksiz taxlil etib borishi lozim.

Ijtimoiy – psixologik tekshiruvchilar pedagogik muloqot malakasida ikkita asosiy kommunikativ ta'sir etish turlarini ajratadilar: ishonch hosil qilish va ishontirish. Pedagogning har bir harakati tarbiyalanuvchining munosabatlari, fikrlari, hissiyotlari, faoliyatlarini shakllantirishga, ya'ni ularning psixikasi va xulqiga har tomonlama ta'sir etishga qaratiladi. Lekin ishonch hosil qilish va ishontirishning psixologik jarayoni turlichadir. Ta'sir etishning har bir yo'li o'z spesifik xarakteriga ega. Ishonch hosil qilish yangi qarashlar, munosabatlarni shakllantiradi, noto'g'ri qarashlar va munosabatlarni o'zgartiradi. Ishonch hosil qilish shakllariga: disputlar, diskussiya, suhbat, o'qituvchi himoyasi, shaxsiy namuna kiradi.

Ishonch hosil qilishda o'zaro ta'sir qilish metodi sifatida maksimal ta'sirli bo'lishi uchun, u bir qancha shartlarga rioya qilish kerak:

- ishonchning mazmuni va shakli bolalarning yosh xususiyatlariga mosligi;
- ishonch hosil qilish tarbiyalanuvchining shaxsiy dunyoqarashiga mosligi;
- tarbiyachi bolalarda ishonch hosil qilishda avvalo o'zi shu narsaga nisbatan ishonch hosil qilishi.

Ishonch hosil qilishning natijasi o'qituvchining so'zlari va harakatlariga ham bog'liq. Tarbiyachining so'zi va harakatlari bir – biriga mos tushishi

kerak. Masalan, tarbiyachi jahl ustida bolaga qattiq jazo berishini aytadi, lekin esidan chiqib ketadi. Yoki biror nima va'da qilib, o'z so'zining ustida turmaydi. Bolalar bunday pedagogning so'zlariga ahamiyat bermay qo'yadilar. Yanayam yomoni. agar o'qituvchi balandparvoz, to'g'ri so'zlarni gapirsa – yu, lekin kundalik hayotida bunga amal qilmasa bunday o'qituvchilar jamiyatga zarar etkazadilar. Ishontirishning yuqori effekti o'quvchilarning olgan bilimlarining mustahkamlaydigan mashqlari (ruhini tetiklash, to'g'ri xulq hosil qilish) orqali hosil bo'ladi. Ishontirishning usulini boshqatdan tarbiyalash, ya'ni qarash va muomalarni hosil qilish maqsadida qo'llash mumkin. Isbotlash shaxs dunyoqrashining etakchi struktura elementi bo'lib, ishontirishning o'zagi bo'lgan bilmilar hisoblanadi. Isbot orqali bilim egallayotgan o'quvchida unga to'g'ri kelmaydigan hamma ishontirishni qattiqqo'llik, isbotlash yo'li bilan qaytara olish qobiliyati rivojlanadi. Pedagogik ta'sir qilish usuli bo'lgan ishontirish bilan birga pedagogik jarayonda ta'sir etish ham o'ziga xos o'rniga ega. Ta'sir etish – odamlarning ish va muomala jarayonida bog'liqlikni belgilaydigan vositalarning biri. Uning asosiy o'ziga xosligi shundaki, u odamning psixikasiga va xarakteriga o'zi bilmagan holda ta'sir qiladi, shaxsning psixika strukturasi nazoratsiz holatda kirib, kundalik ishi, xarakterida ko'rinadi.

### **Pedagogik muloqotni tashkil etish yo'llari**

Ta'kidlash joizki, o'qituvchining pedagogik faoliyatida o'quvchilar bilan olib boradigan muloqoti muhim ta'lim–tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Bu pedagogik muloqotning butun tizimida uning ma'naviy mazmundorligini oshirishni talab etadi, zero aynan pedagogik muloqot, ta'lim – tarbiyaning ma'naviy asoslarini shakllantirishga qaratilgan.

Ijtimoiy psixologik. tarbiyaviy va ma'naviy vazifalarning murakkabligi o'qituvchining kommunikativ faoliyatiga yuksak talablarni qo'yadi.

O'qituvchi kasbiy faoliyatida yuksak pedagogik va psixologik natijalarga erishishi uchun, ko'p yillik nazariy va amaliy tajribalar asosida tadqiqotchi olimlar

tomonidan taklif etilgan muloqotning quyidagi yoʻnalishlaridan foydalanish tavsiya etiladi:

1. **Prognostik yoʻnalish.** Oʻqituvchining muloqotga bevosita tayyorgarlik jarayonida oʻquvchilar bilan boʻlajak har qanday muloqot turini modellashtirish.
2. **Muloqotning boshlangʻich yoʻnalishi.** Oʻquvchilar bilan dastlabki muloqotni tashkil etish jarayonidayoq bevosita oʻzaro taʼsir metodlaridan foydalanib, tashabbuskorlikni qoʻlga olish.
3. **Muloqotning uchinchi yoʻnalishi.** Tobora takomillashib, rivojlanib borayotgan pedagogik faoliyatda muloqotning turli texnologik shakllaridan unumli foydalanish va uni boshqarish.
4. **Muloqotning toʻrtinchi yoʻnalishi.** Keyingi pedagogik faoliyat uchun olib boriladigan muloqot tizimini modellashtirish va muloqotning amalga oshirilgan tizimini doimiy taxlil qilib borish.

Pedagogik taʼsir koʻrsatish vazifalari va vositalari hamda oʻqituvchining oʻquvchilar bilan pedagogik muloqoti quyidagi koʻrinishlarda namoyon boʻladi:

- Kommunikativ muloqot
- Interaktiv muloqot
- Perseptiv muloqot.

1. **Kommunikativ** muloqotda bir tomonlama axborot uzatiladi. Muomala oʻz ichiga hamkorlik faoliyatining qatnashchilari bilan oʻzaro axborot almashuvini qamrab olgan boʻlib, kommunikativ muloqot sifatida tavsiflanishi mumkin. Uqituvchi va oʻquvchi bir-birlari bilan muloqotga kirishishi jarayonida muloqotning muhim vositalari boʻlmish til va nutq faoliyati bevosita muhim ahamiyat kasb etadi.

2. **Interaktiv** muloqotning muhim jihati ikki tomonlama bir-biriga taʼsir etishdir. Muloqotga kirishuvchi oʻqituvchi oʻzaro taʼsir etishda, ularning tarbiyaviy faoliyatiga nafaqat soʻz orqali, balki fikr almashinuv, xatti-harakat va xulq-atvori bilan oʻzaro taʼsir oʻtkazishi tushuniladi.

3. *Perseptiv* muloqotda o'qituvchi va o'quvchilar jamoasi o'zaro bir-birlarini idrok kilishi, anglashi tushuniladi.

4. Bunda muloqotda kirishuvchilar o'zaro bir-birlarini idrok qilish asosida ulardan biri ikkinchisining ishonchini qozonadi, aqlli, farosatli, tajribali, yuksak tayyorgarlikka ega barkamol shahs sifatida idrok qilinadi.

Muloqotning har uchala tomonini yaxlit olib qaraganda o'zaro xamkorlik faoliyatini tashkil qilishning usullari va unda ishtirok etuvchilarning munosabatlari yaqqol namoyon bo'ladi.

Pedagogik muloqot muvaffaqiyatli tashkil etilishi uchun, o'qituvchi o'quvchilar bilan xamkorlik faoliyatiga chuqur kirishib keta olishi, shahsni har tomonlama shakllantirishning maqsad va vazifalarini chuqur anglab, faoliyat olib borishi lozim.

Jonli muloqot - o'qituvchi tomonidan tashkil etiladigan, har qanday ta'lim-tarbiyaviy tadbir mohiyatini og'zaki so'z bilan o'quvchilarga yetkazadigan, ziddiyatli jarayonlardan olib chiqish qudratiga ega bo'lgan faoliyatdir.

O'qituvchi pedagogik mahoratida mujassamlashgan nutqning jozibadorligi, bilim saviyasining va tafakkurining kengligi, o'tkir dunyoqarashi, ma'naviy madaniyat darajasi, pedagogik qobiliyati, ta'lim-tarbiyaviy maqsadlarning mutanosibliigi har qanday dars va darsdan tashqari ta'lim-tarbiyaviy tadbirning muvaffaqiyatini ta'minlovchi hamda o'qituvchi jonli muloqotini tashkil etuvchi omillardir. O'qituvchi kasbiy faoliyatidagi jonli muloqot qobiliyatini takomillashtirish uchun o'z oldiga doimo quyidagi savollarni qo'yib, unga mustaqil fikr-mulohazasi asosida javob bera olishi kerak.

O'qituvchining muloqot usullari. Avtoritar usulda faoliyat olib boradigan o'qituvchi ish faoliyati xarakterida quyidagi xususiyatlar mujassamlashgan bo'ladi:

- o'zi yakka holda guruh faoliyatining yo'nalishlarini belgilaydi;
- ta'lim-tarbiyaviy jarayonga javobgarlikni o'z zimmasiga oladi;
- o'quvchilarning unga so'zsiz bo'ysunishini da'vo qiladi;
- qattiq intizom asosida ish olib boradi;
- topshiriqlarning to'liq bajarilishini talab qiladi;

- gap qaytargan, fikr bildirgan o'quvchini yoqirtmaydi;
- o'quvchilarga biror muammoni to'liq tushuntirmasdan talab qiladi.

Demokratik usul asosida faoliyat olib boradigan o'qituvchining bosh shiori o'quvchilarda mustaqil va erkin fikr yuritish ko'nikmalarini va ongli intizomni hosil qilishdan iborat. O'qituvchining muloqoti barcha demokratik talablar asosida quriladi.

Liberal usul asosida faoliyat olib boruvchi o'qituvchi xususiyatlariga sho'rolar zamonidan qolgan talim–tarbiya tizimga xos mafkuraviy qarashlar mujassamlashgan. O'qituvchining pedagogik faoliyati va xarakterida quyidagi xususiyatlar mavjud:

- tashabbusiz, eski qolipda pedagogik faoliyat olib boradi;
- ta'lim–arbiyaga oid muammolarga yuzaki qarab chiqadi;
- o'z mustaqil fikriga ega emas, javobgarlikdan o'zini olib qochadi;
- o'quvchilarga berilgan topshiriqlarning natijalari bilan qiziqmaydi;
- o'quvchilar kelajagiga, takdiriga e'tiborsiz, beg'am qaraydi;
- o'z pedagogik faoliyatiga sovuqqonlik bilan munosabatda bo'ladi.

### **Pedagogik texnika**

Hozirgi zamon pedagogika fani o'qituvchining pedagogik mahorat tizimida pedagogik texnikaning ro'li beqiyos deb biladi. Chunki u o'qituvchiga o'z gavdasini tuta bilish (mimika, pantomimika) his – tuyg'ularini (emotsiyasini) boshqara olish, ishtiyiq, qobiliyatlar, nutq texnikasini egallash va ularni o'quv faoliyatida, o'qishdan tashqari ishlar jarayonida qo'llash yo'llarini tushuntiradi.

O'qituvchining pedagogik texnikasi tizimida mimik, pantomimik ifodalar ham muhim o'rin tutadi. Pedagogning mimik va pantomimik ifodasi, o'qituvchining imo – ishorasida, ma'noli qarashlarida, rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassumida namoyon bo'ladi va ular o'qituvchi, tarbiyachining pedagogik ta'sir ko'rsatishida, o'quvchi mashg'ulotlarini samarali va mazmunli o'tishi uchun puxta zamin yaratib beradi.

*Mimika*-bu o'z fikrlari, kayfiyati,holati, hissiyotini yuz muskullarining harakati bilan bayon qilish san'atidir. Ba'zan yuzning va nigohning ifodasi o'quvchilarga katta ta'sir ko'rsatadi. Mimik harakatlar, ifodalar ma'lumotlarning hissiy ahamiyatini kuchaytirib, ularni chuqur o'zlashtirish imkonini beradi. O'quvchilar o'qituvchiga qarab uning kayfiyatini, munosabatini " o'qib" oladilar. Shuning uchun uydagi ba'zi noxushliklar o'quvchi mashg'ulotlariga o'z ta'sirini ko'rsatmasligi kerak. Yuz ifodasida, mimik belgilarida faqat dars mashg'ulotlariga o'z ta'sirini ko'rsatmasligi kerak. Yuz ifodasida, mimik belgilarga faqat dars mashg'ulotlariga xos bo'lgan, o'quvchi tarbiya topshiriqlarini yechishga yordam bera oladigan ko'rinishlarni ifodalashi lozim. Yuz ifodasi, nutq , munosabat xarakteriga mos bo'lishi kerak.U ishonch, ma'qullash, ta'qiqlash, norozilik, quvonch, faxrlanish, qiziquvchanlik, befarqlik, ikkilanish kabi xususiyatlarni ifodalashi mumkin. Mimik ifodaning asosiy detali sifatida qosh, ko'z, yuz ko'rinishi ishtirok etadi. Ko'z, qosh, yuz o'quvchilar javobidan qoniqish, xursand bo'lish, faxrlanish yoki e'tirof, norozilik, qoniqmaslik, hafa bo'lish va boshqa belgilarni ifodalasa o'qituvchilar diqqatini bo'lmasdan. boshqalarga halaqit bermasdan o'quvchi-tarbiya ishlarini olib borishga yordam beradi. Shuni ham alohida qayd qilib o'tish joizki, mimik ifodalar namoyish qilinayotgan paytda o'qituvchining nigohi o'quvchilarga, yoki ayrim o'quvchiga qaratilgan bo'lishi zarur. Doskaga, eshikka, derazaga, ko'rgazma qurollarga yoki devorga nigoh tashlab mimik ifodalarni namoyish qilishdan qochish lozim.

*Pantomimika* – bu gavda, qo'l, oyoq harakatidir.O'qituvchi darsda o'quvchi ma'lumotlarini bayon qilar ekan, gavda holati orqali ma'lumotlarning obrazini chiza olsa, o'quvchilar bundan zavqlanadilar, ichki his – tuyg'ulari, tashqi hissiyotlari bilan qo'shilib butun borliq materiallar mazmunini o'zlashtirishga qaratiladi.Gavdani rost tutib yura bilish, fikrlarini aniq va to'liq bayon qila turib qo'l, boshni turli harakatlarda ifodalash o'qituvchining o'z bilimiga, kuchiga ishonchini bildiradi. Shuning uchun o'qituvchi o'quvchilar oldida o'zini tuta bilish xolatini tarbiyalash lozim ( oyoqlari 12-15 sm. kenglikda, bir oyoq sal oldinga

surilgan holda turish). O'qituvchining harakatlari ma'noli, ortiqcha harakatlardan xoli bo'lmog'i darkor.

Masalan: keraksiz xollarda qo'llari bilan imo – ishoralar qilish, boshini uyoq – buyoqqa tashlash va h.k. Bunday xolatlar o'quvchilarning g'ashini keltiradi va o'quvchi predmetiga, o'qituvchiga nisbatan hurmatsizlik his-tuyg'ularini uyg'otadi.

O'qituvchi sinfda yurgan paytida faqat oldin va orqaga yurishi tavsiya qilinadi. U yondan, bu yonga yurish o'quvchilar fikrini bo'ladi. Old tomonga yurayotganida o'qituvchi muhim voqealarni bayon qilishi lozim, chunki bunda o'quvchilar o'qituvchini butun diqqatlari bilan eshitayotgan bo'ladilar. Orqa tomonga qarab yurayotganda uncha ahamiyatga molik bo'lmagan fikrlar aytilsa ham bo'ladi. Chunki bu vaqtda o'quvchilar bir oz erkin holatda bo'ladilar.

O'qituvchining o'z xatti-harakatini idora qilishi tizimida o'z hissiy (psixik) holatini boshqara olishi muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi ta'sir ko'rsatish vaqtida (darsda, darsdan tashqari mashg'ulotlar paytida, tarbiyaviy ishlar jarayonida) o'z hissiyotini boshqara olishi, jiddiy bo'lishi, umidbaxshlik, hayrixohlik kayfiyatda bo'la olish qobiliyatlarga ega bo'lishi zarur. Bir adib aytganidek, "Tarbiyachi tashkil etishni, yurishni, hazillashishni, quvnoq, jahldor bo'lishini bilishi lozim, u o'zini shunday tutishi kerakki, uning har bir harakati tarbiyalasin" va o'qitsin. Bunday malakaga ega bo'lgan pedagog o'z-o'zini nazorat qila oladi, ko'p yillik faoliyati davomida sog'lom asab tizimini o'zida tarbiyalab asabiylashishdan, hissiy va aqliy zo'riqishlardan o'zini saqlay oladi. O'z xatti – harakatini, hissiy holatini nazorat qilishda pedagog o'zida quyidagilarni shakllantirish lozim:

- o'z hulqini nazorat qilish, (muskul zo'riqishini, harakati, nutq tempi, nafasolishini tartibga solish):
- faoliyatni dam oldirish, ya'ni lirik, musiqaviy, yumoristik, jismoniy pauzalarni yaratish:
- o'z – o'ziga salbiy ta'sir ko'rsatish va hakoza.

O'qitish samaradorligini oshirish va ijobiy tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish uchun o'qituvchi aktyorlik va rejissorlik malakalariga ham ega bo'lishi lozim. Ma'lum mavzular, obrazlar, tarixiy qaxramonlarni xarakterlayotganda aktyorlik,

O'quvchilarda ushbu xususiyatlarni tarbiyalashda esa rejissyorlik malakalari zarur. Yuqorida qayd qilib o'tilgan kasbkorlik malakalari o'qituvchining o'quv va maxsus fanlar bo'yicha bilimlari, pedagogik mahoratni egallashga intilish, o'z kasbiga qiziqish va burch, hamda ma'suliyatni his qilish asosida egallanadi. Va ular yoshlarni o'qitish, tarbiyalash, tashkil qilish, targ'ibot qilish, mustaqil bilim olish ishlariga yordam beradi. Masalan, nutq texnikasini, his – tuyg'u, mimik, pantomimik malakalari bilan qo'shib olganda amalga oshirish bunda so'z, gap ohangi, qarash, imo – ishora bilan, kutilmagan pedagogik vaziyatda osoyishtalik bilan aniq fikr yuritish, taxlil qilish qobiliyatiga asoslansa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu xususiyatlar pedagogning individual psixik fiziologik fazilatlarini asosida tarkib topadi. Individual pedagogik texnika o'qituvchining yoshi, jinsi, mijoz, fe'l – atvori, sihat – salomatligi va anatomik – fiziologik xususiyatiga bog'liqdir. Shunday qilib, o'qituvchi – tarbiyachi o'zida yuqoridagi malakalarni tarbiyalasa, ularning mazmunini chuqur o'zlashtirsa pedagogik texnikani egallashning imkoni bo'ladi va u o'qituvchini pedagogik mahorat sari yetaklaydi.

### **Pedagogik texnikani egallash yo'llari**

Pedagogik texnikani egallash uchun avvalo, o'qituvchi o'z fanini, o'qitadigan predmetini, pedagogika, psixologiya fanlarini davr taraqqiyoti darajasida bilishi. kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalay oladigan bo'lishi zarur. Chunki pedagogik texnika individual kasbiy xususiyatga ega. Birinchidan har bir o'qituvchi, har bir tarbiyachi o'zining kasbiy yo'nalishiga ega. Bu yo'nalish o'qituvchini mustaqil fikr yuritish, mustaqil ijod qila olish orqali qo'lga kiritiladi va mohir o'qituvchiga xos fazilatlarini tarbiyalaydi.

Ikkinchidan pedagogik texnikani tashkiliy– metodik malakalarni egallashga bog'liq. Bu malakalar zarur bilimlar bo'yicha ma'ruzalarni tinglash, maxsus adabiyotlarni o'qish orqali qo'lga kiritiladi. Tashkiliy-metodik malakalar aytilgan yo'l – yo'riqlar, ko'rsatmalarni o'zining individual kasbiy tajribasida sinab ko'nikma hosil qilinsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Tashkiliy-metodik malakalarning individual xususiyatlari, jamoa va guruh bo'lib ishlash, o'qish, faoliyat ko'rsatish



asosida qurilgani ma'qul. Chunki guruh yoki jamoa bo'lib o'qish, ishlash har bir pedagogga o'zini boshqalar ko'zi bilan ko'rishni, faoliyatidagi nuqsonlarni seza bilishni, muomala va hulq-atvorning yangi shakllarni izlab topish va sinash imkonini beradi. Bu esa o'z-o'zini bilish, o'z – o'zini tarbiyalash uchun asos bo'ladi, va pedagogik vazifalarning yangi usullarini tekshirib ko'rish, nazariy masalalarini hal qilish uchun tajriba maydoni bo'lib qoladi. Demak, tashkiliy-metodik malakalarni egallashda guruh, jamoa faoliyati, mashg'ulotlari pedagogik texnika asoslarini egallash imkonini beradi.

Uchunchidan pedagogik texnikani egallagan – har bir pedagog individual dasturini ishlab chiqmog' lozim. Bunday dasturni tuzishdan oldin pedagogik texnika malakalarini shakllanganligining boshlang'ich darajasini aniqlab olish zarur. Ya'ni pedagogning dastlabki o'quv–tarbiya ishlaridagi natija, nutq madaniyatining to'g'ri yoki noto'g'ri qo'yilishi, mimik va pantomimik aniqliklar va h. k.

Bunda natija yaxshi bo'lsa, kelajakda pedagogik texnikani egallash ancha oson bo'ladi. Chunki ushbu ko'nikma va malakalar rivojlantiradi. Individual dastur pedagogik texnika malakalarining yetishmaydiganini to'ldirish uchun xizmat qiladi. Bu dastur ma'lum mashqlar yoki mashqlar majmuini o'z ichiga oladi. Shuni ham unutmaslik lozimki, pedagogik jarayonda pedagogning umumiy madaniyati, ma'naviy va estetik dunyoqarashi muhim o'rin tutadi. Agar o'qituvchining nutqi qashshoq, so'zlarni talaffuz qilish qobiliyatli past, estetik jihatdan omil, bo'lar bo'lmasga hissiyotiga erk beradigan bo'lsa tarbiyalanuvchilarning e'tiqodiga, aql-idrokiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, o'qituvchi o'zidagi ana shu nuqsonlarni qayta tarbiyalashi lozim ekan. Bu pedagogik texnikani egallashning to'rtinchi yo'lidir. Shunday qilib, pedagogik texnika, uning malakalari, egallash yo'llari to'g'risida bildirgan fikrlarga e'tibor bermaslik, pedagogik faoliyat jarayonida ularning roliga yetarli baho bermaslik, shuningdek pedagogik texnika malakalarini tanqidiy, har bir pedagogning individual xususiyatlarini hisobga olmay ish yuritish pedagogik mahoratni egallashga salbiy ta'sir ko'rsatadi va o'quv– tarbiya ishidagi nuqsonlarning ko'payishiga olib keladi. Pedagogik texnikani egallashning asosiy yo'llari o'qituvchi rahbarligidagi mashg'ulotlar (pedagogik texnikani o'rganish) va

mustaqil ishlash (kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash) dir. Pedagogik texnika malakalarining individual – kasbiy tusda ekanligini hisobga olib, pedagogik texnikani egallashda va uni takomillashtirishda kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalash, ya'ni mohir o'qituvchi kasbiy fazilatlarini va kasbiy malakalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyat yetakchi ro'l o'ynaydi, deb aytish mumkin. Tashkiliy – metodik jihatdan pedagogik texnika mashg'ulotlari individual, gruppaviy yoki ketma–ketlikda o'tkazilishi mumkin. Pedagogik texnika malakalarini shakllantirishda gruppaviy ish olib borish alohida rol uynaydi. Pedagogik texnika mashg'ulotlarining bu shaklini ancha batafsilroq ochib berish maqsadga muvofiqdir, chunki u hozirga qadar o'qituvchilar uchun mo'ljallangan o'quv va metodik adabiyotlarda lozim darajada ko'rsatib berilmagan. Xuddi shunday ishda pedagog oldida o'zini boshqa kishilar ko'zi bilan ko'rish, hulq–atvor va muomalaning yangi shakllarini izlash va sinab ko'rish, o'zining odamlar bilan birga qiladigan ishi xususiyatlarini anglash va kasbiy faoliyatining individual uslubini ongli ravishda shakllantirish imkoniyati paydo bo'ladi.

Psixologlarning pedagogik texnikani guruh bo'lib o'rgatish rahbarlarining tajriba ishida bunday guruhlarining eng qulay miqdori 10–14 kishidan iborat bo'lishi belgilab berilgan. Qatnashchilarning xuddi shunday miqdori ulardan har biriga boshqa kishilar bilan birga ishlashning individual psixologik muammolarini juda to'liq ravishda aniqlab, hal etish, refleksiya va empatiya darajasini jiddiy oshirish, pedagogik fahm – farosatni rivojlantirish, boshqalarga ta'sir etish vositalarini kengaytirish imkonini beradi. Shu narsa muhimki, guruh qatnashchilari, bo'lajak pedagoglar kasbiy jihatdan birga ishlash malakalarini egallashga faol intilishlari, o'z – o'zini bilish va kasbiy jihatdan o'z – o'zini tarbiyalash bo'yicha chuqur ish olib borishga, psixologik jihatdan tayyor bo'lishlari kerak. Barcha xollarda ham individual, ham guruhviy mashg'ulotlar boshlanishidan oldin pedagogik texnikani egallashning individual dasturi tuzib chiqilishi lozim. Biroq, tajribaning ko'rsatishicha, odatda, mazkur bosqichda faqat malakalar haqidagina emas, shu bilan birga dastlab avtomatlashtirilgan (ta'limni boshlash vaqtiga kelib) ko'nikmalar haqida ham borishi mumkin ekan. Bular, masalan, nafas olish va ovozning tabiiy

yo'lga qo'yilishi, to'g'ri talaffuz, bundan oldingi tarbiyaning natijasi bo'lgan savodli, ifodali nutq, mimik va pantomimik aniqlik va boshqalar bo'lishi mumkin. Bunday ko'nikmalarning mavjudligi pedagogik texnika malakalarini shakllantirishni ancha osonlashtiradi. Shunga qaramasdan barcha xollarda ana shu ko'nikmalarni tegishli malakalar tarkibiga kiritish yuzasidan muayyan ish olib borilishi zarur. Pedagogik texnika malakalarini shakllantirishniig boshlang'ich darajasiga qarab uni egallashning individual dasturi yetishmaydigan malakalarni shakllantirishga qaratilgai ayrim mashqlarni yoki mashqlarning to'liq majmuini o'z ichiga oladi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Pedagogik mahorat fani va uning o'qituvchi faoliyatidagi o'rni va ahamiyati.
2. O'qituvchi faoliyatidagi pedagogik qobiliyatlar. Pedagogik qobiliyatning asosiy turlariga ta'rif bering.
3. Pedagogik texnika deganda nimani tushunasiz va uni egallash yo'llari.
4. Kommunikativ qobiliyatga ta'rif bering.
5. Sharq mutafakkirlari Al Xorazmiy, Abu Nosr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiyning ijodiy merosida mudarrislarni tanlash, ularga qo'yiladigan talablar, ularning mahorati, muloqoti va muomala madaniyati munosabatga kirishish mahorati, ularni egallashga qo'yiladigan talablar haqidagi fikrlingiz.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi Toshkent, 1992y.
2. O`zbekiston Respublikasining «Ta`lim to`g`risida» gi Qonuni.T, 1997y.
3. O`zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi».T.,1997y.
4. I.A. Karimov. O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T., O`zbekiston. 2011 y.
5. I.A. Karimov. “Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch”. T., “Ma`naviyat”. 2008 y.
6. I.A. Karimov. “Jahon moliyaviy–iqtisodiy inqirozi “O`zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo`llari va choralari”. T., O`zbekiston. 2009 y.
7. I.A. Karimov. Barkamol avlod orzusi. Toshkent: Sharq, 1997y.
8. I.A. Karimov. O`zbekiston XXI asr bo`sg`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., O`zbekiston, 1997.
9. Milliy istiqlol g`oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T.,O`zbekiston, 2000 y.
10. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shaxri. T., Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993 y.
11. Abdulla Avloniy.Turkiy Guliston yoxud axloq. f., 1996 y.
12. Abu Rayhon Beruniy. Hikmatlar.T.,Yosh gvardiya, 1973 y.
13. A.Xoliqov. Pedagogik mahorat. T., Iqtisod-moliya. 2010 y.
14. J.Tulenov, Z.G`ofurov. Falsafa. T., O`qituvchi. 1997 y.
15. A.Minvarov. Pedagogika. T., O`qituvchi 1996 y.
16. R.Mavlonova, O.To`rayeva., K.Xoliqberdiyev. Pedagogika. O`qituvchi. 2008 y.
17. R.Mavlonova, N.Raxmankulova, N.Vohidova. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik. T., Fan va texnologiyalar. 2010 y.
18. R.Mavlonova,N.Raxmonqulova.Boshlang`ich ta`limning integratsiyalashgan pedagogikasi. T., 2009 y.
19. R.Mavlonova, N.Raxmonqulova. Boshlang`ich ta`lim innovatsiyasi. T., 2007 y.

20. J.Yo`ldoshev va F.Yo`ldosheva, G.Yo`ldosheva. Interfaol ta`lim sifat kafolati. T., 2009.
21. J.Xasanboyev, H.Sariboyev. G.Niyozov.O.Hasanboyeva. M.Usmonboyeva. Pedagogika. O`quv qo`llanma. Fan. 2006 y.
22. M.Inomova. Oilada bolalarning ma`naviy-axloqiy tarbiyasi. T., 1999 y.
23. A. To`xtayev. Ekologiya. T., O`qituvchi. 1998 y.
24. S. Jo`raqulov.Pedagogik mahorat. Toshkent; 2008y
25. A.Kosimov, F. Xolikova. Pedagogik maxorat va pedagogik texnologiyalar Toshkent 2004y
26. M.Axmedjonov,B.Xo`jaev.Z.Hasanova. Pedagogik mahorat.Buxoro; 2008y.
27. O.Suvonov, S.Astanova. Pedagogik mahoratGuliston – 2010y.
28. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz).
29. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).
30. [www.didaktika.ru](http://www.didaktika.ru)

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b> .....	<b>3</b>
---------------------	----------

### I QISM

<b>I BOB. UMUMIY PEDAGOGIKA</b> .....	<b>4</b>
Pedagogika fanining predmeti va bahsi.....	4
Tarbiyaning ijtimoiy hodisa ekanligi.....	4
Pedagogika tarbiya haqidagi fan.....	5
Asosiy pedagogik tushunchalar.....	6
Pedagogika fanining tuzilishi va uning boshqa fanlar bilan bog`liqligi amalda joriy etiladi.....	7
Pedagogikaning ilmiytadqiqot metodi.....	9
Adabiyotlar bilan ishlash metodi.....	9
Ilg`or tajribalarni o`rganish metodi.....	9
<b>II BOB.BOLA SHAXSINING RIVOJLANISHI, TARBIYASI VA KAMOLATI</b> .....	<b>12</b>
Shaxs rivojlanishiga ta`sir etuvchi omillar.....	12
Inson kamoloti va shaxsning rivojlanishida muhitning roli.....	13
Shaxsning kamol topishida tarbiyaning o`rni.....	14

### II QISM

<b>III. BOB. DIDAKTIKA- TA`LIM NAZARIYASI</b> .....	<b>17</b>
Didaktikaning predmeti va uning vazifalari.....	17
Didaktikaning asosiy kategoriyalari.....	22
<b>IV BOB. TA`LIM MAZMUNI VA TEXNOLOGIYASI</b> .....	<b>29</b>
Ta`lim texnologiyasi.....	29
Ta`lim printsiplari.....	33
Printsiplarni tanlashga umumiy yondashish.....	35
O`qitishning yetakchi printsiplari.....	35
Ilmiylik. tizimlilik va izchillik prinsipi.....	36

Ta'limning amaliy hayot bilan bog'lanish prinsipi.....	38
Ta'limda onglik va faollik prinsipi.....	41
Ko'rsatmalilik prinsipi.....	43
Tushunarlilik prinsipi.....	46
Mustahkamlik prinsipi.....	50
Ta'limni turmush bilan bog'lash prinsipi.....	54
O'qitishga individual yondashish prinsipi.....	55
<b>V BOB. O'ZBEKISTON MAKTABLARIDAGI TA'LIMNING</b>	
<b>MAZMUNI.....</b>	<b>57</b>
Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti.....	58
O'quv rejasi, dasturlari va darsliklar.....	60
Darslik va o'quv faoliyatini tashkil qilish.....	67
<b>VI BOB. O'QUV JARAYONINI TASHKIL ETISHNINGSHAKLLARI.....</b>	<b>69</b>
Ta'limda sinf–dars tizimining vujudga kelishi.....	70
Dars – maktabda o'quv ishlarini tashkil qilishning asosiy shakli.....	72
Darsga qo'yiladigan talablar.....	73
Dars tizimi strukturasi elementlari va tiplari.....	75
Darslarning tiplari.....	77
Darsga qo'yiladigan psixologik talablar.....	82
Darslarning turlari.....	86
Darsga tayyorlanish.....	87
<b>VII BOB.O'QITISH METODLARI.....</b>	<b>90</b>
O'qitish metodlarining tasnifi.....	95
O'qitishning og'zaki metodlari.....	98
O'tilgan material ustida ishlash va yangi materialni o'rganishga tayyorlanish...	100
O'qitishning induktiv va deduktiv metodlari.....	104
Reproduktiv ta'limdan amaliy ta'limga o'tish.....	106
O'qitishning amaliy metodlari.....	106
Nazariy bilimlardan foydalaniladigan mashqlar.....	109
Mashq –o'quvchilarda malakalarni shakllantirish faoliyatining asosiy turi.....	110

<b>VIII BOB. TA'LIMDA MUAMMOLI VA AHBOROT TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....</b>	<b>116</b>
Muammoli ta'lim metodlari.....	119
Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalardan foydalanish.....	121

### III QISM

<b>IX BOB. TARBIYA NAZARIYASI.....</b>	<b>126</b>
Tarbiya jarayoni.....	126
Tarbiya qoidalari.....	133
Oila tarbiyasi.....	136
Ma'naviy-axloqiy tarbiya.....	143
Huquqiy tarbiya.....	146
Iqtisodiy tarbiya.....	151
Mehnat tarbiyasi.....	154
Ekologik tarbiya.....	159
Nafosat tarbiyasi.....	167
Jismoniy tarbiya.....	174
Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar.....	179

### IV QISM

<b>X BOB. MAKTABSHUNOSLIK.....</b>	<b>184</b>
Ta'lim tizimini boshqarish.....	184
Maktab ishini boshqarish va unga rahbarlik qilish.....	193
Maktab pedagogik jamoasi.....	201

### V QISM

<b>XI BOB. PEDAGOGIKA TARIXI.....</b>	<b>206</b>
Qadimgi davrlarda madaniyat va pedagogikaning rivojlanishi.....	207
VII-IX asrlarda ta'lim – tarbiya.....	212



<b>XII BOB. SHARQ UYG'ONISH DAVRIDA ILM-FAN VA MADANIYAT.....</b>	<b>219</b>
<b>XIII BOB. TEMURIYLAR DAVRIDA MADANIYAT TA'LIM TARBIYA MASALALARI.....</b>	<b>254</b>
<b>XIV BOB. XIX ASRNING OXIRI XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONDA IJTIMOY PEDOGOGIK FIKRLAR.....</b>	<b>271</b>
Chet-el va rossiyadagi ilg'or pedogogik g'oyalar .....	277

#### IV QISM

<b>XV BOB. PEDAGOGIK MAHORAT.....</b>	<b>285</b>
Pedagogik mahorat fanining nazariy asoslari va uning o'qituvchi faoliyatidagi ahamiyati.....	285
Pedagogik fikr tarixi va maktab amaliyotida o'qituvchi mahorati.....	290
Pedagogik qobliyat, qobiliyatning pedagogik –psixologik tasnifi.....	295
Pedagogik ta'sir ko'rsatish – kommunikativ qobiliyatning asosiy usuli sifatida..	297
Pedagogik muloqotni tashkil etish yo'llari.....	299
Pedagogik texnika.....	302
Pedagogik texnikani egallash yo'llari.....	305
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	309

Adadi 30 nusxa. Hajmi 19,75 b/t.  
Nizomiy nomidagi TDPU Rizografida nashr qilindi.